



Shavkat Karimov
Memis adabiyoti tarixi



**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti**

Shavkat KARIMOV

NEMIS ADABIYOTI TARIXI

**TOSHKENT
«MUMTOZ SO'Z»
2010**

83.3(4Герм)

K25

Karimov, Sh.

Nemis adabiyoti tarixi: Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti / Sh. Karimov; ma'sul muharrir B. Ermatov; O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat Jahon tillari un-ti. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2010. – 260. b.

ББК 83.3(4Герм)Я73

Mazkur darslik universitetlar va oliy o'quv yurtlarining ixtisosligi nemis tili va adabiyoti bo'lgan fakultetlar va bo'limlari talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyot kurslari o'quv dasturlariga kiritilgan ta'lim yo'nalishining bakalavriat va magistratura talabalari, o'qituvchilar uchun dasturilamal bo'lishi mumkin.

Aksariyat yoshlar aka-uka Grimmlarning ertaklaridan sehlangan, Y.Gyote, F.Shiller, H.Hayne va boshqa ko'plab nemis shoir va adiblari ijodlaridan zavq olgan bo'lsalar ajab emas. Mazkur kitob talabalar uchun nemis adabiyoti dunyosiga ochilgan daricha vazifasini o'taydi va dunyoqarashlarini kengaytirish, bilimlarini to'ldirish, nemis xalqining fikrlash tarzi, madaniyati bilan tanishish imkonini beradi.

Mas'ul muharrir:
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Bahodir Ermatov

Taqrizchilar:
Mayns Universiteti professori (Germaniya), doctor Karl Keiner,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent Zohidjon Sodiqov

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
qoshidagi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan nashrga
tavsiya etilgan

(6-son bayonnoma, 2010-yil 10-mart)

ISBN 978-9943-363-56-4

© Karimov SH, 2010
© «MUMTOZ SO'Z», 2010

KIRISH

Chet tillari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida o'rgatilayotgan til mamlakatning adabiyoti bilan talabalarni tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chet tili o'rganish jarayonida nemis adabiyotlaridan olingan materiallarga turli jabhalarda (og'zaki va yozma nutq amaliyoti, mustaqil mutolaa, frontal o'qish, badiiy matn tahlili, yozuvchilar ijodiga murojaat va b.) murojaat etishni inobatga olinadigan bo'lsa, mazkur fanning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati namoyon bo'ladi.

Nemis adabiyoti tarixi kursi shoirlar, adiblar, kitoblar haqidagi talabalarining uzuq-yuluq tassavurlarini sistemalashtiradi, tarixiy - adabiy jarajon haqidagi bilimlarning izchil bo'lishini ta'minlaydi.

Adabiyot kursi ma'rifiy maqsadlarni nazarda tutish bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. U bo'lajak mutaxassisda yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirish bilan bir qatorda unda fuqarolik mas'uliyati, komil inson e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Demak, nemis adabiyoti maxsus mafkuraviy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy fanlar majmuasiga mansubdir.

Mazkur darslik asosan talabalarining auditoriyada tinglangan ma'ruzalarini to'ldirish va amaliy mashg'ulotlar va mustaqil mutolaa uchun mo'ljallangan. Nemis adabiyoti tarixi Germaniya, MDH va O'zbekistonda chop etilgan nemis, o'zbek va rus tillaridagi manba'lar asosida yaratilgan.

Shu paytgacha ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan guruhlarda nemis adabiyoti bo'yicha birorta darslik yoki qo'llanma yo'q edi. Shuning uchun darslikni tuzish zarurati paydo bo'ldi.

Chet tilini o'rganayotgan talabalar adabiyot kursining murakkab g'oyaviy-estetik problematikasini tushunishlarini yengillashtirish va mazkur fanni til bo'yicha praktikumga aylantirmaslik maqsadida, materiallar o'zbek tilida, qisman topshiriqlar, tavsiyalar mustaqil ish manbalari, shuningdek, adabiyotlar ro'yxatini ikki tilda (o'zbek va nemis tillarida) berishni maqsadga muvofiq deb topildi.

Bundan tashqari universitet o'quv dasturida mazkur fan bo'yicha ma'ruzalar sezilarli darajada qisqartirilgani bois o'qituvchi dars jarayonida fanning umumiy va prinsipial masalalari bilan cheklanib qolishga majbur.

Darslik nemis adabiyoti tarixi kursi bo'yicha yagona manba vazifasini o'tashga da'vogarlik qilmaydi. Mazkur ish talabalarga nemis adabiyoti tarixining ayrim davrlari bilan chuqurroq tanishish, ma'ruzalarda o'tilgan mavzularni mustahkamlashga xizmat qiladi.


Darslik, shuningdek, talabaning ilk manbalar va maxsus adabiyotlar bilan mustaqil ishlashlari uchun ko'mak beradi.

Kurs bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar va tanqidiy materiallar darslik so'nggida ilova qilinadi.

Muallif darslikni tayyorlashda nemis adabiyoti tarixi bo'yicha chiqarilgan o'quv dasturlariga suyangan holda materiallarni izchil va maqsadga muvofiq tarzda joylashtirishga harakat qildi.

Darslikda nemis adabiyoti tarixi fanining obyekti va predmeti, nemis adabiyotining ilk manbalari, qahramonlik eposlari ("Nibelunglar haqida qo'shiq", "Hildebrant qo'shig'i"), ritsarlik romanlari, byurgerlik she'riyati, maysterzang, reformatsiya adabiyoti kabi ilk manbalardan to hozirgi adabiy jarayonlargacha bo'lgan davrlar o'z ifodasini topgan.

Mazkur ishni tayyorlashda o'z maslahatlari bilan darslikni takomillashtirishga ko'maklashgan hamkasblarga muallif o'z minnatdorchiligini bildiradi.



1. ADABIYOT FANI, UNING OBYEKTI VA BOSHQA FANLAR QATORIDAGI O'RNI

1. Adabiyot tushunchasi va uning manbalardagi talqini.
2. Adabiyotning uch zaruriy tarkibiy qismi.
3. Antik davrlarda adabiyot va uning yunon manbalaridagi tahlili.
4. Adabiyotda klassisizm va unga G.E.Lessing munosabati.

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: Badiiylik, xalqchilik, klassisizm; “Laokoon”, “Hamburg dramaturgiyasi”, “Poeziya san’ati” (Bualo)

«Adabiyot» so’zi jahon fanida tor va maxsus ma’noda XVIII-XIX asrlarda paydo bo’ldi. Undan avval badiiy adabiyot ko’pincha boshqa adabiyotlardan farq etilmay, «adabiyot» termini, umuman, ko’pchilikning o’qishi uchun yaratilgan asarlar ma’nosida foydalanilar edi. Dunyodagi bir qancha xalqlar tilida “Literatur” termini bilan ifoda etilayotgan bu tushuncha aslida lotincha «litera», ya’ni «harf» so’zi asosida tuzilgandir.

O’zbek tilidagi «adabiyot» so’zi aslida «adab» so’zidan olingan bo’lib, kishilarga yaxshi xulq va umuman, hayotni to’g’ri tushunish, to’g’ri yashashni o’rgatish maqsadida yozilgan asarlar tushunilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov “Adabiyotga e’tibor ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” nomli asarida ta’kidlaganidek, “XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma’naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga biz ilgari ko’rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda adabiyotning bashariyatning ertangi kunini o’ylab odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag’rikenglikka da’vat etishga qaratilgan haroratli so’zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi”¹.

Ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha sohalari qatori xalq ma’naviyatining ko’zgusi bo’lmish badiiy ijod, xususan, badiiy adabiyot rivoji ham davlatimiz, jamiyatimizning doimiy e’tiborida bo’lib kelmoqda.

¹ Islom Karimov. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor // O’zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2009. 3-iyul.

Nazariy asarlarda qayd etilishicha, adabiyotning uchta xususiyati bor. «Adabiyot» tushunchasining ma'nosini to'raligi bilan ochib berish uchun avvalo adabiyotning bir necha muhim, eng ko'zga tashlanadigan va hamma tomonidan tan olingan xususiyatlarini ko'zdan kechirish lozim. Bu uchta xususiyatga V.G.Belinskiy tomonidan «adabiyot» terminini talqin etish munosabati bilan yozilgan «Adabiyot so'zining umumiy ma'nosi» nomli maqolasida quyidagi ta'rif berilgan: «Adabiyot doimo ommaviylikka suyanadi, o'z tasdig'ini jamiyat fikridan oladi», u «faqat bilimdonlarning ... yoki mumtoz havaskorlarning kichik doirasi e'tiboridan emas, balki butun xalqdan, eng kamida – xalqning ma'rifatli sinflarining e'tiboridan madad oladi, adabiyot butun jamiyatning mulkidir»¹.

Darhaqiqat, adabiyot jamiyatning hamma tabaqalariga mo'ljallangan bo'ladi va odamlarining yoshi, jinsi, kasbi, ijtimoiy pog'onada tutgan o'rniga qaramasdan hamma tomonidan o'qiladi, har bir kishida qiziqish uyg'otadi. Bir xalqda yaratilgan adabiyot asarlari boshqa xalqlarning vakillari tomonidan ham sevib o'qiladi. M: Y.V.Gyotening «Faust» yoki «Verter»i va uning turli mamlakatlarda tarqalishi.

Adabiyoti taraqqiy topgan har bir xalqning yutuqlari butun jahon miqyosiga chiqadi. Hamma mamlakatlar va xalqlar tomonidan keng miqyosda qabul etiladi. Adabiyotning umuminsoniyat madaniyati bilan chambarchas bog'lanib ketgani uning bu qadar keng ommalashuvini ta'min etuvchi sabablaridan biridir. Demak, adabiyotning dastlabki xususiyati uning xalqchilligidir.

Adabiyotning ikkinchi xususiyati – uning ma'lum shaxslar – iste'dod egalari tomonidan yaratilishidir. Shu o'rinda yurtboshimizning yozuvchilik kasbiga bergan bahosi diqqatga sazovordir. Mening fikrimcha, deb yozadi I. Karimov, “Yozuvchilik bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste'doddir. Bu – qismat, peshonaga yozilgan taqdir. Bu kasbga hech qayerda o'qitib o'rgatib bo'lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta, u ham bo'lsa bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu-hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir”².

Bu jihatdan yozma adabiyot xalq og'zaki ijodidan farq qiladi. Og'zaki ijodga mansub asarlarning yaratuvchisi noma'lum. Aslida ular xalqning kollektiv ravishdagi ijodiy mahsulidir. Adabiyotning uchinchi

¹ Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт,1980.

² Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2009. 3-iyul.

xususiyati – badiiylikdir, ya’ni hayotning unda obrazlar orqali in’ikos etishidir. Adabiyot haqidagi maxsus ilmiy ta’limot, dastavval falsafa fani doirasida maydonga keldi. Platon (er. avv. 427-374) hayotni idrok etishda shariyatning ijobiy roli borligini rad etdi, ammo adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatini tan olib, uning vazifasi – adolat, haqiqat, ezgulikni tasdiqlash ekanini ta’kidlaydi. Adabiyot haqidagi mustaqil, yaxlit ta’limotni dastlab boshlab bergan olim Aristoteldir (er. avv. 384-322). Qadimgi yunon madaniyati va adabiyotining keng rivoj topgan davrida yashagan bu olim o’zining «Poetika», «Ritorika» va boshqa asarlarida Homer, Sofokl, Evripid, Aristofan kabi mashhur ijodkorlar asarlarini tahlil qilish asosida badiiy adabiyot va notiqlik san’ati haqida nazariy ta’lim yaratadi. «Poetika»da san’at va adabiyotning mazmuni kishilar hayotidan olinishi lozimligini ta’kidlaydi. O’rta asrlarda mafkuraning hamma sohalarida dinning hukmronligi munosabati bilan adabiyot ilmi taraqqiy etmay qotib qoladi. Ammo Uyg’onish davri boshlanishi bilan adabiyot sohasida ham qayta jonlanish va yangilanish boshlanadi. Uyg’onish davrining birinchi shoiri italyan Dante Alig’eri «Xalq tili haqida» kitobida (1304-1309) adabiyotni avvaligidek, faqat lotin tilida emas, balki ona tilida yaratish lozimligini isbot qiladi. Italiyaning buyuk yozuvchilari F.Petrarka va J.Bokachcho adabiyot nazariyasiga oid fikrlar bilan maydonga chiqdilar, qadimgi adabiyot namunalarini yig’dilar, o’rgandilar.

XVIII asrda Fransiya Yevropada adabiy harakatning markazi bo’lib qoldi, unda klassisizm deb atalgan adabiy oqim taraqqiy etdi. Bu oqimning nazariyachilaridan biri «Poeziya san’ati» kitobining muallifi N.Bualo edi. Bualo va uning hamfikrlari klassisistlar antik adabiyot namunalarini adabiy eskirmas ijod namunalari sifatida taqdim etdilar. Ular asarlarning yozilish qonunlarini belgilab chiqdilar va yozuvchilardan bu qoidalardan chiqmay ish ko’rishini talab qildilar. Klassisizmning asosiy qoidalari nemis olimi G.E.Lessing qattiq tanqid qildi. U o’z asarlarida («Laokoon», 1766, «Hamburg dramaturgiyasi», 1769) san’atdan hayotni keng ravishda va erkin aks ettirishni talab etdi, adabiy asarda vaqt va harakatning bosh rolini aniqladi, adiblarni oddiy odamlarni tasvirlashga chaqirdi, uning tarbiyaviy rolini oshirishga undadi.

2. NEMIS TILIDA YARATILGAN ADABIYOT MANBALARI

1. Qahramonlik eposi.
2. Nibelunglar haqida qo'shiq.
3. Hildebrant qo'shig'i.

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: Ritsarlik romani, qadimgi germanlar (franklar, gotlar, langobardlar v.b.), mifologiya, kosmogniya, xalqlarning buyuk ko'chishi; epos, qo'shiq, kolorit, shpiylman, skoplar, vagantlar, vagant lirikasi.


Bu adabiyot juda katta davrni, ya'ni (V-XV asrlar) o'n asrlik muddatni qamrab oladi. Bu davr asarlarida xalqlarning buyuk ko'chishi bilan bog'liq tarixiy hodisalar ifodalangan bo'lib, bular feodal tuzumning jonlanishi, uning zamirida shahar sosloviyasining tug'ilishi voqealarini aks ettiradi. O'rta asrlar adabiyoti ajoyib tarixiy yondashmalarga boy bo'lib, bular – “Nibelunglar qo'shig'i”, Volfram fon Eshenbax (*Wolfram von Eschenbach*) va Gotfrid Strassburglining ritsarlik romanlari, minnezingerlar she'riyati va boshqalardan iboratdir.

Qadimgi germanlar (franklar, gotlar, langobardlar va b.) eramizning birinchi asrlarida Yevropaning eng kuchli etnik guruhlaridan hisoblanar edilar. Ular Elba va Reyn daryolari oralig'idagi katta kenglikda Dunay bo'ylarida va Rim imperiyasi hamda unga dahldor yerlarga yurishlar qiluvchi turmush tarzlari ko'chmanchilikdan iborat xalqlar edilar.

German qabilalari bu davrda rivojlanishning urug'chilik pog'onasida bo'lib, ular asosan chorvachilik va qisman dehqonchilik bilan mashg'ul edilar. Ijtimoiy va xo'jalik faoliyatining muhim masalalari xalq majlislarida muhokama qilinar edi.

Doimiy harbiy yurishlar shunga olib keldiki, qabila hayoti bora-bora harbiy tashkilot tusini ola boshladi. Drujinachilar tepasida turgan knyaz asosiy figura rolini o'ynay boshladi. Unga va uning kishilariga harbiy ulushning ko'proq qismi tegadigan bo'ldi. Shunday qilib, urug'chilik tuzumi zaminida qabila aristokratiyasi, ya'ni o'tgan asrlar dvoryanligining ilk shakli vujudga keldi.

German xaqqlarining madaniyati va badiiy ijodi haqida ko'p yodgorliklar saqlanib qolmagan. Rim tarixchisi Tatsitning guvohlik berishicha, germanlar o'z mifologiyalariga va kosmogoniyalariga dunyoning va undagi jonzotlarning yaratilishi haqidagi afsonalarga ega bo'lganlar. Ular o'z qo'shiqlarida Tuisko xudosi va uning o'g'li Manning german qabilalarining dastlabki vakilini madh etar edilar. Ma'lumki qadimgi germanlarda yozuvning ilk na'munalari mavjud edi. Ular runik yozuvlardan foydalanganlar. Dunyoning boshqa xalqlari singari germanlar tarixiy rivojlanishning ilk bosqichida tabiiyki o'z og'zaki ijodiga ega bo'lgan. Bular jangovar yurishlar, undagi qahramonlar haqidagi qo'shiqlardir. German folkloriga oid bu asarlar keyinchalik monaxlar tomonidan yozib olingan bo'lib, unda german tarixining ilk davrlari ifodalangan.




Germaniya yozma adabiyotining barcha mashhur yodnomalari eramizning ilk asrlarida yuz bergan xalqlarning buyuk ko'chishi davri bilan bog'liqdir. Eramizning V asrida Yevropa Attila sarkardalik qilgan xunlar istibdodiga duchor bo'lgan edilar. Xunlar Qora dengiz bo'ylarida ostgotlarni tor-mor etib, g'arbga qarab Rim imperiyasi sarhadlaridan ichkari tomonga siljiydilar. Yevropa qit'asini zabt eta boshlagan xunlar 437-yilda burgundlarni (german qabilalaridan) tor-mor etadilar. Reyn bo'yidagi Burgundya qirolligi poytaxti Vormsni vayron qiladilar. Bu voqea skandinavlar, qadimgi germanlar va ularning afsonasi "**Nibelunglar qo'shig'i**"da ifodalangan. Bu eposda Burgundiya qirolligining fojeali taqdiri aks etgan. Attila bu asarda Etsel nomi bilan yuritiladi. U

Krimxildaning eri, burgund qiroli Gyunterning singlisi. Attila (453) vafotidan so'ng u barpo etgan qabilaviy ittifoq sekin-asta darz keta boshladi. Ayni paytda Rim imperiyasi ham tanazzulni boshdan kechirayotgan edi. Bir vaqtlar yengilmas kuchga ega bo'lgan Rim turk va german qabilalar bilan bo'ladigan doimiy janglarga dosh bera olmay qolgan edi. 475-yili germanlar lashkarboshisi Odoakr oxirgi Rim imperatorini taxtdan qulatdi va mamlakatdagi oliy hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Odoakrning hokimligi ko'pga bormadi. 493-yil ostgotlar

qiroli Teodorixdan mag'lubiyatga uchradi. Bu tarixiy voqea xalqlarning buyuk ko'chishi davri, Yevropada yer yuzida bir vaqtlar qudratli bo'lgan qabilalarning (Vandallar, ostgotlar va b.) yo'q bo'lib ketishi germanlarning turli epik hikoyatlari uchun material bo'lib xizmat qildi.

“Nibelunglar qo'shig'i” (“Nibelungenlied” 1200-yillar) nemis qahramonlik eposlarining yirik asari hisoblanadi. XII asr oxirida o'rta yuqori nemis dialektida (shevasida) yozilgan bu epos 10 ta to'liq va



yigirma ikkita to'liq bo'lmagan ro'yxatda hamda uch xil asosiy tahrirda bizgacha yetib kelgan. Bu nemis xalqining o'z porloq o't-mishiga bo'lgan muhabbati, katta gumanistik g'oyalar va murakkab hissiyotlarga ixlosining dalolatidir. “Nibelunglar qo'shig'i”ning mualliflari va ommalashtiruvchilari shpiylmanlar (artistlar, aytuvchilar) bo'lgan bo'lsa ajab emas. Ular qadimgi rivoyatlarga suyangan holda yangi zamon ruhini ham ifodalashga intilganlar. Eposning mazmuni mifologik va tarixiy elementlar faoliyatini omixta qilgan. Asosan Zigfrid liniyasi miflar bilan aloqador. U qadimgi rivoyatlar ko'pgina

german xalqlarida saqlangan. Ayniqsa ular skandinav yerlarida keng tarqalgandir.

Eposdagi mifologik hikoyat tarixiy voqealar – Burgund qirolligining Reyndagi xunlar hujumi tufayli 457-yil halokati bilan uzviy ravishda ulanib ketgan.

“Nibelunglar qo'shig'i” 39 ta sarguzashtdan iborat bo'lib, 10000 she'rni o'zida mujassam etgan epik polotno hisoblanadi. Mazkur asar “nibelungcha” hijoda ya'ni, o'sha davrgacha minnezinger Kyurenberg she'rларidagina uchraydigan o'lchovda yozilgan bo'lib, har bir to'rtlik 2 tadan baytga ega, birinchi bayt 4 ta urg'uli bo'g'inga, ikkinchi bayt 3 ta urg'uli bo'g'inga ega.

“Nibelunglar qo’shig’i” fojeaviy koloritga ega. Unda kuchli, qora niyatli kishilar, yaxshilik va yer yuzida go’zallikni poymol etuvchlar faol rol o’ynaydi.

Eposda ezgulik urug’ini sepuvchi sifatida ishtirok etgan niderlandiyalik shahzoda Zigfrid xoinlik qurboni bo’ldi.

Burgundiya qiroli Gyunterning singlisi Krimhildaning go’zalligidan xabar topgan va u barnoning qalbini zabt etishga oshiqqan Zigfrid Vorms shahriga yo’l oladi. Lekin bir yil mobaynida Zigfridga ma’shuqa jamolini ko’rish nasib etmaydi. Uning vaqti harbiy musobaqalar, turli ermagu-ziyofatlarda o’tadi. Gyunter bilan birgalikda uzoq Islandiyaga o’tlanadi. U yerda ajoyib sohibjamol Brunhilda yashaydi. Gyunter uni o’ziga qallqlikka olish niyatida bo’ladi. Brunhilda go’zallik sohibasi bo’libgina qolmay, tengsiz kuch qudratga ega. U faqatgina o’zini mushkul musobaqalarda yenga olgan kishigagina bag’ishlashga rozi. Faqat Zigfrid uning bu shartini bajarishga qodir. Yoshlikda u ajdarhoni o’ldirib, uning qonida cho’milganligi boisdan tengsiz kuchga ega. Bundan tashqari u ko’z ko’rmas qalpoqcha sohibi hamdir.

U Gyunterning o’rniga musobaqaga kirishib Brunhildani kurashda yengadi. Lekin sinov bu bilan tugamaydi. Zigfrid Brunhildani nikoh to’shagida ham yengadi: ya’ni uning qizlik kamarini va uzugini yechib olishga muyassar bo’lib, uni Gyunterga topshiradi. Zigfridning tengsiz jasorati va betakror xizmatlari evaziga Gyunter singlisi Krimhildani unga xotinlikka beradi.

Ko’p yillar o’tadi. Kelin-kuyov baxtiga qirolichalarning janjali raxna soladi. Natijada fojeaviy yakun qiroil oilasini falokatga duchor etadi.

Kunlarning birida cherkovga kiraverishda Brunhilda va Krimxilda o’z erlarining nimaga qodir va qobilliklari xususida hamda cherkovga kim birinchi qadam qo’yishi to’g’risida bahslashib qolishadi. Krimxilda achchiq va jahl ustida Brunhildaga uning birinchi nikoh kechasida sodir bo’lgan voqeaning sirini oshkor etadi va buning dalili sifatida qizlik kamari hamda uzukni ko’rsatadi. Brunxilda alam va adovatdan nafasi tiqiladi. Bu sharmandalikni qonli qasosgina yuvishi mumkin. Burgund qirolichasining shanini himoya qilib, qasoskor sifatida Gyunterning vassali jasur va yovuz Hagen chiqadi.

Krimhildaning ishonchini qozongan Hagen Zigfridning nozik joyini, ya’ni, yelkasidagi tig’ o’tadigan joyini bilib oladi. Bu joy ajdarho qoniga cho’milgan paytda lipa daraxtining bargi tushib qon tegmay qolgan ekan. Ov paytida Hagen Zigfridni xoinona o’ldiradi, uning

bevasidan Zigfrid tomonidan bir vaqtlar topilgan Nibelunglar xazinasini tortib oladi va uni Reyn suvlariga cho'ktirib yuboradi. Burgund bahodirlari o'z taqdirlarini xazinalar bilan bog'laganliklari boisidan ular – nibelunglar, ya'ni, tuman mamlakatida yashovchilar deb atala boshlaganlar (Nebel-tuman).

Shundan so'ng Krimhilda beaded g'am-anduhda qoladi. Zigfridning o'limi uchun qasos olish rejasi yetila boshlaydi. U xunlar qiroli Etselga erga tegadi. Judolikka va taqdirga tan bergan odamdek burgundlarni huzuriga mehmonga chorlaydi. Paytini poylab uning tarafdorlari xun harbiylari bilan qonli jang uyushtiradi. Tengsiz jangda barcha burgund pahlavonlari halok bo'ladilar. G'azabga to'lgan Krimhilda o'z akasini o'ldirishni buyuradi, yarador Hagen boshini o'zi tanidan judo qiladi. Krimhildaning yovuzligi hatto Etselni ham dahshatga soladi. Krimhildaning g'azabnok qasoskorligining guvohi bo'lgach, uning o'zini ham o'ldirtiradi.

„Nibelunglar qo'shig'i“da ritsar romanlaridan farqli ravishda feodal munosabatlar ideallashtirilmagan. O'rta asrlar voqeligi kolopitli, haqqoniy ifodalanadi, dunyo makr-hiyala, nayrang, qonli qasos, o'z shon-shuhrati uchun kurash va yovuzlikdan iborat ekanligi fosh etiladi. Ishonuvchan Zigfrid va Krimxildalar shu davr qurboni bo'lganlar. Bularning sababi esa feodal tuzumning illatidir.

Feodallarning ayovsizligi, yovuzligi eposda Hagen von Trope obrazi orqali ifodalangan. U o'z xulq-atvoriga ko'ra Gyunterning vassali. Shu sababli Burgundiya saroy ahlining sulolasi manfaatlaridan kelib chiqib ish ko'radi. Unga oddiy inson iztirobi umuman yot. U qirollik taqdiri uchun o'zini ham, boshqalarni ham ayamaydi. Bu yo'lda xoinlik va aldoqchilikdan ham qaytmaydi. Hagen Zigfridni Brunhildaning shanini va qirollikni himoya qilaman deb o'ldiradi. Zigfrid o'limidan so'ng Krimhildaning ta'siri kuchayishidan cho'chib, unga tegishli Nibelunglar xazinasini bosib oladi va epos so'nggida o'z hayotini tikib bo'lsa ham yashirib qo'yilgan (Reynga cho'ktirgan) joyini aytmaydi. Unda sosloviya – monarxistik hissiyot doimo insoniy fazilatlaridan ustun kelaveradi. Hagen o'z feodal jasorati bilan ham ibratli, ham dahshatli. U Zigfridni halok qilibgina qolmay, Krimhildaga ham ozor yetkazadi. O'z poetik uslubiga ko'ra „Nibelunglar qo'shig'i“ feodalizm davrigacha bo'lgan poetik yodnomalardan farq qiladi.

„Hildebrand haqidagi qo'shiq“ ilk o'rta asr german epik poeziyasining yagona yirik yodnomasi hisoblanadi. Bu asar Fulds

monastrining ikki ruhoniysi tofmonidan VIII asrning oxiri va IX asr boshlarida ilohiy traktat sahifalarida yozilgan. Uning asosida xalq xotirasi muhrlangan tarixiy voqea yotadi.

Bu qo'shiqda tarixiy faktlarga qarama-qarshi o'laroq Hildebrant ostgotlar qirol Dyotrix (Teodorix) drujinasining boshlig'i va qirol maslahatchisi bo'lib, o'z hukmdori bilan birgalikda Italiyadan Otoaxr (Odoakr) g'azabidan qochadi. Italiyada uning yosh xotini va norasida o'g'li Xadubrant qolib ketadilar. Quvg'inga uchraganlar Attila saroyidan panoh topadilar. Oradan o'ttiz yil o'tadi. Qo'shin lashkarboshisi sifatida Hildebrant Odoakrga qarshi yurish boshlaydi. Chegarada uning yo'lini o'z drujinasi bilan Xadubrant to'sib chiqadi. O'sha davr udumiga ko'ra bahodirlar olishuv oldidan bir birini ismini, zotini, qabilasini surishtirganlar. Hildebrant raqibi o'z o'g'li ekanini bilib qoladi, qon to'kishni to'xtatib qolmoqchi bo'ladi. Yosh Hadubrant otasini allaqachonlar halok bo'lgan deb o'ylaydi va otasining taklifini "xunlar nayrangi" deb hisoblaydi va bu uning xushyorligini bo'shashtirib unga zarba berishning vositasi deb biladi.

Hadubrant Hildebrantni makkorlik va qo'rqqoqlikda ayblaydi. Bunday haqoratdan keyin olishuvning bo'lishi muqarrardir. Qo'lyozma shu yerga kelganda yirtilgan, mojaro nihoyasiga yetmay qolgan. Shunday hollarda boshqa xalqlarning epik asarlarida (m: rus afsonalari, Firdavsiyning "Shohnoma"sidagi Rustam va Suhrob kabi) ota odatda g'olib chiqadi. Balki, bu asarda ham shunday tugallanma bo'lgandir. Keyingi variantda tragik kollisiya yaratish bilan nihoyalanadi. Eposda asosan diqqat personajlarning qahramonlik faoliyatiga qaratilgan. Mualliflarni ko'proq hikoyaning qahramonlik plani qiziqtiradi. To'g'ri, Hildebrantda otalik muhabbati bir necha daqiqa jo'sh uradi, lekin harbiy burch bu tuyg'uni tezda bosib ketadi. Shu sababdan qahramonlar psixologik jihatdan bir-biriga o'xshash, individuallashtirilmagan, ularga chuqur ichki kayfiyat xos emas.

German epik qo'shiqlari bevosita drujina muhitida yaratilgan. Ularning mualliflari drujina qo'shiqchisi, harbiy yurishlarda qatnashuvchi, poetik qobiliyat sohibi skoplardir. U shuningdek, bu qo'shiqlarning ijrochisi hamdir. Bu qo'shiqlar rechetativ bilan arfa jo'rligida g'alabalar munosabati bilan berilgan ziyofatlar, bayramlar va boshqa tantanalarda kuylangan. Keyingi tarixiy davrlarda xristianlikning mustahkamlanishi bilan skop funksiyasi shpiylman(*Spielmann*)-larga o'tadi. Ular xonanda bo'libgina qolmay, qiziqchi, akrobat,

sozanda, turli ichak uzdi latifalarning mualliflari va ijrochilari edilar. Ularning san'ati cherkov ta'qibi ostida bo'lganligidan noligan xarakterda edi. Skoplar poeziyasi singari shpiylmanlar ijodini ham cherkov e'tirof etmas edi. Chunki ularning faoliyati diniy g'oyalarni targ'ib etishga dahldor emas edi. Xalq qahramonlik eposlariga qarama-qarshi cherkov o'zining adabiyotini lotin tilida yozilgan, xudoga muhabbat, dunyo quvonchlariga nafrat ruhidagi asarlarni yaratdi. XII asrga kelib nemis jamiyatida sezilarli sotsial-iqtisodiy siljishlar yuz berdi. Feodal tuzum yangi kuch bilan o'zini namoyon qila boshladi. Shu paytgacha cherkovning mutloq nazoratida bo'lgan san'at borgan sari dunyoviylik kasb eta boshlaydi. Muhabbatni kuylovchi lirik poeziya ravnaq topa boshadi. Bunday asarlarda qahramonlarning sarguzashtlari ko'proq o'rin egallay boshaldi. Ritsarlik adabiy hayotning barcha qatlamlariga kirib kela boshladi. Jamiyatga madaniy rahbarlik qilishda ritsarlik cherkov bilan raqobat qila boshladi. XII- XIII asrlar dunyoviy adabiyotining o'ziga xos xususiyati vagantlar lirikasi bo'lib, feodal Yevropaning barcha mamlakatlaridagi shahar va qishloqlarda yurib, o'z quvnoq qo'shiqlarini kuylashar edilar. Bu qo'shiqlarda hayot quvonchlari e'zozlanar, sxolastik olimlik va diniy asketizmga nafrat ifodalanar edi. Ular ikkiyuzlamachilarni, o'sha zamon jamiyatining parokandaliklarini jur'at bilan fosh etar edilar. Vagantlarning shunday she'rlaridan 300 dan ortiq qo'lyozma Bavariya monastirlaridan birida saqlanadi. XII-XIII asrlarda Yevropaning ko'pgina shaharlarida universitetlarning ochilishi va ularga turli mamlakatlardan yoshlarning oqib kelishlari va bilim olishga intilgan talabalarning bir dorilfunundan boshqasiga o'tib yurishlari xarakterli hodisa edi. Ular hayotdan ajralgan sxolast o'qituvchlar ustidan kulib turli qo'shiqlar to'qiydilar. Ko'pchiligi ko'chib yuruvchi talabalarni tashkil etgan vagantlar sevgi, vino va yoshlikni madh etadilar.

Vagantlar uchun erkin hayot ideal hisoblanadi. Ular insonni har qanday chegaralashga qarshi. Vagantlar o'zlari zamondosh bo'lgan she'riyat mundarijasini kengaytirib yuborardilar, uning shaklini takomillashtirar edilar. Jahongashta talabalar lirikasining qahramonlari ilk bora tirik, konkret shaxsga aylandi. Bu tabiiyki, she'riyat yutug'i edi.

3. RITSARLIK ADABIYOTI

1. Ritsarlik adabiyoti.
2. Ritsarlik va kurtuaz romanlari.
3. Xartman fon Auye va uning “Bechora Haynrix” romani, unda ko’tarilgan muammolar.
4. Gotfrid fon Strasburgning “Tristan va Izolda” romani.
5. Ritsarlik poeziyasi.

Mavzuga doir tayanch so’z va iboralar: kurtuaz romani, minnezang, salb yurishlari, muqaddas Graal.

XII asrning oxirlarida Germaniyada ritsarlik yoki kurtuaz romanlar yozish taraqqiy eta boshlaydi. Bunday romanlarning ilk namunasi dastlab Fransiyada yaratildi. Nemis romannavislari garchi an’anani davom ettirgan bo’lsalarda, o’z ijodlarida mustaqil yo’l tutdilar. Bu ayniqsa Volfram fon Eshenbax va Gotfrid fon Strassburglar uchun xarakterlidir. Ritsarlik adabiyoti ritsarlikning estetik tomonlariga ahamiyat beradi. Ritsar o’zini san’atda jismoniy mukammal holda ko’rish bilan kifoyalanmay, axloqiy olijanoblik timsoli sifatida ham ko’rishni xohlar edi. Ritsarlik romanining ijobiy qahramoni odatda turli ijobiy qahramonlar davrasida tasvirlanar edi. Bu bilan ritsarlik sosloviyasining olijanoblighi alohida uqtirilar edi.

Nemis kurtuaz (saroy) romanining yaratuvchisi Haynrix fon Feldekke (*Haenrix von Feldecke*) bo’lib, “Eney haqidagi roman” ning muallifidir. Asar syujeti tipik saroy ruhida ishlangandir. Feldekke Karfagen maliksi Didonaning Troya shag’zodasi Eneyga bo’lgan muhabbati va Eveyning Laviniga sevgisiga kitobxon e’tiborini tortadi. Xartman fon Auyening “Irek va Iveyn” romani ham shu yo’nalishdagi asardir. Bu asar fransuz adibi Kretyen de Trua asarining qayta ishlangan variantidir. Xartman fon Auye asarlari romantik fantastika ruhi bilan sug’orilgan. Uning qahramonlari real dunyoda emas, balki ulkan va mitti odamlar, mo’jizakor saroylarda sodir bo’layotgan voqealarning ishtirokchilaridir. Ritsarlar o’z xonimlariga sadoqatda namoyon edilar. Ular muallif niyatiga ko’ra o’z jasoratlariga olijanoblik bilan o’quvchini hayratga solishlari va bu bilan o’rta asr jamiyatidagi ritsarlik pozitsiyalarini mustahkamlashga xizmat qilishlari kerak edi. Fon Auyening „Bechora Haynrix“ nomli she’riy qissasi xalq o’rtasida

mashhur bo'ldi. Bu asarda manmanlik, gerdayish qoralanadi. Uning asari qahramoni ritsar Haynrixning yodi boshqacha. U o'zida mavjud imkoniyati va she'riyatdagi muvaffiqiyatlari uchun xudodan emas, o'z iqtidoridan minnatdor. Shu sababli Haynrix shafqatsiz jazoga muhtalo. Undan oqsuyaklar jamiyati yuz o'girdi. U bedavo dardga chalindi. Haynrix taqdiri bilan faqat uning krepostnoyning qizi o'z taqdirlarini bog'lamoqchi bo'lishadi. Haynrix iztiroblarini o'z dardi deb bilgan va unga o'z sevgisini baxshida etgan qiz yigitni hayotga qaytarish uchun, uni darddan forig' etish uchun o'z yurak qoni bilan Haynrix tanasini yuvishni istaydi. Lekin Haynrix boshqa kishining halokati tufayli o'z baxti uchun boshqani badbaxt qilishni istamay, qiz taklifini rad etadi. Asarda demokratik tendensiyalar sezilarlidir. Shunisi xarakterliki, bu asarda Haynrix xristianlik axloqiy darsini oddiy dehqon qizidan oladi. Qiz muhabbat va insonparvarlik uchun o'zini qurbon qilmoqchi bo'ladi. Qissaning demokratik ruhi ko'pgina yozuvchilar e'tiborini tortar edi. Qissa asosida Gerhard Xauptman shu nomda drama ham yozgan. Volfram fon Eshenbax ijodi o'z taraqqiyotida original yo'ldan borgan. Uning XIII asrning 10-yillarida yaratilgan, „Parsifal“ romanida o'zida ritsarlikning ko'rinishlarini oliyjanoblik tuyg'ular nozikligi, sevgiga sadoqati, mujassamlashtirgan ideal qahramon obrazi yaratilgan. Qirol Gaulertning o'g'li Parsifalni onasi o'rmonda tanholikda tarbiyalaydi. Ona o'z farzandini tanholikda voyaga yetkazishidan maqsad – o'glini ritsarlik sarguzashlari romantikasiga berilib ketishidan saqlash edi. Partsifalning otasi Salb yurishalarida halok bo'lgan. Lekin farzand tomiridagi ota qoni o'z ishini qiladi. Ulg'aygach Partsifal qirol Artur saroyiga yo'l oladi. Keyinchalik u yengilmas ritsar shuhratiga muyassar bo'ladi va ritsarlik intizominig barcha shartlariga rioya qiladi. U o'ta kamtar, xudojo'y edi va birdan-bir orzusi – muqaddas Graalni qo'lga kiritish. Munsalvesh qal'asida saqlanuvchi Graal o'z egasining barcha tilaklarini bajo keltirarmish.

Kunlarning birida u niyatiga erishishiga yaqin qoladi. Taqdir uni Munsalvesh qala'siga kirishga muyassar etadi. Unga qala'ning zebuziynatlarini va og'ir dardga chalingan qirol Anfortasni ko'rish nasib etadi. Lekin Partsifal hali Graal sohibi bo'lishiga tayyor emasdi. U inson kulfatiga nazar-pisand qilmas edi. U hattoki Anfortas iztiroblari sabablari bilan qiziqmaydi, unga hamdardlik bildira olmaydi. Oqibatda sehrli Graal g'oyib bo'ladi. Paritsifal qalbi esa g'am-anduhga to'ladi. Eshenbaxning fikricha, ritsar axloqiy tarbiyaning maktabidan o'tishi

kerak. O'shandagina u Graalga munosib bo'la oladi. Keyinchalik u Graalga loyiq bo'lishi uchun qilinadigan barcha tadbirlarni bajaradi.


Eshenbax o'z ijodida davrga xos bo'lgan diniy qobiqdan holi bo'lmagan buyuk gumanistik idealni qayd etadi. Shu sababli adabiyotshunoslar va yozuvchilarning Eshenbaxga e'tibori baland. Uning romani asosida buyuk olman bastakori Rihard Vagner "Partsisfal" operasini yozgan. Uning ijodi diniy-mistik ohanglarga boy va dunyoviy ruh kasb etgandir va inson shaxsi ma'naviy tuyg'ularini qaror toptirishiga yo'naltirilgandir. Gotfrid fon Strasburgskiyning bosh asari "Tristan va Izolda" romani bo'lib nihoyasiga yetkazilmagan. Bu asar qadimgi rivoyat asosida yozilgan bo'lib, bir necha bor epik jihatdan qayta ishlangan.

Bu roman barcha to'siqlarni bartaraf etayotgan qudratli tabiiy tuyg'uning gimnidir. Tristan va Izoldaning bir-biriga bo'lgan otashin muhabbatlari sevgi sharbatini ichgunlarigacha ham mavjud bo'lgan. Bu ichimlik ularning bu tuyg'ularini yanada alangalatadi. Izolda, o'z xohishiga qarshi qirol Markning qaylig'i bo'lishga majbur etiladi. Shunisi xarakterliki, Izoldaning qonuniy eri Markka xiyonati va Tristanga talpinishi xudo tomonidan oqlanadi. Xudo Izoldaga temir sinovdan o'tishiga ko'maklashadi. Chinakam insoniy sevgi ilohiy muhabbat bilan Gotfrid fon Strasburgskiy asarida omuxta qilingan. Bu bilan muallif uyg'onish davri estetik tafakkuriga yaqin turadi. U qalb qonunlari, erkin sevgi tarafdoridir. Tristan va Izoldaning muhabbati o'limni ham bartaraf etadigan sevgidir. Oshiqlar mozoridan atirgul bilan tok zangi unib chiqadi va ular bir biriga chirmashib ketadilar.

Ritsarlik adabiyotining boshqa tarmog'i ritsarlik poeziyasi bo'lib, Minnezang deb ataladi. Shoir – ritsarlarning lirik ijodi XII asr oxirlarida xalq qo'shiqlari, provansal qo'shiqchilar ta'sirida bir asr mobaynida ravnaq topadi. Ularning poeziyasi ona yurtga dahldor bo'lib, cherkov asketizmiga qarama-qarshi turardi va shu ma'noda ijtimoiy ahamiyat kasb etar edi. Minnezangni odatda ikki yo'nalish bo'yicha farqlaydilar: xalq va saroy minnezangi. Bulardan birinchisi folklarning kuchli ta'siri ostida shakllangan bo'lsa, ikkinchisi provans shoirlarning poetik tajribasiga suyanar edi. Kyurenberg, Ditmar fon Ayst va boshqalar nomi bilan bog'liq. Ularning qo'shiqlarida insonning yoniq qalbi urib turadi. Saroy minnezangi o'ta shartlidir. Unda sevgi o'zining tabiiyligini birmuncha yo'qotadi. Bu qo'shiqlarda ma'shuqa o'z oshig'iga erishib bo'lmaydigan go'zal sifatida, o'z amriga bo'ysundiruvchi tarzida

ifodalanadi. Raynmar fon Hagenau, Haynrix fon Morungen va boshqalar asarlarida ritsarlik she'riyati shunday shakl kasb etadi. Valter fon der Fogelvayde (*Walter von Vogelweide*) (1170-1230) nemis minnezangining yirik vakilidir. Uning ijodida minnezangning har ikki yo'nalishi xalq va saroy minnezangi qahramonlik jihatdan qo'shilib ketgan. U nemis voqeligini, xalq iztiroblari va intilishlarini yaxshi bilgan. Fogelvayde o'z ijodini Hagenauning shogirdi sifatida boshlagan. Lekin Fogelvayde ijodining muvaffaqiyati xalq poeziyasi yutuqlarini ijodiy o'zlashtirganidadir. Fogelvayde sevgi lirikasining xarakterli namunasi sifatida "Lipa daraxti ostida" (*Unter den Linden*) ni keltirish mumkin.

Shuningdek, Fogelvayde davrining ijtimoiy-siyosiy muammolariga o'z she'rlari bilan hozirjavob. U sevgi qo'shiqlarini yaratibgina qolmay, shpruxlar ham yozgan. Siyosiy tendensiya bilan yo'g'rilgan axloqiy o'gitlarga boy bo'lgan asarlar shpruxlar deb ataladi. U Germaniya ichki ishlariga aralashgan pop hokimiyatining dushmani edi. Fogelvayde poplarning ta'magirligini, salb yurishlarini xudo yo'lga qilingan hayr-ehsonlarni o'z manfaatlari uchun o'zlashtirishlarini tanqid qiladi. Fogelvayde ijodini o'rta asr nemis ritsarlik lirikasining cho'qqisi deyish mumkin.



4. UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI

1. İlk nemis gumanizmi
2. Yohann Royxlin va uning "Jaholatparastlar maktublari" asari
3. Ulrix fon Hutten va nemis uyg'onish davri
4. Erazm Roterdamli (*Erasmus von Rotterdam*) va nemis gumanizmi

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: Uyg'onish davri (Renessans), dogmatika¹, sxolastika², gumanizm, fatsetiya², obskurantizm³, "Ahmoqlar" satirasi.

XV asrining ikkinchi yarmidan boshlab nemis adabiyoti ko'tarilish davriga qadam qo'ydi. Adabiyot inson tuyg'ularining, umuman, fikrning xristian dogmatikasi va sxolostikadan ozod bo'lish ruhida, xalqning feodal va cherkov ta'qibidan qutilishni o'zida ifodalagan holda ravnaq topdi. Bu harakatning ilhomchilari gumanistlar (lotincha *humano* - insoniy) ya'ni – o'z davrining jamoat arboblari ilg'or olimlari edi. Ular o'zlari zamondosh bo'lgan voqeilikning barcha hodisalariga insoniy manfaatlar nuqtai – nazaridan munosabatda bo'lib, dunyoviy ta'lim uchun san'at va fanni hayot bilan yaqinlashtirishga intildilar.

Gumanistlar aqlga yuqori baho beradilar, sxolastik ta'limni rad etadilar. Shu sababli nodonlik, jaholatparastlikning har qanday ko'rinishlariga obskurantizmga, sxolastlarga, ularning soxta olimliklariga keskin qarshi turadilar.

Nemis gumanizmida xalq o'rtasida keng tarqalgan alohida adabiy janr mavjud bo'lib, nodonlik ustidan kulishni o'z vazifasi deb bilar edi. Bunday "Ahmoqlar" satirasining (ya'ni johil hokimlar, ahmoq ruhoniylar, soxta olimlar va b.) eng faol mualliflari Sebastian Brant, Erazm Roterdamli va boshqalar edilar.

Germaniyadagi universitetlar gumanistik fikrning o'choqlari bo'lganligi bilan xarakterlidir. Universitetlarda ilk bora antik dunyoning madaniy taraqqiyoti bilan, Italiya gumanistik madaniyatiga oshno bo'lgan olimlar yetishib chiqdilar.

Gumanizm asosan iqtisodiy jihatdan ilg'or bo'lgan Germaniya shaharlarida (Nyurnberg, Strasburg, Augsburg), ya'ni janubdan g'arbga

¹ Aqidalarga ko'r-ko'rona ishonish (yopishib olish).

² Quruq safsata, puch ilm, tajribaga asoslanmagan soxta bilim.

³ Uyg'onish davrida G'arbiy Yevropada tarqalgan shahar adabiyotining hazil-mutoyibali qisqa hikoyasi.

³ Ilm-ma'rifatga dushmanlik, jaholatparastlik.

va sharqqa o'tadigan savdo yo'llari joylashgan shaharlarda tez ravnaq topdi. Yangi gumanistik san'at asarlari – Albrect Dyurer (*Dürer*) va Hans Xolbayn (*Holbein*) polotnolari, H.Saks va I.Fishart she'rlari asosan shu shaharlarda yaratildi. German imperiyasining boshqa viloyatlari o'rta asr provinsial chekka joylar hisoblanib u yerlarda obskurantizm, siyosiy reaksiya avj olgan edi. Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi Germaniyaning siyosiy jihatdan parokandaligi manbai hisoblanar edi.

Mamlakatda bir necha markazlar mavjud bo'lib, ularni idora etish butunlay knyazlar ixtiyorida edi. Ular mohiyat e'tibori bilan imperatorga qaram emas edilar.

Milliy birlikning (butunlikning) yo'qligi milliy san'atning shakllanishiga monelik qilar edi. Nemis "uyg'onishi" ingliz Shekspir, ispan Servantes, fransuz Rable kabi yirik namoyandalariga ega emas edi. XV-XVI asrlar nemis adabiyotida ma'lum ma'noda provinsializm muhri bosilgan bo'lib, bu adabiyotga, ilmiylik, xonakilik va diniy muammolarni hal etish xos. Faqatgina ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy kurash yillaridagi (Reformatsiya, Dehqonlar urushi) adabiyotgagina inqilobiy ruh xos edi, shu davrdagina adabiyot umumiy manfaatlar jarchisiga aylangan (Lyuter, Hutten, Erazm).

Nemis gumanistlarining ijodi asosan mafkuraviy, satirik, axloqiy didaktik yo'nalishda ravnaq topdi.

XVI asr nemis adabiyoti ideologik jihatdan bir xil bo'lmadi. Gumanistlar sxolistikani, nodonlikni aql-idrok, gumanizm pozitsiyasidan turib tanqid etdilar (Bular–Bebel, Royxlin, Erazm Roterdamli va b.). Ikkinchi guruhni esa reformatsiya harakatiga dahldor yozuvchlar tashkil etar edilar. (bular – Hutten, M.Lyuter va b.) Nemis renessansida byurgerlik adabiyoti ham (Brant, Murner, H.Saks va b.) alohida o'rin egallaydi. Bu adabiyot vakillari meshchanlik turmushini tasvirlab, bu hayotni byurger manfaati nuqtai-nazaridan baholaydi. Bundan tashqari Germaniyada uyg'onish davrida xalq ijodi – xalq qo'shiqlari va xalq kitoblarida o'z konkret ifodasini topgan adabiyot ham mavjud bo'lgan.

ILK NEMIS GUMANIZMI

Ilk nemis gumanizmi italyan gumanistik madaniyatining kuchli ta'siri ostida shakllanadi. Birinchi nemis gumanistlar (Peter Luder,

R.Agrekola va b.) Italiya safarlaridan qaytib bilimlarning otashin targ'ibotchilariga aylandilar. Aksariyati maktablar tashkil etib, ularda klassik tillarni o'rganishni joriy etdilar, bu esa qadimgi jo'non va rim yozuvchilari ijodi bilan tanishish imkonini berar edi. Universitetlarda gumanistik to'garaklar faoliyat boshladilar. Dunyoviy bilimlarni targ'ib etishda Erfurt unversiteti alohida rol o'ynadi. Bu yerda gumanistlar faolyatiga serg'ayrat va iqtidorli pedagog Lutsian Ruf rahbarlik qildi. U o'z ma'ruzalaida ochiqdan-ochiq ruhoniylar bid'atini , sxolastik fanni, fikrning katolik dogmalar ta'qibidan ozod bo'lishini yo'qlab chiqdi.

Gumanizmning kuchli ta'siri Tubingen unversitetida, ayniqsa XVI asr boshlarida Haynrix Bebel(*Genricus Bebelius*, 1472-1518)ning pedagogik va ijodkorlik ishida o'z ifodasini topdi. U o'zining shingil latifanamo hikoyalarida (*Libri Facetiarum* -fasetiyalar) obskurantlarga qaqshatqich zarba berdi. Shingil hikoyalar voqelikdan olingan biror bir voqea, hodisa, o'tkir luqma kabilardir. Shu munosabat bilan Maksimilan obro'li olimlarning mazkur masala bo'yicha fikrini olmoqchi bo'ldi. Bu bahsga ayrim universitetlar va uch olim, shu jumladan E.Royxlin ham taklif etiladi. Barcha mutasaddilar Pfefferkornni qo'llab chiqdilar yoki betaraf qolishni ma'qul ko'rdilar. Faqat Royxlingina muqaddas kitoblarni saqlab qolish kerakligini uqtirdi va bu bilan u kitoblarning muhim madaniy ahamiyatini yaxshi anglashini namoyon qildi. Pfefferkorn 1511-yili "Qo'l ko'zgusi" nomli pamflet yozib, Royxlinning yahudiyshunosligini shubha ostiga olmoqchi bo'ladi va uni yahudiylar sotib olgan deb da'vo qiladi. Shu munosabat bilan Royxlin imperatorga arz qiladi va Pfefferkorn bo'htonga qarshi qaratilgan "Ko'z ko'zgusi" nomli (1511) asarini yozadi. Bu asarda Pfefferkorn ayblarini asosli rad etadi. Royxlinning javobi nemis gumanistlarida katta taassurot qoldiradi. Mag'lubiyatga uchragan Pfefferkorn Kyolinlik ruhoniylarga yordam istab murojaat etadi. Ular o'z yordamlarini kuttirib qo'ymaydilar. Jaholatparastlarni qo'rqitish, tazyiq o'tkazish metodlariga murojaat etib, Royxlinni dahriylikda ayblaydilar va uni gunohlarini yuvishga undaydilar. Shunda Royxlin qo'lga yana qalam olishga va nemis ilmiy jamoatchiligiga murojaat etishga majbur bo'ladi. 1513-yili u "Oshkora e'tirof" asari bilan chiqib, unda Pfefferkorn bilan kurashni batafsil bayon etadi. Undan so'ng u "Mening g'iybatchilarimdan himoyam" asarini yozib, unda imperatoridan o'zini vijdonsiz raqiblariidan xalos etishni so'raydi. Royxlinning obskurantlar bilan bahsi

butun Germaniyani qiziqtirgan bo'lib, gumanistik lagerni bir butun bo'lishini ta'minlagan bo'lsa, cherkov obro'siga bir qator raxna soldi.

Gumanistlar Royxlining jaholatparastlar bilan kurash orqali umummanfaatni himoya qilayotganini angladilar. Shu boisdan Erfurt universiteti gumanistlar to'garagining rahbari Lutsiyan Rruf shunday deb yozgan edi: "Varvarlar bizga qarshi fitna uyushtirdilar. Biz birlashmog'imiz va umumiy kuchimizni dushmanga qarshi yo'naltirmog'imiz kerak. Agar biz shunday qilmasak, biz mag'lubiyatga uchraymiz va oqibatda fan ham nobud bo'lishi muqarrar". Royxlinga uning do'stlari, maslakdoshlari maktub yo'llashar, bu esa uning oxirigacha kurashishga bo'lgan ishonchini mustahkamlar edi. 1513 yili u Maynsqa sudga chaqiriladi. Xalq uni tantanali kutib oladi. Uni qahramon sifatida sharaflydilar. Gumanistik va demokratik doiralarning madadi Royxlinga sud jarayonini o'z foydasiga hal etish imkonini beradi.

1514-yili u "Mashhur kishilar xatlari"ni e'lon qiladi. Bu to'plamda u Pfefferkorn va kyolnlik ruhoniylar bilan kurash tufayli uning nomiga kelgan xatlarni chop ettiradi. Manzara oydinlashadi. Gumanistik "partiya" katta kuchga egaligi hammaga ayon bo'ladi. Germaniya adabiy jamoatchiligi jaholatparastlar ham o'z javoblarini berishlarini kutdi. Gumanistlar bu ahvoldan foydalanib "Jaholatparastlar xatlari" (1515 -1-qism; 1517 -2-qism) ni e'lon qilib go'yo Pfeffkorn maslakdoshlarini yozishmalarini e'lon qilgandek bo'ladilar. Aslida bu obskurantlarga qaratilgan satira bo'lib, gumanistlar guruhi tomonidan yozilgan edi. Garchi gumanistlar tomonidan yozilgan bo'lsa ham, jaholatparastlarning xarakterlari, ularning manfaatlari shu qadar haqqoniy aks ettirilgan ediki, xatlardagi epistolyar uslub hattoki obskurantizm tarafdorlarini ham gangitib chalg'itar edi. Dastavval ular (obskurantlar) bu asarni mamnuniyat bilan kutib oldilar, o'z "partiya"lari saflarining mustahkamligi shahodatnomasi deb bildilar. Lekin tezda obskurantlar o'z xatolarini anglab, tasvirlab bo'lmas darajada g'azablandilar. Chunki "Jaholatparastlar xati" o'z nodonliklari va axloqsizliklarining yodnomasi edi. Satira ularni jahonga qanday bo'lsalar, shu tarzda nomoyon etgan edi – ya'ni mudroq nodonlikda, ma'rifat dushmanlari sifatida gavdalandirgan edi. Bu asar ularning nodonliklarini umummuhoamasiga qo'yib, butun o'qimishli Germaniya oldida sharmisor qilgan edi. O'z olimliklari bilan maqtangan bu magistr va doktorlar haqiqatda nodon (bilimsiz), hatto lotin tilidan

bexabar kimsalar bo'lib chiqdilar. Ularning bilimlari shu qadar nochor ediki, ular hatto “magister nostrandus”ni yoki “noster magistrandus”ning to'g'ri yozilishini ham bilmas edilar.

Hamma xatlar bir shaxsga – Ortuni Graysiga, ya'ni Kyoln obskurantlari yalovbardoriga yo'llangan. Uning ko'p sonli muxlislarining nomlari ham “gapiruvchi” nomlardan iborat: Gung, Labchertar, Eshakbon, Befahm, Garangquloq kabi. Ular juda ko'p masalalar bo'yicha o'z homiylaridan maslahatlar so'raydilar. Masalan, Haynrix Shvaxumel degan kimsa Orti undan ro'za kuni tuxum yeb gunoh qilgani yoki qilmaganini tushuntirib berishni so'raydi. Boshqa birovi – Konrad Oboltus ba'zi so'z va iboralarning kelib chiqishini qay darajada tushuntirayotganligini (to'g'ri yoki noto'g'riligini) bilmoqchi bo'ladi.

Obaltusning fikricha Merkuriy degan xudoning ismi “mera” va “kura” so'zlaridan tashkil topgan emish, chunki savdogarlar homiysi, savdogarlar esa o'lchov bilan sotadilar va hammalari tovuqxo'rlardir. Boshqa birovi masalan, xudojo'y Peter Toppning fikricha, ruhoniylarning grammatikani bilishlari shart emas emish, ularning yunon va yahudiy tillarini bilishlari nomuhim emish, “jaholatparastlar” Homer, Vergiliy va boshqa antik yozuvchilar haqida umuman tasavvurga ega emaslar. Ularning shaxsiy “ijodlari” esa poetik san'atni masxara qilishdan boshqa narsa emas. Ortuin Gratsiyga xat yozuvchilar gumanistlarga nafratlarini yashirmaydilar. Ular gumanizm ta'sirida jaholat parokanda bo'layotganini his etadilar, xalq orasida “olim”likka qiziqish aynib borayotganini e'tirof etishga majbur “jaholatparast maktublari” katta e'tibor qozondi. Sxolastlarni obro'sizlantirish gumanistlar pozitsiyalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. “Maktublarning” mualliflari hozirgacha ma'lum emas. Krot Rubsan (Erfurd) va kyolnlik Herman Gus birinchi qismning mualliflari deb taxmin qilinadilar. Ikkinchi qism esa Ulrix fon Hutten tomonidan bitilgandir.

ULRIX FON HUTTEN (*Ulrich von Chutten*, 1488-1523)

Ulrix fon Hutten nemis uyg'onish davrining eng iqtidorli publisistlaridan hisoblanadi. U iqtidorini, qalam qudratini Rim Papasi, knyazlarga qaratib kuchli, mustaqil, imperator tomonidan birlashtirilgan

Germaniya uchun kurashadi. Hutten eng avvalo jamoat sifatida o'z asarida siyosiy ruhni singdirgan edi.

Hutten kambag'allashgan dvoryan oilasidan bo'lib, Germaniya janubidagi Frankonida tug'ilgan. 11 yoshida Benetik monastrida diniy matlab bo'lish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Bu yerda u lotin tilini chuqur o'zlashtiradi. Monaxlik hayotiga nafrat ham o'sha paytlarda uyg'ongan edi. Keyinchalik u monastirdan qochib ketadi va uning Germaniya bo'ylab sarson-sargardonlik davri boshlanadi. Shu davrda gumanist Krot Rubson bilan yaqidan tanishadi. Erfurt va boshqa unversitetlarda tahsil ko'radi.

Hutten shoir sifatida ham o'z imkonyatlarini sinab ko'radi. 1511-yili lotin tilida uning "She'r tuzish san'ati to'g'risida" nomli poemasi yaratiladi. 1511-yili Hutten Italiyaga safar qiladi, otasi o'gitiga ko'ra Boloniya universitetida huquqshunoslik bo'yicha ma'ruzalar tinglaydi, qadimgi grek yozuvchilari, ayniqsa, Lukiyani va Arestofani ijodi bilan yaqindan tanishadi.

Huttenning yozuvchilik tajribasi uning satira va pomflet janriga moyilligini namoyish etadi. 1515 yil Vurtemberg gersogligining hokimi Ulrix xiyonatkorona ravishda uning inisi Hansni o'ldirib, qaylig'ini o'z jazmani qilib olmoqchi bo'ladi. Bu voqea dvoryanlarning g'azabini qo'zg'aydi. Qarindoshchilik tuyg'ularigina emas, tahqirlangan ritsarlik sosloviyasi Huttenni kurashga chorlaydi. U hokimga qarshi aybnoma – nutq yozadi. Hutten qarindoshlari tomonidan tarqatilgan aybnoma Germaniya sarhadlaridan tashqarida ham e'tibor qozonadi. Satira nemis jamoatchiligida katta taassurot qoldiradi. Bundan ruhlangan Hutten Ulrixning kirdikorlarini fosh etib, yana 4 aybnoma bitdi. Vurtemberg hokimini fosh etar ekan, u faqat o'z raqibini ko'zda tutibgina qolmay, butun knyaz despotizmini supurib tashlashni o'z vazifasi deb bildi. Uning satirasi yirik sotsial siyosiy umumlashmaga ega edi. Aybnomalarning kishilar ongiga ta'siri ham shundan. Hutten, avval qayd etganimizdek, "Jaholatparastlar xatlari"ning ikkinchi qismining faol mualliflaridandir. Shunga qaramay, Hutten publisistikaning eng yorqin sahifalari katolik cherkoviga qarshi kurashni ifodalashga bag'ishlangandir. Rimga, pop hokimiyatiga qaratilgan chiqishlar bilan u pop obro'sini to'kdi va bu bilan reformatsiya ishiga hissa qo'shdi. Ayniqsa uning popga qaratilgan "Musohaba", "Bezgak", "Vadisk yoki rimlik uchovlon", "Kuzatuvchilar", "Bulla yoki Krushbulla", "Qaroqchilar" asarlari eng yaxshi ijodiy me'rosini tashkil qiladi. Bu

asarlar lotin tilida ikki nashrda 1520 va 1521-yillarda e'lon qilindi. Popga qarshi kayfiyat Huttenning "Vadisk yoki rimlik uchovlon" musohabasida (dialogida) ayniqsa, ravshan ifodalangan. Bu o'z ruhiga ko'ra haqiqiy revolutsion proklamatsiya bo'lib, nemislarni Rimga qarshi ochiq isyonga undovchi asar edi. "Vadisk" Rim Papasida ildiz otgan barcha markazlarni uchlikka bo'ladi. Uning fikricha katoliklar Rimda uch narsani qadrlaydi: Papaning obro'si, xudojo'yalar qudrati va indulgensiya¹. Qashshoqlar va boylar uch xil "narsani" tamaddi qiladilar: qashshoqlar ko'kat, piyoz va sarimsoqpiyoz, boylar esa mehnatkashlar va xristianlardan undirilgan presentlar hamda o'ljalar. 60 sahifada uzluksiz shunday kamchiliklar sanab berilgan. Hutten tez-tez takrorga murojaat etadi, lekin uning satirasi borgan sari olovlanadi, nemislarning rimlik talonchilarga va mushtumzo'rlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga undaydi, ularning qonini so'rganlarning etini suyakka yopishtirganliklarini qahr bilan yozadi. "Suyakka borib yetgan haromzodalar endi miyani so'rishlari qoldi". "Bunday bo'rilarni xanjar bilan shilish o'rniga yunglarini silashimiz ularga qo'l tekkizishga hayiqmasligimiz kerak. Qachongacha biz g'aflatda yotamiz, xo'rliklarga, Germaniyaga keltirilayotgan zararga qachon qasos olamiz". U garchi Papaga qarshi kurashib mustahkam ritsarlik hokimiyatini tiklashga uringan bo'lsa ham, mayda dvoryanlik manfaatlarini himoya qildi. U ozodlik haqida ko'p yozdi, hayotning demokratik tuzumi, mamlakat yaxlitligi kabi shiorlar ostida "eski imperiya haqidagi mushtumzo'rlik huquqi haqidagi orzular" yashiringan edi. Huttenning "Musohabalar" asari Germaniyada shunday ham qizigan muhitni alangalatdi, mamlakatdagi Papaga qarshi kayfiyatni kuchaytirdi. Bu xabar Papa saroyigacha yetib bordi. Tashvishlangan Papa barcha diniy arboblarga va knyazlarga xat yo'llab, Hutteni tutib, zanjirband qilib, Rimga yo'llashni buyurdi. Hutten tepasida bulutlar to'plana boshladi. U o'lim dahshat solib turgan bir paytda cho'chimadi, nemis xalqiga murojaat etib, ularni birlashishga va dushmanga qarshi kurashishga chorladi. "Nemislar, uyg'oning, bo'yinni xam qilib hech narsaga yetishib bo'lmagach, qo'lga qurol olmoq kerak. Imillamang, xudo bizga yor", deb yozgan edi. Uning ayrim she'rlari va publisistik asarlarini 20-yillarda nemis tilida yozganligi xarakterlidir. U, shuningdek, o'z dialoglarini nemischaga ham tarjima qildi. Bu esa uning asarlarini o'quvchilar davrasi kengayishiga, ta'sir kuchining

¹ Rim Papasi tomonidan gunohlarni kechish haqida beriladigan yorliq

o'sishiga sabab bo'ldi. Hutten og'zaki targ'ibot bilan kifoyalanib qolmay, qo'lda qurol bilan kurashdi. Shu niyatda u 1519-yili ritsar, shvab ittifoqi sarkardasi Frans fon Zikingen bilan tanishdi. Ularning ijtimoiy-siyosiy manfaatlaridagi mushtaraklik Trier arxiyepiskopiga qarshi 1522-yili qo'zg'olon ko'tarishga undaydi. Lekin ritsarlar xalqdan, dehqonlardan butunlay ajralib qolganliklari sababli va ular timsolida o'z ezuvchilarini ko'rganliklari uchun ular bilan birlasha olmaganliklari sababli Zikingenning harbiy yurishlari muvaffiqiyatsizlikka uchraydi. Zikingen jangda og'ir yarador bo'ladi. Hutten esa qochishga ulguradi. Dastlab Germaniyada bir qal'adan boshqasiga yashirinib yuradi va Erazm Roterdamli huzurida panohtopish maqsadida Shvetsariyaga Bazelga o'tadi. Hutten faoliyatidan xabardor ehtiyotkor Erazm uni qabul qilmaydi. 1523-yilda o'lim to'shagidagi Hutten, yashashga hech vaqosi bo'lmay Surich orollaridan birida vafot etadi. Ulrix fon Hutten hayoti va ijodi vatanga, xalqqa xizmat qilishning go'zal namunasi bo'lib, uning asarlari xalqparvarligi bilan biz uchun doimo qimmatlidir.

ROTTERDAMLIK ERAZM (*Erasmus von Rotterdam, 1469-1535*)



Nemis gumanizmi tarixida Erazm Rotterdamlining alohida o'rni bor. Asli Niderlandiyalik Erazmning ma'naviy kamoloti G'arbiy Yevropa, qisman Germaniyada yashagan davriga to'g'ri keladi. U qadimgi klassik tillar, antik madaniyatning ajoyib bilimdoni edi. U o'z ijodida bu madaniyatni uzluksiz targ'ib etdi. Erazm ko'p sonli asarlarida jaholatparastlik-obskurantizm ustidan kuldi, gumanistik qarashlarning keng yoyilishiga munosib hissa qo'shdi. O'zi zamondosh bo'lgan voqelikka Erazm gumanistik ma'rifat kishisi mavqeidan baho berdi, ezilgan xalq taqdiriga achinish bilan qaradi. Rotterdamlik Erazm Geraldning nikohsiz tug'ilgan o'g'li bo'lib, maktabda asosan klassik tillarni

o'rganish bilan shug'ullandi, ko'p yillarni monastir dargohida o'tkazdi. So'ngra u Parijda universitet talabasi sifatida filologiya bilan shug'ullandi. Ish qidirib Yevropaning bir qancha shaharlarini darbadar kezdi.

1500-yilda Erazm lotin tilida antik yozuvchilar asarlaridan olingan maqol va matallar to'plamini chop ettiradi, keyinchalik bu kitob to'ldirishlar bilan bir necha bor qayta e'lon qilinadi. U antik mualliflar ijodining bilimdoni sifatida e'tirof etiladi. Yevropaning ko'pgina gumanistlari bilan do'stona aloqalar o'rnatadi.

U Tomas Mor bilan xat orqali aloqada bo'lib turadi. 1506-yili u Yevropa gumanizmining beshigi Italiyaga boradi, italyan kutubxonalari arxivlari bilan tanishib, qadimgi yunon va lotin tilidagi noma'lum qo'lyozmalarni o'rganmoqchi bo'ladi. U Italiyada butunlay qolish va xudojo'ylik ilmini ham kengaytirish imkoni bor edi. Unga daromadli va o'sha davr uchun faxrli cherkov martabasini egallash imkoni yaratildi. Lekin Erazmga ilmiy faoliyat uchun erkinlik zarur edi. Shu sababli u cherkov martabasini rad etadi.

1509-yilda Erazm Angliyaga boradi. Shu yerda u o'ziga jahoniy shuhrat keltirgan "Nodonlik maqtovi" (yoki "Nodonlikning ardoqli so'zlari") asarini yozadi. U "Evangeliya"(injl)ning yunon tilidagi tanqidiy matnini tayyorlar ekan, o'z filologik va teologik imkoniyatlarini namoyish etadi. Shuningdek, u xristianlikning ilk davrida yashagan katolik mualliflarining asarlarini sharhlash va nashrga tayyorlashga ko'p kuch sarf qildi. Ularnig ijodini tahlil etar ekan, Erazm o'zi zamondosh bo'lgan katolik cherkovi soddalik va samimiylikdan mahrum bo'lib, "cherkov otalarining vasiyatlari"ni buzayotganliklarini alohida ko'rsatdi. Shu yo'l bilan u reformatsiyani tayyorlayotgan edi.

Angliyada yashar ekan, Erazm Oksford universitetida din ilmidan va yunon tilidan dars berdi.

1514-yildan boshlab u asosan Bazelda izzat-ikromda yashadi. Uning ovozig Yevropaning barcha gumanistlari quloq tutar edilar. Uning kitoblari o'sha davr uchun katta tirajlarda tarqalar edi. U asarlari bilan sxolastikaga qarshi tanqidiy munosabatni kuchaytirar, insonlarga muhabbat, bilim va ozodlikka intilishni tarbiyalar edi. Lekin reformatsion harakat boshlanganda Erazm unga o'ta ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ldi.

Erazm 1524-yilda "Iroda erkinligi haqida suhbat" nomli risola yozib, unda shaxsning ilohiy kuchlar quli bo'lmay, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi yozadi. U keyinchalik protestantizm asoschilaridan biri,

“Bibliyani” nemis tiliga tarjima qilgan Martin Lyuter bilan bahsda gumanist sifatida ko’r-ko’rona ishonchdan tanqidiy tafakkurni, idrokni afzal ko’radi. Keyingi avlodlar hayotiga u o’zining ikki asari „Nodonlik maqtovi“, „Oddiy muloqotlar“ nomli satirasi bilan kirgan. „Nodonlikning ardoqli so’zi“ hazil ohangida yozilgan bo’lib, ijtimoiy hodisalarni tahlil qilar ekan, nodonlikni gapirtirib, uning voqeilikda juda katta mavqei borligini ko’rsatmoqchi bo’ladi. Bu bilan Erazm zamonasining ko’pgina chirkinliklarini fosh etib, ular ustidan kuladi. U o’z asarlarida inson hayotidagi hissiy bilish ibtidosining ahamiyatini ta’kidlaydi. „Agarda inson emotsional stixiya ixtiyorida bo’lmaganida edi, deb yozadi, inson zoti davom etmagan bo’lardi, xuddi shunday demoqchimiz? O’zim ham shunday deb o’ylovdim. Hech qaysingiz fikringa qo’shilmaydigan ahmoqlardan emassiz. Agar hayotga bir chimdimgina nodonlikni omuxta qilinmasa, unda g’am-anduh, zerikish, azob-uqubatlarni o’zi qolmaydimi?“.

Bu fikr bilan Erazm bizga Renessans (Uyg’onish davri) kishisi, buyuk hayotsevar stoicism¹, va asketizm²ni ko’rishga toqati yo’q kishi sifatida namoyon bo’ladi. U hayotni sevadi va uni qanday bo’lsa, shundayligicha qabul qilishni xohlaydi. Uyg’onish davrining buyuk olimi sifatida fanga nisbatan fidoiyligni qadrlaydi, lekin bir tomonlama berilishni yoqlamaydi.

Erazmning achchiq satirasi mehnat qilayotganlarga qaratilmagan bo’lib, mehnat ahli haqida hamdardlik ohanglarida qalamga olingan.

“Ardoqli so’zlar” asari insonga, xalqqa muhabbat bilan yo’g’rilgan. Erazm o’z g’azabini aqllilik, fan va hayot dushmanlariga qaratadi. Kitoblarining ommaviylikini va reformatsiyani tayyorlashdagi rolini shu bilan izohlash o’rinli. Erazmning “Adagiya” asari zamondoshlari orasida mashhur edi. Mazkur hikoyatlarning ayrimlari batafsil sharhlarga ega bo’lib, oshkora publisistik xarakter kasb etar edi. Masalan, suhbatlaridan birida burgut og’u tashuvchi, sukunat va osoyishtalikni buzuvchi, janglar va qaroqchilik uchun tug’ilgan “qush” sifatida tasvirlanadi. U o’zi zamondosh bo’lgan hokimlarda “burgutnamo” qiliqlarni, ya’ni, o’ziga qaram bo’lgan oddiy xalq osoyishtalikini qanday buzishlarini yaqqol tasvirlab beradi.


1518-yilda Erazmning suhbatlar tarzida yozilgan “Oddiy muloqotlar” kitobining birinchi nashri e’lon qilinadi. Bu kitob turmush mavzulariga

¹ Insonning o’zini aqlga bo’ysungan holda turli xil qiziqish va mayllardan tiyishga davat etuvchi falsafiy yo’nalish

² Zohidlik, tarkidunyochilik

bag'ishlangan turli suhbatlardan tashkil topgan bo'lib, unda turli tabaqa va yoshdagi, turli kasb-kor va manfaat egalari o'zaro suhbat quradilar. Natijada Germaniya va uning axloqiga dahldor ichki manzaralar chiziladi. Erazm xo'jayin va qarol munosabatlari, o'rta asrlardagi o'qitish tizimi, ruhoniylarning daromad dardidagi tashvishlari haqidagi suhbatlar orqali o'sha davr voqeligini jonlantirmoqchi bo'ladi. Shuningdek, u ushbu asarda sevgi va oila mavzusiga katta e'tibor beradi; xiyonatkor ayollar va erkaklar haqida yozib, sog'lom va sadoqatli, o'zaro hurmat va sevgi asosida qurilgan oilani himoya qiladi. Har doimgidek, Erazm monaxlar ustidan kuladi, cherkov aqidalarini tanqid qiladi. Kitobda Erazm ideali Yevseviy obrazi talqini orqali beriladi. Asar qahramonining shahar chetidagi ajoyib uyi, bo'g va polizi bo'lib, bo'g va poliz ne'matlari umum ixtiyorida bo'lishi kerak, deydi u. Bog'ning eshigi beva-bechoralar uchun har doim ochiq va tundagina bekiladi. O'z xarajatlari evaziga bo'lsa ham, yetim-yesirlar ko'nglini olsa bas. Bu bilan u kishilar qashshoqligining oldini olmoqchi bo'ladi. Yevseviyning ajoyib kutubxonasi bo'lib, o'z tanholigini kitoblar bilan mashg'ul bo'lishga, do'stlar bilan suhbatga bag'ishlaydi. Bu utopiyada Erazmning kuchli va kuchsiz tomonlari namoyon bo'ladi. Uning kamchiligi zamon kurashlaridan o'zini chetga olish bo'lsa, dahshatli voqelik ruhiy erkinlikka tashnalikni, teng huquqlilikni, sharoitga moslashmaslik kabilarga intilishi uning kuchli tomonlari edi.

Garchi asarlarida qahramonlar tanholikka intilsalar-da, yozuvchining shaxsiy hayoti sira tanholikda kechmagan. Yozuvchining hayoti uzluksiz kurashlar bilan to'liq bo'lib, insoniyat xotirasida Erazmning o'zi ozodlik uchun kurashchi sifatida abadiy yashaydi.



5. REFORMATSIYA DAVRI ADABIYOTI

1. Katolik cherkovi va siyosiy parokandalik
2. Nemis reformatSION harakatida uch yo'nalish
3. Martin Lyuter va katolik cherkovi
4. Tomas Myunser va dehqonlar harakati

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: katolitsizm, byurgerlik, protestantizm, anafema⁴, didaktik janr, Saksoniya idora tili.

Ilk gumanistlar, Royxlin, „Noma'lum kishilar xatlari“ning mualliflari, Rotterdamlilik Erazm sxolastikaga, cherkov jaholatiga qarshi yo'naltirilgan o'z ijodlari bilan reformatSIYAGA zamin tayyorlaydilar.

Katolik cherkovini isloh qilish uchun kurashni aks ettirgan reformatSION harakatni Germaniyada jiddiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sabablari bor edi.

Katolik cherkovining juda katta yerlari b'olib, dehqonlarni ayovsiz ezar, xalqni doimiy muhtojlikda tutishni o'z vazifasi, deb bilar edi. Papa nemis knyazliklari hayotiga aralashar, mamlakatning siyosiy parokandaligini qo'llab-quvvatlar edi.

Bu esa, tabiiyki, nemis jamiyatining kuchli noroziligiga sabab bo'lar edi. Katolisizm hokimligiga qarshi asta-sekin umummilliy oppozitsiya tarkib topa boshladi. Har bir sinf Rimga qarshi kurashda o'z manfaatlarini ko'rar edi.

Nemis knyazlari cherkov yerlarining birlashishini xohlasalar, burgerlar poplarsiz cherkov uchun, dehqonlar esa cherkov va feodal yer egaligiga qarshi sotsial tenglik uchun kurashishni istar edilar. Dehqonlarning talablari eng inqilobiy talablar edi. Nemis ReformatSIYASI harakatida uchta yo'nalish: knyazlik, Lyuter rahbarlik qilgan byurgerlik va Myunser bosh bo'lgan xalq reformatSIYASI mavjud edi.

⁴ La'natlash, dinidan chiqarish, murtad deb e'lon qilish, cherkovdan chetlatish




1517-yili monax Martin Lyuter Vittenbergda Papa hokimiyatini suiiste'mol qiluvchilarga qarshi qaratilgan 95 tezisini e'lon qiladi. Bu katolik cherkoviga qarshi chiqish uchun o'ziga xos turtki bo'lib, omma orasida keng tarqaldi. Butun german xalqi harakatlantiruvchi kuchga aylangan edi. Lyuter reformatorlik faoliyatining dastlabki bosqichida o'zini dadil tutdi.

U taklif etgan cherkov islohi protestantizmning ko'rinishlaridan biri edi. Lyuter sidqidildan Tangriga ishonuvchi kishi o'z qalbini faqat xudoga iltijo qilish bilan qutqarishi mumkin, deb o'rgatadi. Bu bilan poplar va Rim Papasining vositachiligiga hojat yo'q demoqchi bo'ladi. U cherkov aqidalarining zarurligi, katolik dogmalarining muqaddasligi haqida cherkov ta'sis etgan qonun-qoidalarining shartligini rad etdi va keyingi paytda noto'g'ri talqin etilgan (matni buzilgan) "Injil" va "Tavrot"ning matnlariga bevosita murojaat etishga chaqirdi. Lyuter o'z ta'limotini alohida g'ayrat bilan himoya qildi. U chaqmoq singari Rim Papasi xizmatkorlarini kuydirishga, ulardan qonli o'ch olishga undadi. Papaga qarshi anafemaga berilgan, cherkovdan yuz o'g'irgan Lyuter 1520-yili Papa farmonini yoqib yuboradi va o'z jasorati bilan xalq hurmatiga sazovor bo'ladi.

U hatto Vorms reyxstagida uni (1521-yili) dahriylikda ayblanganlarida ham o'z e'tiqodidan qaytmadi. Bu paytda u reformatsion harakatning haqiqiy dohiysiga aylangan va xalq ko'magiga tayangan edi. Lekin dehqonlar urushi boshlangach, Lyuter ikkilanib qoldi. Dastlab u isyonchilarga hamdardlik bildirgan, ularning talablari o'rinli ekanligini ta'kidlagan bo'lsa ham, xalq ozodlik alangasi mavjud tuzumga xavf solib, mamlakatning yangi-yangi hududlariga yoyilgan sari Lyuter sekin-asta o'nglar tomonga o'ta boshlaydi.

U o'zining „Dehqonlarni halok etuvchi qaroqchilik to'dalariga qarshi“ degan asarida knyazlarga isyonchilarni „Bo'g'ish lozim“, deb maslahat beradi. „Qo'zg'olon ko'targan kishidan zaharliroq, zararliroq,

shaytonroq maxluq bo'l-masa kerak", deb yozgan edi. „U, - deb davom etadi Lyuter, - quturgan itga o'xshaydi, quturganni esa o'ldirish lozim.“




Xristianlarni yarashtirish g'oyasi uchun Lyuter xalqni sotsial qullikka mahkum etishga, o'z erki uchun kurashish huquqiga qarshi chiqishiga rozi. Shunga qaramay, Lyuterning xizmatlari shubhasizdir.

U Rim Papasiga qarshi jamoatchilik fikrini uyg'otdi, Germaniyaning katolik cherkovi azobidan qutula

olishiga yordam berdi. Erazm, Royxlinlar singari u xalqni turli dogmatik tasavvurlarga tanqidiy yondoshishga o'rgatdi. Bu o'rta asr sharoitida, cherkovcha fikrlashga emas, toat-ibodatga undab turgan bir paytda juda katta progressiv ahamiyatga ega edi.

Lyuter nemis adabiyoti tarixida ham katta o'rin tutadi. Uning yozuvchilik, tarjimonlik, qo'shiqchilik faoliyati bunga misoldir.

Ayniqsa uning "Injil" tarjimoni sifatidagi xizmati buyukdir. Lyuterning e'tiroficha, bu tarjimasi "Saksoniya idora tili"ning grammatik normalarini asos qilib olgan bo'lib, bu sheva nemis jamiyati keng tabaqalari orasida tarqalgan edi. Shu bilan birga Lyuter tarjimasidagi "Injil" leksik sostaviga ko'ra, chinakam xalq kitobi edi. Lug'ati boy jonli xalq tili imkoniyatlaridan keng foydalan-gan edi.



O'z til reformasi bilan Lyuter german adabiy tiliga asos solgan edi. U tarjima qilgan "Injil" Germaniyaning barcha chekkalarida o'qilar, xalq dilida yagona til haqidagi tushunchani tarbiyalar, bu esa millatning birlashuviga xizmat qilar edi. Lyuter didaktik janrda asarlar yaratdi. Ezopga taqlidan "Ezopona masallar" yaratdi(1530). Uning sher va

eshak haqidagi allegorik hikoyasida aytilishicha, har ikki jonivor taxtga **da'vogarlik** qilib, aqllilik va epchillikda bellashadilar. Eshak g'olib chiqadi. Lyuter hokim tabaqalarning eshaknamo nodonligi haqida hech **ikkilanmay** yozadi. “Shunday qilib, Eshak qirol bo'lib qoldi, uning **ajdodi** hozirgi kunda ham barcha hayvonlar ustidan hokim”.

Lyuter ko'plab diniy qo'shiqlar muallifi hamdir. U nemis tiliga **psalmalarni** tarjima qilib qolmay, o'z ta'limoti prinsiplarini ham himoya qildi. Lyuter pozitsiyasi emotsional, nemis xalqining Reformatsiya davridagi ruhiy ko'tarinkiligini o'ziga singdirgan optimizm bilan **sug'orilgan**. Uning “Parvardigor – kuchli madadkor” nomli qo'shiqning matn va ohangini ijod qildi.

1524-yili Germaniyada millat tarixining yirik voqealaridan biri **dehqonlar urushi** boshlandi.

TOMAS MYUNSER (1540- 1525)

Dehqonlar ommasining e'tirof etilgan dohiysi va mafkurachisi Tomas Myunser edi. U o'zining ijtimoiy-siyosiy programmasida **dehqonlar demokratiyasi** talablaridan ancha ilgari ketgan edi.



XVI asrda Germaniyada T.Myunser g'oyalarini hayotga tadbiiq etuvchi va g'alabaga eltuvchi kurashni boshqaradigan sinf mavjud emas edi. O'zi ruhoni bo'lgan T. Myunser “yerda xudoning jannatini” yaratishga boshqalarni undar edi. U olijanob maqsadlarga xizmat qilishni ruhoniylkning chinakam irodasi, deb bilgan edi. Uning ta'limotiga ko'ra, inson ruhi turli - tuman diniy aqidalar sirtmog'idangina emas, sotsial va siyosiy zulmdan ham ozod bo'lishi kerak. Bu masalada u Lyuter bilan kelisha olmas edi. Yerda “xudoning jannatini yaratish” **mulkdorlikni**, sinfiy tengsizlikni yo'qotmay turib mumkin emas, deb hisoblar edi u.


Myunser shaxsiy mulkni tan olmas, mehnatkash xalqqa tegishli bo'lgan siyosiy tuzum uchun kurashar edi. U Lyuterni insonni o'z erkidan, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan mahrum etib, dinni

ezuvchilar xizmatiga berib qo'yganlikda aybladi. "Dunyodagi eng yomon narsa,- deb yozadi Myunser,- bechora kambag'alga hech kim yordam qo'lini cho'zmaydi, kuchlilar nima xohlasalar shuni qiladilar... ular barcha jonivorlarni o'z mulklariga aylantirib olganlar. Suvdagi baliqlar, osmondagi qushlar, zamindagi o'simliklarning hammasi ularning ixtiyorida. Shu sababli ular kambag'allar orasida "o'grilik qilma - xudoning irodasi shu", deb aytadilar-u, o'zlari bunga amal qilmaydilar. Shunday qilib ular barchani qisib-qimtiydilar – kambag'al dehqon va hunarmandlarni talaydilar. Oddiy xalq arzimas narsani olguday bo'lsa, buning uchun uni osadilar, doktor Lyugner (aldoqchi Lyuter demoqchi) bo'lsa, ularga fatvo beradi.

Myunser tolmas siyosiy tadqiqotchi bo'lib, isyon g'oyalarini diniy formada, "Injil"dan keltirilgan misollarga suyangan holda xalq qalbiga singdirar edi. Buning uchun u cherkov kafedrasidan foydalanar, knyazlarning ta'qib qilishiga qaramay uning ma'ruzalarini tinglashga ko'plab kishilar to'planar edilar. Myunser ularning qalbida ezuvchilarga nisbatan nafrat uyg'otar va kurashga tayyorlar edi.

1524-yili iyunda dehqonlar urushi boshlanib, bir yil mobaynida Germaniyaning katta territoriyasiga yoyildi. Isyonchi dehqonlar qahramonona jang qildilar. Myunser bu paytda Myunxauzenda bo'lib, bu yerda isyonchilar 1525-yil martida hokimiyatni o'z qo'llariga oladilar va Myunser rahbarligida kommuna tuzadilar. Lekin kuchlarning teng emasligi Frankenxauzen yaqinidagi jangda Myunser otryadlarining mag'lubiyatiga sabab bo'ladi. O'zi raqiblari tomonidan tutilib, turli qiynoqlarga duchor qilinadi va 1525-mayida o'ldiriladi.

Dehqonlar urushi voqealari feodal tuzumiga qarshi zarba bo'ldi. Buni aks ettirgan katta adabiyot paydo bo'ldi. Revolutsion lagerda tarqatilgan varaqalar qo'ldan-qo'lga o'tdi, nomalarni sayyohlar boshqa joylarga ham tarqatdilar. Bitiklarning hammasi jonli nemis tilida yozib olinganligidan xalq orasiga tez yetib borar, ko'pchilikning mulkiga aylanar edi. Eng ommaviy janr qo'shiq bo'lib, u kurashga ilhomlantirar, kishilarni jangga chorlar edi.



6. BYURGERLIK ADABIYOTI

1. “Ahmoqlar” satirasi
2. Sebastian Brant va byurgerlik satirasi
3. Hans Saks va uning “Ishyoqmaslar” satirasi
4. Uygʻonish davri va xalq kitoblari

Mavzuga doir tayanch soʻz va iboralar: maysterzinger (meistersinger), maysterzang (meistersang), sotsial paratizm, festnaxshpiel (festnachspiel), Til Oylenshpigel (*Till Eulenspiegel*), shildburger (*Schildbürger*), Doktor Faust afsonalari.

Germaniyada uygʻonish davrida oʻz dunyoqarashi bilan byurgerlarga yaqin boʻlgan yozuvchilar ijodi rivoj topdi.

Bu asarlarga didaktizm muhri bosilgan boʻlib, satirik yoʻnalishga ega edi. Ularda feodal jamiyatning turli kamchiliklari aks ettirilar,



Sebastian Brant (1457-1521)

voqeilikning haqqoniy tasviri jonlantirilar edi. Byurgerlik adabiyoti reformatsiya harakatida faol qatnashdi. (H.Saks, T.Murner va b.). Byurgerlik satirasining boshlovchilaridan biri nemis gumanisti Sebastian Brant boʻlib, uning hayoti haqida juda kam maʼlumot saqlanib qolgan. Lekin u keng bilimli, lotin tili va Rim mualliflari asarlarini yaxshi bilgan ijodkor sifatida shuhrat qozongan. U 90-yillarda Bazel (Shvetsariya) universitetida professor lavozimida va Strasburg shahri kotibi martabasida xizmat qilgan.

U “Ahmoqlar kemasi” (Das Narrenschiff, 1494) satirasi bilan mashhur boʻlib, bu asarda turli yosh, kasbkor, va tabaqa vakillarining qiyofasini fosh etadi. “Ahmoqlar kemasi” oʻnlab axloqiy hikoyalarni oʻzida mujassamlashtirgan sheʼrlardan iborat boʻlib, jonli nemis tilida yozilganligi bilan xarakterlidir.

Brant mazkur asarida Germaniyadagi barcha tentaklarni bir kemaga joylashtiradi. Bir joyda toʻplangan “nodon xalq” *Narrenstadt*ga –

Tentagiston o'lkasiga yo'l oladi. Nodonlar kema qayoqqa suzayotganini va halokatga uchrashi hech gap emasligini ham bilishmaydi. Brant fikricha, o'zining ko'p sonli illatlaridan qutulish imkoniga ega bo'lmagan mamlakat halokatga uchrashi muqarrar. Qutqarilishning yagona yo'li – jamiyatni axloqiy illatlardan forig' etishga qobil bo'lgan chinakam fandır. S.Brant umumxalq e'tiboriga turli xil tentaklarning butun boshli galereyasini tavsiya etadi. Bularning ichida turli kitoblarni yig'uvchi, ammo hech qachon o'qimaydigan bibliofillar, sharlatanvrachlar, maqtanchoqlar, xalqning ishonuvchanligini suiiste'mol qiluvchi astrolog-munajjimlar o'z nodonliklarini boshqalarga yuqtiruvchi olimlar va boshqalar bor.

S.Brant satirik an'alarining iste'dodli davomchisi Tomas Murner bo'lib, uning asarlari sotsial o'tkirliги bilan ajralib turadi. "Nodonlar la'nati" va "Qamchi sexi" Murnerning eng yaxshi satirik asarlaridir. T.Murner mazkur asarlarida o'z g'azabi kuchini o'zi zamondosh bo'lgan jamiyatning sotsial yaralariga qaratadi.

Ba'zi cherkov xizmatidagilarning axloqiy tubanligi, yuqori martabali cherkov amaldorlarining cherkov mansablarini pullashlari va boshqa chirkinliklarni nafrat bilan bayon etadi, ularni ochko'z bo'rilarga o'xshatadi.

HANS SAKS (1494-1576)



Hans Saks uyg'onish davri nemis byurgerligining yirik shoiridir. U o'rta asr Germaniyasining eng ravnaq topgan shaharlaridan biri Nyurenberg shahrida tug'ilgan. Shoir juda ko'p fanlar bo'yicha saboq oldi. Keyinchalik kosiblikka o'rgana boshladi. Saksda badiiy ijodga qiziqish juda erta boshlandi. U yoshligidayoq maysterzingerlar ijodining asoslari bilan tanishadi. Maysterzang – kosiblar san'ati bo'lib, hayot bilan chambarchas bog'liqdir. Maystersingerlar o'z davralariga faqat kosiblar tabaqasigagina mansub

kishilarni kiritganlar. Saksning ijodi haqqoniy hayotiy voqealarga boy. Uning asarlarida real hayot o'zining mohiyati sotsial qarama-qarshiliklari bilan namoyon bo'ladi.

“Raqsdagi shayton” qo'shig'ida didaktizm elementlari kuchli bo'lsa ham, uning asosiy qimmatlari hayot haqiqatiga yaqin detallarda fosh etuvchilik kuchiga ega bo'lgan. Do'zaxni tark etgan shayton yerda, xoliroq joyda oz bo'lsa ham dam olishga qaror qiladi. Qarasaki, bu yerda ham tinchlik yo'q. U paydo bo'lgan qal'ada mayxo'rlik, amaldorga sajda qilish, xoinlik va boshqalar avjida. Saks bu asari bilan o'quvchini feodal tuzumga tanqidiy munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. O'z hisobiga ko'ra Saks maysterzang uslubida 4000 dan ortiq qo'shiq bitgan. Lekin muallif ularni o'z to'plamlariga kiritmagan. Aftidan u bu qo'shiqlarni o'z ijodiy merosining sara qismi, deb hisoblamagan bo'lsa kerak.

Germaniyada reformatsiya boshlanganda Saks jur'at bilan Lyuterni qo'llab chiqdi. Lyuterning Papaga, katolik cherkoviga qarshi chiqishini Saks bulbulning sayrashiga qiyoslaydi va kunni ulug'lab, tunning tamom bo'lganligini yozadi. Bulbul kuyi sherni(Papani), zaharli ilonlarni (monaxlar), ochko'z bo'rilarini (ko'p sonli poplar to'dasi) g'azabga keltiradi.

Saks Lyuter ta'limotining g'olib kelishiga ishonadi.

Saksning sevgan janrlaridan biri shvanklar edi. Turli-tuman mavzudagi uyg'onish davri byurgerlik hayotining chinakam ensiklopediyasi bo'lgan bu asarlarda byurgerlik turmush-tarzi, er va xotin, ota-ona va bolalar, xo'jayin va xizmatkorlar, usta va shogirdlar munosabatlari o'z ifodasini topgan.

Saksning shvanklari bir xil sxemada qurilgan bo'lib, dastlab yozuvchini bezovta qilgan hodisa bayon etiladi, so'ngra ibratomuz baho beriladi. Masalan: yetti ayol buloq bo'yida to'planib, o'z erlari ustidan shikoyat qila boshlaydilar. Birining eri xotiniga sodiq emas, ikkinchisining eri xasis, uchunchisining - dangasa, to'rtinchisining esa aroqxo'r va hokazo. Saks ularning g'azabini qo'llab-quvvatlamaydi, ularga xayrixoh emas, bunday qilish, alangalangan alamzadaliklariga kerosin sepish bilan barobar bo'lar edi. Ayollarni diqqat bilan tinglab, shu zahotiy oq erkaklarga so'z beradi. Erkaklarning ham o'z juftihalollari haqida o'z gaplari bor. Saks tarbiyaviy tadbirlarni tavsiya etadi.

Saks ijodida eng keng tarqalgan mavzu ishyoqmaslikni fosh etishdir. “Ishyoqmaslar mamlakati” satirasi shunday asarlardandir. Bu asarda

ma'murlikdagi o'lka tasvirlanib, bu o'lkada mehnat qilish shart emas, uylar piroglardan qilingan, tomlari chalpaklar bilan yopilgan, sosiskalar bilan o'ralgan, ko'chalarida qovurilgan tovuqlar va g'ozlar yurishadi. Bu mamlakatda eng ishyoqmas kishi mukofotga sazovordir. Mehnatsevarlikning obro'si bir chaqa. Saks o'z asarida hukmron sinflarning sotsial paratizmiga bolta urib, mehnat ahlini sharaflaydi.

Hans Saks dramaturg sifatida ham mashhur edi. U ko'plab festnaxshpiel¹ asarlarining muallifidir. O'zining eng yaxshi shvank va festnaxspiellarida hayotni haqqoniy tasvirlaydi. "Jannatdagi shogird" asarida dehqoncha nodonlik, soddalik satiraga olinadi. Shogirdning nayrangiga laqqa tushgan dehqon ayol dunyodan ko'z yumgan erining u dunyoda muhtojlik ko'rmasin, deb topgan-tutganini shogirdiga tutqazib yuboradi. U o'ziga kelganda shogird juftakni rostlab qolgan edi.

XALQ KITOBLARI



Ilk bora uyg'onish davrida ommaviy demokratik kitobxonga mo'ljallangan (muallifi noma'lum) adabiyot paydo bo'la boshlaydi. Bu adabiyotni turli atorlik mollari bilan shahar va qishloqlarni kezgan baqqollar tarqatar edilar.

Xalq adabiyoti janr va g'oyaviy tematik jihatidan rang-barang bo'lib, ular ichida hayvonot dunyosi haqidagi hikoyatlar, shvank, ballada va qo'shiqlar mavjud edi. Bular ichida xalq ijodkorligining namunalari bo'lgan "Til Oylenspiegel", "Shildburgerlar",

"Doktor Yohan Faust voqeasi" kabi asarlar e'tiborga loyiqdir.

Til Oylenspiegel haqidagi hikoyalar aftidan ilk bora XVI asrdan boshlab yaratila boshlagan. Oylenspiegel real mavjud shaxs bo'lib, o'z nuqtadonligi, o'tkir so'zligi bilan mashhur bo'lgan. Keyinchalik xalq og'zaki ijodidagi barcha o'tkir zehnilik, tagdor luqmalar, xalq xotirasida muhrlanib qolgan donishmandliklar shu qahramon nomi bilan bog'liq holda qo'llaniladigan bo'ldi.

¹ 3-4 personaj qatnashadigan dialogli muloqot

Shunday qilib yig'ma obraz – poplar, dvoryanlar, savdogarlar, barcha o'z baxtini xalq badbaxtligi evaziga yaratuvchi kishilar ustidan kuluvchi quvnoq dehqon yigit Oylenshpigel obrazi paydo bo'lgan.

1515-yili yuqori nemis dialektida “Til Oylenshpigel g'aroyibotlari haqida kitob” e'lon qilinib, o'rta asr hazil-mutoyibalari, sotsial protestantlarning shvanklarda o'z ifodasini topgan shumliklari, demokratik adabiyotda uchraydigan xalq orzu-armonlarini ifodalovchi ibratli hikoyatlar Til nomidan hikoya qilinadi. Uning siyomosida xalq quvnoqligi, hazilga moyilligi, haq ishning g'alabasiga ishonch o'z ifodasini topgan. Quvnoq yumoristik tarzda yozilgan “Shildburgerlar” (Shild shahri fuqarolari) kitobi voqeilikning qamrovi “Til Oylenshpigel” ga nisbatan kengroq. Bu kitobda hikoya qilinishicha, shildliklar o'z zukkoliklari bilan nom chiqarganliklaridan ularni turli davlatlarga maslahatchilik lavozimiga taklif etar edilar. Natijada Shildning o'zida hayot izdan chiqa boshlaydi. Erlarining jahongashtaligidan to'ygan ayollar isyon ko'taradilar va erlari o'z yurtlarini tark etmaslik yo'lini qidirib, “zukkolikdan nodonlik yordamida qutulish” chorasini topadilar. Ular o'zlarini jinnilikka soladilar. Nodonlik nayranglarining chegarasi yo'q. Shild fuqarolari ratusha quradilar-u, deraza qurishni unutadilar. O'z xatolarini tuzatish maqsadida u yerga qoplarda va chelaklarda yorug'lik tashiydilar. Bu, tabiiyki, ratushani yoritmaydi. Keyin ular imperator ijozati bilan tuz ekishga qaror qiladilar. Devorda o'stirgan o't-o'lanlarini yedirish uchun mollarni tepaga ko'taradilar. Mushukdan qutulish uchun u yashaydigan omborxonaga o't qo'yadilar. Yong'in natijasida butun qishloq yonib ketadi. Shild fuqarolari esa butun dunyoga tarqalib ketishga mahkum bo'ladilar. Shunday qilib, nodonlik shildburgerlarni qutqarmaydi, aksincha ular badbaxtligining manbai bo'ladi.

Doktor Faust haqidagi kitob esa, o'z jiddiyligi, mazmunining drammatizmga boyligi bilan ajralib turadi. Bu asarning bosh qahramoni – tirishqoq, o'tkir tafakkur sohibi, cherkov dogmasi va sxolastikasi zanjirini uzishga intiluvchan shaxs, haqiqiy bilimni baholovchi, hayotning barcha gunohlari, quvonchlari va makrlari bilan sevuvchi inson.

Faust tarixiy shaxs bo'lib, u XVI asrning birinchi yarmida yashagan, mohir shifokor, sehrgar, lekin ko'proq xalq ishonchidan ustalik bilan foydalanuvchi sharlatan. Xalq Faustga ham Til singari turli-tuman mo'jizalarni yopishtiravergan. Natijada Faust - o'z qiziqishini qondirish,

dunyo sir-asroridan voqif bo'lish evaziga qalbini shaytonga sotgan afsonaviy qahramon paydo bo'lgan.

1587-yili Mayndagi Frankfurtda Yohan Shpis matbaasida "Doktor Yohan Faust haqidagi afsona" kitobi chop etiladi.

Kitobning muallifi noma'lum. Kitob uch qismdan iborat bo'lib, dastlabki ikki qismida Faust Mefistofel yordamida o'zining bilimga chanqoqligini qondiradi. Koinot bilan tanishadi. Qanotli ajdarholarga minib sayyoralarga sayr etadi, turli mamlakatlarga sayohat qiladi. Kitobning uchinchi qismi jonliligi bilan ahamiyatga molikdir. Faust bu yerda o'ta sehrli mo'jizakor sifatida namoyon bo'lgan. Imperator V ning xohishiga ko'ra, u Iskandarning (Aleksandr Makedonskiy) va uning xotining arvohini chaqiradi. Bundan tashqari Faust mo'jizakor ishlarni amalga oshiradi - ritsarga kiyik shohini yopishtirib qo'yadi, dehqonning pichanini arava-yu oti bilan yeb qo'yadi, graf ayoliga qahraton qishda yangi pishgan mevalar taqdim qiladi, tog' cho'qqisida qal'a bunyod etadi va hokazo. Nikoh udumlariga amal qilmay, go'zal Yelenani o'z ixtiyoriga oladi, u unga Yust ismli o'g'il tug'ib beradi.

Va'dasining ustidan chiqish daqiqalari yaqinlashganda kitob qahramoni jur'atsizlik qiladi. O'zi qilgan barcha gunohlar uchun tavba qilib xristianlik bilan yarashish fikrini aks ettirgan nutq bilan talaba do'stlariga murojaat etadi: Nodon kishilar jamiyati meni shayton aqldan ozdirgani singari sizni yo'ldan urishga yo'l qo'ymang. Tirishqoqlik va ixlos bilan cherkovga borishni kanda qilmang, shaytonga hay bermang. Xristga bo'lgan imoningiz va xudoga ibodatingiz bilan shaytonga qarshi kurashing", deydi. Kitobxonlarni Faust o'z tavgasi bilan emas, hamma narsani bilishga bo'lgan intilishi fan va she'r vositasida barcha narsani egallashga bo'lgan ishtiyoqi bilan band etadi. Va shu taxlit u jahon adabiyotiga, aynisqsa Gyotening o'lmas tragediyasiga olib kirildi. (Marlo, Lessing, Klinger, va boshqalar.)

Uyg'onish davridagi xalq ijodi, hikoya, epik asarlar bilangina emas, lirik janrlarning yaratilishi bilan ham xarakterlidir. Bunday asarlarda xursandchilik va qayg'u kunlaridagi xalq qalbi xalq ongining ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi. Bular og'izdan og'izga ko'chib o'tib yuradigan qo'shiqlardir. Bu qo'shiqlarda kelajak haqidagi orzular, baxtli kunlarning kelishi niyatlari mujassamlashtirilgan.

7. XVII ASR NEMIS ADABIYOTI

1. Martin Opis va uning nemis she'riyati haqidagi kitobi
2. Hans Grimmelshauzen "Simplisimus" muallifi
3. Andreas Grifius shoir va dramaturg sifatida

Mavzuga doir tayanch so'z va iboralar: barokko¹, klassisizm², didaktik va bayoniy poema, sindik³, maishiy drama, epigrama⁴

XVII – asrda Germaniya iqtisodiy va siyosiy tanazzul holatiga tushib qolgan edi.

Yaqingina savdo karvonlarining yo'li Germaniya orqali o'tgan va mamlakat xo'jaligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, endi bu yo'llar boshqa mamlakatlar orqali o'tib, Germaniyada savdo, iqtisod va boshqa sohalarni turg'unlikka olib kelgan edi.

Yevropaning qator mamlakatlarida bu davrda milliy davlatlarning shakllanishi nihoyasiga yetgan bir paytda Germaniyada yirik feodallar hukmronlik qilgan feodal parokandalik avjiga chiqqan krepostnoylik munosabatlari kuchaygandan kuchaygan edi.

Nemis xalqining qashshoqligi ayniqsa 30 yillik urush paytida (1618-1648) Germaniyaning tinka madorini quritgan edi. Shu paytda Germaniya aholisining to'rt dan uch qismidan qirg'in-barot urushi tufayli mahrum bo'lgan edi.

Bu tabiiyki, nemis madaniyatini ravnaq toptirishga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Kutubxonalar o'g'irlangan yoki o't qo'yilgan, universitetlar vayron etilgan yoki yopilgan edi. Germaniyaning eng peshqadam kishilari ham mamlakat porloq kelajagiga shubha bilan qarar edilar.

XVII asr nemis adabiyotida ikki yo'nalish: barokko va klassisizm keng tarqalgan edi. Ilgari "barokko" termini adabiyotshunoslikda qo'llangan bo'lsa, keyinchalik san'atshunoslikda ham paydo bo'ldi. Bu yo'nalish ziddiyatli bo'lib, bu oqimga turli yo'nalishga mansub yozuvchilar kirar edi. Germaniyada nemis feodalizmining tanazzuli sharoitida vayron etuvchi urush tufayli bu yo'nalish yuzaga keldi. Barokko adabiyoti uchun ishonchsizlik, shubha, pessimistik kayfiyat,

¹ San'atda, xususan me'morchilikda: 16-18-asrlarda rasm bo'lgan serhasham badiiy uslub

² 17-19 asr boshlarida adabiyot va san'at: Yunon va lotin adabiyoti va san'ati namunalariga taqlid qiluvchi oqim

³ Qadimgi Yunonistonda sud jarayonidagi himoyachi

⁴ Qisqacha hajviy she'r

mistika xos edi. Bu oqimga mansub adabiyot vakillari asarlarida hayotning mo'rtligi, jaholatning hukmronligi, ijtimoiy illatga qarshi kurashning besamarligi kuylanar edi. Barokko adabiyotining eng ko'p murojaat etgan mavzusi qiynoqli iztiroblar, shaytoniy mayllar, hayot bema'niliklari hisoblangan. G'oyaviy va badiiy qimmatga ega adabiyot bilan birga (Grifius, Mosherosh) barokkoda boshqa yo'nalishdagi adabiyot ham mavjud edi. Germaniyada feodal reaksiyasining kuchayishi saroy ahli didiga moslashtirilgan presioz adabiyotning paydo bo'lishiga olib keldi.

Sezen, Sigler, Loenshteyn o'z o'quvchilarini qayg'uli voqelikdan chalg'itish yo'lidan bordilar. Ular asarlaridagi qahramonlarning g'aroyib sarguzashtlari, ermaklari bilan o'quvchi ongini band etmoqchi bo'ldilar.

Bunday adabiyotning yirik vakillaridan biri Daniel Kospar Loenshtayn (1636-1683) "Arminiy va Tuspeldo" romanining muallifidir. Ammo Loenshteyn qahramonlari qadimgi germanlardan ko'ra XVII asr oqsuyaklariga o'xshab ketadilar.

Loenshteyn, shuningdek, turli qo'rqinchli tafsilotlar bilan urish, o'ldirish, qiynoqlarni aks ettirgan tragediyalar muallifi hamdir.

Voqeilikdan ajratilgan bunday asarlarining antirealistik xarakteri muallifning konservativ qarashlari bilan bog'liq.

Ammo Germaniyada XVII asrda milliy fojeani chuqur anglagan va xalq bilan birga iztirob chekkan, o'zlaricha xalqiga ko'maklashmoqchi bo'lgan yozuvchilar ham bor edi. Bunday yozuvchilar qatoriga eng avvalo X.Grimmelshauzen, A.Grifius, F.Logau, Mosherosh, Opislarni kiritish va ularni nemis klassisizmning boshlovchilari deb atash mumkin.

Germaniyadagi klassisizm Fransiyadagi kabi ahamiyatli adabiy yo'nalish darajasiga ko'tarilmaganligining sotsial sabablari bor. Chunki nemis yozuvchilari knyazlar va monaxlardan ko'mak kutdilar.

Nemis klassisizmining yirik namoyandalaridan biri Martin Opisdir. (1597-1639). O'ziga to'q byurger oilasidan chiqqan Martin Opis saroy shoiri sifatida o'z faoliyatining katta qismini yirik knyazlar huzurida o'tkazgan. Nemis adabiyotining tanazzulidan tashvishga tushgan Opis uni qaytadan yuksaltirish yo'llarini qidiradi. O'zining asosiy nazariy risolasi "Nemis she'riyati haqida kitob" da (Buch von der deutschen Poeterie – 1634) keng ko'lamda vatan adabiyotining keyingi taraqqiyoti muammolarini tahlil etadi. Bunda Opis fansuz adabiyotiga suyanadi.

Opis ona tilining ravnaqi va boyishiga alohida e'tibor qaratadi. Chunki til she'riyat ravnaqining bosh omili, vositasi hisoblanadi. Uning fikricha, o'sha davrdagi nemis tili adabiy normativ til darajasiga ko'tarilgan emas, u dialektizm va provinsializm qusurlaridan tozalanmagan. Opis yozuvchilarni o'z ifodaliligi bilan boshqa tillardan sira qolishmaydigan nemis tilida yozishga da'vat etdi. U til aniqligi va sofligi uchun kurashdi. M.Opis tomonidan amalga oshirilgan she'r islohi katta ahamiyat kasb etadi. U sillabo-tonik she'r tuzish tamoyillari uchun kurashdi. Bu usul nemis she'ruyatida keyinchalik o'z ravnaqini topdi. Klassisizm tarafdori sifatida u adabiyotda qat'iy normalarga rioya qilish zarurligini uqtirdi. M.Opis yuqori janrlarda tragediya, epopeya va boshqalarda oddiy xalq ifodasi bo'lishiga qarshi edi.

Garchi Opisning fikrlari to'laligicha muvaffaqiyat qozonmagan bo'lsa ham uning faoliyati she'riyatning keyingi rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. M.Opis shoir sifatida xalq o'rtasida katta ta'sir va obro'ga ega edi. U qator kitobiylik va sun'iylikdan holi bo'lmagan didaktik va bayoniy poemalar muallifidir. "Urush azoblari aro taskin qo'shiqlari" 30 yillik urush voqealariga muallif munosabati edi. U mazkur asarida o'zi ko'rgan, boshidan kechirgan urush azob va qiynoqlari haqida yozadi.

XVII asr nemis adabiyotidagi demokratik tendensiyalar iqtidorli klassist shoir Frydrix fon Lagau (1605- 1655) ijodida o'z ifodasini topgan.

Kambag'allashgan dvoryan oilasidan chiqqan Frydrix fon Logau Germaniya peshqadam kishilari o'y-xayollarining ifodachisiga aylandi. U katta dadillik bilan urushni, Germaniya hukmron doiralari keskin tanqid qildi. Beshafqat, keskin epigramma janri uning sevimli mashg'uloti edi. Umuman urush mavzusidagi asarlar Logau poetik merosining muhim qismi hisoblanib, u janrlarda urushning insonga qarshi xarakterini qayd etib iztirob chekadi. Urush nafaqat vayronagarchilikni balki, ma'naviy qashshoqlik, munosabatlar dag'al-ligini keltirib chiqaradi. Aniqlik, ixchamlik va ifodalilikni o'zida ifodalagan o'tkir ijtimoiy-siyosiy mavzularni yoritgan epigramma janrining nemis adabiyotida o'z o'rnini topishida F.Logauning xizmati beqiyos.

Buyuk nemis ma'rifatparvari G.E.Lessing XVIII asr o'rtalarida Logauning epigramma san'atini yuksak baholab, uni nemis adabiyoti klassiklari qatoriga qo'shadi. Uning tanlangan epigrammalarini chop etib, she'riyatiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. "Eng yangi adabiyot

haqida maktublar” asarida G.Lessing F.Logauning vatanparvarligi, shoirning satirik sifatidagi, fuqarolik ovozi, uning poetik san’i haqida juda iliq satrlar bitgan, nutqining ravonligi ifodali va ta’sirchanligini alohida qayd etgan. Nemis tilining sofligi uchun sa’yi-harakatidan mamnunligi ham “maktublar...”da uqtirib o’tgan.

Lessingning aytishicha, Logau agar nemischa atama yoki tushuncha mavjud bo’lsa hesh qachon lotincha yoki fransuzcha so’zlarga murojaat qilmagan.

XVII asrda Yohan Mosheroshning satirik-didaktik axloqiy romani “Fillander fon Zittevald”ning “g’aroyib va tabiiy qiyofasi” (1640-1643) romani kitobxonlar davralarida mashhur bo’lgan. Bu kitobning muvaffaqiyatini shu bilan tasdiq etish mumkinki, mazkur roman bir necha bor qayta chop etilgan. Va hattoki xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Roman voqealari ham yerda, ham do’zaxda sodir bo’ladi, aytish mumkinki, yerdagi hayot do’zaxdagi hayotdan yengil emas.

Kitobxon ko’z o’ngida o’t qo’yilgan qishloqlar, kimsasiz vayronalar manzaralari gavdalanadi.

Muallif ta’kidiga ko’ra, mamlakatda hamma narsa oyog’i osmonda, ilgari odamlar shaytondan qo’rqsalar, endi shayton odamlardan cho’chiydi.

Zittevaldning eng qiziq va mohiyatli boblari Germaniyadagi 30 yillik urush voqealariga bag’ishlangan. Bu o’rinda satira o’ta o’tkir va shafqatsizdir. Shunga qaramay, romanning tili og’ir, matn ko’p sonli sitatalar, turli tillardan olingan ilmiy arboblardan nuqtai nazarlari, manbalar, kitobiy uslub romanni o’qishni mushkullashtiradi.

HANS GRIMMELSHAUZEN



H.Grimmelshausen XVII asrning yirik adibi hisoblanadi. Uning hayoti va ijodi adabiyot tarixida yaxshi o’rganilmagan, tarjimai holiga dahldor ko’p tomonlari hozirgacha noma’lumligicha qolmoqda.

Grimmelshausen o’z asarlarini turli taxalluslar bilan chop etganligi bois, bu kitoblarning haqiqiy mualliflari noma’lumligicha qolmoqda. Faqat XIX asrdagina uzoq izlanishlardan so’ng “Simplisimus”-

ning haqiqiy muallifi H.Grimmelshauzen ekanligi ma'lum bo'ldi. Adibning ota-onalari Shvarsvalddagi Gelnhauzen shahrining o'rta hol fuqarolari bo'lganlar. 30 yillik urush boshlarida u ota-onasidan ajralib yetim qolgan. 1634 yilda uning ona shahri imperiya qo'shinlari tomonidan talon-taroj qilinadi. Bo'lajak adib beixtiyor 30 yillik urush guvohi va ishtirokchisiga aylanadi. Urush nihoyasida, 1648 yilda, u xalq kotibi martabasida edi. Hech qaysi yozuvchi H.Grimmelshauzen kabi urush uqubatlari va azoblarini ko'rmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Grimmelshauzen adabiy faoliyatining boshlanishi XVII asrning 50-60 yillariga to'g'ri keladi. U o'zining eng yaxshi asarlarida keng demokratik doiralarning orzu-umidlarini, urush tufayli hech vaqosi qolmagan fuqarolarning armonlarini aks ettirdi. O'zi guvoh bo'lgan davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini ko'tarib chiqishga jasorat topa oldi va asarlarini turli taxalluslarda bitdi.

Uning eng mashhur va yorqin asari "Nemis Simplisismusining sarguzashtlari" (Der abenteuerliche Simplicismus Deutsch, 1668) romani bo'lib, keyin "Kuraj", "Girring Insfeld", "Simplisismusning davomi" va boshqa asarlarini e'lon qildi. Ammo qayd etilgan ilk asarlaridan keyingilari g'oyaviy-badiiy jihatidan kuchsiz edilar. "Simplisismus" sahifalarida o'ttiz yillik urush natijasida rutubatli, toptalgan, haqoratlangan Germaniya yorqin aks ettirilgan.

Bosh qahramon Simpliziy taqdiri yuqorida tasvirlangan manzaralarda tasvirlanadi. Uning bolalikdan to'ulg'aygunchalik hayoti mungli ohanglarda chiziladi.

ANDREAS GRIFIUS (1616-1664)



XVII asrning yana bir yirik nemis shoiri va dramaturgi A.Grifiusning ijodiga muqarrar fojeaviylik xos xususiyatdir.

Pastor (rohib) oilasidan chiqqan, yoshligi turli cheklovlar tufayli qiyinchilikda o'tgan, ammo Hayden universitetida (Hollandiya) yaxshi tahsilga muvassar bo'lgan shoir bir necha xorijiy va klassik tillarni o'rgangan, dunyo-qarashi keng iqtidorli kishi bo'lgan. 1649-yildan to umrining oxirigacha Grifius o'z ona shahri

Glogauda (Sileziya) sindik¹ lavozimida ishlagan. Tabiatan ta'sirchan va haqiqatgo'y bo'lgan shoirga 30 yillik urush tufayli vayronaga aylangan o'z yurtining fojeali taqdiri og'ir kechinmalar tarzida qabul qilinadi. Shu bois hayot uning yuzida qiynoq va iztiroblardan tashkil topganday tasavvur qoldiradi. Yagona taskin uningcha shuki, foniyl dunyo – bu o'tkinchi va bir zumlikdir.

Grifiusning lirik poeziyasidagi pessimistik ohanglarning katta kuch bilan berilishi, uning syujetlari satira va epigrammalari XVII asr nemis she'riyatining cho'qqisi, deb e'tirof etilishishi ham shundan.

Mashhur “Ona yurt ko'z yoshlari” (*Tränen des Vaterlandes* 1636) syujetida tahqirlangan Germaniyaning ayanchli manzarasi berilgan, zero bu tuproqda yong'in, ajal va qora bulutlar hukmron. Bu zaminda o'g'lonlarni o'lim kutadi, qizlarning nomuslari toptalgan.

Ammo Grifius lirikasi to'raligicha qora ranglarda, desak uncha to'g'ri bo'lmaydi. Uning optimistik ohanglardagi she'rlari ham yo'q emas. Bunday she'rlarda baxt haqidagi tasavvurlar iztirob va qiyinchiliklar haqidagi o'ylar bilan omuxta bo'lib ketadi. Grifius ijodiy merosining muhim qismini dramaturgiya band etadi. U 5 tragediya va 3 komediyaning muallifidir. Mazkur asarlarda ham lirikasida bo'lgani kabi voqelikning pessimistik in'ikosi o'z ifodasini topgan. Grifius tragediyalarida g'oyaviy va badiiy jihatdan qarama-qarshi munosabatlar ko'zga tashlanadi. Yozuvchi qisman klassisizm tamoyillaridan kelib chiqsa-da, ayni zamonda barokko adabiyotining kuchli ta'sirida bo'lgan. Uning IX asr Vizantiya tarixidan olib yozilgan “Lev Armani” (*Leo Arminius*, 1646), “Gurjistonli Yekaterina” (*Chatrina von Georgien*, 1647), “O'layotgan Papinion” (*Der sterbende Papinionus*, 1659) kabi tragediyalari, milliy kolorit va realistik tendensiyalar bilan yo'g'rilgan “Qovushmagan hazil yoki janob Peter Skvens” (*Absurda comica, oder Herr Peter Sqwenz*, 1650) “Sevimli atirgul” (*Die geliebte Dornrose*, 1660) komediyalari sevilib tomosha qilingan asardir.

8. XVIII ASR BIRINCHI YARMIDA MA'RIFATPARVARLIK ADABIYOTI

1. Adabiyotda “Bo'ron va hujum” davri
2. Herder va jahon adabiyoti

¹ Sex boshlig'i, gildiya starshinasi

3. I.Gottshed - nemis marifatparvarligi tashabbuskori
4. G.E. Lessing – nazariyotchi, tanqidchi va dramaturg
5. Romantizm. Yena romantizmi

Mavzuga doir tayanch soʻz va iboralar: laokoon, tadqiqotning tarixiy metodi, estetik idrok yoʻllari, “Boʻron va hujum” yoʻnalishi, Shtyurmer, klassisizmning Vaymar varianti.

Germaniya XVIII asrda milliy siyosiy birlikka ega boʻlmagan, bir-biri bilan yaxshi munosabatda bogʻlanmagan feodal davlatlar yigʻindisidan iborat edi. Mamlakatni 300 dan ortiq hukmdorlar boshqarar edi. Ularning har biri oʻzi hokim boʻlgan davlatda hayotning barcha jabhalarda oʻziga maʼqul boʻlgan siyosatni olib borar edi.

Mamlakatning milliy-siyosiy parokandaligi nemis jamiyatining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga monelik qilar edi. Bu muammolarni hal etish uchun barcha nemis peshqadam maʼrifatparvarlari va yozuvchilari kurashar edilar.

XVIII asrda Germaniya taraqqiyot kuchlari oʻta kuchsiz edilar. Germaniyaning peshqadam kishilari yorqin kelajakni vatan adabiyotida deb bilardilar. Faqat adabiyotgina barcha gʻoyalarning tashuvchisi rolini bajardi. Ijtimoiy-siyosiy tazyiqdan norozilik kayfiyatlari adabiyotda oʻz ifodasini topdi. XVIII asr adabiyotiga bir qator buyuk yozuvchi maʼrifatparvarlarni yetishtirib berdi. (Lessing, Herder, Gyote, Shiller va b.) Ularning pozitsiyalari Yevropa maʼrifatparvarligi ideallari bilan hamohang edi.

Maʼrifatparvarlik harakati ayniqsa, Fransiyada ravnaq topgan boʻlib, u Volter, Didro, Russo kabi buyuk maʼrifatparvar va ijtimoiy adabiy arboblarni kashf etadi. Nemis maʼrifatparvarlari Germaniyaning qoloqligi tufayli oʻz ijtimoiy-siyosiy qarashlarida nisbatan moʻtadil edilar. Shunga qaramay, ularning barchasi antifeodal kayfiyatda boʻlib, knyazlar despotizmini, siyosiy passivlikni qoralar edilar.

VIII asrda Germaniyada falsafa ilmi muvaffaqiyatlarga erishdi. Nemis yozuvchi- maʼrifatparvarlari ayni zamonda faylasuflar ham edilar. Ular oʻz falsafiy risolalarida insonni gumanistik ruhda tarbiyalash masalalarini qoʻyar, sanʼat turlarining oʻziga xosliklari, muammolarini ishlab chiqar, estetik idrok yoʻllarini oʻrganar, fanga tadqiqotning tarixiy metodini joriy qilar, inson didi va qarashlari uning nuqtai nazari bilan bogʻliqligini oʻrganar edilar.

Nemis marifatparvarlik adabiyoti o'z taraqqiyot jarayonida to'rt bosqichni bosib o'tadi.

Birinchi davr XVIII asrning 20-50 yillariga to'g'ri keladi, bu davrda asosan klassisizm hukmronlik qilgan.

Klassisistlar manba qidirib, tarixiy o'tmishga murojaat etadilar. Ularning ijodida yashovchan zamonaviylik o'z ifodasini topmagan. Poetik so'zdan ular o'z axloqiy-siyosiy harakatlarini targ'ib etuvchi vosita sifatida foydalanishgan. 40- yillarda klassisizm o'rnini realistik byurger adabiyoti egallay boshaydi. Ularning namoyandalari (Gellert va b.) o'zlari zamondosh bo'lgan voqelikni ifoda eta boshlaydilar. Ularning ijobiy qahramonlari endi Gottshed tasvirlaganday "temir qalbli" kishi bo'lmay, eng oddiy byurger. Unga hissiyot ham, insonparvarlik ham begona emas.

Ma'rifatparvarlikning ikkinchi davri (60-yillar) hayotni tasvirlashning realistik tamoyillari g'alaba qilishga olib keldi.

Ma'rifatparvarlikning bu davri tepasida G.E. Lessing turar edi. U o'zining "Loakoon", "Hamburg dramaturgiyasi" asarlarida ma'rifatparvarlik realizmi asoslarini ishlab chiqdi. Ma'rifatparvarlik realizmi bu uyg'onish davri realizmidan keyingi jahon reaslistik san'ati rivojlanishining navbatdagi bosqichidir. Ma'rifatparvar realistlar (Lessing, Shiller, Gyote) o'zlari zamondosh bo'gan jamiyatning ziddiyatlarini o'z pozitsiyalaridan turib ifodalaydilar. Hayotning tarixiy haqiqati manzaralarini chizadilar. O'z asarlarida ijobiy qahramon obrazini yaratar ekanlar, ularni yuksak ma'rifatparvar davrning peshqadam kishilari etib tasvirlaydilar. (Lessingning "Odoardo", "Minna fon Barmhelm", "Shillerning Ferdinand", "Luisa Miller" va b.) Ma'rifatparvarlik realizmida ikki qatlam ko'zga tashlanadi: real (bema'niliklarni fosh etuvchi) va ideal (go'zallikni ezgulikni ezozlovchi ideal). Ammo ma'rifatparvarlik nuqtai nazaridan "ideallik" o'ylab topilgan, to'qib chiqarilgan narsa bo'lmay, hayotdan olingan va katta obyektiv mazmuni o'zida mujassamlashtirgan bo'lmo'g'i lozim.

Bu kayfiyat Gyote va Shillerning ilk ijodida to'laligicha o'z tajassumini topgan.

Uchinchi davr yozuvchilari (70-80 yillar) o'zlarini shtyurmerlar deb atab, o'zlari mansub yo'nalishni "Bo'ron va hujum" (Sturm und Drang) deb nomlaganlar.

Shtyurmerlik adabiyoti isyonkor qahramonning qaror topishi, unda katta hayotiy konkretlik, yorqin ifodalangan individual chizgilar bo'lishi bilan xarakterlidir.

Nemis ma'rifatparvarlik adabiyotining to'rtinchi bosqichi (XVIII asr, 80-90 yillarning ikkinchi yarmi) klassisizm tendensiyalari alohida, "Vaymar varianti"da qayta jonlangan. Bu yo'nalish amaliy jihatdan samarasiz bo'lgan shtyurmerlar isyonkorlariga javob tarzda bunyodga kelgan edi. Nemis xalqi inqilobiy kurashga tayyor emas. Voqelikni inqilobiy yo'l bilan o'zgartirishdan hafsalasi pir bo'lgan Gyote va Shiller gumanizm insoniyatni estetik tarbiyalash tomoniga moyil deb hisoblaydilar.

"Vaymar klassisizmi"ning eng namunali asarlari qatoriga Gyotening "Ifigeniya tavrida", Shillerning antik mavzudagi she'rlari, "Yunoniston xudolari" kiradi. Vaymarda XVIII asr fransuz inqilobi arafasida va jarayonida yaratilgan yuqoridagi asarlar qahramonlari isyonkor tarzda emas, gumanistik fikrlovchi kishi sifatida, o'z insoniyligi bilan atrofidagilarga ijobiy ta'sir etuvchi kishi sifatida ifodalanadi. "Vaymar klassisizmi"da eng avvalo hayotning ijobiy, ideal xodisalari o'z ifodasini topgan. O'zida yuksak ijobiy ideallarni mujassamlantirgan axloqiy go'zal inson bunday asarlarning qahramonlaridir (Ifigeniya, Tasse, Vilhelm Tell, Hoappa va b.). "Vaymar klassisizmi" garchi boshqa yo'nalishlardan ayricha ish ko'rgan bo'lsa ham, tarixning katta haqiqatini aks ettirishda realizmga yaqin edi.

"BO'RON VA HUJUM" DAVRI ADABIYOTI

XVIII asrning 70-80 yillarida nemis adabiyotida o'z ravnaqining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu adabiyot dastavval Gyote (*Johann Wolfgang von Goethe*) va Shiller (*Friedrich von Schiller*)ning ilk ijodlari, Herder, Lens, F.Klinger, K.Shubart, G.Byurger (*Bürger*), Foss ijodlari orqali namoyon bo'lib, o'z hujumini feodal jamiyatga qaratgan bo'lsa, keyinchalik bu hujum ijtimoiy xarakter kasb etib, tarixda konkret erksevarlik hissiyotlari bilan yo'g'rilgan edi. Bu adabiy harakat "Bo'ron va hujum" (*Sturm und Drang*) deb, Klingerning shu nomdagi dramasi nomi bilan atala boshladi, mazkur adabiyot namoyandalari esa shtyurmerlar deb ataldi.

“Bo’ron va hujum” adabiyoti vakillari ma’rifatparvarlik mafkurasi bilan organik tarzda bog’liq holda ish olib bordilar. Ular asl feodal kayfiyatda bo’lib, knyaz despotizmini qattiq tanqid qildilar, hurfikrlilik uchun kurashdilar. Bu yillarda ular G.Lessingning eng yaxshi an’analarini davom ettiradilar.

Vaqtida rivoj topa olmagan nemis adabiyoti va teatri XIII asrning oxirgi o’n yilligida shitob bilan taraqqiy etib, boshqa mamlakatlarga ham o’z ta’sirini o’tkaza boradi. “Bo’ron va hujum”, ya’ni shtyumerlar harakati san’at istiqboliga xos ba’zi muhim jihatlarni belgilab berdi. Sentimentalizm¹ va ilk romantizm² shunday jihatlardandir. Lessing tinib-tinchimay izlagan shakl ixchamligi “jo’shqin daholar” (shtyumerlar o’zlarini shunday ataganlar) nazarida san’at uchun doirasi tor mezon bo’lib ko’rinadi. Lessingning insoniy haq-huquq uchun olib borgan kurashi ham ularga eskirgan harakat bo’lib tuyuladi. Ular san’atni qoidalar iskanjasidan holi qilish va inson shaxsining mutlaqo erkin bo’lishi uchun kurashdilar.


Shtyumerlar ba’zan xato chiqishlarga yo’l qo’ygan bo’lsalarda, ko’p foydali ishlar ham qildilar. Ular Lessingning o’zi uchun ham torlik qilgan aql-idrok ustuvorligi chegaralarini buzish bilan san’atni yanada boyitishga yo’l ochib berdilar. Ularning tilida ijtimoiy muhit va milliy o’ziga xoslik tushunchalari paydo bo’ldiki, bu tushunchalar keyinroq romantizm uslubi orqali umumevropa miqyosida iste’molga kiradi. Ular nemis dramasi shekspirona ruhga ko’chirishga urinadilar. Bir paytlar shu vazifani Lessing olg’a surgan edi. Shtyurerlar shu vazifani ado etishga chog’landilar.

Yakob Lens (1751-1792) va Frydrix Maksimilian Klinger (1752-1831) shtyumerlarning eng yirik qalamkashlari edi. Shyumerlik oqimining nomi Klinger pyesalaridan birining nomi bilan atalgan. Noyob istedodi bilan yarq etib ko’ringan yosh Yohann Volfgang Gyote (*Johann Wolfgang Goethe*) ham shtyumerlar safidan chiqqan.

Ammo ular ijodi Lessingdan farqli o’laroq shaxs hissiyotining keskinlashganligi bilan xarakterlidir. “Bo’ron va hujum” adabiyoti qahramonlari individual jihatdan betakrordir. (Verter, Gets, Karl Moor, Fiesko va b.) Ular to’la ma’noda individual va tipiklikni yagona birlikka aylantirgan edilar.

¹ 18-asr oxiri – 19-asr boshlarida Yevropa va Amerika adabiyoti va san’atida yuzaga kelgan oqim; unda hissiyot insonning himmatini, yaxshi yoki yomonligini belgilovchi asosiy meyor sifatida talqin qilinadi

² 19-asrning birinchi choragida yaratilgan adabiyot va san’at oqimi bo’lib, u klassisizm aqidalariga qarshi chiqqan hamda milliy va individual o’ziga xoslikka, ideal qahramonlar va his-tuyg’ularni tasvirlashga intilgan



“Bo’ron va hujum”ning buyuk nazariyotchisi Yohan Gotfrid Herder bo’lib, u o’z maqolalar va tadqiqotlarida yozuvchilar e’tiborini milliy xarakterlar yaratishga, ifodalanayotgan voqealardagi individual chizgilarni berishga qaratmoqlari lozimligini uqtiradi.

Yohan Gotfrid Herder 1744-yilda sharqiy Prussiyaning kichik shaharchasi Morungenda kambag’al maktab o’qituvchisi xonadonida dunyoga kelgan. O’n yoshga yetar-yetmas uni rohibga xizmatkorlikka berishadi. U uy yumushlari bilan

bir qatorda o’z xo’jayinining teologik matnlarini ko’chirish bilan band bo’ladi.

1764-yilda Herder Keningsbergga xirurg bo’lish ilinjida boradi, ammo teologik fakultet talabasi bo’ladi. Unda ayniqsa E.Kantning tabiiy fanlar bo’yicha ma’ruzalari katta taassurotlar qoldiradi. Kantning dunyoning o’zgaruvchanligi haqidagi ma’ruzalari g’oyalari ayniqsa, Herderda ayricha taassurot qoldirib, bu g’oyalar keyinchalik o’z tadqiqotlarida katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqil mutolaa uning dunyoqarashini shakllanishida alohida rol o’ynaydi. U Leybnits, Volter, Baumgarten, Yum, Nyuton va boshqa faylasuflar va tabiatshunolar asarlari bilan tanishadi, Russo ijodi bilan oshno bo’lish unga alohida ta’sir ko’rsatadi. Talabalik yillari va undan keyin ham Herder o’z qiziqish doirasining kengligi bilan atrofdagilarni hayratga solar edi.

Herderning adabiy faoliyati 1764-69 yillarda u Rigada Doma ibodatxonasi pastori bo’lib ishlagan yillari boshlandi. U bu yillari “Eng yangi nemis adabiyoti haqida chizgilar” (*Über die neuere deutsche Literatur, Fragmente*), “Tanqidiy o’rmonlar” (*Die kritische Wälder*) deb nomlangan qator maqolalar yozdi va ularda Herderning adabiy asar tahliliga novatorona yondashuvi yaqqol ko’rinib turar edi.

Bu asarlar nemis adabiyotining “Bo’ron va hujum” davri ravnaqiga katta hissa qo’shgan.

Qayd etilgan asarlarda V.Shekspirga yangicha, hayratli baho berilib, unda Herderning madaniyat nazariyasi haqidagi nuqtai-nazarlarining

muhim qirralari ta'kidlangan, ya'ni har bit xalq jahon tarixining rivoj topgan har bir davrida milliy ruh bilan oziqlantirilgan (yoki singdirilgan) adabiyotga ega bo'lishi zarur, degan fikr bor. Herder, shuningdek, adabiyotning tabiiy va ijtimoiy muhitga – iqlim, til, axloq xalqning tafakkur tarzi fikrlash yo'rig'iga daxldor (tobe)ligi, yozuvchi esa muayyan tarixiy davrdagi, muayyan o'ziga xos sharoitlarning unga xalq kayfiyati va nuqtai-nazarining ifodachisidir, - deydi. "Tilning paydo bo'lishi" (Berlin 1772), "Olmon va qadimgi xalqlar qo'shiqlari haqida" (1773), "Shekspir haqida" nomli maqolalari "San'atda nemis xarakteri" (Hamburg 1770) to'plamiga kiritilgan asarlarda yuqorida qayd etilgan Herder qarashlari o'z rivojini topgan.

Herder ijodining Vaymar davriga "Plastika" (1778) „She'riyatning qadim va yangi zamonlarda xalqlar axloqiga ta'siri“ (Dessau-1882) asarlari mansubdir.

1785-yildan boshlab, Herdarning monumental asari – "Insoniyat tarixi falsafasi g'oyalari" (Ideen zur Philosophie der Geschichte der Menschen – 1785-1791) chop etila boshlaydi.

Bu asar umummadaniyat tarixining ilk tajribasi bo'lib, unda insoniyatning madaniyat rivoji (ravnaqi), din, poeziya, san'at, fan, Sharq, antik davr, o'rta asrlar, Uyg'onish davri va yangi davr haqidagi Herder o'ylari zamondoshlarini lol qoldiruvchi qobiliyat bilan to'lat'o'kis o'z ifodasini topgan.

Herder „Bo'ron va hujum“ davrining peshqadam arboblardan biridir. U ma'rifatparvarlik davrining adabiyot nazariyasi va falsafasiga ayricha munosabatda bo'lgan ijodkordir. Ma'rifatparvarlar madaniyat kishisiga katta ishonch bilan qaraganlar va faqat shunday kishilargina poeziyaning subyekti va obyekt bo'lmoqlari darkor, deb hisoblar edilar.


Ular jahon tarixining yuksak madaniyati davri e'tibor va hamdardlikka munosib deb hisoblar edilar. Ma'rifatparvarlar o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantiradigan san'atkorlar tomonidan yaratilgan san'atning mutlaq namunalari borligiga ishonganlar. (bunday yetuk ijodkorlarni antic san'atkorlar siymosida ko'rganlar)

Ma'rifatparvarlar hozirgi zamon san'atkorlari antic davrning yetuk namunalariga taqlid qilish orqali yaqinlashish mumkin, deb hisoblar edilar.

Herder bu nuqtai-nazarlardan farqli tarzda chinakam san'atni tashuvchi kishilar madaniylashtirilgan insonlar bo'lmay, balki tabiatga

yaqin katta imkoniyatlar egasi, tug'ma iste'dod sohiblari badiiy tasvir obyektini bo'lmog'i lozim. 70-yillarning boshqa irratsionalistlari bilan bir qatorda Herder xalq poeziyasiga Homer, "Injil", Ossian va nihoyat Shekspirga katta ehtirom bilan qaradi. Herder chinakam poeziyani yuqorida qayd etilgan namunalar asosida o'rganishni tavsiya etdi, zero hech qanday asarlarda "tabiiy" inson bu asarlardagidek tasvir va talqin qilingan emas.

YOHANN GOTTSCHED (*Johann Christoph Gottsched*, 1700-1766)



Nemis ma'rifatparvarligining tashabbuskorlaridan biri Yohann Gottshed bo'lib, u Laypsig universiteti professori, yozuvchi va tanqidchi sifatida nemis adabiyotini jonlantirishga katta hissa qo'shgan ijodkordir.

Gottshed ratsionalist bo'lib, Volf falsafasining tarafdori edi. Mazkur falsafaga ko'ra aql ijtimoiy hayotni harakatga keltiruvchi, uni ma'rifatga yetaklovchi asosiy dvigatel deb hisoblaydi. Gottshed byurgerlikni turli xalqlarning madaniy qadriyatlari bilan tanishtirish niyatida ozmuncha sa'y-harakat ko'rsatmadi. O'sha davr madaniyat, san'at arboblari ichida Gottshed nemis adabiyotining chuqur tanazzulini boshqalardan ko'ra aniq his eta olganligi bois til va adabiyotni sekin-asta isloh qilish niyatlari paydo bo'la boshlaydi.

Gottshedning adabiyot va teatr qarashlarining to'liq va sistematik bayoni uning "Nemis poetikasining tanqidiy kuzatish tajribalari" (*Versuch einer kritischen Dichtkunst von die Deutschen...*, 730) asarida aks etgan. O'z asarida Gottshed klassisizm estetikasining e'tiqodli tarafdori va targ'ibotchisi sifatida yozuvchilar uchun zaruriy shart, qoida va asosiy tamoyillarini belgilab beradi.

Gottshed poetikasi qat'iy normativ xarakter kasb etgan bo'lib, u bayon etgan qoidalar uning nazarida me'yoriy me'zonlar hisoblanib klassisizm na'munali mualliflari asarlarida tekshirilgan. Gottshed ana shu normalarga qat'iy amal qilishni talab qiladi.

Gottshed islohotlarining progressiv xarakteri, ayniqsa, til sohasida sezilarli bo'ldi. Gottshed yagona adabiy tilni yaratishga, Germaniya yerlaridagi til rang-barangligi g'oviga chek qo'yishga chaqirdi. Adabiy norma sifatida yuqori Saksoniyaning o'qimishli kishilar og'zaki nutqini taklif etdi. Gottshedning til sofligi, uni dialektizmlar, varvarizmlar idora-byurotik leksikadan tozalash haqidagi takliflari teatr va adabiyotni isloh etish ishlarining asosiy qismi hisoblanadi.

U adabiyot va san'atning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirish niyatida fuqorolik nafasini o'zida mujassamlashtirgan poeziya va dramaturgiyani targ'ib etdi. Ammo Gottshed tarixiy, milliy, demokratik an'analarning ahamiyatini tan olmaydi. U xalq teatrini ham ma'qullamaydi, uni qo'pol va qovushmagan, deb hisoblaydi. Unga X.Saks, hatto V.Shekspir ham yoqmaydi. Bundan bir tomanlama Fransuz klassisizimining "namunali" asarlarga yo'naltirilgan Gottshedga nemis adabiyotining rivojlantirishda to'g'ri yo'l topishga xalaqit berdi. Shu sababli 60-70 yillarda nemis ma'rifatparvarligiga rahnamolik qilgan G.E.Lessing Gottshedga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan. "O'layotgan Koton" (*Der sterbende Koton*, 1744) "Parijdagi qonli to'y" (*Die Pariser Bluthochzeit*, 1744) va "Agis"(1745)ning muallifidir. Bu asarlar garchi klassisizm qonun qoidalari asosida yaratilgan bo'lsa-da, ulardagi badiiy mahorat uncha baland emas. Shunga qaramay "O'layotgan Koton" grajdanlik nafasi yuqori bo'lganligi bois tomoshabin e'tirofiga sazovor bo'lgan.

Rim hukmdori bo'lishga intilayotgan Yuliy Sezar bilan kurashda Koton mag'lubiyatga uchraydi. Sezarning g'olibligiga bo'yin egmagan Koton o'limni afzal ko'radi. Ma'rifatli monarxiya tamoyillariga moyil Gottshed o'z tragediyasida Katonning siyosiy ideallari mazmuniga o'z e'tiborini qaratmaydi, balki uning jasoratidan zavq oladi.

9. XVIII ASR NEMIS ADABIYOTI

XVIII asrda nemis adabiyoti erishgan ulkan muvaffaqiyatlar jahon madaniyatiga bebaho hissa bo'lib qo'shildi. Aynan nemis dramaturglari – G. Lessing, Y.Gyote, F. Shiller ma'rifatparvarlik davrida adabiyot va teatr sohasida erishilgan yutuqlarga yakun yasab, ma'rifatparvarlik realizmidan XIX asr tanqidiy realizmiga o'tish yo'lini belgilab berdilar.

1625-yilgi dehqonlar urushi zarbalari, asosan Germaniyada sodir bo'lgan o'ttiz yillik (1618-1648) umumevropa urushi, savdo yo'llarining O'rta yer dengizidan Atlantika okeaniga ko'chishi – bularning hammasi Germaniyani siyosiy, xo'jalik va madaniy sohalarda orqaga itqitib tashlagan edi. Mamlakat 360 ta mayda feodal davlatlarga bo'linib ketgan bo'lib, ular bir-birlari bilan uzluksiz raqobatda bo'lib keldilar. Ustiga ustak, bu davlatlarda to'rachilik va beboshlik avj olib bordi.

“Germaniyaning XVIII asrdagi qismati o'kinchli va qabohatli edi, – deb yozgan edi Gertsen. – Aslzodalari ishyoqmas va tambal... Germaniyada odob-axloq shu darajada tubanlashib ketganki, insoniy nafsoniyat haqida og'iz ochmasa ham bo'ladi. Qal'alar mahbuslarga to'lib ketgan, din uchun quvg'in, she'r uchun quvg'in, vazir haqida nojo'ya so'z uchun quvg'in – bular shovqin- suronsiz pinhona amalga oshirilaveradi”.

Tabiiyki, Germaniya hukmdorlari ham Ma'rifatparvarlik asri ta'siridan chetda qolmadilar. Lekin bundan mamlakat o'zini ma'naviy va madaniyjihatdan rostlay olmadi; aksincha, omma yana ham kuchli tazyiq ostiga olindi, talandi. Nemis saroylarida milliy madaniyat nish urmadi. Nemis aslzodalari milliy madaniyatga bepisandlik bilan qarab, o'z saroylari eshiklarini fransuz madaniyati mahsuliga ochib qo'ygan edilar.

Oyoqqa turib borayotgan nemis ziyolilari esa boshqa xalqlarning yutuqlariga suyanib, nemis madaniyatini yaratishga intiladilar. Shu bilan ular ulkan milliy vazifani amalga oshirdilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, Germaniya bir qator tarixiy sabablarga ko'ra, faqat madaniyat sohasidagina ilg'or davlatlar darajasiga ko'tarilishi mumkin, lekin boshqa sohalarga da'vo qilishga imkoni yo'q mamlakat edi.

XVIII asrdagi nemis adabiyoti Evropaning boshqa mamlakatlari adabiyoti kabi turlicha rivojlanish bosqichlarini o'taydi. Bu madaniyat ham ma'rifatparvarlik klassisizmi, ma'rifatparvarlik realizmi, sentimentalizm, ilk romantizm davrlarini boshdan kechiradi. Lekin bu oqimlar Germaniya adabiy hayotida boshqa mamlakatlarga qaraganda o'zgacha ahamiyatga ega bo'ldi.

Fransiyada ancha taraqqiy topgan ma'rifatparvarlik klassisizmi Germaniya shart- sharoitiga uncha mos tushmadi. Aql-idrok ustuvorligi, fuqarolik haqidagi chaqiriqlar bu yerda baralla, to'la ma'nosi bilan

jaranglamadi. Volter dramaturgiyasining tub vazifalari VIII asr Germaniyasi uchun barvaqt qo'yilgan vazifalar bo'lib chiqdi.

Karolina Noyber (1692-1760) ilk ma'rifatparvarlik klassisizmining eng yirik namoyandasidir. Badavlat advokatning qizi o'zini adabiyotga bag'ishlash niyatida yigirma olti yoshida uyidan qochib ketib, tez fursat ichida, Fransuz maktabining shuhratli vakili sifatida obro' topdi. U aleksandrona she'r o'qish san'atini egallagan birinchi memis adabiyotshunosi edi.

Klassisizmning badiiy asarning ibtidosidan intihosigacha, barcha tomonlarini muayyan qoidalarga bo'yin egdirishdek talabi o'sha davr nemis dramaturgiyasi uchun juda zarur qoida edi. Nemis dramaturglari klassisizm uslubi yordamida voqeilikni aniq va teran tadqiq etish va ifodalash imkoniga erishadilar va dovruqli fransuz dramaturglari va nazariyachilarining yuksak obro'lariga orqa qilib, o'z ishlarining istiqbolli ekanini jamoatchilikka uqtira oladilar.

GOTTHOLD EFRAIM LESSING (*Gotthold Ephraim Lessing*, 1729-1781)



XVIII asrning 60-yillarida nemis adabiy hayotida yetakchi o'rinni egallagan ijodkor Lessingdir. Uning adabiy faoliyati ko'p qirrali va samarali bo'lgan. U iqtidorli tanqidchi, san'at nazariyotchisi va yozuvchidir. Lessing adabiyotni hayot bilan yaqinlashtirgan, unga ijtimoiy yo'nalish bergan, uning ijtimoiy-siyosiy va xalqning ruhiy feodal krepostnoylikdan ozodligining vositasiga aylantirdi. N.G.Chernishevski Lessing haqida yozib, unga quyidagicha baho beradi: "Lessing o'z vatanini jonlantirishni tarixiy zarurat deb bilgan

arboblarning birinchi va asosiy vakilidir. U yangi nemis adabiyotining otasi edi. Undan keyingi eng asosiy, ahamiyatli nemis yozuvchilaridan ko'pchiligi, hatto Shiller va hattoki Gyote ham o'z faoliyatlarining eng yaxshi davrida ham Lessingning shogirdlaridir".

Lessing jangovar, inqilobiy ma'rifatparvar edi. Uning ijodi ruhiy, milliy, xalqchil bo'lgan, bu ijod nemis millati uchun muhim masalalarni qo'ygan.

Lessing Saksoniyada tug'ilgan. Yelkasida katta oila tashvishi bo'lgan. Otasi rohib bo'lib, kamtarin turmush kechirgan. U maktabda lotin va yunon tillarini yaxshi o'rgangan, keyinchalik antik davrni atroflicha bilgan, antik va hozirgi zamon filologiyasi bo'yicha keng qamrovli bilimlari bilan zamondoshlarining izzat-ikromiga sazovor bo'lgan olim bo'lib yetishgan.

1746-yili Lessing otasi maslahatiga ko'ra Laypsig universitetining teologiya fakultetiga o'qishga kiradi. Ammo kelajakda pastor bo'lish imkoniyati uni uncha qiziqitirmas, o'smirning qiziqishlari-yu iqtidorini boshqa narsalar band etgan edi. Xuddi o'sha paytda Laypsigda Karolina Noyber rahbarligidagi sayyor aktyorlar guruhi gastrolga keladi. Lessingni teatr hayoti qiziqitirib qo'yadi. Keyinchalik u artistlik muhitining o'z odamiga aylanadi. Teatrda o'z imkoniyatini turli rollar ijrochisi va dramaturg sifatida sinab ko'radi.

Lessing 1748-yilda Berlinga-Prussiya poytaxtiga ko'chib o'tadi. Berlin hayoti (1748-1760) uni peshqadam estetik g'oyalarni targ'ib va himoya qiluvchi kishi sifatida shakllantiradi. Bu davrda u "Nemis

imtiyozli gazetasi" (Deutsche privilegierte Zeitung)da adabiy taqrizchi bo'lib ishlaydi va Germaniyaning birinchi professional tanqidchisi sifatida taniladi.

Lessingning tanqidchilik faoliyati 50-yillarda berlinlik kitob-furush Nikolay, faylasuf-ma'rifatparvar Mendelson bilan hamkorlikda chop etgan jurnal "Eng yangi adabiyot haqidagi xatlar"da (*Briefe, die neueste Literatur*

betreffen, 1759-1765) shakllandi. Bu davrda u ko'plab she'rlar, masallar, shuningdek, ilk tragediyasi "Oyimqiz Sampson"ni (1755) yozdi. 1760-65-yillarda Lessing Berlindan Breslauga Sileziya gubernatorining kotibi bo'lib ishlash uchun ko'chib o'tadi. Bu davr favqulodda sermahsul bo'lib, u bu yerda ma'rifatparvarlik realizmining asosiy tamoyillarini nazariy jihatdan asoslagan "Laokoon" (*Laokoon*



oder die Grenzen der Malerei und Poesie, 1766) asarini nihoyasiga yetkazdi. “Minna fon Barnhelm” (1767) realistik komediyasi ham muallifning nemis jamiyati hayotini kuzatishining natijasi o’laroq dunyoga keldi.

1765-yilda Lessing yana Berlinga qaytib keladi va ikki yilcha shu yerda erkin ijod bilan shug’ullanadi. 1765 yilda Hamburg (Germaniya) da birinchi muqim teatrga asos solinadi va Lessing teatrta tanqidchisi sifatida taklif etiladi. Uning vazifasiga teatr repertuariga baho berish, aktyorlar ijrosini baholash kirar edi. Lessingning ko’p sonli teatr taqrizlari “Hamburg dramaturgiyasi” deb nomlangan (Hamburgische Dramaturgie, 1767-1768), “Laokoon” dan keyingi nazariy risolasi edi.

1770-yili Hamburg teatri yopilgach, Braun Shvayg gersogligidagi Volfenbuttel shahriga kelib gersogning boy kutubxonasiga mudirlik qiladi. Bu yerda u 1772-yili birinchi nemis ijtimoiy dramasi “Emiliya Golotti”ni nihoyasiga yetkazadi. Gumanizm g’oyalarning himoyasiga bag’ishlangan falsafiy risolasi “Inson zotini tarbiyalash” (*Erziehung des Menschengeschlechts*, 1780) asari ham o’quvchilar hurmat va e’tiboriga sazovor bo’ldi.

Lessingning fan va adabiyot oldidagi xizmatlaridan biri shuki, u nemis adabiyotiga sotsial isyon ruhini olib kirdi.

Lessing adabiyotga demokratcha fikrlovchi yozuvchi sifatida kirgan. Uning demokratiyaga moyilligi 50-yil o’rtalariga kelib kuchaydi va u o’z oldiga xalqqa tushunarli va yaqin bo’lgan komediya va tragediyalar yozishni maqsad qilib qo’ydi. Lessing tragediya janrini isloh qilishga intiladi. Uning fikricha chinakam san’at insonni hayratlantirish, sahnaga xalq muhitidan chiqqan ijobiy xislatlarga ega qahramonni olib chiqish va xalqqa yaqin situatsiyalarda harakat qilmog’i lozim. O’shanda tragik personaj tomoshabinda achinish, iztirob hislarini uyg’otishi mumkin.

Lessingning dramaturgik o’ylari “Oyimqiz Sampson”da o’z ifodasini topgan.

Didroning “Asrandi o’g’il” asaridan ikki yil avval yozilgan bu pyesa Yevropa mintaqasida yaratilgan meshchanlik dramasi edi. Lessing “Oyimqiz Sara Sampson” asari bilan Germaniyada keng shuhrat qozonadi va uning nomi xorijga ham tarqaladi.

60-yillarda Lessing san’at nazariyotchisi sifatida katta obro’ topadi. 1759 – 1765 yillar davomida Germaniya ma’rifatparvarligining ko’zga ko’ringan arbobi, kitobfurush do’sti Nikolay bilan hamkorlikda “Eng

yangi adabiyot haqida maktublar” degan jurnal nashr etadi. Hamfikir ikki do'st Gotshed asarlarining “astar-avrasini ag'darib” tashlaydilar va fransuz klassisizmini Germaniya uchun zararli deb e'lon qiladilar. Dramaturglar uchun Kornel va Rasin asarlari emas, balki Shekspir pyesalari namuna bo'lib xizmat qilishi kerak, deydi Lessing.

1765-yili Lessing tasviriy san'at bilan poeziya orasidagi chegara masalasiga bag'ishlangan “Laokoon” degan risolasini chop etadi. 1767-1768 yillari u ma'rifatparvarlik davridagi eng yirik nazariy ish – “Hamburg dramaturgiyasi” asarini yaratadi.

“Hamburg dramaturgiyasi” Lessing endigina tuzilgan birinchi milliy teatrga adabiy emakdosh bo'lib kelgach, yil davomida shu teatr spektakllariga yozilgan jurnal maqolalari majmui tarzida paydo bo'ldi. “Hamburg dramaturgiyasi” – bu avvaldan o'ylangan, rejali risola bo'lmay, balki jonli taassurot asosida tug'ilib, yaxlit holida nazariy qimmatini yuqori asardir.

Lessing asarni teatr repertuari va aktyor o'yinini tahlil etishdan boshlagan. Biroq uning aktyor o'yini haqidagi mulohazalari ko'plab noroziliklarga sabab bo'ladi. Keyin Lessing aktyorlar haqida so'z ochmaslikka va'da beradi, lekin u qilar ishini qilib bo'lgan edi.

Lessing ham Didro duch kelgan muammoga duch keladi: Qaysi toifadagi aktyor afzal – hissiyotli aktyormi yoki “sovuqqon” aktyor? Bu masalada Lessingning mulohazasi Didroning javobiga qaraganda ma'rifatparvarlik realizmi ruhiga yaqinroqdir. U hissiyot bilan aql-zakovat tarafdori. Uning fikricha, bu ikki jihatning qaysi birinidir ustun qo'yish o'rinsizdir. U klassisizmga xos sovuqqonlikka ham, maishiy izohchilikka ham cho'chib qaraydi. Aqli raso aktyor asarning u yoki bu lavhasining nimaligini anglaboq, o'z-o'zidan hissiyot ta'siriga beriladi.

Ayni zamonda Lessing ham Didro singari “hissiyotli” aktyorga ishonchsizlik bilan qaraydi. Hissiyot “qandaydir botiniy, ichki narsa, bu haqda uning tashqi ko'rinishi orqaligina fikr yuritish mumkin” deydi u; demak, his-tuyg'uni zohiran, sirdan namoyon etuvchi aktyor “beshavq, sovuqqon bo'lishidan qat'iy nazar, sahna uchun birinchi toifa aktyordan foydaliroqdir”. Bundan tashqari, aktyorlik texnikasining o'zi ham aktyorda sahna san'ati uchun zarur his-tuyg'u hosil qilish omili hamdir, deb hisoblaydi Lessing. Kitobning talay qismi dramaturgiyaga bag'ishlangan bo'lib, Lessing bu o'rinda 1759 yili “Eng yangi adabiyot haqida maktublar”ida boshlangan klassisizm haqidagi musohabani davom ettiradi.

Lessing klassisizmning hech qanday tur va shaklini qabul qilmaydi. U Kornel va Rasinnigina emas, o'z g'oyaviy tamoyiliga ko'ra ularga yaqin turuvchi ma'rifatparvar Volterning ham ijodiy nufuzini tan olmaydi. Uning nazarida klassisizm shunchaki o'rnini zamonaviyroq san'atga bo'shatib berishi lozim bo'lgan, o'zni o'tgan uslubgina emas. Klassisizm, umuman, san'at tabiatiga ziddir, deb hisoblaydi Lessing.

Haqiqiy san'at insondan boshlanishi kerak, – deya xitob qiladi Lessing – klassisizm estetikasi esa saroy taomillariga asoslangan. “Saroy mutlaqo shoir tabiatini o'rganishi mumkin bo'lgan joy emas, – deya davom etadi u, – saroyning udumi, dabdabasi odamlarni mashinaga aylantirib qo'ysa, shoir bu mashinalarni yana odamga aylantirishi kerak.”

Shu zaylda drama nazariyasi Lessing faoliyatida insonni himoya qilish, shaxs erkinligi uchun kurash maydoniga aylanadi. Shaxs erkinligi toptalgan Germaniya sharoitida jiddiy siyosiy vazifa edi. Erkinlik yo'lida kurashmoq uchun nemis xalqining keng tabaqalari doirasida avvalo erkinlikka ehtiyoj uyg'otish talab etilardi.

Lessing nazariya sohasidagi kabi dramaturgiya sohasida ham *erkin va barkamol shaxs uchun* kurash olib bordi. Uning san'ati shu jihatning o'zi bilanoq istibdodning har qanday ko'rinishiga qarshi qaratilgan san'at edi. Qisman shundan ham uning pyesalari janriga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Lessing barcha janrlarda namunaviy pyesalar yaratdiki, keyinroq uning davomchilari bu janrlarni rivojlantirdilar. Uning har bir asarining sahnaviy ohangi bor, har biri tomoshabinda ma'lum his tuyg'u qo'zg'aydi: “Oyimqiz Sara Sampson” ko'z yoshi uyg'otsa, “Minna fon Barnixelm” kuldiradi, ruhiy orom baxsh etadi; “Emiliya Galotti” ko'ngilni musibat olamiga g'arq qilsa, “Donishmand Natan” chuqur o'yga to'ldiradi.

Tabiiyki, Lessing klassisizmdan butunlay qutulolmadi. Umuman, nemis ma'rifatparvarlik san'atida klassisizm, qandaydir yo'sinda o'z izini qoldirdi. Lekin zamondoshlari orasida eski san'at aqidalaridan uzoqlashgan kishi Lessing bo'ldi.

Lessing boshqa aqidalar yaratish niyatida klassisizm aqidasiqa qarshi kurashgani yo'q: u dramaturg sifatida o'z didi va badiiy imkoniyatlari naqadar kengligini namoyish etdi. Uning pyesalarini tomoshabinlar hamisha ham muvaffaqiyat bilan qabul qilmagan bo'lsalar-da, bu asarlar nemis adabiyoti tarixida muhim o'rin egalladi.

Dramaturg “Oyimqiz Sara Sampson” asarini ingliz namunalariga, xususan Lilloning “London savdogari” pyesasiga taqlidan yozgan. Lessingni erkin his ehtiroslar qiziqtirgan edi. Lessing XVIII asr nemislari uchun erkin fuqarolik yurti namunasi bo’lgani uchun ham shu zamin badiiy manbai va qahramonlariga qayta jon ato etgan edi. Pyesada ikki ma’shuqa orasida gangib qolgan aslzoda Melefontning taqdiri haqida hikoya qilinadi: uning birinchi ma’shuqasi Marvud xonimdan qizi bo’lsa, ikkinchisi Sara Sampson esa endigina uning tuzog’iga ilingan jabrdiyda qiz. Pyesa oxirida Marvud Sara Sampsonni zaharlab o’ldiradi. Melefont esa qizning jasadida tepasida o’zini-o’zi nobud qiladi.

Qahramonlar shu qadar qaynoq his ehtiroslar bilan yo’g’rilgan edilarki, bu tomoshabinlar qalbini larzaga soladi. Lessing his-tuyg’u mavjini ko’rsatibgina qolmay, bu holatning avjlanish nuqtasini ham ochib bergan edi. Melefont va Marvud beg’araz sevgi shaydolari edilar, ular ezgulik ramzi yanglig’ namoyon bo’ladilar; qachonki, ehtirosga hudbinlik g’ubori qo’narkan, u fojiga olib keladi. Shu zaylda oshiq-ma’shuqlarning ezgu niyatlari sarobga aylanadi. Lessingning haqiqiy qahramoni Sara Sampsondir. U hudbinlikdan holi, chin insoniy sevgi egasidir. Umuminsoniy axloq tamoyili bilan yashovchi bu qizning fojiasi xudbin, beburd kishiga ko’ngil qo’yishida edi. Dramaturgning davrni qoralashi ham shunda ko’rinadi.

Lessing “Minna fon Barnhelm yoki Sarbozning baxti” (1767) komediyasiga qahramonlarni Germaniyadagi harbiy muhitdan izlab topadi.

Lessing Breslavl shahrida do’sti general Tauyensin qo’lida 1760-1765 yillari gubernator kotibi bo’lib ishlaydi. Yetti yillik umumevropa urushidan keyin shu yerda, 1763 yili komediya ustida ish boshlaydi. Asarga aynan shu davrda yuz bergan voqealar asos qilib olingan.

Pruss zobiti mayor Telhaym taslim bo’lgan Sileziya shahriga solingan urush tovonini o’z puli hisobidan to’laydi. Raqib tomonga bunday xayr-ehson ko’rsatishdan shubhaga tushgan Prussiya boshliqlari Telhaym ustidan jinoiy ish qo’zg’aydilar. Aybsiz aybdor hotamtoy mayor og’ir ahvolga tushib qolgan bir paytda, sevgilisi Minna kelib, uni tergovdan qutqarib oladi. Pyesa ikki oshiq-ma’shuqning baxtli uchrashuvi bilan tugaydi.

Komediyaning dastlabki ikki pardasini Gyote ekspozitsiya nuqtai nazaridan namunali deb hisoblagan. Lekin yaxlit holda ham uni

namunali komediya deyish mumkin. Lessing pyesa g'oyasini qahramonlarning xulq-atvori orqali ifoda etgan. Personajlarning har safar yangilik bilan paydo bo'lishi voqeaning tig'iz o'sib borishiga sabab bo'ladi. Bosh qahramonlar ideal qahramonlar sifatida ko'rinadilar. Xudbinlikdan xoli chin sevgi egalari bo'lmish bu kishilar or-nomus, yurt oldidagi burch tuyg'usini chuqur his etishlari bilan ajralib turadilar. Mayor harakatining o'zi Frydrix II ning siyosatiga qarshi chiqish edi. Komediyaning uzoq vaqt sahnada qo'yilmay, faqat ma'rifatli tor doirada kishilari orasidagina ma'lum bo'lib qolishi bejiz emas.

1772-yili Lessing 15 yil oldin rejalashtirgan "Emiliya Galotti" fojeasini yozib tugatadi. Asar voqeasi Italiyada o'tadi. Maqsadga muvofiq usul topilgan edi: Italiya siyosiy jihatdan Germaniyani eslatardi; bu mamlakat ham ko'pdan-ko'p mayda knyazliklarga bo'linib ketgan mamlakat edi. Kuchli ehtirolarning jo'sh urishi ham bu mamlakat misolida tabiiyroq tuyulardi.

Gyote "Emiliya Galotti"ni "adolatning mustabid beboshlikka qarshi keskin huruji" deb ta'riflagan edi. Bu Ma'rifatparvarlik davrida Germaniyada jabr-zulmga qarshi qaratilgan birinchi dramadir. Shunisi diqqatga loyiq-ki, pyesa qahramoni, voqea yuz bergan knyazlikning hukmdori, shahzoda Xettore Gonzaga yovuz kishi sifatida ko'rsatilgan emas. U "o'ziga xos ma'rifatli hukmdor" tarzida ko'rinadi. Lessing uning tilida hatto o'zining san'at haqidagi ba'zi fikrlarini ham jo qilgan. U kuchli ehtirolardan mahrum emas, polkovnik Odoardoning qizi, graf Appianining sevgilisi Emiliyani chindan ham sevadi. U zo'rlik vositasini ishga solmay, o'zini munosib jazman sifatida tutishga han tayyor.

Lekin bu bilan Lessing pyesaga yorqinroq siyosiy tus beradi, xolos. Muallif u yoki bu mustabidning zulmkorligini emas, balki har qanday yakka hokimlik, hatto Volter xayrxohlik bildirgan "ma'rifatli monarxiya" boshqaruvining ham noinsoniyligini ko'rsatib beradi. Shahzodaning niyati qanchayin beg'araz bo'lmasin, uni hokimiyat yo'ldan ozdiradi, u o'zgalarning qo'li bilan yovuzlikka qo'l uradi. U Appianini o'ldiradi, Emiliyani o'zini-o'zi nobud qilishga olib keladi. Jabrdiyda qiz yovuzlikka qarshi noroziligi va insoniylik sha'nini shu o'lim bilan tasdiq etadi. U o'zini o'ldirishga jur'at etolmaydi, uning iltijosiga ko'ra bu ishni uning otasi ado etadi.

Shunday qilib Melefontda bo'lgani kabi Xettore Gonzaganing ham sevgi muhabbati o'zgalarning jabr-jafosiga aylanadi. Lekin Lessing endi bu yerda shunchaki xudbinlikni emas, balki siyosiy zulmkorlikni qoralaydi.



Lessing 1770-yildan gersog Braunshveyg xizmatida bo'lib, Volfenbyuttelda yashagan davrida "Emiliya Galotti" asari sahnaga qo'yiladi. Lessing o'z asarini sahnabopligiga uncha ishongan emas edi. Spektaklning unchalik muvaffaqiyatli chiqmagani buni isbotladi. U bundan keyin sahna uchun yozmaslikka ahd qiladi. Lekin bir necha yildan keyin sharoit uni bu ahddidan voz kechishga undaydi.

Lessing o'sha paytda Gytse degan bir mutaassib ruhoniyl bilan ilohiyot xususida munozara qilib qoladi. Graf Braunshveyg vositachiligida ruhoniyl bilan Lessing orasidagi munozara to'xtatiladi. Lessingdan uning haqiqat uchun kurash huquqini tortib olmoqchi bo'lishadi. Shunda u yana o'zining sinashta minbari – teatrga qaytadi. Uning "Donishmand Natan" (1779) degan so'nggi pyesasi shu zaylda dunyoga keldi.

Bu hajviy komediya emas, aksincha „mening yozgan asarlarim orasida eng ta'sirchan pyesa bo'lg'usidir“, - deb yozgan edi dramaturg asar ustida ish boshlarkan. Bu chindan-da Lessing asarlari orasida juda dilga yaqin pyesa bo'lib chiqdi. Lessing pyesada diniy musohabaga urg'u bermaydi, balki adovatchi ruhoniyl Gytsega ajib bir olam ma'naviyatini qarshi qo'yadi. Uy-joyi vayron bo'lib, oilasidan judo bo'lgach, nasroniyl qizni o'z tarbiyasiga olgan qudduslik yaxudiy Natan qiyofasida o'sha davr o'quvchilari Lessingning o'zini ko'rgandek bo'ladilar. Bu mehr-saxovatli tiyran aql-zakovat sohibi qabohat va nodonlikka qarama-qarshi qo'yilgan bir shaxs edi.

Lessing "Donishmand Natan" pyesasida o'zi avval olg'a surgan ba'zi qoidalardan chekinadi. Bu pyesa o'z shakliga ko'ra, muallifning ma'rifiyl falsafiy dramaga qaytganini ko'rsatadi. Pyesa sharofatli va teran insoniyl obrazlarga boyligi bilan sahnadan mustahkam o'rin oldi. "Donishmand Natan" asari 1801-yili Veymar sahnasida qo'yilganda,

Gyote unda “aks etgan sabr-toqat, armon, afsus va nadomat tuyg’ulari xalqlar qalbida muqaddas tuyg’ular bo’lib qolgusidir”, deb yozgan edi.

Lessing o’z pyesasining 1779-yili nashr etilgan nusxasini ko’rishga ulgurdi xolos. Oradan bir yil o’tmasdanoq dunyodan ko’z yumadi. Asar muallif vafotidan uch yil o’tgandan keyin sahna yuzini ko’radi.

“Lessing bizning g’ururimiz va mehr-muhabbatimizdir” deb yozgan edi Hayne. Lessingning ijodi bilan nemis dramaturgiyasi kuch-qudratga ega bo’ldi; o’ziga xoslik kasb etdi, ulug’ erkinlik g’oyalari bilan yo’g’rildi. Uning butun umri bekamu-ko’st adolat tantanasi yo’lida sarflandi. Lessing hayotining so’nggi o’n yilligida undagi turg’unlik harakat bilan, avvalgi qonunga quloq solish isyonkorlik bilan almashdi. Germaniyada “Bo’ron va hujum” adabiy yo’nalishi vujudga keldi.

ROMANTIZM

Fransuz burjua inqilobi nemis jamiyati ma’naviy hayotida sezilarli iz qoldirdi. Germaniyaning bir qancha hududlarida dehqonlar harakati kuzatiladi. Xalq ommasi jiddiy ijtimoiy o’zgarishlarni kutayotgan edi. 1792-yilda Mayntsdagi “Tenglik va ozodlik do’stlari jamiyati” paydo bo’ladi va unga mashhur nemis demokrati Georg Forster boshchilik qiladi. Ko’pgina nemis yozuvchilari (J.Gyote, F.Shiller, Xyolderlin, Klopshtok, Herder va b.) Fransiya’dagi inqilobiy hodisalar rivojlanishining ilk bosqichida uni qutladilar. Lekin mamlakatda taraqqiyot kuchlari hali ancha kuchsiz edi.

XIX asr birinchi yarmidagi nemis adabiyoti asosan romantizm ruhida rivojlandi. Bu yo’nalish ijtimoiy-siyosiy ideallar turlicha bo’lgan, lekin dunyoqarash va voqelik nisbatan estetik munosabatlari o’zaro yaqin yozuvchilarni birlashtiradi.

Romantik kayfiyatdagi barcha yozuvchilarni jamiyatga bo’lgan munosabat, narsaparastlikka, hayotga, utilitar munosabatga sevgi, do’stlik, go’zallik kabi qadriyatlarni moddiy narsalar bilan birlashtiradi. Romantiklar doimo ruhiyat muhofazasida, uning moddiylik tomonidan ezilishiga qarshi kurashadilar. Ma’naviyatga dahldor barcha narsalar dinamik kuch sifatida qaralib, moddiylik esa ijro, insoniyat taraqqiyotiga monelik qiluvchi sifatida qaraladi. Utilitarlikning barcha ko’rinishlarini tanqid qilgan romantiklar odamlarni ma’naviy rishtalar o’zaro bog’lab turishini orzu qiladilar. Ammo dunyoqarash va dunyoni

idrok etishda o'zaro yaqin bo'lgan romantik yo'nalishdagi yozuvchilar bir-biridan o'z ideallari bo'yicha, ijtimoiy-siyosiy e'tiqodlari va tabiiyki, badiiy metodlari jihatidan ham farqlanganlar.

Ba'zilar (Shamisso va Xyolderlin) kelajakning "oltin asri" orzulari bilan yashaganlar, boshqalar ibtidoiy tuzum tarzini ideallashtiradilar. Nemis romantizmida ikki oqim – inqilobiy, taraqqiyparvar va reaksion oqim ikki romantik metodga mansub yozuvchilarni birlashtirgan edi. Ularning ba'zilar ijdodida inqilobiy va reaksion tendensiyalar ham aralashib ketgan edi. Nemis romantiklariga milliy o'ziga xos ijodga qiziqish xarakterlidir.

Ular Herder an'analarini davom ettirib, har bir xalq o'ziga xos betakror san'atga ega bo'lishga haqli, deb hisoblaydilar, chunki har bir xalq insoniyat rivojlanishidagi zaruriy zanjirni tashkil etadi. Ko'pgina romantiklar (aka-uka Grimmlar, Arnim, Brentano va b.) folklor materiallarni to'plaganlar.

Nemis romantizmi klassisizm ma'rifatparvar realizm bilan kurashda shakllandi. Nemis romantiklari (Kalderon va Hayot – bu tush) Shekspir (yozgi tun tushi "Bo'ron") ni o'z o'tmishdoshilari deb xisoblaydilar. O'tgan asr estetlaridan Aflotun ham romantiklarga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Romantiklar nafaqat estetikaga, balki badiiy ijodga ham katta ulush qo'shadilar, uni lirizm bilan boyitadilar.

Nemis romantizmi o'z rivojida uch bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqich 1795-1805 yillarga to'g'ri keladi va Yena romantik maktabi bilan bog'liqdir. Bu yo'nalishning faol ishtirokchilari aka-uka Frydrix va August Shlegel, Tiesk, Vakenrader, Novalislardir. Garchi bu guruh tashkiliy jihatdan yagona birlikdan iborat bo'lsalar-da, nuqtai nazarda ular yakdil emas edilar. F.Shlegel va Tiesk asarlari 90-yillarda inqilobga, respublika tuzumiga taassuf bilan qarar, Novalis esa e'tiqodli monarxiyachi klerikal ijodkor edi. Ilk romantizmida F.Xyolderlin o'z davriga nisbatan inqilobiy-isonkorlik munosabati bilan alohida o'rin tutadi. Romantizmning ikkinchi bosqichi 1806-1815-yillarga to'g'ri keladi. Bu davr nemis xalqining Napoleonga qarshi milliy ozodlik urushi yillari bilan aloqadordir. Bu paytda romantik harakat markazi Xaydelbergga ko'chadi. Nemis xalq ertaklarini yig'uvchilar aka-uka Grimmlar, Ayxendorf, Xerreslar bu guruhga kirganlar. Ular o'z asarlari orqali nemis jamiyatida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga intilganlar. Haynrix fon Klaystning ijodi nemis adabiyoti uchun katta

hodisa bo'lganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Romantizmning uchunchi bosqichi 1815-1848 yillarni qamrab oladi. Germaniyada sanoat ravnaqi, savdoning kengayishi, demokratik kuchlar poeziyasining kuchayishi bu davr uchun xarakterlidir.

YENA ROMANTIZMI

Friydrich Shlegel (*Friedrich Schlegel*)



Friydrich Shlegel nemis romantizmining buyuk nazariyotchisidir. U madaniy an'analarga ega byurger oilasida 1772-yilda dunyoga kelgan. Adabiy ijod bilan u yoshligidanoq shug'ullana boshlagan. Yosh Shlegelning estetik va ijtimoiy-siyosiy qarashlari uning "Yunon she'riyatini o'rganish haqida" (*Über das Studium der griechischen Poesie*, 1797), "Respublikanizm tushunchasi tajribasida" (*Versuch über den Begriff des Republikanismus*, 1796), Georg Foster- 1797, „Lessing haqida“ (*Über Lessing*, 1797) kabi ishlari-

da namoyon bo'lgan.

Qayd etilgan risolalarda F. Shlegel ilg'or e'tiqod kishisi sifatida namoyon bo'ladi.

"Yunon she'riyati haqida" nomli maqolasida F.Shlegel antik va zamonaviy yozuvchilar ijodini o'zaro muqoyasa qilib, ular o'rtasida demarratsion chiziq o'tkazishga intiladi. Qadimgi yunon adabiyotining farqlanuvchi belgisini Shlegel obyektivlik va obrazlar plastikligida ko'radi.

Yosh Shlegelning erkparvarligi uning "Georg Forster" nomli maqolasida o'z ifodasini topgan. Nemis inqilobchisi G.Forster fikrlaridagi mustaqil obraz, har qanday kuch ishlatishga nisbatan nafrat F.Shlegelga ma'qul keladi. "Lessing haqida" nomli maqolasida esa u har qanday turg'unlikka qarshiligi, ozodlik uchun kurashchilarga moyilligini ko'ramiz. F.Shlegel R.Lessingni "nemis asrining Prometeyi" deb ataydi.

F.Shlegel estetik nuqtai-nazarlarini tushunishida “Vilxelm Mayster xarakteristikasi” (tavsifi) muayyan qiziqish uyg’otadi. Mazkur maqolada Gyote romani poeziya mohiyatini o’zida mujassamlashtirgan durdona, davr asari sifatida baholanadi. O’z fikrini rivojlantirib, F.Shlegel “Vilxelm Mayster”ni o’z ahamiyatiga ko’ra Fransuz inqilobi kabi tarixiy voqea va Fixte falsafasi bilan bir qatorga qo’yadi. Chunki tarixiy moment monarxik tuzumni yo’q qilish, burjua munosabatlarining shakllanishi va Fransiyadagi inqilobiy hodisalar Shlegel fikricha “xususiy manfaat”larning g’alabasidan guvohlik beradi.

Fixte dunyo markaziga o’z “Men”ini qo’yar ekan, kardinal o’zgarishlarni falsafiy nuqtai nazardan siyosiy umumlashtiradi. Gyote esa sodir bo’lgan ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlarni estetik jihatdan idrok etib, insonning rivojlanish jarayonini diqqat markaziga qo’yadi.

Romantizm nazariyasi F.Shlegelning “Parchalar” (*Fragmente*) degan tadqiqotida 1798 yilda ifodalangan. “Romantik poeziya, deb yozadi, - Shlegel, - taraqqiyotparvar, universal poeziyadir” Romantik poeziyaning ikkinchi muhim belgisi unversallik bo’lib, san’atkor-shoir voqeilikni har tomonlama tasvirlashga intiladi.

Romantizm poetik hisoblangan barcha narsani, eng buyuk, muntazamlik asosiga qurilgan san’at asarlaridan tortib, to sevgi izhoriyu e’tirofigacha, bolalik soddaligigacha qamrab oladi.

Bu holda F.Shlegel o’z tarifini klassisizm estetikasiga, ya’ni san’atkorni faqat axloqiy yuksak holatlar va voqealarni aks ettirishigagina qarshi qo’yib, romantiklar klassisistlardan farqli o’laroq adabiyot chegaralarini kengaytirganliklari voqeilikni barcha ko’rinishlarini aks ettirishga qaratganliklarini alohida uqtirdi.

Ular badiiy ijod faqat go’zallikni aks ettiribgina qolmay, romantik iddeallar pozitsiyasidan turib jirkanch, tuban narsalarni ham ifodalashi lozimligini uqtirdilar. San’at predmeti mundarijasini kengaytirish romantiklarni jiddiy xizmatlari hisoblandi.

Romantiklar badiiy ifoda doirasini kengaytirib, tanqidiy realism nazaryasini tayyorlashda katta ijobiy rol o’ynadilar.

Shuni qayd etish o’rinliki, F.Shlegel romantizmni tarixan mahalliy hodisa deb, faqatgina XVIII asr oxiri XIX asr boshi bilan chegaralaymaydi, u adabiyotdagi romantik unsurlarni o’rta asrlar va uyg’onish davri adabiyotida ham ko’radi.

“Romantik ruh”ni deb yozgan edi, Shlegel “Roman haqidagi xat”ida qadimgi va yangi shoirlar, V.Shekspir va Servantesda, italyan

she'riyatida, ritsarlik asrida muhabbat va ertaklar olamida qidiraman va topaman. Romantizm, – deb davom ettiradi u alohida janr bo'libgina qolmay, har qanday poeziyaning zaruriy elementidir, u (*romantizm*, Sh.Karimov) oz yoki ko'p darajada badiiy asarda hukmronlik qilishi yoki ikkinchi planga surilishi mumkin, ammo butunlay bo'lmasligi mumkin emas” deydi F.Shlegel.

10. YOHAN VOLFGANG FON GYOTE (*Johann Wolfgang von Goethe, 1749-1832*)

1. Gyote - dramaturg
2. Gyotening nasriy asarlari
3. Faust – ma'rifatparvarlik davrining shoh asari sifatida.



Jahon madaniyati xazinasini “Faust”, “Egmont”, “Yosh Verterning iztiroblari”, “Gets fon Berlixingen” kabi o'nlab durdonalar bilan boyitgan shoir, yangi nemis adabiyotining asoschisi, nemis adabiy tilining islohcisi, J.V.Gyote katta ijtimoiy o'zgarishlar davrida – feodalizmning yemirilishi, kapitalistik tartibotlarning o'rnatilishi davrida yashadi va ijod qildi. Mamlakatda zo'ravonlarga qarshi boshlangan norozilik, milliy birlik uchun, insonning erki va qadr-qimmatini

uchun kurash – o'sha davrning umumiy ruhi shunday edi.

Gyote Mayndagi Frankfurtda boy oilada tavallud topdi. Gyotening otasi huquqshunoslik doktori bo'lib, meros qolgan sarmoyadan tushuvchi foiz hisobiga yashagan va o'g'lining bilim olishi hamda tarbiyasi bilan shug'ullangan. Gyotening onasi tag-tugli ziyolilar oilasidan chiqqan bo'lib, u ham o'z hayotini oila istiqboliga bag'ishlaydi.

Gyote oilada juda yaxshi tahsil ko'radi, so'ng Laypsig va Strasburg dorilfununlarida o'qishni davom ettiradi. U Strasburgda tasodifan “Bo'ron va hujum” harakatining yirik nazariyotchisi va Shekspir

ijodining jo'shqin targ'ibotchisi Yohan Gotfrid Herder (1744-1803) bilan uchrashib qoladi. Herder unda katta taassurot qoldiradi. Keyinroq Gyote Herderga joy topib, uni 1776 yili Vaymarga chaqirib oladi va ular Herderning vafotiga qadar bir joyda yonma-yon yashaydilar.

Gyote bolaligidan teatrga o'rganib qoladi. Teatrga borish uning o'quv mashg'ulotlari jadvaliga kiritilgan edi. shuning uchun ham yoshligidanoq o'z kuchini dramaturgiyada sinab ko'rishi ajablanarli emas. U mashhur bo'lib ketgan "Gyots fon Berlixingen" (1773) nomli birinchi pyesasini Strasburgda yozgan. Bu butun xalq hayotiga bag'ishlangan birinchi nemis tarixiy dramasi bo'lib, u yangi adabiyotni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Asar oilaviy-maishiy mojaro emas, balki to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy-siyosiy to'qnashuv asosiga qurilgan edi.

Asardagi voqea XVI asr dehqonlar urushi davrida sodir bo'ladi. Uning markazida tarixiy shaxs obrazi turadi. Gyote Volter va boshqa ma'rifatparvarlardan farqli o'laroq tarixga haqqoniy qarashga harakat qilgan. U zamonaga qandaydir "shama" qilish ma'nosida tarixga murojat qilgan emas. Tarix uning uchun jiddiy tadqiqot manbaidir. Tarixni zamonga xizmat qildirish vazifasini esa Gyote ikki davr uchun umumiy muammoni olg'a surish orqali amalga oshiradi. Shu bilan u muammoning zamon uchun dolzarbligini tarixiy mantiq asosida tasdiq etib beradi.

Gyote Dehqonlar qo'zg'olonini feodallar va dehqonlar o'rtasidagi oshkora sinfiy to'qnashuv tarzida tasvirlaydi. Uning jabrdiyda xalqqa nisbatan samimiy xayrixohligini har o'rinda sezish mumkin. Har ikki tomon ham adolat va haqiqat deya jangga kiradi. Lekin vaqti kelib, bu "adolat va haqiqat" kimlar uchundir ofatga aylanadi. Dehqonlarning to'fon misol ko'tarilgan isyoni begunoh kishilarni ham jabr-jafoummoniga itqitib tashlaydi. Yovuzlik ketidan yangi yovuzliklarni keltirib chiqaraveradi.

"Nega isyon ko'tardinglar? – deb so'raydi Gyots dehqonlardan. – Haq, huquq, erk uchunmi? Nega unda jazavaga tushib yurtni xonavayron qilyapsizlar?" U „beboshlik qilmasalar“ dehqonlar qo'zg'oloniga boshchilik qilishga rozi bo'ladi. Lekin dehqonlar urushi dahshatini ko'rib o'zini chetga oladi, negaki, adolat haqidagi ezgulikni ro'yobga chiqaruvchi kuch yo'qligini payqab qoladi.

Bularga qaramay asar hayotbaxshlik ruhi bilan sug'orilgan pyesadir. Gyote o'z umidini bosh qahramon bilan bog'lagan. U Gyots misolida

parokandalik davrida ham o'zini yo'qotmay, ikkilanmay o'z e'tiqodi va idealiga sodiq qoluvchi shaxs siymosini ko'rgandek bo'ladi. Gyote murosasozlikni emas, balki kurashish g'oyasini targ'ib etadi. Hatto kutilgan natijani bermfydigan kurash ham foydali, zero u insoniy qadriyatlarni himoya qilishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham Gyote Gyotsning jasoratini kelajak avlodlar uchun namuna deb hisoblaydi. "Seni rad etgan zamonga xayf", deydi Gyots haqida uning o'limi chog'ida fojia qahramonlaridan biri. "Sening qadringga yetmagan, nasl-avlodingning tolei sho'r bo'lg'usidir", deya davom ettiradi boshqa qahramon.

Gyotening keyingi bir necha dramatik asari mavzuining muhimligi badiiy qimmatini jihatidan "Gyots fon Berlixingen" tragediyasi darajasiga ko'tarilmadi. "Klavixo" (1774; mazmuni Bomarshening "Xotiralar"idan olingan), Jon Sviftning hayoti haqidagi "Stella" (1776) tragediyalari va "Mahzunlik namoyishi" (1777) dramatik hazili shular jumlasidandir.

Gyotening yirik dramasi oradan ko'p yil o'tgandan keyin paydo bo'ladi. Bu XVI asr Niderlandiya inqilobi voqealaridan olingan "Egmont" tarixiy dramasi edi. Unda tarixiy shaxs graf Egmontning ispan noibi gertsog Alba tomonidan qatl etilishi ko'rsatilgan. Gyote bu asarni 1775 yili yozishga kirishib, Italiya sayohati davrida, ya'ni 1786-1788 yillari tamomlaydi.

Gyote o'z dramasiida mustaqillik uchun kurash olib borgan Niderlandiyaning ikki sardori – graf Egmont va shahzoda Oranli obrazlarini ko'rsatgan. Shahzoda Oranli umum ishiga sodiq, xalqni isyon ko'tarishga rag'batlantiruvchi, aqlli, omilkor siyosatchi bir kishi; Egmont boshqacharoq: u ham o'z xalqiga fidoyi kishi, lekin isyonsiz ham xalq erkinlikka erishishi mumkin deb hisoblaydi. Buning uchun viloyatlar boshqaruvi uning qo'lida bo'lsa bas; shunda qirol buyruqlari uning qo'lida "randalanib", xalqqa ma'qul tarzda yetkaziladi, isyon ham bo'lmaydi va natijada qirol ham xalq ustidan qatag'onlar o'tkazmaydi.

U chindan ham qirolning buyrug'iga ko'ra qatl etilishi lozim bo'lgan protestantlik targ'ibotchilarini yashirin tarzda horijga jo'natib, ularni o'limdan saqlab qoladi. Muqaddas sanam tasvirini oyoq osti qilgan oltita protestantga qamchi bilan savalash jazosi qo'llaniladi; dehqonlar kechiriladi va qo'shimcha soliq to'lashdan ham ozod etiladi.

Lekin siyosiy vaziyat og'irlashuvi munosabati bilan Niderlandiyaga gertsog Alba boshchiligida ispan qo'shini kiritiladi, Egmont yanada

mas'uliyatliroq qaror qabul qilishga majbur bo'ladi. Egmont va shahzodani gertsog Alba o'z huzuriga chaqiradi. Borish kerakmi yoki yo'qmi?

Shahzoda o'zini chetga olib, viloyatga ketishni taklif etadi, Egmont esa, aksincha, Alba bilan uchrashish lozim va shunga boshni garovga qo'yib bo'lsada, qirg'inning oldini olish mumkin, deb hisoblaydi. Egmont har bir insonning taqdiri haqida o'ylaydi. "Agar bu xato bo'lib chiqsa, bilib qo'y, boshingga baloyi qazo yopirilib keladi, deydi u Oranskiyga. – Sen tufayli dahshatli qatag'on, qirg'in boshlanadi. Ko'z o'ngimgda daryo to'la fuqarolar, bolalar, qiz-juvonlarning jasadlari oqib o'ta boshlaydi. Joningdan voz kechib, qurol ko'tarib chiqsang-u, erkini himoya qilmoqchi bo'lgan kishilarning bo'g'izlansa, kim uchun, nima uchun kurashayotganingni bilolmay, bu jabrdiydalarni dahshat ichida kuzatishdan o'zga chora qolmaydi!"

Lekin Oranskiy ispanlar niyatini yaxshiroq payqagan ekan. U siyosiy zarurat tufayli yurtini tark etgan edi. Gertsog Alba huzuriga kelgan Egmontni qo'lga olib, qatl ettiradi. Shunday qilib, Oranskiy ehtiyotkor, Egmont esa yaroqsiz siyosatchi bo'lib chiqadi. Tarix Oranskiyning batamom haq ekanini ko'rsatdi.

Gyote nega Egmontni bosh qahramon qilib olgan? Buning ikki sababi bor. Gyotega Oranskiyning inqilobchiligiga qaraganda Egmontning murosasozligi yaqinroq. Yana Egmont o'z e'tiqodi yo'lida halok bo'lish bilan o'zining yuksak insoniy sha'nini ko'z-ko'z qiladi.

Egmont obrazida Gyotening murosasozlik kayfiyatigina ifoda topmagan; bu yerda avvalo Gyotening insonparvarligi namoyon bo'lgan. Gyote ham Lessing singari xalqning jabr-zulmga qarshi bosh ko'tarib chiqishi, uning insoniy tuyg'usining qay darajada takomil topganligiga bog'liqligini yaxshi biladi. Egmont xalqqa aynan shunday namuna bo'la oladigan, or-nomusini har narsadan yuqori qo'yadigan, ma'naviy barkamol qahramon tarzida ko'rinadi. Agar Egmont bo'lmasa, Oranskiyning ham keragi yo'q bo'lardi.

Gyote Egmont bilan o'tadigan munozarada Oranskiy g'alabasini ko'rsatish bilan hayot jumboqlardan iboratligi va ularni bilish lozimligini ta'kidlaydi. Lekin axloqiy komillikning amaliy uddaburonlikdan ustun va chin fazilat ekani yaqqol ko'rinib turadi. Jisman mag'lub, axloqan g'olib Egmontning jonfidoligi kelajak kurashchilari uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Gyote Vaymar gersogi Karl Avgust taklifi bilan 1775-yili Vaymarga kelib, birinchi vazirlik lavozimini egallaydi. Gyotening hayotidagi bu o'zgarish uning dunyoqarashida yuz bergan o'zgarishlar bilan ham bog'liq edi.

Gyote chindan ham g'ariblik saltanatidan o'zini chetga olib, Vaymarga kelib qolgan edi. Bu chekinish uning ijodiy shashtining qaytishiga ta'sir etmay qolmadi. U surunkasiga bir necha yil hech narsa yozmaydi. Italiya sayohatigina unda ilhom parisini uyg'otadi. O'sha yerda "Egmont"ni tugallaydi va yana bir qancha boshqa asarlar yozadi. Gyote diqqatini yana Gyotsdek o'ziga mustaqil, irodasi mustahkam sheryurak kishilar tortadi.

Gyote o'zidan o'zi mamnun bo'lsa-da, lekin hayot borlig'i bilan moslashishga intilgan emas. Gyote endi hayotiy muhit bilan mushtarak kishinigina komil shaxs deb ta'riflay boshlaydi. Qahramon qonunlarga hurmat-e'tibor bilan qarashi lozim. Gyote qo'zg'olonning har qanday turini ma'qul ko'rmaydi. Qo'zg'olon ur-yiqitdan bo'lak narsa emas. Shaxs barkamolligi bu davrda Gyote uchun, avvalo, go'zallik ideali ifodasiga aylanadi.

Gyotening g'oyaviy qarashida yuz bergan bu burilish uni klassisizm uslubiga olib keladi. U bir zamonlar yunon va rim san'atida ko'ringan shakllardan sirli sokinlik, go'zallik hamda komillik namunalari izlay boshlaydi.

Kechikkan ma'rifatparlik klassisizmi Gyote ijodi uchungina emas, Yevropaning boshqa mamlakatlari san'ati uchun ham xosdir. Bunga o'zining "Ifigeniya Tavridada" asari bilan Gyote yo'l ochib berdi. Asarning ilk nusxasi 1779 yili yozilgan bo'lib, qizig'i, unda Orest rolini Gyotening o'zi, uning turmushdoshi Korota Shreter Ifigeniya rolini o'ynaydilar. Pyesaning tugal nusxasi 1786 yili Italiyada yaratiladi.

Gyotening "Ifigeniya Tavridada" pyesasi Yevripidning shu nomli pyesasiga nisbatan munozara tarzida yozilgan. Yunon fojianavisi pyesasida Orest ajnabiylar qatl etiladigan Tavridadan Ifigeniya yordamida qochib, o'limdan qutuladi. Gyote asarida esa Ifigeniya Orestni qochishga undovchi "uchar" Piladning gapini yo'qqa chiqarib, uni Tavridada qolib, podshoh Foantdan rahm-shafqat so'rashga da'vat etadi. Foantning chindan ham ko'ngli yumshab, qabihona qonunni bekor qiladi va Orestni o'limdan qutqaradi. Orest o'z nomining yolg'on-yashiq bilan bulg'amay, qutqarib qolinishi faqat axloqiy g'alabagina to'la-to'kis g'alaba ekanligidan dalolat beradi.

“Torkvato Tasso” (1790) tragediyasi ham “idealist” bilan amaliyotchi orasidagi to’qnashuv asosiga qurilgan. Lekin muallifning ikkilanishi tufayli bu pyesa chinakam shiddatkorlikdan mahrum bo’ladi. “Ifigeniya”dagi singari “Torkvato Tasso” asarida ham klassisizmning uch birlik qoidasi to’la saqlangan. Lekin “Ifigeniya” haqiqiy yunon dramasiqa yaqin tursa, “Torkvato Tasso” asarida yangi davrdagi Yevropa klassisizmi ta’siri sezilib turadi.

Gyotening bu davrdagi ijodini Vaymar klassisizmi davri ijodi deb atash taomilga kirgan. Nemis jamiyatining ilg’or tabaqalari Gyote ijodining bu davrini ko’ngilsizlik bilan va hatto afsuslanib qarshi oladilar. “Ustoz ortidan shogirdlarining ergashuvi natijasida Germaniyada shunday adabiy davr boshlandiki, – deb yozadi Hayne, kamina uni “xushbichimlik davri” deb atab, uning nemis xalqining siyosiy takomili uchun nechog’li zararli ekanini ko’rsatib o’tganman. Lekin ayni chog’da Gyotening ko’pgina noyob asarlari qadr-qimmatini inkor etmadim. Ular bog’larni bezab turuvchi go’zal haykallar misol jonajon yurtimizni bezab turadi, lekin har qalay ular haykallardir. Ularni yoqtirish mumkin, lekin bu samarasizdir; Gyote asarlari Shekspir asarlari darajasida his-hayajon uyg’otmaydi. His hayajon so’zning farzandlari, Gyotening xushbichim so’zlari esa farzandsizdir. Bu tavqi la’nat o’sha xushbichim san’atning mahsulidir...”

Yozuvchi 1773-yili o’zining ilk tarixiy dramasi “Gets fon Berlixingen”ni yozadi. Bu dramada islohot va dehqonlar urushining shiddatli voqealari tasvirlanadi. Asar qahramoni feodallarga qarshi bosh ko’targan g’alayonchilarga rahbarlik qiladi. Biroq dehqonlar g’alayoni feodal kurash darajasiga ko’tarilgan bir paytda Gets fon Berlixingen – drama qahramoni g’alayonchilarga boshchilik qilishdan voz kechadi. Garchi Gyote inqilobiy harakat tarafdori bo’lmasa-da, o’z asarida Getsning dehqonlar ommasidan ajralishi, niyatlardan chekinishi, shubhasiz halokatga olib kelishini haqqoniy aks ettirgan. G.Herder bu dramani “Inson ruhining ulkan piramidasi”, deb baholagan edi. Dramaturg “Gets fon Berlixingen” orqali tragediyaning yangi tipini – kurashga shay bo’lmagan sinf dohiysining fojeasini yaratgan. XIX asrning birinchi choragidayoq “umumjahon adabiyoti” shiori bilan chiqqan nemislarning buyuk shoiri Gyote xalqlar tor milliy biqirligidan chiqib, insoniyat tarixi rivojining turli bosqichlarida yaratilgan boyliklarni o’z tarkibiga qo’shishi kerakligini bashorat etgan edi. “Har bir adabiyot jahon adabiyotini bunyod etishda qatnashmog’i kerak, –

deb yozgan edi u o'z kotibi Ekkermanga, – ... Fransuzlar, inglizlar va nemislar o'zaro yaqin aloqada bir-birimizni tuzatayotganimiz va to'ldirayotganimiz yaxshi. Bundan faqat jahon adabiyotigina naf ko'radi".⁵

Mana 200 yildirki Gyotening nasriy-nazmiy va dramatik asarlari jahonni kezyapti. Buyuk shoir adabiy faoliyatining ilk davriga mansub bo'lgan "Yosh Verterning iztiroblari"chalik dovrug' taratgan, gizg'in muhabbat qozongan birorta prozaik asarni o'sha davr nemis adabiyotida qayd etish ancha mushkul. Yevropada birorta mamlakat yo'qki, bu roman tarjima etilmagan bo'lsa.

JOHANN WOLFGANG
VON GOETHE

DIE LEIDEN
DES JUNGEN
WERTHER



Inqilobiy Fransiyada feodalizm tartibotiga qarshi ko'tarilgan xalq "Yosh Verterning iztiroblari" romanidan mamnunliklarini bildirganlar: "Fransiya-ning o'sha paytdagi inqilobiy hukumati "Verter..." muallifiga o'z hurmatini bildirib, Fransuz respublikasining faxriy fuqarosi qilib saylagan va "insoniyat va jamiyat do'sti" deb e'lon qilgan. Bu mazkur asarning o'sha davrdagi om-maviyligidan dalolat, albatta "Yosh Verterning iztiroblari" rus tilida hozirgi kungacha yigirma martadan ziyodroq chop etilgan. 1975-yilda G'afur G'ulom nomli Adabiyot va san'at nashriyoti tarjimon Yanglish Egamova bevosita

nemis tilidan o'giran, bu romanni kitobxonlarga taqdim etdi. Adabiyotshunos Ibrohim G'ofurov ta'biri bilan aytganda, "Navoiylar asos solgan gulshanga" buyuk nemis shoiri Gyote asarlarini iqtidorli shoirimiz Erkin Vohidov nazmda, tarjimon Yanglish Egamova nasrda olib kirdilar. Har biri o'z o'rni va bahosiga ega bo'lgan mazkur ijod durdonalarini o'zbekchaga ag'darish uchun jur'at va xohishning o'zi kamlik qiladi, albatta. Asarning barcha falsafiy, ma'naviy, badiiy mintaqalarida bezavol harakat qilish, ya'ni, uni tom ma'noda anglash va o'z qalbiga ko'chirish tarjimon uchun oson emas. Gyote 23 yoshida "Yosh Verterning iztiroblari"ni yozar ekan, o'zining parokanda, baxtsiz vatani, baxt va erkni orzu qilishdan o'zga imkoniyatga ega bo'lmagan

⁵ Gyotening Ekkermanga xatlari

tengqurlari va o'zining qullik va nohaqlik dunyosidagi tanholigining fojeasi haqida fikr yuritdi. 1772-yilning bahorida Gyote Veslarda ota xohishiga ko'ra umumimperiya sudida o'z praktikantlik faoliyatini boshlaydi. Davlatning zanglagan dastgohidan olgan ilk taassurotari uning bu sohaga bo'lgan qiziqishini tamoman yo'qqa chiqardi. Umumimperiya sudi deb nomlangan bu mahkamada 100 yillik tarixga ega bo'lgan va hali ko'rilmagan yigirma mingdan ziyod ish bor edi. Shu orada Gyote mahalliy amaldorlardan birining qizi Sharlotta Buffga muhabbat qo'yadi.

Lekin shoir ma'shuqa deb hisoblagan qiz sud qaramog'idagi elchixonona kotibi Kestnerga unashirilganidan voqif bo'lib qoladi. Kestner bilan do'stona munosabatda bo'lgan Gyote Veslarni tark etadi. Shu paytlarda Gyote o'zining qahramoni Verter kabi iztirob chekadi. Do'stlariga qoldirgan nomada shunday degan: "U ketdi. Noma qo'lingizga tekkanda, bilingki, u ketdi. Endi tanhoman va g'am-anduh chekishga haqliman. Sizni baxtivorlikda qoldiraman va sizlarnig qalbingizda yahashga umidvorman".

Keyinchalik Gyote veslarlik tanishlaridan bir kishi do'stining jufti haloliga oshiq bo'lganligi va undan rad javobini olgandan keyin o'zini halok etganligini eshitadi. Bu fojea unga qattiq ta'sir qiladi. Natijada "Yosh Verterning iztiroblari" dunyoga keladi.

Beorom, iztirobli, dunyo tashvishlaridan hafsalasi pir bo'lgan Verterning muallif tetik fikrli, lekin filisterchasiga chegaralangan "nonim butun, uyim tinch, ishim tayin", deydigan, taqdiridan mamnun Albert bilan muqoyasa qiladi.

Muallif kichik provinsial shaharchaning turli tabaqalariga mansub kishilar hayoti va ruhiy dunyolari orqali dehqonlarning, amaldorlar, kiborlar, din peshvolarining tipik obrazini chizgan. O'tkir satirik nayza feodal-dvoryan tartibotiga qarshi qaratilibgina qolmay, balki unga burjua munosabatlariga, hali shakllanishga ulgurmasdanoq o'z egoistik tabiatini oshkor qilgan va insoniyatning dushmani bo'lishga ulgurgan burjua munosabatlariga qaratilgan. Tanqidchilar shu davrda yaratilgan har bir asar isyon va norozilik bilan to'la, deganda "Verter"ni ham ko'zda tutgan bo'lsalar ajab emas.

"Faust" asari buyuk shoir ijodida alohida o'rin tutadi. Bu shoirning 60 yillik mashaqqatli mehnati yakunidir. Shoir ulkan jasorat va ehtiyotkorlik bilan butun umr bo'yi (shoir "Faust"ni 1772 yilda boshlab, vafotidan bir yil oldin – 1831 yilda tugallagan) o'zining yorqin o'y va

fikrlarini, falsafiy mulohazalarini mazkur asarga singdirgan. “Agar eng oliy jasorat ixtiro qilish jasorati bo’lsa, Gyotening “Faust”i shunday jasorat namunasidir”, - deb yozgan edi A.S.Pushkin.

“Faust” markaziga barcha mamlakatlar xalqlari uchun yaqin va tushunarli umumbashariy masalalar qo’yilgan. Rus revolyutsion-demokratik tanqidchiligi Y.V.Gyote zamondosh bo’lgan nemis jamiyatini to’la-to’kis aks ettiruvchi asar, unda Germaniyaning o’tgan asr so’nggi va hozirgi asr boshidagi falsafiy yo’nalishi o’z ifodasini topgan – deb baholagan. V.G.Belinskiy “Faust”ni real hayot bilan chambarchas bog’langan, falsafiy mazmuniga ko’ra o’ta dolzarb asar sifatida qayd etadi.

Gyote asarining qahramoni haqiqatan hayotda bo’lgan inson. Reformatsiya va Dehqonlar urushi yillarida Germaniya qishloqlarida Faust degan bir kishi kezib yurgan ekan. Bu zot chindan ham alloma hakim bo’lganmi – lo’ttiboz kishimi, bunisi noma’lum, lekin uning odamlar tilida dostonga aylangani aniq. Doktor Faust afsona va rivoyatlar qahramoniga aylanadi. Nemis ma’rifatparvarligining uyg’onish davrida va, ayniqsa, “Bo’ron va hujum” yillarida xalq madaniyatiga qiziqish ortib boradi; Faust haqida ko’p kishilar yozishga urinib ko’radilar, lekin faqat Gyote bu vazifaning uddasidan chiqqa oldi.

Gyote Ma’rifatparvarlikning tub ma’no va mohiyati insonning olamaro muloqoti, tabiat sirlarini anglash va shu cheksiz mo’jizalar xilqatida o’z o’rnini topishi ekanini ifoda etib berdi. Faust “bir siymo timsolida butun kishilikning ifoda etilishi demakdir.” (B. G. Belinskiy). Faust hayotining har bir lavhasi ramziy ma’noga ega. Belinskiyning ta’biricha “Faust”da “o’tgan asrning oxiri va hozirgi asrning boshida Germaniyada ko’ringan falsafiy harakat o’z in’ikosini topgan”. Shu bilan birga Gyotening bu asari “hozirgi nemis jamiyati hayotining ham to’la aksidir” .

“Faust” falsafiy teran asar bo’lishi bilan birga, hayotiy haqqoniy asar hamdir. Gyotening aynan “Faust” asari Ma’rifatparvarlik realizmining eng ulkan muvaffaqiyati hisoblanadi. Bu asar XVIII va XIX asrlar adabiyotini bir-biri bilan bog’ladi va ayni zamonda o’z davrininggina emas, umuman, yangi zamon poeziyasining eng yirik yodgorligi bo’lib qoldi. “Faust” “poetik ruhning ulug’vor mahsuli; xuddi “Iliada” mumtoz moziyning yodgorligi bo’lgani kabi, u ham eng yangi poeziyaning namunasi sifatida xizmat qiladi” – degan edi A. S. Pushkin.

Faustni uning o'z xonasida samarasiz ilmdan tolib charchab, "olamning ichki uyg'unligi"ni anglash umidida sehr-jodu bilan mashg'ul chog'ida uchramiz. Faust o'tkinchi mayda-chuyda hirs-havasni xush ko'rmaydi, bunday hayot uning dili va shuuri uchun yet narsadir:

Qorin deb o'turmiz foniy dunyodan,
Yurak tashnaligi bizga begona.
Yuksak maqsadlarni ko'zlagan odam
Bizlarda sanalar dalli devona.
Eng go'zal, musaffo, sirli tuyg'ular
Hayot girdobida yanchilar ular... .

(Erkin Vohidov tarjimasi)

Shu bilan birga Faust olam sirlari qarshisida o'z ojjizligini ham sezadi: "Olamning qulf kaliti o'ta mustahkam ekan," uning uchun yashashning ma'nosi qolmaydi, o'zini-o'zi o'ldirishga chog'lanadi, shu payt ibodatxona qo'ng'iroqlari bong urib, uni ahddidan qaytaradi. Unga hayot yana totli, yashash lazzatli bo'lib tuyuladi. U oddiy turmushdan ezgulik izlay boshlaydi. Xalq saylida bo'lib, nemis nafasidan ruhlanadi va yana hayot tortiqlaridan bahramand bo'lishga ahd qiladi.

Shunday holatda uning qarshisida Mefistofel paydo bo'ladi, unga boshqatdan qayta hayot kechirishni taklif qiladi. Faust rozi bo'ladi. Uning shayton bilan tuzgan shartnomasi g'aroyib bir shartga ega: Faust shu umrning qaysidir pallasida hayotdan to'la to'kis qoniqish hosil qilgan chog'idagina Mefistofel unga egalik huquqini olishi mumkin.

Mefistofel Faustga hissiy nash'u namo ko'rsatish bilan o'z maqsadiga erishmoqchi bo'ladi. U Faustning Gretxen bilan tanishishiga yordam beradi. Lekin Faustning ma'naviy olami Mefistofel o'ylagandan ko'ra chuqurroq bo'lib chiqadi. Faust bu chin vafodor, bokira qizni chin dildan sevib qoladi. Shunday bo'lsa-da, Gretxen bilan qololmaydi. Faustning ko'ngli bu ko'hna, oxiri yo'q olamni bilishni istaydi, holbuki uning ozgina qismini ham bilib ololmaydi. Faust Gretxenni tark etadi va shu bilan uni nobud qiladi.

Asarning ikkinchi qismida Faust davlat ishlariga yaqinlashadi, urushda qatnashadi, antik davr qadriyatlarini tiklash orzusi bilan yashaydi. U antik o'tmishning hamma jabhalaridan ma'no izlaydi, lekin niyatiga yetolmay, ko'ngli ranjigancha qolaveradi. Fojianing

oxiridagina u hayot ma'nosini anglaydi; bu uzluksiz kurash har kuni yashash, erk uchun behudud olishuvdadir. „Erk va hayot uchun kurashgan kishigina yashash va erkka munosibdir“.

Faust mutlaq haqiqatga erishgandek o'zini mamnun his eta boshlaydi. Lekin bu haqiqatga u endigina bir necha qadam yaqinlashgan edi, xolos. Mutlaq haqiqatga erishish amri mahol: olam, fojining boshlanishida, Faust mahriga tushgandek, bilib bo'lmas, behudud ummondir. Faust o'z shuuri va faoliyatining qaysi bir soniyalik quvonchli samarasi evaziga qismatning qahrli qasosiga uchraydi. So'qir bo'lib qolgan qariya nazarida dengizdan tortib olingan botqoq zamanga hayot ato etayotgan ishchilar uning orzu-umidini ro'yobga chiqarayotgandek bo'lib tuyuladi. U chindan han belkurak sharpalarini eshitadi. Lekin bu unga kovlanayotgan qabrdan chiqayotgan sharpalar edi. Faust „Shoshma, ey soniya“ deya xitob qiladi. Shu zaylda shart buziladi. Mefistofel bahslashuvda yutib chiqadi. Lekin Mefistofel endi inson ruhining nechog'li ulug'vor ekanini isbot etishga ulgura olgan Faustga ega bo'la olmaydi.

Gyote dramaturggina emas, balki shu bilan birga teatr san'atining yirik arbobi edi. 1791-yildan 1817-yilga qadar u Vaymar saroy teatriga boshchilik qiladi.

Lekin shuni e'tiborda tutish lozimki, Gyotening teatrdagi ishi qanchalik ahamiyatli bo'lmasin, bu ish uning ko'p qirrali faoliyatining bir qismidir.

“Faust” ning “Teatr muqaddimasi”da Gyote masxaraboz tilidan ijodkor inson qalbiga quloq tutishi, inson hayotini chuqurroq kuzatishi lozimligini uqtiradi. Gyotening o'zi xuddi shunday tamoyillar asosida ish ko'rar edi. Faust Vagner bilan suhbatda taraqqiyparvar kishilarning fojeali taqdiri haqida ayanch bilan so'zlaydi:

Olam sirdoniga kalit topganlar,
Qalb uyin ochganlar bo'lgan xoru zor.
Barchaga ayonkim, ularni ming bor,
Gulxanga yoqqanlar, butga qoqqanlar.
(“Faust”, 1-qism, 41-bet)



V.G.Belinskiy aytganday, “O’ziga zamondosh bo’lgan jamiyat hayotining badiiy ifodasini to’liq bera olgan” buyuk san’atkor o’z davri, jamiyati uchun xarakterli bo’lgan pul bilan bog’liq illatlarni, chirkinliklarni e’tibordan chetda qoldirgan emas. Mefistofel so’zlari E.Vohidov tarjimasida shunday jaranglaydi:

Kalta o’ylamoqdir bandalar ishi,
Sen ham boshqalardan emassan ortiq.
Bor ekan ko’ksingda hayot otashi,
Senga tangri bermish omonat tortiq.
Sen undan foydalan, fursat g’animat,
Nechun bu dunyodan izlash haqiqat?
O’zingniki senga berilgan bu bosh,
O’zingniki yelkang, qo’ling, oyog’ing.
Hukmu farmoningda ne bo’lsa yo’ldosh,
Demak, bu seniki, lozim bilmog’ing.
Agar aravamga olti ot qo’shsam,
Qayga borsam uchsa to’rtta g’ildirak,
Demak menikidir shu uchqur qadam,
Yigirma to’rt oyoq meniki demak.

(“Faust”, 1- qism, 91-bet)

Kapital hukmron bo’lgan jamiyatda hamma narsa oldi-sotti predmetiga aylantirilganini, bu jamiyatda inson vijdoni ham, or-nomusi ham, aql-idroki ham pul bilan o’lchanishini iztirob bilan satrlarga joylagan muallif niyati, uning tagdor qochiriq va kinoyalari o’zbek tarjimoni talqinida originalga yaqinlashtirilgan.

Faustning monologlaridan biri (Mefistofel bilan ikkinchi uchrashuv sahnasi) ayniqsa diqqatga sazovor. Gyote qahramoni shuhratparastlikni, takabburlik va boylikka ruju qilishni g’azab bilan la’natlaydi. Bu o’rin E.Vohidov tomonidan shunday o’zbekchalashtirilgan:

La’nat bo’lsin avrab insonni
Allalagan o’shal tuyg’uga,
La’nat bo’lsin tabarruk jonni
Tan g’origa solgan dog’uga.
La’nat ado qilg’uvchi bizni
Ko’ngildagi takabburga ham.
La’nat murg’ak hislarimizni
Aldaguvchi tasavvurga ham.

La'nat senga bizni band etgan
Turmush uyi, oila, shuhrat...
Lahza bizni sarbaland etgan
Shirin tushlar, sizga ham la'nat.

Bu o'rinda Faustning fosh etish quroli konkret sotsial manzilga qaratilganligi ravshan. Tarjimon ham buni teran his etgan holda tarjimaga qo'l urganligi ko'rinib turibdi.

Ma'lumki, "Faust"ning ikkinchi qismi shoirning sotsial tuzumga munosabati o'ta pinhoni, allergorik tarzda bayon qilinishining kuchlilik bilan ajralib turadi. Gyote o'z tragediyasining bu qismini hayotlik vaqtida e'lon qilmay, "avlodlarga vasiyat" sifatida qo'lyozmani konvertga solib qo'ygani va vafotidan keyingina uni ochishga ijozat bergani ham shundan. Gyotening "O'simliklar metamarfozasi" asarida shunday satrlar bor: "Modomoki tabiat to'xtovsiz o'sish, o'zgarishda ekan, uning kuzatuvchilari – insonlar undan andoza olmoqlari lozim". Bu gapdan ulug' shoir hayotning yaxshi tomonga o'zgarmayotganidan norozi edi, degan xulosani chiqarish mumkin. Gyote 1824 yilning 4 yanvarida kotibi Ekkerman bilan muloqotda Fransuz inqilobining samaralarini ko'rolmaganligidan afsuslanadi. Bu afsus, nadomat tuyg'ulari "Faust"ning ikkinchi qismida kansler tilidan shunday ifodalanadi:

Isitma o'tida yonar saltanat,
Falokat ustiga kelar falokat.

("Faust", 2-qism, 14 bet)

Beadad iztirob va isyonkorlikka undash sohibjamol Yelena va Faustning o'g'li – Yevforionning halok bo'lishiga bag'ishlab bitilgan satrlarda xorning motam qo'shig'i bo'lib eshitiladi:

Bu olamni tark qilding,
Tubanlikni toptading,
Kamolotga intilding,
Ammo uni topmading.
Qismat berolmas javob,
Kim qay zamon topadi,
Bechora xalq-chi zardob
Va qon yutib yotadi.

Yuqoridagi anduhli misralarda xalq armonini o'zini qila olgan Gyotening o'tli nafasi ufurib turadi, ayni paytda o'zbek she'rxoni E.Vohidov iqtidorli qalami kuchini, o'zligini sezib turadi.

“Faust”ning “Teatr muqaddimasi” da direktorining sharoitga moslashish haqidagi maslahatiga javoban shunday xitob qiladi:

Bor, izla o'zingga bo'lak xizmatkor,
Sen boshlagan yo'lga aslo bormasman
Menga tangri bermish oliy huquq bor
Sen deb men uni loyqa qormasman.

Yoki mana bu to'rtlikka e'tibor bering:

San'atda kosiblik – kazzoblikka teng,
Nahot odatiydir sizga bu holat.
Bu yerda noqobil qalamkashlarning
Hurmati balandga o'xshar bag'oyat.

Erkin Vohidovning tarjima uchun foydalangan B.Pasternak tarjimasidagi “карпать пошлюстей – большое зло” dan (Bo'lmag'ur narsalarni yozish o'ta bema'nilik) “San'atda kosiblik – kazzoblikka teng” degan xotirada muhrlanib qoladigan hikmatni chiqarish tarjimon mahoratidan dalolatdir.

Xorning motam marsiyasida yana shunday da'vat bor: “Yangi sho'x-shodon qo'shiqlar kuylang, quyi egilgan boshlarni baland tuting, chunki zamin azal-azaldan yangi qo'shiqlar yaratib kelgan”.

Buni Erkin Vohidov quyidagicha o'giran:

Yetar g'amni qiling bas,
Qo'shiq ayting sho'x-shodon.
Qo'shiq bilan hamnafas
Yaralgandir bu jahon.

Gyote tadqiqotchilari¹ uning ijodida ikki cho'qqi bor, deyishadi. Bulardan biri Faustning o'limi oldidan monologidir: Faust ta'biricha, olam hikmati – erku hayot deb, “hayot-mamot” jangiga kirishda, hur zaminda yashayotgan ozod ellarni ko'rishda:

¹ М. Кессель. Гёте и «Западно-восточный диван», М., «Наука», 1973 г. стр.115

Million odamlarni chorlab u tomon
Bir yurt barpo etay beadam.
Garchi bunda xatar bo'lgay yonma-yon,
Ellar hur mehnatdan topurlar madad.

.....
Uzoq hayot yo'lin o'tdim-u bosib,
Olam hikmatini ayladim yakun.
Kim erk, hayot, deya jang qilolsa har kun –
Ozod hayot uchun o'sha munosib
Shunday kunni ko'rsam edi bir nafas.
Ozod diyorimni, ozod xalqimni,
Shunda men aytardim baralla, shaksiz,
To'xta, ey daqiqa, go'zalsan g'oyat!
Aytardim hayotda men qoldirgan iz,
O'chmayin qolajak abadol-abad.
O'shal soniyani sezib oldindan
Eng oily lahzada turibman bu dam.

Bu so'zlar Faustning emas, Gyotening o'z so'zlari kabi jaranglaydi. Zero, shoirning o'zi yuqoridagi satrlarda tasvirlangan go'zal hayot, ozod diyorni orzu qilardi.

“Arshi-a'lodagi debocha” da tragediyaning muhim optimistik g'oyalaridan biri ifodalangan. Tangri Mefistofelga Faust taqdirini topshirar ekan, intihoda Faust Mefistofel ustidan g'olib chiqajagiga, ezgulikning razillikdan, haqiqatning bo'htondan, ziyoning zulmatdan kuchli ekanligiga ishondi. Bu o'rinda Gyote “Tangri”si shunday deydi:

Zulmatdan yo'l topib chiqolur inson,
Unga chiroq bo'lur men bergan idrok.

Bu Gyotening insonga bo'lgan ishonchini ifodalovchi optimistik xulosadir.

Shuni ham alohida ta'kidlashni istardikki, tarjimon E.Vohidov Gyotening ma'rifatparvarligini rasmiy cherkovga, uning xizmatkori bo'lgan sxolastik fanga qarshiligini to'g'ri his etgan.

Tragediyada Gyote ilgari surgan dadil va dono fikrlar, uning dunyoqarashi tarjimon tomonidan to'g'ri talqin etilgan. Margarita bilan Faustning din haqidagi muloqoti, Faust cherkov ta'limiga qarshi

dunyoning birligi va moddiyligi haqida kuyunchaklik bilan aytgan, emotsionalikka boy mashhur monologi originaldagidek jaranglashi fikrimizning dalilidir:

Margarita:

Farz erur tangriga doim sig'inmoq

Faust:

Nechun?

.....

Faust:

Boshimizda yo'qmi gumbazi samo,
Oyoq ostimizda yo'qmi yo tuproq?
Yo'qmi tong ufqidek qaragan Zuhro
Va shu'la taratgan bizga yarqiroq?
Beg'ubor ko'zingga sening, ey suluv,
Mahliyo ko'z tikkan men emasmi, yo
Haqiqatda yo'qmi tegramizda bu –
Senu men sezganu sezmagani dunyo?
Shu dunyo bag'rida borligingni bil,
Hayot butunligin angla doimo,
Buni ne atasang so'ng bilganing qil.
Sevgi, baxt deysanmi va yoki xudo?!
Bunga yarashiq hech topilmas qismat,
Nom yo'q uni qamrab oluvchi butun,
Barcha gap tuyg'uda, so'z esa faqat
Nurafshon falakni to'sguvchi tutun.

Bundan yuz yil muqaddam “Faust”ni ruschaga ag'dargan dastlabki tarjimonlar Chor nazoratining ta'qibidan qochib, asarning o'ta “dahriy” o'rinlarini yumshatar, yoki olib tashlar edilar. E.Vohidov esa originalga eng yaqin bo'lgan ruscha nusxasini tanlagan, bu buyuk nemis san'atkorining tetik va sog'lom fikrlari, kurashchan dunyoqarashning o'zbek she'rxoniga yetib kelishiga imkon bergan. Ulkan san'atkor o'zi yashagan muhitdagi ziddiyatlar mohiyatini chuqur anglab, davr ruhini ifodalovchi muammolarni qo'ya bilgani, voqelikni yuksak mahorat bilan haqqoniy tasvirlagani tufayli “Faust” salkam bir yarim asrdan buyon necha-necha millionlab kitobxonlar avlodini tarbiyalab kelmoqda.

Hozirgi kunda “Faust”ning rus, ingliz, Fransuz, arab, xitoy, turk, urdu, Bengal, yaxudiy, tatar, qozoq va boshqa tillardagi tarjimalari safida iste’dodli shoir Erkin Vohidov o’zbekchalashtirgan nusxaning ham borligi faxrlidir.

“Faust”ni tarjima qilish men uchun orzu bo’lib, jur’at bilan qalam ololmay yurgan kezlarimda,- deb hikoya qiladi tarjimon biz bilan suhbatda,- Alisher Navoiy nomli kutubxonaning nodir kitoblar bo’limida A.L.Sokolovskiyning nasriy tarjimasi (Peterburg 1902) mavjudligidan voqif bo’lib qoldim. Kitob bilan tanishib, har bir satrga, so’zga berilgan sharh, izohlar bilan oshno bo’lganim menga dalda bo’ldi. N.Xolodkovskiy va B.Pasternaklar o’z tarjimalari bilan menga ko’mak berayotganday bo’laverdilar. Faustning dunyosi meni tamomila o’z qa’riga tortgan, boshqa ishga qo’lim bormay qolgan edi. Nihoyat, Gyote bilan bo’lgan besh yillik muloqot natijasida o’zbekcha “Faust” yaratildi.

“Tarjimaga vaqt sarf qilganim uchun, – deb yozadi E.Vohidov professor U.Normatov bilan suhbatda, – she’riyatimizning eng zukko zahmatkashlaridan biri dashnom berdi. Rostini aytsam bu menga ozgina malol keldi. Shaxsan men badiiy tarjimaga, uning milliy-madaniy taraqqiyotdagi bebaho qadr-qimmatidan tashqari, professional mahoratni chuqur o’zlashtirib olishning, Vatan va jahon madaniyatini o’rganishning beqiyos vositasi, deb bilaman. Jahon va qardosh xalqlar adabiyotlarida buyuk siymolar tajribasi haqida yozilgan eng yorqin tadqiqotlar shoir yoki yozuvchiga bevosita tarjima bilan mashg’ul bo’lishda olgan sabog’-u bilimlardan ortiqroq narsa berolmaydi. Axir shoh asarni tarjima qilayotganda ozgina bo’lsa-da ruhan uning muallifi darajasiga ko’tarilasan yoki o’sha muallif roliga kirasan. Eng muhimi, – deb uqtiradi shoir, – tarjima ijodkorning mas’uliyat tuyg’usini oshiradi, ijodkorni originalda xom asarlar yozishdan saqlaydi.”

Tarjimon bu mas’uliyatli san’atning ko’p vaqt olganligidan, “yigitlik umrining a’lo damlari” tarjimaga sarf bo’lganligidan o’kinmaydi. Buyuk shoir so’zining sehri, uning ulkan qalbi va tafakkur kuchini o’zbekchalashtirish zavqi tarjimonga mashaqqatli, ayni paytda sharafli ishni uddalash imkonini beradi.

Jahon adabiyoti xazinasining abadiy barhayot durdonasi “Faust”ning tilimizda bitun salobati va salohiyati bilan namoyon bo’lishini ilmiy va adabiy jamoatchilik qizg’in kutib oldi.

Akademik Vohid Zohidov “Faust” tarjimasini haqida quyidagilarni yozadi:

“Genial “Faust” g’oyat iste’dodli va jur’atli shoirimiz Erkin Vohidov tomonidan mohirona tarzda tarjima qilindi. Bu madaniy hayotimizda juda muhim voqealardan biri bo’ldi. Axir jahon adabiyotining shoh asarlaridan yana biri o’zbek xonadoniga kirib kela boshladi. Shuning uchun men paytdan foydalanib va hammaga eshittirib tarjimonimizga baland ovoz bilan dil tasannosini izhor etmay o’tolmayman. Ochig’ini aytganda, hozirgilargina emas, kelajak she’rxon avlodlarimiz ham mamnun bo’lib minnatdorchilik bildirajaklar unga”.

“Erkin Vohidov “Faust”ni san’atkor sifatida shakllanib, balog’atga yetgan chog’ida tarjima qildi, – deb yozadilar adabiyotshunos Ibrohim G’ofurov va shoir Jumaniyoz Jabborov, – “Faust” kabi genial san’at asarini tarjima qilmoqlik uchun, – deb ta’kidlaydi ular, – ijodkor shu asar darajasida fikran va qalban yetilgan bo’lmog’i lozim. Asarning barcha falsafiy, ma’naviy, badiiy mintaqalaridan bezavol harakat qilish, ya’ni uni tom ma’noda anglash va o’z qalbiga ko’chirishi lozim. “Faust”ni o’qiganda biz o’zbek shoiri mana shunday ijodiy-psixologik jarayonni boshidan kechirganligiga, asarning so’zlari, shakliy jihatlarigina emas, Gyotening qalbi va idrokining izlarini ham qog’ozga tushirilganligiga ishonch hosil qilamiz.”

Nemis adabiy tilining asoschisi va jonkuyar targ’ibotchisi Gyote o’z asarlarida mahorat bilan xalq tilidan, uning rang-barang uslubiy bo’yoqlaridan, maqol, matal, hikmatli so’zlaridan unumli foydalangan va o’z navbatida o’zi ham aforizm darajasidagi purhikmat durdonalar yaratgan, biz so’z yuritayotgan “Faust”da ham yuqoridagi fazilatlar bir dunyo. Asarda Gyote dunyoqarashining turli qirralarini ifodalovchi, qaysi personaj tilidan aytilishidan qat’iy nazar, o’quvchi xotirasida muhrlanib qoladigan aforistik satrlar, maqol, matal, idiomalar o’rinli qo’llangan.

“...Har hunarning o’z amali bor, taxtaga arra-yu, temirga sandon”, “O’zim gado va lek ko’nglim shoh”, “Qorni to’ysa gadoning, unga bayram o’sha kun”, “Sen uchun ikki pul odamning so’zi”, “O’z nafsi balosin yenga olsa kim, murid-maqsadiga yetadi doim”.

Quyidagi falsafiy satrlar fikrimizga dalil bo’la oladi:

“Shovqin solmoq irmoq odati,
Daryo bo’lgach tinadi albat.

Ming ko'pirsin uzum sharbati
Sharob bo'lur bir kun oqibat”.

“Yerga sig'mas tabiiy inson,
uning uchun cheksiz olam tor”.

Bular “Faust” da ishlatilgan yuzlab obrazli ifodalardan namunalardir. Gyote “Faust”da ixchamlik va mushohadakorlikka xalq maqollari, matallari, idiomatik iboralarini san'atkorlik bilan ishlatish orqali erishgan. She'riy asarlarda maqol va hikmatli so'zlarni poetik talablarga muvofiq joylashtirish san'atkordan kuch va mahorat talab qiladi. Shu nuqtai nazardan Erkin Vohidovning Gyote qo'llagan obrazli vositalardan ehtiyohtkorlik bilan foydalanishi diqqatga sazovordir. Lekin “Shohidlikdan do'ppilar uchdi osmonga” (58-bet, 1-qism), “O'ziga bek – o'ziga sulton” (16-bet, 2-qism)kabi iboralarni lozim topganki, bu nemis voqeiligi uchun xos emas.

Har bir millat o'ziga xos yashash sharoiti, tili, madaniyati, psixologik xususiyatlari, xullas, milliy xarakteriga, urf-odatiga ega. U yoki bu millatning o'ziga xos xususiyatlari badiiy asarda aks etib, uning milliy koloritini tashkil etadi. Milliy o'ziga xoslikning asosiy belgilaridan biri realiyalardir.

V.G.Beliniskiyning har bir xalqning o'ziga xosligi haqida bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir: “Har bir xalq o'ziga xos tarzda yashasagina barcha xalqlar xazinasiga o'z ulushini qo'sha oladi... u faqat o'ziga xos fikrlash tarzi va narsalarga munosabatida, dinida, tilida va ayniqsa, urf-odatlarida namoyon bo'ladi.... Urf-odatlar xalqning qiyofasidir, ularsiz xalq – qiyofasiz obraz, behuda va amalga oshmaydigan xayoldir. Bu urf-odatlar andozasi mamlakat iqlimida mavjud bo'lgan kiyimlar bichimida, oilaviy-ijtimoiy turmush formalarida ko'rinadi, sababi esa xalqning diniy e'tiqodida, xurofotlari va tushunchalarida, fuqarolik buyruqlari va tabaqalarning turli-tumanligi bilan farqlanuvchi dahlsiz davlatlar orasidagi munosabatlarning shakllarida yashiringandir.”

Tarjimon “Faust”ni tarjima etish jarayonida realiyalarni berishda birmuncha chalkashliklarga yo'l qo'ygan. Masalan, kabob, shinni, tillaqosh, azayimxon, munojot, qasida, qurbonlik, jonliq, pir, murid kabi so'zlar Sharq xalqlari turmushiga mansubdir.

Bu so'zlarni nemis xalqi hayotini tasvirlaydigan asarda berish bir oz g'ayritabiiydek tuyuladi. Sharq adabiyotida (ko'pincha she'riyatda) kabob majoz ko'p qo'llaniladi. Sharq xalqlarining real turmushidan

olingan bu o'xshatish o'quvchilar uchun begona emas. Nemis voqeligidan olingan bu asarning personaji "Tiriklay kabob bo'lasan" (56-bet, 2- qism), "Otashda bo'lib kabob", deb qayta-qayta takrorlashi maqbul emas. Yoki deylik, Margariyaga tillaqosh kiygizilsa, Vagner Faustning kelishini ko'rib, "Shodlikdan do'ppilar uchdi osmonga", deb o'z xursandchiligini izhor etib tursa, Gyote qahramonlari nemis ekanligiga shubhalanib qolasan, kishi. Har qanday tarjima (xoh ilmiy, xoh badiiy bo'lsin) original tilini bilmaydiganlar uchun mo'ljallanadi. Ammo hozirgi kunda aksariyat o'zbek kitobxonlari faqat o'zbekchanigina o'qiydigan kitobxonlar emas. Shunday ekan, asarni originalga iloji boricha yaqinlashtirish mas'uliyati tarjimonning esida turishi kerak. Gyote "Faust"ni fransuz tilida (Jerar tarjimasi) o'qib g'oyat ta'sirlangan va "Men "Faust"ni nemis tilida qayta o'qigim kelmaydi, lekin mana bu fransuzcha tarjima meni hamon hayajonlantiradi", u sof, yangi va o'tkir bo'lib, "Faust"ni fransuz tilida yozganida uni xuddi ana shunday qilib yaratgan bo'lar edi, deb aytish mumkin. Shuning uchun V.G. Belinskinyning badiiy tarjima haqidagi quyidagi fikrlari o'rinlidir: "Badiiy asarlarni tarjima qilishning bitta qoidasi bor, tarjima qilinayotgan asarning ruhini berishdir. Buning uchun agar, basharti, muallif rus bo'lganida u ham asarni rus tilida xuddi shunday yozgan bo'lar edi, deydi qilib tarjima qilish kerak."

Tarjima qilinayotgan originalda milliy o'ziga xoslikka putur yetkazmaslik bilan bir qatorda, tarixiy koloritni – obrazlarda o'z in'ikosini topgan davrni ifodalash mas'uliyatini ham soqit etmasligi kerak. "Faust"ni o'zbekchalashtirgan E.Vohidov original yaratilgan davr tilini tarjimada tiklashni ijobiy hal etganligini ta'kidlash bilan birga, tarjimada leksikaga, ayniqsa arabcha, forsha, tojikcha so'zlarni qo'llashga moyillik nazarimizda me'yorida oshganga o'xshaydi. Voiz masihi akram, bozinger, taqdis, rohi hidoyat, musahha, kas, muflis, taxsir, yakto, mushakkal, ulayh, jovidon, anosir, g'ijo, joriya, sardanakkal, vorisul-vahdat, mujazzab, mutaxayyil, dasti-kirom kabi hozirgi kunda ishlatilmayotgan leksika zamondosh o'quvchilarning asar haqidagi taassurotlarini xiralashtirmasmikan? Yuqoridagi e'tiborimizni tortgan juz'iy qusurlardan qat'iy nazar Erkin Vohidov jahon klassik adabiyotining eng buyuk asarlaridan biri hisoblanmish "Faust"ni o'zbek tilida qayta yaratishga musharraf bo'ldi.

Qizig'i shundaki, Gyotening o'zi ham shunga o'xshash hulosaga kelib, "Faust" asarida uni antik o'tmish o'ziga rom qilib olganini

eslaydi. Faust (u mazkur epizodda muallifning hayotiy yo'lini ramziy ma'noda takror etgandek bo'ladi.) afsungarlik orqali Qadimgi Yunonistonga tushib qoladi va bu yerda go'zal Yelena unga Evforion degan o'g'il tug'ib beradi, lekin Evforion uchmoqchi bo'lganda, yiqilib nobud bo'ladi; Yelenaham g'oyib bo'ladi, Faustning qo'lida faqat uning kiyimlari qoladi, xolos.

“Faust” asari Gyote ijodining qaysi bosqichiga taalluqli ekanligini aytish qiyin. Unda Gyote ijodining va, umuman, ma'rifatparvarlik san'atining bosh mavzusi o'z ifodasini topgan. Gyote asar ustida goh ishlab, goh tashlab qo'yib deyarli, butun umri davomida izlanish olib bordi. Asarni yozish fikri “Bo'ron va hujum” davrida tug'ilgan. Undan birinchi parcha 1790-yili e'lon qilingan bo'lsa, asarning ikkinchi qismi oradan qirq ikki yil o'tgandan keyin (1832 yili) e'lon qilinadi. Birinchi qismi taxminan bu davr o'rtasida – 1808-yili chop etilgan.

11. YOHAN KRISTOF FRIYDRIX SHILLER

(*JohannChristoph Friedrich Schiller*, 1759 - 1805)

1. Talabalik ilhomlari
2. “Qaroqchilar”, “Makr va muhabbat” muallifning ilk dramalari sifatida
3. Fridrix Shiller dramalari O'zbekistonda



Buyuk nemis shoiri va dramaturgi F.Shiller Vyurtemberg gersogligining Marbax shahrida harbiy feldsher oilasida dunyoga keldi.

Ma'rifatparvarlik davrida Germaniya Gyote nufuziga munosib sof dramaturgiya iste'dodini ham yetishtirib berdi. Bu Yohann Kristof Friydrix Shiller edi. Shillerning ota-ona tomondan bobolari novvoylar bo'lishgan. Lekin otasi ibodat-xona sartaroshidan jarrohlikni o'rganib olib, yoshligini harbiy yurishlarda feldsher sifatida xizmat qilish bilan

o'tkazadi. Keyin, Vyurtemberg gersogligida istiqomat qilib, harbiy xizmatni davom ettiradi, kapitan unvoni darajasigacha ko'tariladi, so'ng bog'dorchilik bilan shug'ulladi, ko'chatxona boshqaruvchisi qilib tayinlanadi.

Bo'lajak shoirning ota-onalari 1773-yili 14 yoshli Shillerni o'zi xohlamasa ham keyinchalik akademiya aylantirilgan harbiy bilim yurtiga o'qishga beradilar. Bu dargohda zobitlar, shifokorlar va yuristlar tayyorlanar edi. Talabalari "qullar pitomnigi" deb nom bergan mazkur akademiya qo'pol ta'lim usuli hukm surar, tarbiyalanuvchilar esa kazarmada ayovsiz tayoq intizomi sharoitida yashar edilar.

Karl Yevgeniy o'quvchilardan o'zlarini uning bolalari deb atashlarini talab etardi. Keyinchalik, Shiller "Keksa gazanda" deb atagan bu kishi Germaniya uchun buyuk ma'rifatparvar dramaturgni yetishtirish uchun qancha ko'p ish qilib berganini xayoliga ham keltirmagan edi. "Buzrukvor va ustoz"ning qamchisi ostida o'tgan yillar Shillerda zulm istibdodga qarshi cheksiz qahr-g'azab o'tini alangalatib boradi. Shu qahr-gazab va adolat, haqiqatga bo'lgan e'tiqod uning ijodi uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

"Zamon muhiti Frijdrix Shiller vujudini qamrab oladi, u bu muhitga qarshi kurashdi, yengildi, yana shu on jangga tashlandi; u zamon tug'ini olg'a eltdi; bu o'sha Reyn ortida, uning ostida turib kurashganlar qo'lidagi tug' edi; biz har qachongidek bu tug' uchun eng toza qonimizni to'kishga shaymiz, - deya ta'kidlagan edi Haynrix Hayne, - Shiller ulug' inqilobiy g'oyalar deya ijod qildi, hokim fikr istehkomini buzib tashladi, erkinlik koshonasini qurishda qatnashadi; bu shunday ulug'vor koshonaki, u hamma xalqlarni o'z quchog'iga olajak yagona qardoshlik jamoasidir.... Dastlab Shiller yuridik, keyinchalik tibbiyot bo'limlarida o'qigan bo'lsa ham uni ko'proq adabiyot, tarix, falsafa ilmi qiziqtirar edi. O'quv yurti rahbarlarining xavfli g'oyalar ta'siridan tarbiyalanuvchilarni muhofaza qilish haqidagi urinishlariga qaramay, Shiller fransuz va ingliz ma'rifatparvarlari asarlariga qiziqadi, ayniqsa J.Russo asarlarini berilib o'qiydi. Jumladan, Russoga bag'ishlangan she'rida shunday yozadi:

Fransiya sha'niga shu voqelikka
Og'ir ta'na bo'lib yuksalding tikka
Russo sag'anasi, senga egdim bosh!
Bunda tinch orom ol, tilsiz donishmand.

Mazkur she'rdagi lirik qahramon "olamda osoyish izlaganini", lekin harchand topolmaganini yozadi:

Tinmadi olamda o'chlar, yonishlar
Zulmatda mahv o'ldi necha donishlar
Jallodlar qolmadi deymizmi bugun?!
Jaholat tang'idi Suqrot qullarin.
Russoni o'ldirdi bid'at qullari –
Barin odam etmak bo'lgani uchun.

(O.Matjon tarjimai)

Mana yosh Shillerning o'zi zamondosh bo'lgan davrga bahosi. Lessing va Klopshtok asarlari, Gyotening ilk ijodi uning e'tiborini jalb qiladi. Shekspir dramaturgiyasi, Plutarxning buyuk antik qahramonlar hayoti bilan oshno qiluvchi asarlari o'sha davr yoshlari kabi Shillerni ham rom etgan edi.

Akademiya dargohida Shillerning adabiy isde'dodi namoyon bo'la boshladi. 1776-yili uning "Oqshom" degan she'ri e'lon qilinadi, shu yerda u o'zining qasoskorlik dramasi "Qaroqchilar"ni (*die Räuber*) pinhona yoza boshlaydi. Bu asar keyinchalik Manhaym teatrida katta muvaffaqiyat qozondi.

1780 yili Shiller akademiyaning tamomlaydi. Keyinchalik talabalik yillarini xotirlab shunday yozgan edi: "Men hayotga g'amgin, rutubatli yoshlikni, shafqatsiz tarbiyani boshimdan kechirib qadam qo'yanman".



Akademiya dan so'ng polk tabibi qilib tayinlangan Shillerda hali ham erk va mustaqillik yo'q edi. Har qadamda Karl Yevgeniyning despotizmini his qilardi. Shillerning adabiy ishqibozligi gertsogga yoqmas, uning erkin fikrlashiga yo'l bermaslikka intildi. Hattoki dramaturg o'z "Qaroqchilar"ning premyerasida ham qatnashish uchun gertsogdan ruxsat olishi kerak edi.

Shoir Manhaymga beso'roq borganligi uchun hibsga olingan va jazolangan edi. Gertsog ta'qibidan qutulish niyatida yozuvchi 1782 yili Vyurtemberg gertsogligidan qochib ketadi va do'stlari uni o'z panohlariga oladilar. Shunday qilib uning qiyin darbadarlik va qashshoqlikdagi uzluksiz adabiyot yo'llari boshlanadi. U shu yili "Genudiyada Fiesko fitnasi"

asarini, keyinchalik dastlab “Luiza Miller” deb atalgan “Makr va muhabbat” (*Kabale und Liebe*) dramasi bitiradi.

Yosh Shillerning estetik qarashalari uning teatrga boʻlgan qiziqishida oʻz ifodasini topdi. U “Hozirgi zamon nemis teatri haqida”, “Teatr, axloqiy muassasa sifatida” kabi asarlarida shtyurmerlik kayfiyati va gʻoyalari aks ettirgan. Shiller bu nazariy ishlarda feodal dunyo illatlariga qaratilgan jangovor dolzarb sanʼat tarafdori sifatida namoyon boʻladi. Buni amalga oshirish uchun u dramaturglardan oddiylik, tabiiylik va haqiqatni talab qiladi.

Shiller xalqni maʼrifatparvarlik ideallari ruhida tarbiyalovchi teatr tarafdori. Uning fikricha teatr sotsial illatlarni fosh etadi. Minglab eʼtiborsiz qoldirilgan illatlarni teatr jazolaydi, sahna odil sud ogʻziga mum solib aytishni lozim koʻrmagan voqealarni fosh etadi.

Shillerning ilk dramasi boʻlmish “Qaroqchilar” uning akademiyaning soʻnggi kursida tahsil olayotgan davrida yaratila boshlagan boʻlsa, 1781 yilda yozilib tugallangan. Drama “Boʻron va hujum” gʻoyalari ruhida yozilgan boʻlib, unda isyonkorlik va antifeodal xarakter yorqin ifodalangan. Uning “Zolimlarga oʻlim” deb bitilgan epigrafi asar gʻoyaviy yoʻnalishini aks ettiradi. Shiller “Qaroqchilar” asarini Akademiyada yoza boshlagan edi. Tayyor sahnalarni tunlari doʻstlariga oʻqib berar edi. Doʻstlarining saviyasi baʼzi obrazlarda oʻz ifodasini topgan. 1781-yili Shiller chegaradan oʻtib qoʻshni Manhaym gertsogligiga borib, u yerdagi teatr jamoasiga asarini sahnalashtirishni taklif etadi. 1782-yilning yanvarida oʻtgan premyera Shillerning ajoyib gʻalabasi boʻldi. Hayajonga tushgan tomoshabinlar xursandchilikdan yer tepinib qarsak chalishar, bir-birlarini quchib oʻpishar edi. Hech kim tanimaydigan Shiller esa spektaklning oxirigacha bir chetda tomosha qilib, soʻng Shtutgartga joʻnashga majbur edi. Oradan bir oz vaqt oʻtgach, spektaklning ikkinchi koʻrigi boʻladi, lekin vahimaga tushgan Shiller kelishga jurʼat etolmaydi. Busiz ham taqdir tasodifi oʻz ishini koʻrsatadi. Oʻzboshimchalik bilan chetga chiqish va taʼqiqlangan sohaga qoʻl urishlikda ayblab, gertsog uni avaxtaga tashlaydi. Unga tibbiy askarlardan tashqari badiiy ijodga qoʻl urish man etiladi. Shiller “keksa gazanda” dunyodan oʻtmaguncha yurtiga qaytmaslikka ahd qilib, yana yashirin tarzda chegaradan oʻtib ketadi.

Manhaymda qochoqni gumonsirab kutib oladilar. Avaxtada yozila boshlagan “Fiyesko fitnasi” hamda “Makr va muhabbat” (ilk nomi

“Luisa Miller”) asarlari Karl Yevgeniy Shillerni ta’qib etishdan voz kechgani aniq bo’lgandan keyingina sahna yuzini ko’radi.

Premyeralar ketma-ket o’tkaziladi: 1784 yilning 11 yanvarida “Fiyesko fitnasi” o’rtacha muvaffaqiyat bilan, shu yilning 15- aprelida “Makr va muhabbat” shov-shuvli muvaffaqiyat bilan ko’rsatiladi. “Makr va muhabbat”ning dovrug’i teatr direktorini vahimaga solib qo’yadi. Shiller Manhaymni tark etishga majbur bo’ladi. Frydrix Shiller dramanaivlik faoliyatining ilk davri shu bahonada uzilib qoladi.

Ushbu uch asarni nemis dramaturgiyasida unutila boshlagan jo’shqin yoshlik his-ehtirosleri birlashtirib turadi. 70-yillarning oxirida hamma “Bo’ron va xujum” davri o’tdi, endi bu ruhdagi asarlar taomildan qoldi, deb o’ylagan edi. Nemis adabiyotining baxti akademianing chor devori ichidan chiqqan qishloq o’spirinining bundan bexabar qolganida edi.

“Bo’ron va xujum” ruhi Shillerning ilk pyesalarida turlicha tarzda namoyon bo’lgan. “Qaroqchilar”da bu ruh voqea davomida mavjlanib turadi. “Fiyesko fitnasi”da esa shtyumerlar targ’ib etgan tarixiylik ruhi ustuvordir. Bu pyesa chuqur tanqidiy tahlil asosiga qurilgan. “Makr va muhabbat”da esa Shiller yana ehtirosler mavjiga erk beradi. Lekin ehtirosler lessingchasiga haqqoniy shart-sharoitlar, yorqin insoniy kechinmalar orqali zohir bo’ladi. Shiller ma’rifatparvarlik realizmiga aynan shu asar bilan kirib keldi. Aslida, realizmga intilish „Qaroqchilar“ dayoq ko’ringan edi. Lekin muallif uni „Bo’ron va hujum“ ta’siri ostida yozgan edi. Aniqrog’i „Qaroqchilar“ realizmga o’tish davrining mahsuli edi.

„Qaroqchilar“da XVIII asrdagi adabiyot va dramaturgiyada ko’p tilga olingan voqea haqida so’z boradi. Fildingning „Tom Jonson“, Farkerning „Egizaklar - raqiblar“, Sheridaning “G’iybat maktabi” asarlari ikki aka-uka to’qnashuvi asosiga qurilgan pyesalardir. Shiller asarida ham shunday to’qnashuvga duch kelamiz. Lekin aka- ukalardan biri – riyokor Frans yaqinlarining ishonchida bo’lsa, uning akasi jo’shqin adolatpesha Karl esa ilk romantizm qahramoni kabi inkor etilib, darbadarlikka mahkum etilgan kishi. Fransning ig’volari tufayli Karl otasining qarg’ishiga uchraydi va merosdan mahrum bo’lib, qaroqchiga aylanadi. U o’z to’dasi bilan birgalikda zolimlar boshiga dahshat soladi. Lekin boylik mazasiga o’rgangan shovvozlar Karlga orqa qilib, kambag’allarni ham talashga o’tadilar. Halq rivoyatida saxiy qalb bo’lib ko’ringan hotamttoy qaroqchi bu yerda hech qanday qonunni tan olmaydigan shtyumer, erkin shaxs namunasi sifatida ko’rinadi. Agar

ma'rifatparvarlik dramasiida aka-uka orasidagi mojar oila doirasida boshlanib, shu yerda yakunini topgan bo'lsa, Shiller bu mojaroni shekspirona usulda tahlil etadi. Bu yerda aka-uka orasidagi to'qnashuv misoli „Qirol Lir“dagidek keng miqyosda ko'zdan kechiriladi.

Asar bosh qahramoni jasoratli isyonkor Karl Moor butun jamiyatga ochiq urush e'lon qilgan qahramon sifatida gavdalanadi. Qaroqchilar to'dasiga boshchilik qilgan Karl Moor zolimlar uchun dahshat urug'ini sepuvchi qaroqchilar to'dasi tepasida turib u Bogem o'rmoniga ketadi. Uning niyatlari olijanob, u qaroqchilikni sotsial nohaqlikka qarshi kurash usuli deb biladi.

Shiller o'z qahramonlari nomidan knyazlar va ularning ministrilariga qarshi g'azabli so'zlar aytadi.

Shillergacha bo'lgan nemis adabiyotida ham zolimlarga qarshi ohanglar bo'lsa-da, ular tarqoq va mavhum xarakter kasb etar, odatda nemis o'tmish faktlari orqali tahlil etilar edi. Dramaturg bu muammoni hozirgi zamon voqeligi materiallari asosida zolimlikni sotsial illatni tashuvchilar–konkret shaxslar orqali, masalan, kim ko'p pora bersa, o'shanga faxriy mansab va martabalarini pullovchi maslahatchi inkvizitsiya amalda emasligidan “G'amgin pop” va boshqalar orqali hal etar edi. La'natlanganlar orasida ministr ham tilga olinadi. Bu ministr obrazi orqali zamondoshlar Gersog Vyurtemberg xizmatidagi graf Monmartenni darrov tanib oldilar.

Karl Moor laganbardorlikni, mansabdorga sajda qilishni ko'rarga ko'zi yo'q. U qullik dunyosini rad etadi, uning xarobalarida u respublika barpo etmoqchi bo'ladi: “Meni o'zimga o'xshaganlar qo'shiniga sarkarda qilib qo'ysangiz bas, Germaniyaning respublika bo'lishi muqarrar, uning oldida Rim va Sparta ayollar monastiri bo'lib ko'rinsa ajabmas”.

Lekin K.Moorning aniq siyosiy programmasi yo'q, insoniyatning adolatli, ijtimoiy tuzum haqidagi tasavvurlari o'ta mavhum. Qahramon pozitsiyasidagi bu o'zlik Germaniyaning o'sha paytdagi siyosiy qoloqligi bilan izohlanadi.

Karl tezda o'zi tanlagan yo'lining xatoligiga ishonch hosil qiladi. Uning gruppasidagi ayrim a'zolar qaroqchilikning samarasizligi haqidagi xulosaga kelgan Karl o'zini o'zi hokimlar qo'liga topshiradi. Karlning ukasi Frans akasining ziddi. U feodal dunyoning illat va qabihliklarini o'zida mujassamlashtiruvchi obraz. Unda yurak yo'q, insonlar iztiroblariga nisbatan loqayd. Unga vijdon va axloqiy prinsiplar begona.

Meros dardida u akasiga tuhmat qilishdan ham, otasini tiriklay ko'mishdan ham tortinmaydi. U o'z qo'l ostidagilarga shafqatsiz muomalada bo'ladi.

Insoniylik yuzasidan Frans Moor yovuz va jinoyatchi bir kimsa. Lekin feodal jamiyati nuqtai nazaridan u shunchaki, o'z huquqini amalga oshirayotgan kishi bo'lib ko'rinadi. Demak, jinoyatkorona jamiyat tartibotini yo'q qilmay turib, insoniylikni ro'yobga chiqarish mumkin emas. "Qaroqchilar" asarining tub mohiyati isyonga da'vat etish, kuch vositasida adolat qonunini o'rnatishdan iboratdir. Asarning ikkinchi nashri titul varag'iga "Zolimlarga qarshi!" degan jangovor shiorning bitilishi bejiz emas.

Inqilob mavzui Shiller ijodida keng o'rin olgan. "Vilhelm Tell" (1804) bevosita shu mavzuga bag'ishlangan asar. Uning deyarli butun mazmuni ma'lum darajada inqilob bilan bog'liq. Lekin „Qaroqchilar“ faqat inqilob haqidagi fikr o'ylarni emas, inqilobiy harakat ruhini ham o'zida gavdalantirgan. Tarixda ko'p marta bu pyesaning nomi inqilobiy teatr afishalarini bezagan. 1789-1793 yillar davri Fransuz tomoshabinlari Shiller nomini aynan „Qaroqchilar“ asari orqali tanidilar. Konventning 1792 yil 21 avgust qarori bilan Shillerga Fransuz respublikasining Faxriy fuqarosi degan unvon beriladi. Bu farmonda uning nomi „o'z ijodi va mardligi bilan xalqlar ozodligini ta'min etgan kishilar qatorida turadi va shu bois u Fransiya uchun begona emas“ degan so'zlar yozilgan edi. O'zbek teatri G'arbiy Yevropa dramaturgiyasiga aynan Shillerning „Makr va muhabbat“, „Qaroqchilar“ asarlari bilan kirib kelgan.

U o'zining bu razilona ishlarini shu qadar sovuqqonlik va bamaylixotirlik bilan bajaradiki, hatto uning qiyofasida zarracha achinish alomati sezilmaydi. Dramaturg Fransning ijtimoiy xulq-atvorini shunchalik ochib berganki, uning o'z otasini oyog'i bilan taxtdan tepib tushirib, ustidan qah-qah urib kulgani na o'quvchining, na tomoshabinning xotirasidan ko'tariladi.

Shiller "Makr va muhabbat" fojeasini "Fiyesko fitnasi" tarixiy dramasi sohasidagi tajribadan so'ng yozdi. Asarda zamonaviy voqea, zamonaviy ijtimoiy muhit yaratgan insoniy siymolar chizilgan.

Bu tragediyaning siyosiy ahamiyati benihoya kattadir. Unda feodal jabr - zulmi aniq tarzda ko'rsatilgan. Yuqori martabalar jinoyat bilan qo'lga kiritiladi, odamning qadri pashshacha ham emas, u tutilib sarbozlikka haydalishi, o'zgalarning saodati deya jangga kiritilishi

mumkin. Bu dunyoda kuchlilar uchun qonun yo'q. Zulm va zo'rlik odatiy narsa bo'lib qoladi. Insoniy his-tuyg'ularning qadri qolmagan.

Mazkur asar 1921-yilda "Namuna" teatr trupпасi tomonidan ilk bora Toshkenda sahnalashtirildi.

"Makr va muhabbat" dramaturgning boshqa asarlariga badiiy mukammalligi bilan yaqin bo'lsa ham, g'oyaviy mazmuni jihatdan ko'p o'zbek pyesalariga o'xshab ketadi. Unda adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlik qattiq qoralanadi. Shiller tragediyasi sahifalaridan feodal zulm dunyosiga bo'lgan nafrat yaqqol sezilib turadi. Tanqidchilar bu asar haqida "ilk nemis siyosiy tendensioz dramasi" deb bejiz aytmaganlar.

"Makr va muhabbat" tragediyasining asosiy konflikti ijtimoiy-sinfy xarakterning yorqin ifodalanganligidir. Ikki dunyo – boylar va yo'qsillar dunyosi bu asarda o'zaro qarama-qarshi qo'yilgan. Oqsuyaklar lageriga, garchi sahnada ko'rsatilmasa ham, fitnayunayranglarda ishtiroki sezilib turadigan Gertsog ham kiradi.

U o'z nafsini qondirish niyatida qaramog'idagi yetti ming kishini Amerikaga sotib yuboradi, bir necha kishi bu aktga norozilik bildirganda esa, ularni o'sha zahotiyoyq otib tashlashni buyuradi.

Prezident fon Valter (*Präsident von Walter*) ham gertsogdan qolishmaydi. U o'z o'tmishdoshini o'ldirish evaziga hokimiyatni qo'lga kiritgan. O'z xizmat mavqeini mustahkamlash niyatida u har qanday jinoyat qilishdan ham jirkanmaydi.

Saroy ahlining jinoyat va tuban makkorliklari komik figura, vaysaqi va g'iybatchi, o'ta qo'rqq Hof Marshal fon Kalb, shuningdek, prezident kotibi ayyor va nayrangboz Vurm timsolida yorqin aks ettirilgan. Bu obrazlarning qiyofalari muallifning ularga bergan nomlaridan ham ravshan (Vurm – chuvalchang, Kalb – buzoq degan ma'noda).

Shiller qahramonlari orasida Luizaning otasi musiqachi Miller o'z ijtimoiy haqqoniyligi va kechinmalarining ishonarliligi bilan ajralib turadi. Miller o'z mehnati bilan kun ko'ruvchi o'rta hol tabaqaning vakili. U o'z oilasi bilan kimdandir ortiq, kimdandir kam yashab yursa bas. Qizi Luizaga o'ta mehribon, uning quvonchiga ham, tashvishiga ham sherik bo'lib yashaydi. Lekin Millerning qarashlari istibdodga qarshi kurashish darajasida takomil topgan emas.

Ammo Shiller qariyaning bu jihatini qoralamaydi. Bunnga qariya aybdor emas, hayot taqozosi shudir. Shunday to'pori odam ham jabr-zulmdan faryod chekib, norozilik bildirarkan, demak, bu hayotning

qanchalik qabohatli ekanini yana ham ishonarliroq ko'rsatishga olib keladi.

Miller obrazi Shillerning yirik yutug'i bo'ldi. Ma'rifatparvarlik odatda jabr-zulmning tashqi tomoni haqida so'z yuritir edilar. Shiller jamiyat iskanjasida halovatini yo'qotib kalovlanib qolgan jonsarak kishi obrazini yaratgan edi.

Luizaning ham fojeasi shundadir. Luiza tabiatan erksevar va juda ziyrak qiz. Agar Lessingning qahramoni, Gyote aytmoqchi, o'z nomusi, iffati evaziga zulm va zo'rlikka qarshilik ko'rsatgan bo'lsa, Luiza bu nuqtadan ancha olg'a siljishga shay qiz tarzida ko'rinadi. Lekin Luiza ham siquv ostida qolgan, siyosiy ongi takomil topmagan tabaqaning vakilasi. Miller qaysidir o'rinda bebosh prezident fon Valterni uyidan haydab chiqarishga chog'lanadi, lekin oxirigacha jur'at etolmaydi, sababi, fon Valterlarsiz yashash mumkinligini tasavvur etolmaydi. Luiza shu otaning qizi-da. U Ferdinand bilan qochib ketishga ko'nmaydi, buni u "otani va udumlarni oyoq osti qilish" deb o'ylaydi.

Oqsuyaklar dunyosiga muzikachi Miller oilasi qarama-qarshi qo'yilgan. Oila boshlig'i Miller diyonatli, sof vijdonli kishi, insoniy qadrni baland tutuvchi shaxs. Qiziga prezidentning o'g'li ko'ngil qo'ygani unga ma'qul emas. U bu "muhabbat izhori" yaxshilikka olib borishiga ko'zi yetmaydi. Miller moslashuvchanlik va laganbardorlikka umuman qarshi. Prezident Valter muzikachining xonadonida o'zini o'z uyidagidek bemalol tutib, andishasizlik qilganda uni uydan chiqarib yuborishdan ham cho'chimaydi. "Davlat, mahkama ishlarida nima xohlasangiz ixtiyoringiz-u, bu yerda men xo'jayinman, qo'rs va beadab mehmonni uyimdan quvib solsam g'azablanmang", – deydi u.

Ferdinand garchi oqsuyaklar muhitidan chiqqan, aslzodalar ta'limini olgan bo'lsa ham, u adolatparvar. U bu muhitning ichidan chiriganiga ishonch hosil qilishga ulgurgan. U o'zi mansub tabaqadan butunlay aloqasini uzishga qaror qilgan. "Mening olijanoblik va hayot haqidagi tushunchalarim sizlarnikidan farq qiladi, – deydi u otasiga, – siz farovonlikka doimo bironni qurbon qilish evaziga erishasiz".

U odamlarning zotiga, oqsuyakligiga qarab emas, balki axloqiy va aqliy fazilatlariga qarab baholaydi. Fredinand oddiy nemis muzikachisi Millerning go'zal va dono qizi Luizani sevib qoladi. U garchi o'z niyatiga erisha olmagan bo'lsa ham, servgisi uchun astoydil kurashadi.

Shiller Ferdinand obrazi orqali muallif qarashlarini, Germaniyaning ilg'or kishilari dunyoqarashini ifodalagan.

Luiza ham yangi davr kishisi. U turli bid'at va aqidalardan yuqori tura oladigan, insoniy qadr-qimmatni baland tutadigan qiz. Lekin u sotsial passivlik to'sig'ini xatlab o'tishdan ojiz. Sevishgan ikki qalb tengsizlik, jabr-zulmga duch kelib, oxiri adolatsizlik, boylik, zo'rvonlik va makkorlik hukm surgan jamiyatda halok bo'ladilar. Ammo ikki yosh saroyning martaba va nayrang ishqibozlari ustidan ma'naviy ustun keladilar.

F.Shillerning "Qaroqchilar" va "Makr va muhabbat" asarlari o'zbekchaga tarjima qilinishi va sahnalashtirilishi bilan adabiy jamoatchilik va matbuot tomonidan qizg'in kutib olingan. "Qizil bayroq" gazetasi 1921 yil 18 dekabr sonida Mannon Uyg'ur haqida: "Makr va muhabbat"dagi muzikachi Miller rolini shunday talant va temperament bilan ijro etdiki, o'zbek artistlaridan birortasida ham shu vaqtgacha bu hol sezilmagan edi, deb yozgan bo'lsa, Abror Hidoyatovning ijrochiligi haqida fikr yuritib "... endilikda buyuk talantga ega bo'lgan, shunday artist bilan faxrlanish va baxtiyor bo'lish mumkin" deb ta'kidlagan edi.

Darhaqiqat, Shiller asari tomoshabinga ma'naviy va estetik zavq bag'ishlash bilan birga san'atkorlarning iste'dodi va mahoratining ochilishi uchun omil bo'lganligi chin.

1787-yilda yozilgan "Don Karlos" dramasi XVI asr ispan tarixi materiallari asosida yaratilgan.

Tragediyada Filip II hukmronlik qilgan davr voqealari ifodalangan bo'lib, bu vaqtda Ispaniyada feodal katolik reaksiyasi kuchayganligi, inkvizitsiya muhim ahamiyat kasb etganligi bilan xarakterlidir.

Shillerning yangi tipdagi qahramoni Markiz Poza bo'lib, erk uchun, adolat uchun kurashchi. U Ispaniyaga erksevar niderland xalqiga Filip II zulmidan qutulishiga ko'mak berish istagida keladi. U bir vaqtlar qalbiga insonparvarlik va jasurlik urug'ini sepgan ispan taxtining vorisi Don Karlosni niderlandlarga ko'mak berish uchun jo'nashga ko'ndiradi. Karlos do'stining taklifini qabul qiladi va otasiga uni



Niderlandiyaga jo'natishini o'tinadi. Lekin Filip bu iltimosni o'zicha tushunib, o'g'liga ishonmay, bu vazifani yovuz gertsog Albaga yuklaydi. U qo'zg'olonni ayovsiz bostirishi lozim.

Poza – tipik ma'rifatparvar. U o'z umidlarini qo'zg'olonga emas, ma'rifat va islohotga qaratadi. Shu yo'sin u Filipga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqchi bo'ladi. Lekin Pozaning intilishlari mavjud ijtimoiy tuzum sharoitida amalga oshishi mushkul. Filipga qarshi qo'zg'olonga tayyorlanish jarayonida Poza halok bo'ladi, Karlos Niderlandiyaga pinhona qochmoqchi bo'lganida qirol qo'liga tushadi.

Shillerning shtyurmerlik g'oyalaridan chekinishi estetik prinsiplarni qayta ko'rib chiqishi bilan izohlanadi.

Endi uni Don Karlos singari yuksak g'oyali yorqin shaxslar qiziqтира boshlaydi. Ular timsolida muallif xalq va mamlakat xaloskorlarini ko'radi. Drama uslubi ham o'zgaradi. Endi Shiller proza bilan emas, balki she'riy yo'lda o'z qahramonlarini so'zlatadi.

Shillerning 1789-1794 yillardagi fransus burjua revolyutsiyasi voqealariga munosabati murakkab va ziddiyatli edi. Dastlab u inqilobni qutladi. 1792 yili Fransiya ta'sis majlisining unga erk kurashchisi sifatida Fransiyaning faxriy fuqarosi deb e'lon qilinganligidan faxrlangan bo'lsa, keyinchalik Shiller revolyutsion terrorning zaruratini anglamay, revolyutsiyaga qarshi chiqdi. Lekin buyuk voqealar shoirni dunyoqarash va ijoddagi bir qator masalalarga yangicha baho berishga majbur etdi. Xuddi shunday muhim masalalardan biri – xalqning rofi, uning tarixga, vatan taqdiriga ta'siri masalasi edi. Shiller dramaturgiyasidan yakka isyonkor obrazi sekin-asta tushib, xalq mavzusi barqarorlik kasb eta boshlaydi.

Shiller erksevar ijodkor sifatida ozodlikka erishishning yo'li– inqilobiy yo'l, deb tushunmaydi. U jamiyat illatlariga zo'rvonlik metodlarini qo'llamay erishish yo'llarini qidiradi.

Shiller 90-yillar boshlarida asosan falsafiy va estetik muammolar bilan band bo'ldi. Ayniqsa u Kant falsafasiga katta qiziqish bilan qaradi, uning g'oyalari shoir ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Shillerning muhim nazariy ishi “Insonni estetik tarbiyalash haqidagi maktublar” bo'lib, bu dasturiy asarda muallif estetik masalalar bilan shug'ullanibgina qolmay, muhim ijrimoiy muammolarga javob berishga ham intiladi. Jamiyatni qayta qurish va o'zgartirish yo'llarini qidiradi. Uningcha insoniyatni qayta tarbiyalash zarur. Jamiyatni qayta qurishning hal qiluvchi vositasi estetik tarbiyadir, deb hisoblaydi muallif. Odamlarni go'zallik vositasi bilan tarbiyalash mumkin.

“Ozodlik sari yo’l go’zallik orqali o’tadi” – deydi u o’z asarida. Shillerning “G’alati va sentimental she’riyat haqida” nomli asari uning estetik kamolot yo’lidagi muhim qadamdir. Bu asarda Shiller ilk bora estetik muammoni jamiyat rivoji bilan aloqadorlikda tushunturishga harakat qildi. U insoniyat tarixining turli davrlarida paydo bo’lgan ikki xil poeziyani “g’alati” va “sentimental” she’riyatni farqlaydi. Biriga antik davr xarakterli bo’lsa, ikkinchisiga zamonaviylik xos. Shiller ko’proq antik davr she’riyatiga moyil edi. Antik adabiyotga qiziqish Shillerning ko’plab asarlarida jumladan “*Gretsiya tangrilari*” she’rida o’z ifodasini topgan. Shoir ideallashtirilgan antik dunyoning halokati qayg’uli satrlariga joylangan.

O’zi zamondosh bo’lgan voqelik shoirga badbashara, xunuk, go’zallikdan mahrum bo’lib ko’rinadi.

90- yillarning ikkinchi yarmida ruhiy inqiroz (tanazzul)lar tufayli, yangi ideallar izlash ilinjida uzoq tanaffusdan so’ng Shiller yana ijodga qaytadi.

Gertsog xizmatida bo’lish o’zi qatori oilasining ham erkini boy berish degan gap edi. Shiller o’n to’rt yoshga kirganda, o’sha paytda endigina tashkil topgan “Karl akademiyasi”ning huquqshunoslik bo’limiga majburan o’qishga kiritiladi. Bu o’quv yurtini gertsog Karl Yevgeniy qo’shni Tyubingen shahar dorilfununiga qiyosan tashkil etgan edi. Gertsog dorilfununning ko’ngilsizlik makoni ekanini yaxshi bilardi. Shu bois u dorilfununni harbiy akademiya (tabiiyki, o’sha davr tushunchasidagi akademiya) maqomida tuzadi. Akademiyada o’rnatilgan tartib o’quv yurtini emas, qamoqxonani eslatardi. Talabalar hatto ota-onalari bilan ham nazoratchining kuzatuvida uchrashishlari mumkin edi.

Shiller huquqshunoslik bo’limida ko’ngildagidek o’qiy olmaydi. Tibbiy bo’lim ochilgach, shu bo’limga o’tib ketadi va uni tugatgandan keyin, polk shifokori etib tayinlanadi.

Shiller “Qaroqchilar”da o’tmishga bo’lgan nafratni ifodalashdan boshladi. Bu yerda u maktabdan qochib bo’za ichib, jazavada Yupiter qoshida oynalarni sindirgan kichik bahodirga o’xshardi....”

Shiller oxirigacha Karl Moor tomonida turmaydi. Balki uni qoralaydi, o’zini qonun hukmiga topshirishga majbur etadi. Karl o’z davri qonunlariga bo’ysunishga majbur bo’ladi. Qaroqchilar to’dasi Karl oldidagina burchdor bo’lmay, Karl ham to’da oldida burchdor edi. Bu bosqinchi, kazzoblar to’dasiga Karlga xos bo’lgan olijanoblik

tuyg'ulari mutlaqo yotdir... Karl adolatni qaror toptirishni qanchalik istamasin, kishilar oldida jinoyatga tortilgan bo'lib chiqadi.

“Makr va muhabbat” Lessingning “Emilya Galotti”si singari mustabid hokimiyatning insonning shaxsiy qismatiga aralashuvi, shaxs huquqining oyoq osti qilinishi haqidagi asardir. Bosh qahramon Luiza Miller Lessingning Emilya Galottisi ta'sirida yaratilgan obraz. Lekin Germaniyada bir o'n yillikning o'zida ma'rifatparvarlik realizmi hayratlanarli va shiddatli darajada taraqqiy etadi. “Makr va muhabbat” Shillerning “Mariya Styuart”iga qadar yozilgan pyesalari orasida eng haqqoniy va ijtimoiy yutug'idir.

Luiza Emilyaga qaraganda ma'naviy jihatdan ancha boy va o'ziga mustaqil qiz. Emilyadan farqli ravishda u pokiza his tuyg'ularini ro'yobga chiqarish uchun kurashadi, azob chekadi. Ayni paytda Luiza ham, boshqa qahramonlar ham ma'lum muhitning mahsuli va taqdirleri shu muhitga bog'liq kishilardir.

Luizaning sevgilisi Ferdinand esa erkin tabaqaning vakili, fon Valterning o'g'li. Gap yangi ma'no kasb etgan erkinlik haqida bormoqda. Ferdinand kishilarning shunday yangi bo'g'iniga mansubki, u Russoning ta'biri bilan aytganda, o'zaro tenglik, sevgi-sadoat g'oyalarini tasdiq etishga qodir shaxsdir.... Ferdinand ma'rifatparvarlik dramasi boshqa qahramonlariga qaraganda ijtimoiy qabohat nima ekanini chuqurroq his etadi va yovuzlikka qarshi mardonovor kurash boshlaydi. *U chekinish, ikkilanish nimaligini bilmaydigan qahramon.*

Lekin shu bilan birga, Shiller mavjud hayotiy borliqdan chekinmaydi, sevgi mojarosini g'oyibdan “keluvchi baxt” tarzida chizmaydi. Ikki oshiq-ma'shuqning hayotga qarashlari turlichadir. Luizaning xatti-harakati vaqti kelib, Ferdinand uchun umuman tushunarsiz bo'lib qoladi. Luiza nega qochishdan bosh tortdi? Ferdinand buning sababini tushunishga qodir emas. Ana shu o'zaro mojaro va tushunmovchilik har ikkala oshiq-ma'shuqni o'limga olib keladi. Ferdinand o'zining hayot-mamoti deb bilgan Luizasiga ishonmay qo'yadi va natijada unga o'limdan boshqa chora qolmaydi.

Shekspirning “Otello” tragediyasida fikrning ko'lamdorligi natijasida rashk fojeasi axloq fojeasiga, aldangan ishonch fojeasiga aylanib ketadi. Shillerning asarida esa “oilaviy fojea” ijtimoiy ma'no ko'lamdorligi samarasi o'laroq, ijtimoiy fojea darajasiga ko'tariladi. Shu bilan birga, Ferdinand ijtimoiy manfaat yo'lida emas, balki, o'z baxt-saodati deya kurashadi. Uning noroziligi yovuz kimsalarga qaratilgan norozilikdir.

Qahramonlar pokiza axloq deya o'zlarini jabr-zulm tig'iga uradilar; ularning vijdon va axloq pokligi yo'lidagi kurashlari kishilarni erkparvarlik ruhida tarbiya etib boradi. Lekin 80-yillarga kelib, bu usul o'rnini yovuzlikka qarshi ochiqdan-ochiq kurashish shakli egallaydi.

“Makr va muhabbat”dan so'ng yozilgan “Don Karlos” asarida shunday ruh o'z ifodasini topgandir. Pyesada taxt merosxo'ri don Karlosning o'z o'gay onasi, ispan qiroli Filipp II ning yosh xotiniga bo'lgan baxtsiz muhabbati haqida hikoya qilingan. Pyesa Bastiliyani qo'zg'olonchilar egallashidan ikki yil avval, 1787 yili tamomlanadi. Shundan keyin pyesaga ancha o'zgartirishlar kiritiladi: undan masalan, Niderlandiyaning ispan bosqiniga qarshi kurashi mavzusi o'rin olgan. Don Karlos va Yelizaveta butun kuch va e'tiborlarini Niderlandiyaga yordam berishga qaratadilar va shu bahonada o'zaro sevgilarini ham unutadilar.

“Don Karlos” yuksak darajada haqqoniy asar sifatida qabul qilinadi. “Qaroqchilar”ning jasurona g'oyasidan qoyil qoldim, “Fiyesko” hayratlanarli, lekin shunday salohiyat sohibining oddiylik va tabiiylikka yaqinlashuviga doimo shubha qilib kelardim. Lekin bizning “Karlos” shubhamning asossiz ekanini ko'rsatdi”, – deb yozdi Shillerga Germaniyaning ulkan aktyori Shreder. Mazkur pyesada markiz Poza romantik qahramon sifatida paydo bo'ladi. Shiller qahramonlari ko'pincha “g'oya jarchi”lari bo'lib kelganlar. Ana shu jihat markiz Pozada boshqa qahramonlarga qaraganda yana ham quyuqroq aks etgan. U Shillerning XVIII asrdan XVI asrga, Filipp II saroyiga jo'natilgan shaxsiy vakili yanglig' zohir bo'ladi.

Markiz Poza – ilk ma'rifatparvarlik g'oyalarining ifodachisidir. Lekin ba'zan bu g'oyalar yangichasiga, ulug' Fransuz inqilobiga hamohang tarzda karomatli g'oyalar tarzida jaranglaydi.

Ma'lumki, inqilobning birinchi davrida monarxiyani ag'darib tashlash masalasi qo'yilgan emas. Ma'rifatparvarlar xalq tashvishini chekadigan mehr-shafqatli qirol g'oyasini olg'a surganlar. Markiz Poza (inqilobning dastlabki notiqdari chaqiriqlariga monand tarzda) yakka taxt sohibi ma'qul, negaki, u o'z taxtida o'tirib, olam rivojini o'z qonuni bo'yicha boshqarib turadi, deb hisoblaydi. “Odamlarga erk bering, ey olampanoh, ular so'zlarini erkin ayta olsinlar”, deydi u qirolga qarata.

Lekin shu bilan birga Poza ag'dar-to'ntar o'zgarishlar qilish tarafdori emas. U zo'ravonlik bilan ozodlikka erishib bo'lmaydi, ozodlik hadya etilishi lozim hamda “inson o'zini o'zi topishi kerak” degan fikrga boradi.

Shunday ikkiyoqlamalik fojining tizimida ham sezilib turadi. Asarning birinchi nusxasiga asao qilib olingan “oilaviy fojea” keyin kiritilgan siyosiy musohaba yo’nalishi bilan uncha bo’glanmay qolgan.

Shiller “Don Karlos” asarini 1787 yili Vaymarga kelgandan keyin yozib tugatadi. Shiller qolgan umri kechgan shu shaharda Gyote bilan yonma-yon yashab, to’rt yil davomida nazm va nasr sohasida ijod qiladi, tarixni qunt bilan o’rganadi, so’ng yana dramaturgiyaga qaytadi.

Shiller Buyuk Fransuz inqilobi haqidagi xabarni shu yerda eshitadi. Shillerga berilgan Fransuz respublikasining Faxriy fuqarosi degan unvon yorlig’i 1798-yili shu shaharga keltirilib, unga topshiriladi. Lekin Shiller bu davrda Fransuz inqilobining raqibiga aylangan edi. Inqilobning qatag’onga aylanib ketishi Gyote singari Shillerning ham hafsalasini pir qilgan edi. Shiller mutafakkir va san’atkor sifatida o’z iste’dodini yana ham keng namoyon eta boshlaydi. Uning asarlaridan romantik qahramonlar chiqib ketmaydi. Bu asarlarda xalq obrazi paydo bo’ladi, lekin bu “Fiesko”, “Don Karlos” asarlaridagiga o’xshash olomon emas; bu turli davrda turlicha fazilatli insoniy siymolar birligidan iborat xalq edi.

12. HAYNRIX HAYNE (Heinrich Heine, 1797-1856)

1. Hayne: Rad etilgan sevgi iztiroblari – Qo’shiqlar kitobi. Hayne lirikasi
2. “Germaniya qish ertagi” poemasi



Kristiyan Yohann Hayne XIX asr nemis adabiyotining yirik namoyandasi, romantizmining g’ayratli vakili va faol targ’ibotchisi hisoblanadi.

Haynrux Hayne 1797-yilning 13-dekabrida o’rtahol savdogar oilasida, shimoliy Reyndagi Vestfaliya yerlarining bosh shahri Dyusseldorfda dunyoga keldi. “Dyusseldorf shahri shu darajada go’zalki, u haqda undan ayro tushganingda o’ylasang, uning ustiga o’sha shaharga kindik qoning

to'kilgan bo'lsa, o'zingda g'urur va iftixor hissini tuyasan. Men shu shaharda tug'ilganman va u yerga doimo uyga borgim kelaveradi. Uygа deganimda Bolkernschtrasse va men tug'ilgan uy yodimgа kelaveradi" deb yozgan edi, H.Hayne "Le Grand" kitobida.

U kundalik nemis tilini lirika tiliga aylantirgan feleton va yo'l ocherklarini san'at janri darajasiga ko'targan ijodkordir. Birorta boshqa nemis shoiri boshqa tillarga Haynechalik ko'p o'girilgan emas.

Tanqidchi, siyosiy yetuk jurnalist, essenavis, satirik va shuningdek, bahsgа moyil san'atkor sifatida undan hamma hayratga tushar, ham cho'chir edilar.

Haynrix Hayne oiladagi to'rt farzandning to'ng'ichi bo'lib, singlisi Sharlotta ukalari Gustav, Maksimillianlar bilan savdogar Samson va uning rafiqasi Betti xonadonida voyaga yetganlar. Ukalaridan Gustav Venada noshirlik qilgan bo'lsa, Maksimilian Sankt-Peterburgda shifokorlik bilan shug'illangan. 1803-yildan boshlab Harri (uni bolalikda shunday atashgan) X. Rintelzon xususiy maktabiga qatnaydi. 1807-yildan Dyusseldorf litseyining tayyorlov sinfida, 1810-1814-yillarda o'qishini litseyda davom ettiradi.

U oila an'analarini davom ettirish niyatida savdogarlik kasbini egallash uchun savdo maktabiga o'qishga kiradi.

1811-yilda Napoleonning Dyusseldorfni ishg'ol qilishi, bu zaminda qator taraqqiyparvar qonunlarning joriy etilishi, yahudiylarning huquqlarini yahudiy bo'lmaganlar bilan tenglashtirishi 13 yoshli Hayne va u voyaga yetgan oila a'zolarida ayriча taassurot qoldirdi. 1816-yilda uni badavlat bankir amakisi Solomon Hayne huzuriga ish o'rganish uchun yuboradilar. Shuni ta'kidlash joizki, Hayning amakisi she'riyatdan ancha yiroq bo'lishiga qaramasdan shoir jiyanini to umrining oxirigacha, ya'ni 1844-yilgacha moddiy jihatdan qo'llab-quvatlab turgan. Haynrix Hayne 1815-yildan boshlab muntazam tarzda litseyda o'qib yurgan kezlaridayoq eng sevimli mashg'ulotiga aylangan she'r mashqi bilan shug'ullana boshlaydi.

Haynrix Hayneda pul muomalasi bilan band bo'lishga na mayl, na iqtidor borligini bilmagan amaki uni nihoyat ro'mol do'koniga ishga tayinlaydi. Tezda Harri Hayne & Co. tanazzulga (bankrotga) yuz tutadi, uning ho'jayini butun borlig'i bilan she'r mashqiga sho'ng'ib ketadi. Bu she'rlar asosan uning amakisi Solomon Hayning qizi Amaliyaga bo'lgan javobsiz sevgisining mahsuli edi. Shoirning rad etilgan sevgi istiroblari ilk she'riy majmuasi "Qo'shiqlar kitobi"



(*Buch der Lieder*, 1927)da o'z ifodasini topgan. Solomon Hayne xonadonidagi sovuq munosabat shoirga bu dargohni tark etish va biror o'qishning etagidan tutish zarurligini belgilab berdi. Garchi Haynrix Hayne huquqshunoslikka unchalik mayli bo'lmasa ham ota-ona o'gitiga ko'ra, 1819-yili Bonn universitetining huquq-shunoslik fakultetiga o'qishga kiradi. Mazkur oliy o'quv yurtida huquqshunoslik bo'yicha birgina ma'ruza tinglagan Hayne boshqa ta'lim yo'nalishini ixtiyor qiladi. 1819-1820- o'quv yilining qishki semestrda Avgust Vilhelm Shlegel tomonidan o'qilgan nemis tili va she'riyati

tarixi haqidagi ma'ruzalarni berilib tingladi. Romantizm yo'nalishi asoschilaridan biri bo'lgan Shlegel ma'ruzalari yosh Hayneda katta taassurot qoldirdi. U 1820-yilda Gyottingen universitetida, 1821-yildan esa Berlin universitetida o'qishni davom ettirdi. Tahsil chog'ida shoir mashhur faylasuf va adabiyotshunoslarning ma'ruzalarini tinglash, shahardagi adabiy to'garak va davralarda muntazam bo'lish imkoniga ega bo'ldi. Hayne hayotining Berlin davrida qator kitoblar muallifi sifatida tanildi. 1822-yilda uning she'rlar to'plami, 1823-yilda Dyumler nashriyotida uning tragediyalari – „Almanzor“, „Vilyam Radklif“ va „Lirik Internetso“ she'rlar kitobi chop etiladi. Bu asarlar adabiyot ixlosmandlari tomonidan yuksak baholandi. 1824-yilda Hayne huquqshunoslik doktori ilmiy darajasini olish uchun Gyottingenga qaytadi va o'z dissertatsiyasini yoqlaydi.

Haynrix Hayne 1826-yilda o'ziga dastlabki shuhrat keltirgan “Harts sayohati” (*Harzreise*) asarini e'lon qiladi. Xuddi shu yili Hamburgdagi Hoffmann va Kampe nashriyoti o'z asarlarini doimiy nashr etish huquqini berishga rozilik beradi. Shu yildan boshlab Yu. Kampe va H.Haynening ko'p yillik hamkorligi boshlanadi. 1827-yil oktyabrida chop etilgan “Qo'shiqlar kitobi” lirik to'plami unga katta obro' keltirdi va to'plam hozirgi kunda ham she'rxonlarning sevimli kitobi hisoblanadi.

Mening to'kkan ko'z yoshlarimdan
Unar rangin anvoyi gullar.

“Oh”lar urib, yig’lashlarimga
Quloq solar tunda bulbullar.
Erkam, meni sevsang joningdan,
Gullarimni hadya etardim.
Bulbul kuyin darchang yonida –
Kuylab-kuylab tongni kutardim.

Otashini sevar tongni va nilufarni,
Ha, qizg’in sevar edim gulni, oq kabutarni.
Netayki, kabutarim qo’limdan uchdi-ketdi,
Yo’q, ortiq sevolmayman, u ayru tushdi ketdi.
Ammo dilda saqlayman, hanuz o’shal dilbarni,
Tongni-yu qizil gulni, suvdagi nilufarni.
(Xayriddin Saloh tarjiması)

Ushbu to’plam va keyinroq yaratilgan she’rlarning romantik, ko’p hollarda mahzun ohangi kompozitorlarni ham loqayd qoldirmagan. Robert Shumann Hayning ko’plab she’rlariga kuy bastalaganligi fikrimiz dalilidir.

1827-28-yillarda shoir ilk bora Angliya va Italiyaga safar qildi va ijodkor taassurotlari 1827-31-yillarda e’lon qilingan asarlarida tasvirlandi. “Shimoliy dengiz” nomli turkum she’rlari o’sha safarlar natijasidir. “Le Grand” kitobi Fransuz imperatori Napoleon va Fransuz inqilobiga shoir munosabatini mujassamlashtirgan “Qo’shiqlar kitobi” mashaqqatli va muvaffaqiyatsiz sevgi, og’ir hamda fojeali davr haqidagi she’riy hikoyadir. Yevropa o’sha davrda qaror topgan tund reaksiya, yuksak insoniy hissiyotlarga dushmanlik nazari bilan qarar edi. Kitobning dastlabki turkumi “Yoshlik iztiroblari” Hayning shoir sifatida shakllanishini, uning o’z mavzu va shakllarini, shuningdek, badiiy ifoda yo’llarini topish urinishlari desak, o’rinli bo’lar. O’z poetik imkoniyatlarini sinab ko’rmoqchi bo’lgan shoir turli janrlarga – romans, qo’shiq va ballada va boshqa she’r san’atlariga murojaat etadi.

Turkum javobsiz sevgining iztiroblarini ifodalovchi she’r bilan boshlanadi.

Uyg’onaman har kun tongi choq
Va kutaman uni intizor
Oqshom esa „oh“ chekaman, oh,

Ko'z tutganim kelmadi takror.
Uxlayolmas qalb ortiq horg'in,
Va o'tkazar tunni shu ko'yi,
Hayol ichra g'arq bo'lib so'lg'in
Tentirayman butun kun bo'yi.

(Xayriddin Saloh tarjimasi.)

1831-yil may oyining nihoyasida Hayne Fransiya poytaxti Parijga keladi. Hali shoir Parij uning hayoti bilan chambarchas bog'lanishini, Fransiya uning ikkinchi Vatani bo'lishidan bexabar edi.

Hayne Haynening Fransiya muqim yashab qolishining obyektiv va subyektiv sabablari bor. Hayne zamonida buyuk madaniyat mamlakati iqtidorli va mehnatkash Germaniya bilan bir qatorda, reaksion Pruss Germaniyasi ham bor ediki, unga qarshi shoir murosasiz kurash olib borgan.

Shoir Parijga kelishga, yangi joyda qaror topishga ulgurmasdanoq, o'z noshiri Kampedan yaqinda chop etilgan "Yo'l xotiralariga qo'shimchalar" jildi Prussiyada musodara qilingani, pruss politsiyasi Kvaldorf "Dvoryanlik haqida" nomli risolasini chop etishni taqiqlanganligi haqidagi noxush xabarni eshitadi. O'sha yillarda nemis muhojirligining yirik markazi bo'lgan Parijga ham pruss harbiy mashinasining zahri shu tariqa kirib borgan edi.

Garchi Hayne Fransiya yashasa-da, Germaniya haqida, uning adabiyoti haqida yozishdan bir zum to'xtamadi. Hayne 1833-yil martida vataniga yuborgan xatlaridan birida "Fransuzlarni Germaniyaning ma'naviy dunyosi bilan oshno qilish uchun qo'limdan kelgan barcha ishlarni qilaman", – deb yozgan edi.

Ana shu g'oya bilan nafas olgan Hayne 1833-yilda Germaniyaning eng yangi adabiyotini "Adabiy Yevropa" almanaxi sahifalarida, shuningdek, alohida kitob tarzida Parijda chop ettiradi. U 1836-yil boshida avval fransuz, keyin nemis tilida "Romantik maktab" kitobini e'lon qiladi. U o'z kitobini Gyote vafotidan so'ng nemis jamiyati oldida berilgan hisobot va ayni zamonda "yangi adabiyot dasturi" deb qaradi. "Romantik maktab" Haynega zamondosh bo'lgan nemis adabiy harakati haqida bo'lishiga qaramasdan uning badiiy ildizlari uzoq o'rta asrlarga borib taqalishi – "Nibelunglar qo'shig'i"dan, Valter fon der Fogelvaydening xalqona qo'shiqlariyu, G.E.Lessingning nemis adabiyotini, klassisizm dogmalaridan xalos etishdagi roli, buyuk nemis milliy shoiri, adibi, olimi Y.V.Gyotening nemis adabiyotini yuqori

pog'onalarga ko'tarishdagi mavqei haqida mulohazalar bilan nurlantirilgan.

H.Hayning qayd etilgan asarida "Germaniyada din va falsafa chambarchas bog'liqligini M.Lyuter, G.E.Lessing, I.Kant kabi o'tkir xarakterli ijodkorlar portretlari orqali ifodalangan. Uning navbatdagi yirik kitobi nemis publitsisti va adabiyotshunosi Lyudvig Berniyoga bag'ishlangan bo'lib 1840-yilda dunyo yuzini ko'rgan

G'ariblikda o'tgan o'n yil H.Hayneni peshqadam publitsist, tarixchi, ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi adabiy tanqidchi va adabiyotshunos sifatida jamoatchilik e'tirofiga sazovor qilgan.

1840-yillarda H.Hayne asosan, siyosiy satirik sifatida ijod qilayotgan paytlarda Germaniya demokratik harakatida muayyan jonlanishlar yuzaga kelgan edi.

H.Hayne o'z satirasining o'tkir tig'i bilan nemis millatchilari-tevtomanlarni nishonga oladi. Xuddi o'sha yillari anchadan buyon o'ylab yurgan poemasi "Germaniya, qish ertagi" yozilgan bo'lib, u H.Hayne siyosiy poeziyasining cho'qqisi hisoblanadi. Sarlavhaning ikkinchi qismi. "Qish ertagi" deb nomlanishi Germaniyani reaksiyaning qishqi qahratoniga duchor bo'lganligiga ishora edi.

Shoir o'z asariga yo'l kundaligi shaklini berib, vatanida ko'rgan va qalbidan o'tkazgan tuyg'ularni 12-yillik vatandan ayrilish taassurotlari bilan omuxta qiladi.

Yangi qo'shiq, go'zal qo'shiqni
Do'stlar sizga etay armug'on.
Yarataylik aziz zaminda
Jannat havas qilguvchi bo'ston.
(Abdulla Sher tarjimasi)

Poema boshidan oxirigacha bo'lajak katta o'zgarishlar ruhi bilan sug'orilgan. H.Hayne istiqbol manzarasini chizar ekan "Ozodlik doyasi, bokira Yevropa bilan nikohdan o'tajak onlar" uzoq emasligini, ya'ni Yevropadagi barcha elat va millatlar ozodlik va do'stlik sari talpinadilar, deb ishonch bildirgan edi.

Qirqinchi yillar boshlaridan boshlab Fransiyadan yozgan maktublarida Hayne fuqarolar kayfiyati, mamlakatdagi o'zgarishlar, inqilobiy to'lqinlar haqida ko'p fikirlar bayon etgan. Bu nomalar "Lyutetsiya"

nomi bilan (Lyutetsiya Parijning qadimgi nomi) alohida kitob shaklida nashr etilgan.


H.Hayne umrining eng so'nggi kunlarigacha yozishdan to'xtagan emas. Sakkiz yillik bedavo falaj kasalligi uni to'shakka mixlab qo'ygan bo'lsa ham, o'z asosiy quroli –qalamni tark etmadi. 1856-yilning 17-fevralida uning yuragi urushdan to'xtadi. Uni Parijdagi Monmart qabristoniga dafn etdilar. U jisman dunyodan o'tgan bo'lsa ham, u qoldirgan meros asrlar osha yangi-yangi avlodlarni tarbiyalashga, ularga estetik zavq berishga xizmat qilib kelmoqda. O'zbekistonda H.Hayne she'rlari XX asrning boshlarida Cho'lpon, 40-yillarda Oybek, Mirtemir tomonidan 70-yillarda X.Saloh, keyinchalik A.Sher tomonidan tarjima qilingan va qayta-qayta chop etish davom etmoqda.

13. NATURALIZM

1. Gerhard Hauptman
2. Gerhard Hauptman va uning "Kun botish oldidan" (Sonnenuntergang) (Hayot shomi) dramasi.

GERHARD HAUPTMAN

(1862-1946)



XX asr nemis dramaturgiyasining mashhur vakili, gumanist yozuvchi G.Hauptman 1862-yilda Silyeziyadagi kurort shaharcha Zaltsburgda tug'iladi. U yoshligidan shahar va shahar atrofidagi to'qimachilik fabrikasi hamda ko'mir koni ishchilarining og'ir ahvoli bilan tanishadi.

Gerhard universitetda o'qib yurgan paytlarida o'ymakorlik san'ati, teatr va adabiyotga qiziqadi. U E.Zolya, I.S.Turgenev, L.N.Tolstoy asarlarini berilib o'qiydi. G.Hauptman nasriy asarlar yozgan bo'lsa-da, lekin dramaturg sifatida tanilgan.

G.Hauptmanning dramaturgiyasi hayotning turli tomonlarini aks ettiradi. "Quyosh chiqishi oldidan", "To'quvchilar" dramalari ijtimoiy-

siyosiy masalalar, “Yolg’izlar” psixologik voqealar, “Cho’kkan qo’ng’iroq” afsonaviy-mifologik mavzuga bag’ishlangan. Dramaturgning adabiy metodi murakkab. Uning ijodida naturalizm ta’siri ham bor, nemis romantik an’analari ham ko’rinadi, ammo G.Hauptman dramalari o’z mohiyati bilan asosan, realistik ruhdadir. “Quyosh chiqishi oldidan” (1889) – G.Hauptmanning birinchi yirik dramasi. Asarda dehqonlarga qarashli yerlarda ko’mir koni topilganidan so’ng, uning egalari boyib, maishatga berilib ketishi tasvirlanadi. Shundaylardan biri dehqon Krauzedir. Krauze ko’p ichadi. Uning xotini ham maishatparast, mijg’ov ayol, katta qizi Marta ichkilikka muhtalo bo’lgan. Martaning eri injener, konda ishlovchilarni qattiq ekspluatatsiya qiladi. U ham o’zini ichkilikdan tiyolmaydi. Bu chirkin muhitga, ayniqsa, injener Hofmanga uning universitetda birga o’qigan do’sti, sotsialist Alfred Lot qarshi qo’yilgan. Erkin fikrli bu student o’qishdan haydalgan va ikki yil qamoqda o’tirib chiqqan. Lot burjua jamiyati yuzaga keltirgan adolatsizliklarni qattiq qoralaydi. “ter to’kib ishlagan mehnatkash och qolib, tekinxo’r farog’atda yashasa, bu bema’nilik emasmi!” deydi u. “Barcha odamlar baxtli bo’lsalar, men ham baxtliman”, deydi Lot. Shunday yaxshi fikrlar bilan yashagan Lotda nojo’ya harakatlar ham bor. Krauzelar naslida alkogolizm ta’siri borligini bilgach, u Krauzening kichik qizi, sevgilisi Yelenani tashlab ketadi.

Bu masalada Hauptman o’sha vaqtda keng tarqalgan fiziologik ta’limotga suyanadi. Qahramon Lotning chegaralangan qarashlari Yelenani baxtsizlikka olib boradi va uning o’limiga sababchi bo’ladi.

Lekin dramadagi bosh konflikt alkogolizm masalasi emas, balki sotsialist Lot bilan kapitalist Hofman o’rtasidagi ziddiyat asosiga qurilgan sinfiy kurashdir.

“To’quvchilar” (1892) dramasi Sileziya ishchilarining 1844-yildagi qo’zg’olonlariga bag’ishlangan. Asarni yozishdan oldin Hauptman turli hujjat va manbalarni o’rganadi. Bu materiallar unga inson qashshoqligining dahshatli fojealarini ko’rsatgan ajoyib drama yaratishga yordam beradi.

Sileziya to’quvchilarining og’ir ahvolini yozuvchi turli vositalar orqali ochib beradi. Bu ularning ma’yus qiyofalari, eski-tuski kiyimlari tasvirida ham ko’rinadi. Fabrikant idorasidagi dehqon-to’quvchilar bilan qo’pol muomala qiladilar. Ularga zulm o’tkazadilar, hisob-kitobda aldaydilar. Och qolgan ishchi oilalarning son-sanog’i yo’q. Odamlar darmonsizlanib ko’chalarda yiqilib qoladilar. Ayniqsa, ko’p bolali

xonadonlardagi ahvol fojiali. Baumert va Gilze oilalari bayram kunlari it go'shti yeydilar. Bunday chidab bo'lmas ahvol isyonchilarning qo'zg'oloniga sabab bo'ladi.

Asarda Baumert, Anzori, Luiza xalq qasoskorlari sifatida tasvirlanadi. Dramaning asosiy qahramonlari kollektiv – to'quvchilar ommasi. Lekin ularning jasur boshliqlari ham bor. Shulardan biri Bekker va yaqindagina harbiy xizmatdan qaytgan to'quvchi Yegerdir. Bekker “eskicha yashashdan ko'ra, o'lgan yaxshiroq” deydi. To'quvchilar, “qonli jazo” qo'shig'ini aytib, ko'cha bo'ylab boradilar. Ayrim zolimlarning nomlarini ham tilga oladilar.

Xo'jayinlar bunday jangovor qo'shiqdan g'azabga keladilar. Adabiy tanqid bu asarni “jasurona kurash chaqirig'i”dan iborat qo'shiq, deb ta'riflagan edi. Qo'zg'olon ko'targan ishchilar politsiya mahkamasiga borib, Yegerni qamoqdan ozod etadilar. Ular fabrikant uyiga bostirib kirib, saroyini vayron qiladilar. Qo'rquvga tushgan Dreysiger zo'rg'a jazodan qochib qutuladi.

“To'quvchilar” dramasi omma ongiga ta'sir etuvchi inqilobiy ruh bilan sug'orilgan. Bu ruh asarning chuqur g'oyaviy mazmuni va badiiy yuksakligini ham belgilaydi.

G.Hauptmanning 20-30 yillardagi ijodida urushga qarshi chaqiriq kayfiyatlari aks etgan. Jumladan “Gebert Eberman”da (1922) urushning halokatli ta'siri ko'rsatilsa, “Daroteya Angerman” (1926) dramasi nemis muhojirlarining Amerikadagi og'ir turmushiga bag'ishlanadi.

“Kun botish oldidan” (“Hayot shomi” 1932) dramasi eski nemis madaniyatining yemirilishi, beor va gerdaygan burjua korchalonlarining zo'ravonlikka intilishlari hajviy bo'yoqlarda berilgan.

Asarning bosh qahramoni qadimgi german madaniyati vakillaridan biri nashriyot firmasining boshlig'i, diyonatli va ishchan keksa Klauzendir. Ish bilan band bo'lgan Klauzen to'rtta bolasining bir-biridan farq qilishlarini sezmaydi. Ular Gyote davri madaniy kishilariga o'xshamaydilar. Nomlari jarangdor, lekin o'zlari insoniylikdan mahrum odamlar. Katta o'g'li Volfgang faqat o'z manfaatini ko'zlaydi. Qizi Ottiliya farosatsiz, xudbin Klamrotga tekkan. Bu shaxs tug'ilib kelayotgan fashist-yirtqichlarni eslatadi. Bettina yig'loqi qiz, go'yo u sportga telbalaricha berilgan kimsa, Egert sodda va laqma. Ularning har birida yangi nemis ziyolilarining turli tomonlari aks etgan.

Xotini vafot etgandan keyin Klauzen oilasida ham yaqinlari doirasida ham o'zini yakka-yolg'iz his etadi. U oddiy oiladan kelib chiqqan yosh


qiz Inkenni yaxshi ko'rib qoladi. Uning o'g'il-qizlari bunday nikohga tish-tirnoqlari bilan qarshi. Ular otaning kambag'al qiz bilan yaqinlashishini o'z manfaatlariga berilgan zarba, deb tushunadilar, ota merosidan mahrum bo'lishdan qo'rqadilar. Klauzenning asabiylashganini ko'rgan farzandlar o'zlarining yomon niyatlarini sezdirib qo'yadilar.

Shuning uchun u o'g'liga zaharhandalik bilan: "tug'ilganingda xursand bo'lganimdan seni bag'ringa olgan edim, men o'z qotilimni ko'ksimga olgan ekanman-da", degan xulosaga keladi. O'g'li va uning maslakdoshlari uni ruhiy kasallikka yo'liqqan, deb gap tarqatadilar. Nihoyat, bunday hiyla-nayranglarga bardosh berolmagan Klauzen zahar ichib o'ladi.

Dramada oddiy kishilar obrazi chuqur samimiyat bilan tasvirlangan. Mehnatkash xalq vakillari bog'bon Ebmi, Klauzenning hizmatkori Vinter, hammadan ko'ra musaffo qalb egasi kambag'al qiz Inken shunday kishilar obrazidir. Inken yoshi ulug' Klauzenni sevadi va hech narsadan cho'chimasdan o'z sevgisini himoya qilishga tayyor turadi. Dramaturg bu obraz orqali oddiy kishilarga nisbatan o'zining samimiy munosabatlarini ifodalaydi. Hauptman asarda mantiqiy rivojlanib boruvchi syujet orqali harakatlarni ustalik bilan ochib, ijtimoiy problemalarni ravshan ko'rsatib beradi, kuchayib borayotgan burjua reaksiyasini fosh etadi.

Fashistlar davlatni bosib olgan vaqtda Hauptman Germaniyani tashlab, chet elga ketmagan bo'lsa-da, lekin u "ichki muhojirlik"da yashaydi. Natsistlar unga tajovuz qilishga jur'at etolmaydilar. U o'tmish voqealariga atab pyesalar yaratadi, biroq bu pyesalarda zamon hayotiga ishora qilgani sezilib turadi. Bular antik mavzudagi "Ifigeniya Avlidada" (1934) "Ifigeniya Delfada" (1941), "Agamennonning o'limi" (1944), "Elektra" (1945) dramalaridir.

Hauptman 1946-yilda 83 yoshda vafot etdi. Uning eng yaxshi pyesalari Germaniya teatrlari sahnalaridan tushmay kelmoqda. "Kun botishi oldidan" dramasi o'zbek sahnasida ham katta mahorat bilan o'ynalgan. "Hayot shomi" deb ataluvchi mazkur asarni Hamid G'ulom o'zbek tiliga o'giran.



14. XX ASR ADABIYOTI

1. Haynrix Mann
2. Tomas Mann
3. Hermann Hesse
4. Stefan Zvayg
5. Frans Kafka

HAYNRIX MANN (*Louis Heinrich Mann*, 1871-1950)



H. Mann XX – asr birinchi yarmi tanqidiy realizm adabiyotining yirik namoyandasi bo'lib, u nafaqat nemis adabiyotining, shu bilan bir qatorda jahon adabiyoti tarixida Golsuorsi, Shou, Uels, Rolan, Drayzer va boshqa atoqli yevropa adiblari safidan munosib o'rin olgan san'atkoridir.

H. Mann murakkab ijodiy yo'lni bosib o'tdi. U 1871-yilda erkin shahar Lyubekda o'ziga to'q madaniyatli byurger, tijorat ishi bilan shug'ullanuvchi ishbiarmon oilada dunyoga kelgan.

Bu shaharda uning bolalik va o'quvchilik yillari o'tdi. Berlin va Myunxenda universitet ta'limini oldi.

H. Mannning adabiy faoliyati XIX – asrning 90-yillarida boshlangan. 1893-yilda u o'zining ilk romani “Bir oilada” (*In einer Familie*)ni e'lon qildi. Muallifning o'zi ijodiy kamolotning boshlanishini ijtimoiy romani – “Sharbatli qirg'oqlar” (*Im Shlaraffenland*) bilan bog'laydiki, bu asarda H.Mann iste'dodining xarakterli xususiyatlari namoyon bo'ladi.

90-yillarda H.Mann bir necha bor Fransiya va Italiyada bo'ladi. Adibning ma'naviy hayotida Fransiyaning o'rni beqiyosdir.

Fransuz realizm adabiyoti, uning inqilobiy-an'analari bilan u qattiq bog'langan, u haqda o'zi ham ko'p va ho'b yozgan, fransuz matbuoti bilan ibratli hamkorlik o'rnatgan. “Sharbat qirg'oqlar” romanning qahramoni yosh dehqon yigit Andreas Tsumzening baxt ilinjida Berlinga kelishi “yosh havaskor shoir”ning o'z taqdirini adabiyotda emas, balki bankirning xotini Adellaide Turkhaymning jazmaniga aylanib qolishi roman syujetining asosini tashkil etadi. Turkhaymerlar homiyligi Tsumzega emin-erkin yashash sharoitini yaratadi. Unga

Berlinning g'arbiy kvartali, birjachilar, bankirlar, savdogarlar, sotqin jurnalistlar yashaydigan boy hudud, tekin daromad manba'i – sharbat qirg'og'i, sut bulog'i bo'lib ko'rinadi va o'sha yerni orzu qiladi.

Andreas qiynalib bo'lsa ham, o'sha muhitda kirib oladi, so'ngra uning yaramas ta'siri ostida tez buziladi. Turkhaymerlar muhitiga tushib qolgan talaba Andreas Tsumze bankirning xotini Turkhaymer honimning diqqatini o'ziga tortadi. Dastlab u o'z baxtiga ishonmaydi, asta-sekin o'zini ushlab oladi, so'ngra u surbetlik bilan Turkhaymer honimga ham, xo'jayinning ma'shuqasi Agnessa Matskega ham yaqinlashadi. Bu esa kichik odamning boyligi va hukmronligi uchun o'z xo'jayinidan olgan qasosining bir turi hisoblanadi. Nayranglari fosh bo'lgach, orzu qilingan joy – sharbat qirg'oqlaridan quvilgan Andreas Tsumze taqdiriga tan beradi. Xo'jayin "odamgarchilik" qilib, uni Agnessaga uylantirib qo'yadi va kichik nafaqa belgilash bilan undan xolos bo'ladi.

Burjua muhitida salbiy qahramonning ko'tarilishi printsipsizlik va faqat shaxsiy manfa'atni ko'zlash asosida yuzaga kelishini, so'ngra turli ziddiyatlarga uchrab, oxirida yuztuban ketishini yozuvchi Andreas Tsumze obrazida yorqin ko'rsatib berdi. H.Manning "Ma'budalar" ("Die Göttin") (1902-1903) triologiyasida ijtimoiy hayot, san'at va muhabbat masalalari tasvirlangan. Asar qahramoni gertsoginya Violenta Assidir.

U shimoldan Italiyaga bostirib kelgan qadimgi jahongir normandlar urug'iga mansub bo'lib, yoshlikdan o'z avlodining bosqinchilik urushlari va jasoratlari haqida xotiralar bilan yashaydi. Undagi favqulodda iroda, yuksak go'zallik, manmanlikka intilish ham o'shaning oqibatidir. Assi ongli ravishda turmush shod-hurramligini, go'zallik nashidasini totib ko'rmoqqa intiladi, oddiy odamlar hayotiga esa, loqaydlik bilan qaraydi.

Haynrix Manning hajviy ruhdagi "Unrat muallim" (*Professor Unrat*, 1905) romanning bosh personaji erlar gimnaziyasining keksa o'qituvchisi Ram bo'lib, o'quvchilar unga „Unrat“ laqabini qo'yganlar. Chunki unda hammaga dahshat solish kabi istak zo'r. Uning nutqlarida yuzaki tantanavorlik bo'lib, tilida "chunki, hattoki, binobarin, ya'ni, masalan" so'zlari ko'p va o'rinsiz ishlatiladi. Yozuvchi bu nochor odam obrazi orqali nemis jamiyatidagi tipik manzaralarni masxara qiladi.

H. Mann hajviyotining yuksak namunasi "Imperiya" (*Kaiserrereich*) trilogiyasining birinchi romani "Sodiq fuqaro" (*Unterban*, 1914)dir.

Unda zo'ravonlik va monarxiya tartiblarining himoyachisi, "ma'sulyatni his etmaydigan shovinist" obrazi yaratiladi. Romanning bosh qahramoni Diderix Getsling. Ijtimoiy hayotdan uzoq, qo'rqoq filistr-meshchan bu odam ekspluatator bo'lib qolgach, jamiyat taraqqiyoti uchun xavfli kishiga aylanadi. Yozuvchi, Diderix Getsling xarakterini yuzaga keltirgan yaramas muhitning yomon ta'sirini ko'rsatadi. Kichik bir qog'oz fabrikasiga xo'jayinlik qilgan otasi oilada qo'pol bir odam bo'lgan.

Lapashang Diderix otasidan qo'rqadi va shu tufayli hurmat qiladi. Diderix maktabga ham yig'lab boradi. Darslarini bilmagan vaqtda ko'zlariga yosh oladi. Bunday holat naf keltirgach, endi bu narsa odat tusiga kiradi. Maktabni bitirgach, Berlinga o'qishga boradi. U yerda millatchi burjua yoshlar tashkiloti "Yangi Tevtoniya" safiga kiradi.

Diderix voyaga yetgach, uyida zulm o'tkazuvchi zolim erga aylanadi. U xotinini o'ziga tobe tutadi, ona esa bolalarini o'ziga bo'ysundiradi. Diderix bolalarini kichik xonaki itga ozor berishga o'rgatadi. Otasi vafotidan so'ng o'zini erkin tutgan Diderix fabrikaning egasi bo'ladi va ishchilarni qattiq ekspluatatsiya qilishi natijasida katta foyda ola boshlaydi.

Diderix o'ziga bo'ysinuvchilarga nisbatan o'ta qo'pol va shafqatsiz, o'zidan yuqori turuvchi amaldorlarga esa aksincha, itoatkor shaxs. Bir kuni u Berlinda kayzerning o'tib ketayotganini ko'rib qoladi. Turgan joyi balchiq bo'lishiga qaramay, o'sha yerda tiz cho'kib, imperator Vil'helmga ta'zim qiladi. Bu esa unga sodiq fuqaro ekanini bildirar edi. Diderix ishchilarga "ichki dushman" deb qaraydi, ularni "yanchib tashlashga" undaydi.

"Sodiq fuqaro" romanida H.Mann nemis ishchilarining miskin hayotini, burjuaziyaning millatchilik, bosqinchilikdan iborat siyosatini tanqid qildi.

"Sodiq fuqaro" 1914 yildayoq yozib tugatilgan edi. Haynrix Manning vilhelmchilar Germaniyasi haqidagi ushbu satiraga boy asarini u paytda nashr qilishning iloji bo'lmagan. Asar 1918 yildagina kitob shaklida chop etildi.

Qizig'i shundaki, u Rossiyada ancha ilgari paydo bo'lgan. Qo'lyozmadan tarjima qilingan asar 1914 yilda nashr qilingan.

"Sodiq fuqaro" urushgacha bo'lgan nemis adabiyotida va hatto jahon adabiyotida ham buyuk satirik romanga aylandi. Roman bosh qahramoni bo'lgan Diderix Getslingning hayotini tasvirlash shaklida

yaratilgan. Uning obrazi XIX asr oxiridagi Germaniyaning quyuq ijtimoiy-siyosiy fonida beriladi.

Bu jihatdan romanda nafaqat firibgar siyosatchilarning hayoti, balki o'sha davrdagi barcha nemis ommasining turmush tarzi tasvirlangan. Getsling obrazini yaratishda muallif katta mehnat sarflagan va asarning reallik darajasi oshgan. Getsling xarakteri har tomonlama ochib berilgan.

Diderix katta bo'lmagan Netsep shaharchasida qog'oz fabrikasi mulkdori oilasida tug'ilgan. Uning otasi qattiqqo'l, johil odam bo'lib, bu yosh bolaga ham ta'sirini ko'rsatardi. Diderixda ham bunday hissiyotlar erta uyg'ondi. U ishchilarning suhbatlarini poylab, dadasiga chaqardi. Bola o'ylashicha, xohlagan kishisini qamoqqa oladigan politsiyachilar, ham razil kishilar edi. U o'z o'qituvchilaridan ham nafratlana boshladi.

Diderixda yoshligidan kuchga, hokimiyatga intilishi boshlandi. Diderix Berlin universitetida talaba bo'lib, "Yangi Tevtoniya" talabalar harakatiga kirdi. Bu yerda u millatchilik, shovinistik va egoistik ruhda tarbiyalanishda davom etadi.

Getsling shunday xarakterli kishiki, u har qanday o'zining pastkashligi va razilligini yuksak ahloqiy printsip sifatida oqlaydi. Chunki uning otasi ishlari orqasiga ketib, bu nikoh Getsling uchun foydasiz bo'lib qoladi. U buni bizning shiddatli hayotimizda ko'ngilga quloq solib o'tirish yaramaydi, deb oqlaydi.

H. Mann mahorat bilan Getslingning Agnesga bo'lgan muhabbatini tasvirlaydi. Bu sevgi ta'sirida unda insoniylik alomatlarini paydo bo'la boshlaydi. U hayoti o'zgarishini sezadi. U Agnes bilan uchrashguncha nursiz, xira hayotda yashaganligini sezadi. Lekin asar Getsling bu hissiyotlar hukmi ostida qolganida haqiqiy Getslingga o'xshamasdi. Oxir oqibat sovuq sezgilar sohibi, muz yurak Getsling bu nikohni, ya'ni manfaatsiz shartnomani bekor qildi. Netsingga qaytgan Getsling marhum otasidan qolgan merosni olib, reja bo'yicha Guste Daymhen nomli qizga uylanadi.

Bu paytga kelib u o'z manfaati yo'lida har qanday razillikdan qaytmaydigan, firibgar, millatchi shovinistga aylanadi. Uning ideali – kayzer Vilgelm II bo'ladi. Getsling unga ko'rinish va fikrlashida o'xshardi. Getsling Netsingga qaytishi bilan shaharda partiyalari o'rtasida Buk boshchiligida "Xalq partiyasi" va "Kayzer partiyasi" Getsling va yunker fon Vulkov boshchiligida kurashi avj oladi. H.Mann

kayzer partiyasi tarafdorlariga ham, liberallarga ham rahm qilmaydi. Ularning hammasi fikrsiz, ahamiyatga ega bo'lmagan kishilar, ularning oralarida hech qancha farq yo'q, degan fikrni aytadi. H.Mann bir necha shunday siyosatchilardan faqatgina qari Bukni ajratadi. Uning zabardast hayoti bo'ladi. U 1848 yilgi revolyutsiya qatnashchisi bo'lib, haqiqatgo'y inson, hurmatli kishi bo'ladi.

Muallif o'ng sotsial-demokratlarning kelishuvchan xarakterini romandagi Getsling fabrikasi mexanigi Fisher obrazi orqali tasvirlaydi. Fisher – “yasama sotsialist” xo'jayin xizmatiga kiradi. Getsling o'z o'rnida mexanikka reyxstagdan deputatlik mandatiga erishishiga yordamlashadi. Butun Netsingni dirdiratadigan prezident boshqaruvchisi fon Vulkov obrazi ham kuchli satirik obraz tarzida talqin qilingan. Ushbu xalq boshchisining qo'polligi va odamlarga iltifotsizligi aniq ko'zga tashlanadi.

Vulkov Getslingga nisbatan kerak payti asqotib qolar deb, uni quvvatlardi. Yakunlovchi sahnada muallif Vilgelm I ni va uning hukumatini Getsling va boshqa “sodiq fuqarolar” orqali ularning prototipini yaratishga intilgan. Bund Getslingga orden topshirilishi kerak bo'ladi. Tantanali qismda, ya'ni, Getsling so'z olgan chog'ida kuchli momaqaldiroq bo'lib, jala quyadi va yig'ilgan oliy nasab oppoq kiyimdagi zodagonlar pana-panaga bekinishadi. Dahshatga tushgan Getsling qo'lida orden bilan bekinadi, oxirgi daqiqalarda unga politsiyachilar yordamlashadi.

Bu davr siyosiy to'fonlariga ishora edi. “Sodiq fuqaro” nemis imperializmining yuzini ochib bergan yirik satirik romandir. Kuchli va real yakun bu Germaniyaning kelajak hayoti chizgilarini ko'rsatishdir. XIX asr oxirida, kayzerlik davridayoq Getsling obrazi bo'lajak fashist siymosi yaratiladi. H.Mann fashizm uchqunlaridan insoniyatni boxabar qilmoqchidek bo'ladi.

“Sodiq fuqaro” asari “Imperiya” nomli trilogiyaning birinchisi edi, ikkinchisi “Bechoralar” deb nomlangan. “Imperiya” trilogiyasi (“Sodiq fuqaro”, “Kambag'allar”, “Boshliq”)dan so'ng yozuvchi ijodining yangi davri boshlanadi. 1933 yilda fashistlar davlatni bosib olgach H.Mann ijodida katta burilish ro'y berdi. U Germaniyani tashlab ketishga majbur bo'ladi. Gitlerchilar adib asarlarini yoqadilar, o'zini esa san'at akademiyasi a'zolidan chiqaradilar. Dastlab u Pragada yashaydi, so'ngra Fransiyaga ketadi. U yerda fashizmga qarshi faoliyatini davom ettirib maqolalar yozadi. Agar u dastlabki ijodida (“Unrat muallim”,

“Sodiq fuqaro”) fashizmni, uning qonxo’r boshliqlari – Gitler, Gering, Gebbelsning kirdikorlarini keskin fosh etgan bo’lsa, bundan so’ng yozgan “Shunday kun keladi”, “Mardlik” kabi publitsistik asarlarida esa haqiqat uchun mardonavor kurashchilar – Rudolf Klaus va Edgar Aidre obrazlarini fashistlarga qarshi qo’ydi.

H. Mann shu davrda Genrix IV haqida epopeyasini yaratdi. Bu “Genrix IV ning yoshligi” va “Genrix IV ning yetuklik davri” deb ataluvchi ikki tomdan iborat romandir.

H.Mann Genrix haqidagi asarida Fransiyaning XVI asriga murojaat etadi. Ayni chog’da bu davrda absolyutizm hokimiyati mustahkamlanib, uning o’zboshimcha feodallarga qarshi kurashi ham kuchaygan edi. Asar personajlarining ko’pi – tarixiy shaxslar. Fransiya taxtida feodalizmning so’nggi vakillaridan biri qirolicha Yekatirina Medichi o’tiradi. U o’z hukmronligini saqlab qolish uchun har qanday jirkanch vositalarni qo’llashdan ham qaytmaydi. Bu vaqtda Genrix qishloqda, dehqon bolalari orasida o’sadi. Qirolicha Yekatirina dushmani zaiflashtirish va davlatni o’z qo’lida saqlab qolish maqsadida qizini Genrixga berib, shu yo’l bilan uni o’ziga bo’ysundirmoqchi bo’ladi.

Genrixning otasi to’satdan o’ladi, ko’p o’tmay onasi ham katoliklar qo’lida zaharlanadi. Genrix Yekatirinaning qizi Margarita Valuaga uylanish va to’yni o’tkazish maqsadida o’zining qo’shinlari bilan saroyga keladi.

Qisqasi, qahramon Genrix IV asarining birinchi qismida gugelotlarning boshlig’i sifatida kamsitishlarga qarshi shaxsiy o’ch olish yo’lidan borsa, keyinchalik sekin-asta aqliy takomilga erishib, mamlakatning birligini yuzaga keltiruvchi yirik harbiy qo’mondon va xalqparvar davlat boshlig’iga aylanadi.

Asarda Genrix IV uyg’onish davrining ilg’or kishisi sifatida beriladi. Uning do’stlari orasida faylasuf Montey, shoir Obgenye ham bor. Yozuvchi “Sodiq fuqaro” romanida fashizmni keltirib chiqargan yaramas muhitni tasvirlagan bo’lsa, Genrix IV haqidagi epopeyada uni qanday yo’l bilan yengish mumkinligini aniq ko’rsatib berdi. Yozuvchi Genrix IV ni “xalqparvar arbob”, deb ta’riflaydi. Tarixiy Genrix juda ham bunday ijobiy sifatarga ega emas. Biroq bu asar fashizm ta’qibiga uchragan adib tomonidan yozilganini nazarga olganda, Genrix IV ning ideallashtirishi sababi ravshanlashadi.

1940 yil fashistlar Germaniyasi Fransiyaning bosib olgach, Haynrix Mann Amerikaga ketishga majbur bo’ladi. Keksa adib muhojirlikda

ham fashizmga qarshi asarlar yaratadi. Yozuvchi “Davr obzori” (1944) publitsistik asarida Germaniyaning oʻtmishi, fashizmning kelib chiqishi va unga qarshi nemis xalqi olib borgan mardonavor kurashlari, shuningdek, Fransuz qarshilik koʻrsatish harakati haqida soʻz yuritadi. Haynrix Mann gitlerizmning tor-mor etilishi bilan nemis halqini tabriklaydi.

Kasal boʻlishiga qaramay, bu kekxa antifashist yozuvchi yangi Germaniyani tuzishda qatnashmoqni istaydi. Lekin yaxshi niyatlari amalga oshmaydi. Chunki AQSH reaksion doiralari uning ezgu ishlarini amalga oshirishga toʻsqinlik qiladilar. Shu tufayli otashqalb yozuvchi Manning yaxshi niyatlari nihoyasiga yetmaydi. H.Mann 1950-yil 12 martda toʻsatdan vafot etadi.

TOMAS MANN

(*Thomas Mann, 1875-1955*)




T.Mann XX asr tanqidiy realizm adabiyotining yirik namoyandalaridandir. Uning boy falsafiy mazmun kasb etuvchi ijodi hozirgi nemis adabiyotida alohida oʻrin egallaydi. T. Mann ham akasi Haynrix mansub boʻlgan Lyubek muhiti-ning farzandi. Ikki buyuk realist-larning hayotiy va ijodiy taqdirilarida qator oʻxshashliklar bilan bir qatorda, farqlar ham kam emas. Burjua sivilizatsiyasiga tanqidiy munosabatga ular turli yoʻllar bilan keldilar. T. Mannning yoʻli H. Mannga nisbatan murakkabroq va ziddiyatliroq.

Adibning bolalik va oʻsmirlik yillari Lyubekda kechdi. 1891 yilda otasi olamdan oʻtgach, ularning savdo firmasi tugatiladi va oila Myunxenga koʻchib oʻtadi. Bu yerda Tomas sugʻurta kompaniyasi xizmatiga kiradi. Hali Lyubekdaligidayoq sheʼrlar mashq qila boshlagan Tomas Myunxenda novellalar va hikoyalar yoza boshlaydi. 1894-yilda T. Mann oʻzining ilk hikoyasi “Magʻlublar” (*Gefallene*)ni chop ettiradi. Oʻz adabiy iqtidoriga ishona boshlagan boshlovchi adib sugʻurta kompaniyasidagi ishini tark etadi va oʻzini jurnalistik faoliyatga

bag'ishlaydi. 1898 yili uning novellalar majmuasi "Kichik janob Fridemann" (*Der kleine Mann Friedemann*) chop etiladi. Ik asarlaridayoq o'zi yashayotgan dunyoning kemtikliklari, tartibsizliklari haqidagi ogoh etuvchi fikrlari yangray boshlaganini ochiq ko'rish mumkin. Keyinchalik ijodkor bu fikrlarini chuqurlashtirib boradi, yosh yozuvchini psixologik muammolar, bemor qalb mavzusi borgan sari ko'proq band eta boshlaydi.

T. Manning nemis adabiyotidagi mavqeini belgilashda, unda faxriy o'rin egallashda „Buddenbroklar“ asarining („*Buddenbrocks*“, „*Verfall einer Familie*“, 1901) ahamiyati beqiyosdir. Asarda Buddenbroklar oilasi to'rt avlodining tarixi kuzatilib, muallif mazkur oilaning gullash davridan to tanazzul va aynishigacha bo'lgan yo'lini tasvirlaydi. T. Mann bu asarni bejiz „Bir oila inqirozi“ deb nomlamagan. Oilaning birinchi avlodiga mansub katta Yohann Buddenbrok yirik don savdogari. U burjuaziya jamiyatining gullagan davrida yashagan va o'zi bu jamiyatning ma'

naviy va jismoniy timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Asarda u g'ayratli, hayotga o'ch, omadli savdogar tarzida ta'riflanadi. Uning davrida u boshqargan firma boyib, kengaya boradi. Unga XVIII asr ma'rifatparvarlari singari hurfikrlilik



xos. Katta Buddenbrok munofiqlik, irim-sirimlar dushmani, uning gapirish usulida biroz xalqona dag'allik bor.

Ikkinchi avlod uning o'gli, elchi – kichik Yohann obrazida o'z ifodasini topgan. U otasining ish yuritish usulini yaxshi egallagan. Otameros firma uning qolida rivojlanishda davom etadi. U hushyor, ishbilarmon, ammo boshqa odam. Kichik Yohann otasining hurfikrlilik g'oyalariidan voz kechgan, dindor, ehtiyotkor, ilmi va muomalali, o'zgalarga nisbatan shirinsuxan. Uning fe'l-atvori boshqa davrda – reaksiya davrida shakllangan. Shu bois unda otasining g'ayrati va dag'alligi yo'q. Xotini ham xudojo'ylar ta'sirida eriga mutanosib.

Ikkinchi avlodda ko'rina boshlagan inqiroz belgilari uchinchi avlodda to'la-to'kis namoyon bo'la boshlaydi.

Bu chizgilar kichik Yoxanning farzandlari Tomas va Kristianda va ularning opa-singillari Toni va Klaralar siymolarida va harakatlarida o'z ifodasini topgan.

Tomas – qobiliyatli va dono ishbilarmon, dastlabki paytlarda u muvaffaqiyat qozonadi, erkin shahar senatiga deputat qilib saylanadi. Keyinchalik muvaffaqiyat omadsizlik bilan sekin-asta o'rin almasha boshlaydi. Uning firmasi sinish chegarasiga kelib qoladi. U borgan sari charchoqni his qila boshlaydi, darmoni qurib faqatgina iroda kuchi evazigagina o'zini ish yuritishga majbur etadi.

O'z mavjudligining ma'nisizligini his etish uni tobora band eta boshlaydi. Tomas ajib tarzda, tartibli kishiga xos bo'lmagan holda o'lim topadi. U ko'chada loyga yiqilib o'ladi.

Kristianning fe'l-atvorida tanazzul va inqiroz yorqinroq ochilgan. Kasalmand bu kishi, doimo asabi tarang, bosh og'rig'idan shikoyat qilgani-qilgan. U omadsiz va ishyoqmas, o'ziga xos xonadon hazilkashi va masxarabozi. Uning uchun muqaddas narsa yo'q.

Kristian savdogarlik faoliyatini rad etadi va yengil-yelpi turmush tarzini o'ziga odat qilib olgan. U byurgerlarning asriy an'analari ustidan kuladi. “Ochig'ini aytganda har bir kommersant – firibgar, muttaham” deydi, – u kunlardan birida savdogarlarga qarata. Kristianda artistlikka moyillik bor, u teatrga ham qiziqadi, ammo bu havasning ham oxir-oqibat samarasi yo'q. U byurgerlik sosloviyaning “adashgan o'g'lon”laridan biri. Byurgerlik bilan aloqasini uzgan-u, o'rniga biror boshqa narsa topolmagan. Kristianning hayoti ham biror mazmun kasb etmagan. U yengiltak ayolga uylanadi, u ayol esa Kristiandan qutulish maqsadida uni jinnixonaga joylashtiradi.

Buddenbroklar oilasining inqirozi bir vaqtlar mustahkam oilaviy aloqalarga ega xonadan a'zolarining o'zaro oqibatlarida ham ko'rinadi. Ana shu planda Tomasning singlisi go'zal va tabiatan samimiy Tonining taqdiri o'ta fojealidir. U oila obro'si, firma ma'murligini juda qadrlaydi. Oilasini deb, shaxsiy baxti talaba Martinga muhabbatidan voz kechadi, oila manfaatini o'ylab ikki marta turmushga chiqadi. U oilaviy udumlar qobig'idan chiqqa olsa, o'z erkini qalb irodasiga bo'ysundirsa, Toni baxtli bo'lishi mumkin edi, ammo bu qiz byurgerlik an'analari buzishga jazm qila olmaydi.

Budenbroklarning to'la to'kis tanazzuli to'rtinchi avlod vakili Xanno obrazida gavdalanirilgan. Tug'ilganidan boshlab xastaligi, o'zligi uqtirilgan bu bolaga real hayot begonaday. U hamma harsadan qo'rqadi, hamma narsaga loqayd. U juda erta – bolaligidayoq hayotdan ko'z yumadi. Eng so'nggi intihoda ikki ovoz uni o'ziga chorlaydi – hayot va o'lim ovozlari. Keyingisi, ya'ni, o'lim ustun keladi. Romanda tasvirlangan voqealar muallif uchun tanish, qadrdon va yaqin va shu sababli yozuvchi ularni ishtiyoq bilan tasvirlaydi.

Muallif Buddenbroklarning vijdonli, insofli ekanliklarini, savdogarlikda halolliklarini alohida ta'kidlaydi. Shunga qaramay muallifning byurgerlar dunyosiga tanqidiy munosabati shubhasizdir. T. Mann byurgerlik muhitida gumanistik g'oyalarning, an'analarning so'hib borayotganligini alohida ta'kidlaydi.

Asarda eski an'anaviy byurgerlik o'rniga yangi ishbilarmonlar – egoist, toshbag'ir, qattiqqo'l kishilar kelayotganligiga ishoralar bor. Romanda Hagenshtrem, Kistenmaker kabi ishbilarmonlar obrazlarining paydo bo'lishi fikrimizning dalilidir. Jamiyatda paydo bo'layotgan bunday hayot tarziga ega kishilarga muallif qo'rquv va xavotir bilan qaraydi.

“Buddeenbroklar” keng epik polotno bo'lib, unda voqelikning tor maydoni – byurgerlik oilasi tasvirlangan. Asarda birorta ham bosh qahramon yo'qki, voqealar bayoni uning atrofida markazlashgan bo'lsin. Qahramonlar sifatida goh Tomas, goh Toni, goh Xanne va boshqalar tasvirlanganlar.

“Buddenbroklar”dan keyin T. Mann san'at va hayotdagi ijodkorlik va voqelikning o'zaro munosabatlariga bag'ishlangan novellar yozdi. Tristan (1902) shu asnodagi uning xarakterli asarlaridandir. Novella qahramoni Shninel–modernist yozuvchi, g'alati va kulgili shaxs. U o'zini o'rab turgan muhitga hazar, jirkanish bilan qaraydi. Sihatgohda u ishbilarmon bemor xotin Gabriel Kleteryan bilan tanishadi. Bu ayol uning nazdida san'at uchun tug'ilgan, turmush chirkinliklariga aloqasi yo'q zot bo'lib tuyuladi. Ayol chindan ham musiqani chuqur his etadi. Shifokorlar taqiqiga qaramay Shopen asarlarini chaladi, Vagnerning “Tristan”ini ijro etar ekan, musiqqa mo'jjasidan hayratga tushadi, to'liqlanadi, bu uning salomatligini yomonlashtiradi.

Shninel ayolning eriga keskin xat yozib, Gabriel qabih prozaik hayot uchun emas, san'at uchun yaratilgani, buni esa eri tushunmasligini bayon etadi. Ammo sihatgohda Gabrielaning eriga to'qnash kelgan

Shninel o'zini yaxshi tomondan ko'rsata olmaydi. Kleteryan uni qo'rqqoqlik va laqmalikda ayblaydi. O'zini oqlash imkoniga ega bo'lmagan Shninel juftakni rostlab qoladi.

“Tonio Kryoger” (1903), “Gladius Day” (Xudo shamshiri, 1902) novellari ham T. Manni lirik va psixologik tasvir ustasi sifatida tanitgan novellalaridandir. Yozuvchining g'oyaviy evolyutsiyasi XX asr 20-yillarida yaratilgan “Mo'jizali tog'” (*Der Zauberberg*, 1924) romanida o'z ifodasini topgan. 1913 yilda yozishni boshlagan bu romanida muallif ko'plab bahs-u munozaralar orqali XX asr avvalidagi burjua jamiyatining ma'naviy hayoti manzaralarini gavdalandirgan.

HERMAN HESSE (*Hermann Hesse*, 1877-1962)



Herman Hesse 1877-yil 2-iyulda Vyurtembergga qarashli Kalv shahrida ziyoli xonadonida dunyoga kelgan. Uning ota-onasi Bazel messionerlari bilan tuzgan shartnomalariga ko'ra Hindistonda faoliyat olib borganlar. Uning otasi Yohannes Hesse (1847-1916) boltiq bo'yilik shifokorning og'li bo'lib, 1873-yildan Kalv nashriyot uyushmasi xodimi, 1893-1905-yillarda nashriyot boshqaruvi raisi sifatida faoliyat olib borgan.

Hermann Hessening beshta opa-singillari bo'lib, ulardan ikkitasi erta vafot etganlar. Hesse bolaligidan hayollarga beriluvchi, kuchli temperament sohibi bo'lgan. Uning zakovat va qobiliyati bolaligidanoq atrofdagilar e'tiborini tortgan. U rang-barang she'rlar to'qir, ajoyib rasmlar chizar, ota-onalari uning zehn-idrokidan lol qolar edilar.

1881-yili Hesselar oilasi Bazelga ko'chib boradilar. Hesse bu shaharda internat maktabda o'qiy boshlaydi. 1886-yilda ular yana Kalv shahriga qaytib keladilar. U ona shahridagi imtiyozli lotin maktabida o'z o'qishini davom ettiradi. Bu maktabda o'z muvaffaqiyatlari bilan nazarga tushgan H. Hesse 1891-yildan yevangelik-diniy seminarda tahsil oladi. Oxir-oqibat ota-ona noroziligiga qaramay H.Hesse 1892-yilda seminarni tark etdi. Shu paytdan farzand va ota-ona oralaridagi

kelishmovchiliklar boshlanadi. 15 yoshli o'spirinni ota-onalari Shtuttgart yaqinidagi asab kasalliklari shifoxonasiga keltiradilar, u bu yerda bog' ishlariga qarashishi va ruhiy bemor bolalarga o'qishlarida yordam berishi lozim edi. Shu yerdan boshlab Hessening odamovi fe'l-atvori, oiladan uzoqlashish mayli shakllana boradi. Keyinchalik u Nekkar bo'yidagi Eslingenda kitob savdosi bo'yicha ta'lim oladi, 1894-yildan boshlab mexaniklar tayyorlaydigan bilim yurtida o'qiydi. Mazkur sohadagi faoliyat bo'lajak ijodkorga bir xil va zerikarli tuyuladi. Shu sababdan 1895-yilning oktyabridan Tyubingenda kitob savdosi bo'yicha saboqlarini jiddiy tarzda davom ettiradi. Bu davr xotira va sarguzashtlari "G'ildiraklar tagida" (*Unterm Rad*) romanida atroflicha bayon etilgan. Kitobga oshuftalik, turli bosma yodgorliklar, jahon adabiyoti durdonalari bilan oshmo bo'lish, H.Hesseni ham shunday asarlar ijodkoriga aylantirgan bo'lsa, ajab emas. "Jahon adabiyotiga jonli bir narsa yanglig' munosabatda bo'la bilmoq uchun, deb kuchli ta'sir ko'rsatgan asarlari allaqanday qoliplar yoxud ta'limiy dasturlar asosida emas, balki o'zligini topish orqali o'rganmog'i muhimdir. U burch yo'lidan yurmog'i lozim. Biron-bir durdona asar mashhur bo'lgani uchun va uni bilmaslik uyat sanalgani uchungina bu asarni o'qib chiqishga o'zini majbur qilmoq xatodir. Aksincha, mutoalaa, tanishuv va muhabbat har bir kimsa uchun tabiiy bo'lmog'i lozim", – deb yozgan edi H.Hesse/

Herman Hesse XX asr nemis adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, adabiyot sohasidagi xalqaro Nobel mokofotining sovrindori. Uning ko'plab roman, qissa, hikoyalari, sh'eri, siyosiy, adabiy-tanqidiy ruhdagi asarlari chop etilgan:

Ilk bor 1927-yilda bosilib chiqqan "Cho'l bo'risi" romani Herman Hessega olamshumul shuhrat keltirgan psixologik asardir. "Cho'l bo'risi"da o'z-o'zini tahlil qilish va hal etilmagan ma'naviy-ruhiy ziddiyatlarni yengish yo'lidagi sa'y-harakatlar qalamga olinadi. Unda muallifning oldingi asarlarida ozmi-ko'pmi aks ettirilgan Ruhga murojaat etish uslubi o'zining yakuniy hamda to'laqonli ifodasini topgan.

Hermann Hesse o'z ijodi bilan Germaniyadagi ko'plab avlodlarga katta ta'sir ko'rsatgan, asarlari eng ko'p mutolaa qilinadigan nemis adiblaridan biridir. Nemis adabiyotining ulug' mumtoz vakillaridan biri bo'lgan adib nomi yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida ayniqsa, 1946-yili unga adabiyot sohasidagi xalqaro "Nobel" mukofoti berilganidan so'ng, butun dunyoga tanildi.

Uning ja'mi asarlari orasida "Cho'l bo'risi" romanini alohida ta'kidlash lozim. 1927-yilda bosilib chiqqan bu asar o'tgan davr mobaynida turli yoshdagi juda ko'plab kitobxonlarning mehr-muhabbatiga sazovor bo'ldi.

Bu asarda tasvirlangan 20-yillardagi rivojlanib, sanoati taraqqiy etib borayotgan jamiyat ortidagi voqealar birinchi shaxs nomidan, ya'ni ellik yoshlardagi Harri Haller tilidan hikoya qilinadi, yolg'izlanib qolgan mazkur shaxs timsolida inson ichki dunyosining, botiniy vujudining bениhoya serqirra ekanligi ibratli tarzda ochib beriladi:

"Harri ikki vujuddangina emas, balki yuz minglab jonruhlardan tarkib topgan.

Uning hayoti minglab behisob juft qutblar orasida muallaq kechadi".

Bunday tasavvur nafaqat G'arb va Uzoq Sharq falsafasining ta'sirinigina ko'rsatib qolmay, balki "Cho'l bo'risi"ning Germaniyadan tashqarida ham, 60-yillarga qadar Yevropa va Amerikada, ayniqsa o'sib kelayotgan yoshlar harakatida ham o'z ifodasini topganligi sabab bo'lganki, bunga hech qanday shak-shubha yo'q.

Asarning xalqaro miqyosida qabul qilinishi hamda olamshumul ahamiyati nuqtai nazardan uning o'zbek tiliga ilk bor tarjima etilishi o'ziga xos madaniy voqeadir: Birinchidan, biz o'quvchilar uchun nafaqat nemis adabiyotiga ham mansub mumtoz asarlardan biri bilan oshno bo'lish, qolaversa, Herman Hessening ruhiy, ma'naviy dunyosi, shuningdek, uning ijodi bilan yaqindan tanishish imkoniyati tug'iladi.

Yana boshqa tarafi ham borki, yosh, navqiron o'quvchilar G'arb va Sharq g'oyalari bilan sug'orilgan, ular o'rtasidagi chambarchas aloqalarni o'zida mujassamlashtirgan ushbu muhim asar mutolaasi chog'ida germaniyalik, shuningdek, yevropalik hamda amerikalik yoshlar madaniyati bilan ham tanishadilar. Unda nafaqat olis Sharq falsafasi, balki insonning o'z "men"iga hamda murakkabliklariga bo'lgan quvnoq va vazmin munosabati ham o'z ifodasini topganligi diqqatga sazovordir.

Til va uslub jihatidan o'ziga xos, yuksak did bilan yozilgan asar tarjimasini o'quvchidan katta e'tibor talab qiladi.

Hermann Hesse hayotlik yillaridayoq o'z asarlarida haqiqat poetikasi hamda til sofliğiga erishish uchun kurashgan, intilgan. U siyosiy hushyorlik tajribasidan botiniy yo'l kontsepsiyasini yaratadiki, bu yo'l o'z-o'zini bilish sari olib boradi. Insonparvar adib butun umri davomida qalamga suyanib yashadi.

Uning hayoti va ijodi bag'rikenglik hamda sabr-toqat bilan yashashning namunasi edi. Bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaralganda, bir narsa alohida e'tiborga loyiq ko'rinadi: adib o'z ijodida shu narsani oldindan ko'ra olganki, bugun G'arb va Sharq xalqlari aynan shunga intilib yashamoqdalar, u ham bo'lsa turli mafkuralar o'rtasida murosa, turfa insonlar o'rtasida ahillik va bahamjihatlik bo'lishiga erishishdir.

“Cho'l bo'risi” ellik yoshlar atrofidagi inson. U kamgap, shu qadar odamovi, haqiqatan ham, o'zini-o'zi ba'zan atagandek, Cho'l bo'risi boshqa olamdan bo'lgan, begona, yovvoyi va jur'atsiz, hattoki juda yuraksiz zot edi.

Uning iste'dodi va taqdiri sabab naqadar yolg'iz va g'aribona hayotga ko'nikib ketganligi, o'zi bu yolg'izlikni ongli ravishda qismat deb bilishligi g'ayri oddiydir.

Asl ismi Harri Haller bo'lgan Cho'l bo'risi ijaraga turish maqsadida bir xonadonga keladi. Bu xonadonning muattar havosi unga ma'qul bo'lib, ijarachi ayolning hamma talablariga so'zsiz rozi bo'ladi. Roman Cho'l bo'risining ijaradoshi tomonidan yozilgan. Uning fikrlari asosida biz Harri Hallerning yashash tarzi, o'tmishi, his-tuyg'ulari va kechinmalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin.

Uning qadam bosishlari og'ir va qat'iyatsiz edi, bu esa uning ko'rinishi va nutqidagi ohang hamda jo'shqinlikka mos kelmas edi. Uning kasal ekanligi yurishiga xalaqit berar edi. Uning bo'yi u qadar baland emas, lekin yurishi va boshini tutishi novcha odamlarni eslatadi. Egnida zamonaviy qishki palto, o'zi ba'mani, biroq pala-partish kiyingan, soqoli silliq tarashlangan, kalta sochini u yer bu yeriga oq oralagan ekanligi tasvirlangan. Uning yuzidan qandaydir yotsirash, sovuqlikmi, yovuzlikmi, shunga o'xshash nimadir ufurib turardi. Lekin baribir, unda nimadir yetishmayotganday, fe'l-atvori, yurish-turishi, xatti- harakatlarida g'alatilik, nojiddiylik sezilar, go'yo unga ijarada turishi, odamlarning nemis tilida so'zlashishi g'aroyib yangilikdek tuyular, shuning uchun u boshqa narsalar bilan andarmondek edi. U bir oz ma'yus, g'amgin, biroq sezgir, o'ychan, qorishiq va ulug'vor qiyofali edi. Undagi xushmuomalalik va iltifotda, garchi bular unga biroz malol kelayotgandek tuyulsa-da, takabburlikdan asar ham yo'q – aksincha, bir oz ta'sirchanlikmi, bir oz o'tinchmi, iltijomi, shunga o'xshash nimadir mujassam edi. Uning ko'p safarlarda bo'lganligi ko'rinib turadi. Birinchi qarashdayoq u mislsiz, kamdan-kam uchraydigan va favqulodda qobiliyatli inson sifatida taassurot qoldirar, chehrasidan aql,

nur yog'ilar, nozik va harakatchan yuz ifodasidan g'ayrioddiy, g'aroyib, ruhiy va ma'naviy hayot barq urib turardi. Haqiqatan ham, unda chin ma'naviyatli insonlardagina uchraydigan keng fikrlilik, bilim, maqsadga muvofiqlik singari fazilatlar boshqalarga qaraganda ko'proq mujassam edi. Bunday toifadagi kishilarga shuhratparastlik begona, ular ko'zga tashlanish, o'zlarini bozorga solish-u birovga gapini ma'qullatish fikridan yiroq yurishadi. Bu odam betob, qandaydir ruhiy kasal yoki bo'shang, irodasiz shaxski, unga nisbatan hamdardlik, achinish hissi o'tadi, chunki uning yolg'iz, kimsasiz, g'aribliigi hamda doimiy ravishda ich-ichidan ezilib, azoblanib yurishiga guvoh bo'lamiz. Undagi umidsizlikning asosi, negizida dunyodan nafratlanish emas, balki o'z-o'zidan nafratlanish ekanligini ham angladikki, u ko'proq o'z-o'zidan nafratlanar edi. Irodani sindirish, shaxsiyatini yo'q qilishga yo'naltirilgan saboqlar uni o'z-o'zidan nafratlanishiga olib kelgan. Shu tariqa u bor hayoti davomida o'zining butun iste'dodini, butun aql-idrok, zakovatining o'z-o'ziga, mana shu olijanob vujudga qarashli ekanligini ko'rsatadi. Boshqalarga yon-beridagi odamlarga kelsak, u doimo qahramonona tarzda va o'ta jiddiy ravishda ularni chin dildan sevishga, ularga nisbatan odil, adolatli bo'lishga, ularning dilini og'ritmaslikka harakat qiladi, chunki "Yaqin kishingni sev" degan jumla uning vujud-vujudiga o'z-o'ziga nafrat qanchalik singgan bo'lsa, shunchalik chuqur ildiz otgan edi.

Shunday qilib, uning butun hayoti, o'z-o'zini sevmay turib, yaqin kishingni ham seva olmasligingga dalil, qolaversa, o'z-o'ziga nafrat ham natijada xuddi o'ta ketgan xudbinlik yanglig' dahshatli yakka-yolg'izlik va tushkunlik-umidsizlikni keltirib chiqarishga yaqqol misol bo'lib xizmat qiladi.

Harri Hallerning turmush tarzi bir oz g'ayrioddiy va sirli. U muayyan bir kasb bilan shug'ullanmaydi, tafakkur sohibi va kitob shinavandasi. U o'rnida tush mahalga qadar cho'zilib yotadi, uyqudan turgach, egnida xalat bilan yotoq bo'lmasidan xonasigacha bir-ikki qadam tashlaydi. Xona qo'shderazasi, keng va yorug' bolaxona, avvalgi ijarachilar turgan paytdagiga qaraganda endi boshqacharoq ko'rina boshlagandi.

Devorlarga suratlar, jurnallardan qirqib olingan rasmlar osilar, ular tez-tez almashinib turardi. Xullas, bu xonada yashayotgan odam olim bo'lsa kerak, degan tasavvur uyg'onadi. Hamma yoqni sigara tutuni bosib ketgan, sigara qoldiqlari va kuldonlar har yerda yotar, bu manzara ham shu fikrga mos tushadi. Kitoblarning katta qismi ilmiy mazmunda

emas, balki turli-tuman xalqlarning turli zamonlarda yashab, ijod etgan shoir va adiblarining asarlaridan iborat edi. U XVIII asr oxiriga taaluqli bo'lgan "Sofiyaning Mikeldan Saksoniyaga sayohati" nomli asarining qalin-qalin oyati jildiga ega edi. Aftidan, u Gyote va Jeyn Paul Novalis, Lessing, Yakobi va Lixtenbergning to'liq asarlari to'plamlarini sevib o'qigan.

Harri o'zining ilk bor araukariya xaqidagi suhbatda Cho'l bo'risi deb ataydi. Uning yakkayu yolg'izligi, yovvoyiligi, besaranjomligi, bewatanligini bundan ortiqroq nom, ta'rif bilan tavsiflab bo'lmaydi.

U podagra kasalligi xuruj qilganida o'z joniga qasd qilishiga ham tayyor bo'lardi.

Cho'l bo'risi har doim odamgarchiligi bor insonlarning uylarida yashab keladi. Bu uning eski injiqligi. U saroy va koshonalarda yashab o'rganmagan. Bu orqali u meshchanlarga bo'lgan nafratini allaqanday mehr-shafqat tuyg'usi bilan almashtirishga harakat qiladi. Harri o'zining u dunyo haqidagi o'ylari bilan shaharning eng sokin va eng ko'hna kvartallari bo'ylab keta turib, peshtoq ustidagi bir lavhaga ko'zi tushadi. Lavhada rang-barang harflar paydo bo'ladi.

Ular quyidagilar edi:

Magiyaviy teatr.

Har kim ham kiravermaydi – har kim ham.

Va shu yerga kirish ishtiyoqi kun sari oshib boraveradi. Kunlarning birida bu xonaga kiradi. Bu tushmidi, yo o'ngimi, buni u farq-layolmaydi.

Azobli kunlarining birida u restoranda Hermina ismli qizni uchratadi. Unga atab orxideya⁶ sotib oladi.

Qiz uning hayotiga ma'no mazmun olib kirishga harakat qiladi. Qiz unga mehribonchilik qiladi. Hayotning go'zalliklarini ko'rsatadi. Qizning nigohi, mehrli buyruqlari oltmish yoshli guvernant⁷ ayolning qatiqqo'l, jiddiy va talabchan qiyofasini eslatadi. U Harri nima istashini, his-tuyg'u va kechinmalarini oldindan bilib turadi. Qiz unga raqsga tushishga, bolalardek beg'ubor o'yinlarda ishtirok etishga majbur qiladi. Axir, bu harakatlar Cho'l bo'risiga umuman yod tuyg'ular bo'lgan edi-da. Uning qalbida bo'ri va inson tinmay jang olib borar edi. Harri o'zidan, o'z hayotidan mamnun bo'lishni o'rganolmasdi. Buning sababi,

⁶ Orxideya – lolaning bir turi

⁷ guvernant – tarbiyachi, murabbiy

u o'zini hamisha yuragining tub-tubidan hech qanday inson emas, balki cho'ldan kelib qolgan Bo'ri deb bilar edi.

Aqlli odamlar uning haqiqatan ham bo'ri bo'lganligi, yoki tug'ilmasdan oldin sehr-jodu bilan bo'ridan insonga aylantirilgan bo'lishi mumkinligi, yoki bo'lmasa u inson bo'lib tug'ilgan-ku, biroq vujudi cho'l bo'risiniki qilib yaratilgan, yoxud u haqiqatan ham bo'ri degan ishonch uning o'y-hayoli, kasali mahsuli ekanligi haqida bahs qilishni yaxshi ko'rar edi. Shunday qilib, Cho'l bo'risida insoniylik va bo'rilik xususiyatlari mujassam edi. Inson va Bo'ri yonma-yon yashar, biroq ular bir-birlariga kamdan-kam yordam berishar, aksincha bir-birlari bilan doimiy xusumat, ashaddiy dushmanlik munosabatida bo'lishgan. Harri dam bo'ri, dam inson bo'lib yashardi. Masalan, Harri inson sifatida go'zal fikrga, ajoyib, olijanob hissiyotga ega bo'lgan yoki biror ezgu ish qilayotgan paytda, uning vujudidagi bo'ri tishlarini irjaytirib, berahm, qaharli, masxaraomuz kulgu bilan bu barcha olijanob xatti-harakatlar Cho'l yirtqichiga naqadar kulgili tuyulishini bildirguvchi edi. Harri har bir mavjudot singari, butunlay sevimakni istardi va aynan shuning uchun u ularning oldida, ya'ni mehr-muhabbatlari bilan unga ahamiyatli bo'lgan odamlar oldida, o'zining bo'ri ekanligini yashira olmasdi, ularni alday ham olmasdi. Shu o'rinda yana bir narsani aytish lozimki, Harriga o'xshagan odamlar juda ko'p, masalan san'atkorlar ham xuddi shu toifaga mansubdirlar. Har bir inson zoti o'zining belgilari, o'z ovozi, o'z fazilat va illatlariga, kechirilmas gunohlariga ega. Cho'l bo'risining o'ziga xos belgisi esa shu ediki, u kechqurunning odami edi.

Yana boshqa belgilaridan biri, uning o'z joniga qasd qiluvchilar toifasiga mansubligi edi. Bular ichida tasodif tufayli o'z joniga qasd qiluvchilar toifalari mavjud. Harri ham ularning biri edi – o'lim bilan juda yaqin aloqada bo'lib yashashi shart emas – bunga o'z joniga qasd qiluvchi bo'lmay turib ham erishish mumkin. Biroq o'z joniga qasd qiluvchining bir xususiyati borki, u o'zining “men” ini, haqmi, nohaqmi, baribir xavfli, shubhali, xatar ostida qolgan tabiat ibtidosi deb his qiladi. Go'yo u qoya cho'qqisida turibdi-yu, tashqaridan zarragina turtki yoki ichkaridan zig'irdakkina zaiflik bo'lsa bas, uning bo'shliqqa “gup” etib qulashi turgan gap. O'z joniga qasd qiluvchilar bizga o'zlarini aybdorlik his-tuyg'ulari bilan qamrab olingan qilib tasvirleydilar. Ularga tashqi qiyofa emas, balki onaga, Ollohga,

koinotga qaytib, singib, yo'q bo'lib ketish ko'proq maqsad mazmuni bo'lib ko'rinadi.

Harri mana shu so'ngi imkoniyat marrasiga yetib boradi. Ma'naviy teatrdagi u o'z-o'zini tanishni o'rganadi, umri boqiyilarni uchratadi, huvillagan qalbini xalos etishga yordam beradigan narsani topadi. Bunda unga Hermina va Gustav yordam berishadi.

Harri o'tirishda Dora ismli qiz bilan tanishadi. Sayrdan qaytayotib, tortish mexanizmi pand berib, bo'shliqda uyg'onsa unda son-sanoqsiz eshiklar turibdi.

Unda:

1. Xohlagan hayvon yoki o'simlikka aylanish;
2. Shaxsni shakllantirish;
3. Cho'l bo'risini o'rgatish mo'jizasi;
4. Barcha qizlar seniki;
5. Qonga bo'yalgan muhabbat;
6. Harrining qatl etilishi

kabi eshiklar bor edi. Bu eshiklarga Harri kirarkan o'zi suhbatlashishni istagan barcha odamlarni Motsart, Gyote, Roza, yana sevgililaridan Lora Idalarni uchratadi. Bir eshikda Pablo bilan Herminani birga ko'rib, alamidan Herminaga pichoq sanchadi. So'nggi eshikda Harri ustidan sud olib boriladi. Uyg'onib qarasa, u Pablo bilan shaxmat o'ynamoqda. Pablo Hermina shaklidagi shaxmat donasini cho'ntagiga solib, "Harri hali ham o'ynashni o'rgana olmabsan" deb magiyaviy teatrdan chiqib ketadi.

Asarni biz ma'lum darajada to'g'ri va noto'g'ri tushinishimiz mumkin. Bu g'alati va hayratlanarlidir. Asarning atigi yarminigina tushinib yetganlar, mening nazarimda, o'zlarini unga o'xshatib u bilan tenglashtirishgan, uning iztiroblariga sherik bo'lishgan, orzularini baham ko'rishgan. Asar vaqtga bog'liq bo'lmagan, unda abadiy Ilohiy dunyo qarama-qarshi qo'yiladi.

STEFAN TSVAYG – lirik novella ustasi
(Stefan Zweig, 1881-1942)



O'ziga xos jozibali iqtidor sohibi, mashhur yozuvchi Stefan Tsvayg o'zbek o'quvchilarining mehr-muhabbatini XX asrning 20-yillaridayoq qozonishga ulgurgan san'atkordir. Hozirgacha faqatgina markaziy nashriyotlarning o'zida adibning eng yaxshi asarlari bir necha million nus'hada chop etilgan. Uning asarlariga bo'lgan qiziqishning yildan-yilga ortib borayotganligi adabiyotga yozuvchining munosib ulush qo'sha olganligidan dalolatdir.

S. Tsvayg 1881-yilning 28-noyabrida Venada to'qimichalik fabrikasi egasi Martin Tsvayg xonadonida ikkinchi o'g'il farzand sifatida tavallud topdi. Kelib chiqishlari yahudiy bo'lgan Tsvayglar sulolasi o'sha paytdagi boy badavlat burjua namoyandalardan bo'lgan. Shunga qaramay akasi Alfred va Stefanlar baxtli, betashvish bolalikni boshlaridan kechirganlar, deb aytib bo'lmaydi, chunki ularning otionalari farzandlariga jamoaviy burchlaridan ortib g'amxo'rlik qilish imkoniga ega emas edilar. Bolaning biror xatti-harakati enaganing doimiy nigohidan chetda qolmas edi. Xalq maktabi va gimnaziyada tahsil ko'rgan Stefan 1900-yilda Vena universitetida falsafa va adabiyotshunoslikdan saboqlar ola boshlaydi. 26 yoshga yetganida yozuvchi Venada o'z boshpanasiga ega bo'ladi. 1912-yili taqdir Stefan Tsvaygni Friderike fon Vinternets (1882-1971) bilan uchrashtiradi. 4 yil o'tgach ular birgalikda Zaltsburgga ko'chib o'tadilar. O'sha yilning o'zidayoq u Zaltsburgda bir uy sotib oladi. Stefan Tsvayg Friderike bilan nikohdan o'tgach Zaltsburgda istiqomat qila boshlaydilar. Stefan Tsvayg o'ta jahongashta adibliyi uning tarjimai holidan ma'lum. U o'zining Yevropa bo'ylab sayohati mobaynida E.Verxarn, R.Rolland Verlayne, Rodin, keyinchalik Freyd va Toskani kabi yirik ijodkorlar bilan tanishadi. Ular bilan qayta va qayta suhbatlar quradi. Bu suhbatlardan rag'bat olgan adib Ispaniya, Shotlandiya, Hindistonga, Xitoy sarhadlariga, Afrika, Shimoliy Amerika, Kuba kabi mamlakatlarga sayohat qiladi. Bu safarlardan keyin adib sayohatnomalar

yozmadi, lekin turli mintaqa odamlarini o'rgandi. Bu odamlar uning novellalarida tasvirlandi. Uning sayohatlari Yevropa va jahon manzaralarini qiyosiy planda ko'rish imkonini va ayni zamonda uning novellalari qanday asosga qurilganini ko'rsatishga xizmat qiladi.

1933-yilda natsional sotsialistlar tomonidan yoqilgan gulxanlarda Tsvayg kitoblari ham kuyib kul bo'ldi. Zaltsburgdagi xonadoni tintuv qilingach, u vatanini butunlay tark etadi va Londonda uzoq vaqt qolib ketishga qaror qiladi. 1937-yilda Friderike bilan ajrashgan adib ikki yil o'tgach kotibasi Lotte Altmannga uylanadi. Gitlarning Polsha, Daniya, Norvegiya, Gollandiya, Belgiya va Fransiyaning zabt etishi uni tashvishga soladi va u Yevropani tark etishga majbur bo'ladi. 1940-yil Stefan Tsvayg rafiqasi bilan Braziliyaning Petropolis shahrida qo'nim topadilar. 1942-yilning 22-fevralida Stefan Tsvayg o'z joniga qasd qilishni ixtiyor qiladi. Uning do'stlari, muxlislari Stefan Tsvayg nega bunday o'limni xohlaganini tushunishga intildilar, ammo sababini topa olmadilar.

Asarlari nemis tilli zaminda bosilishi man etilganligi uni tashvishga soldi. Hukumatni o'sha paytda tutib turganlardan hech qanday odamiylikka umid bog'lab bo'lmasligi bois, Stefan Tsvayg rafiqasi Lotte xonim birgalikda hayotdan ketishga qaror qiladilar. Tomas Mann hamkasbi Stefan Tsvaygning o'limidan besh kun keyin shunday deb yozgan edi.

“Uning jahoniy shuhrati e'tirofga muxtoj emas. Shu narsa fojeali-ki, be'qiyos iqtidor sohibi bo'lgan buyuk inson qalbining isyonkor kuchi og'ir davrning bosimi tufayli parchalanib ketdi. Meni ko'p hollarda lol qoldiradigan narsa undagi Xudo bergan iste'dod, tarixiy davr va psixologik san'atkorona obrazlar jonliligini ta'minlay olish qobiliyatidir”. U juda erta novella va hikoyalar yozishga, mahorat bilan tarjimalar qilishga kirishgan.

Uning ilk she'rlar kitobi 1901-yilda Berlinda chop etilgan ikki yil o'tgach “Evald sevgisi” nomli dastlabki novellalar majmuasi bosilib chiqadi.

Dunyoda millionlab odamlar o'lishni istamay, o'limga mahkum bo'lgan paytda dunyoga mashhur ijodkor o'z ixtiyoriga ko'ra o'limni tanlaganini uning ijodidan hayratga tushuvchi millionlab ixlosmandlar tushuna olmadilar.

Adib o'zligiga, o'zining ilgarigi davriga qaytishi ilojisiz deb bilib o'limni afzal ko'rgan iztirobli insonparvar va patsifist Stefan Tsvayg

gitlerchilar tufayli jahon o'z erkinligi va taraqqiyotidan mahrum bo'lganligiga ko'zi yetdi.

S.Tsvayg ayol qalbining nozik kechinmalarini, ruhiy olamini san'atkorona tasvirlagan eng yorqin asarlari uchun mushtarak bo'la oladigan "Kuygan ko'ngil faryodi" novellasida hikoya qilinishicha ikki qizaloq burjuaziya hayotida odatiy bo'lib qolgan o'ta siyqa sarguzashtning guvohi bo'ladilar. Ularning boyvachcha tomonidan tahqirlangan, aldangan tarbiyachisi o'zini-o'zi o'ldiradi. Oiladagi kattalar bu voqeani bolalardan pinhon tutishga intiladilar. Ammo, samimiy go'daklar oiladagi badbaxt qiz taqdiriga loqayd qaray olmaydilar. Odatiy burjua axloqi bilan to'qnashuv bolalar qalbini larzaga soladi. To'plamdagi boshqa bir novella "Vahima" S.Tsvayg ijodida realistik tendentsiyalar yaqqol namoyon bo'lgan asarlardandir. Ayni zamonda, mazkur novella yozuvchi realizmining haqiqiy ko'lamini ko'rsatish bilan xarakterlidir.

Shu narsani alohida ta'kidlash o'rinliki, S.Tsvayg o'z novellalari uchun favqulodda hodisalar qidirmaydi. Yozuvchi ataylab oddiy, hattoki odatiy voqealarni tanlaydi. Bu yozuvchi hikoya qilish uslubining o'ziga xosligi bo'lib, bir qarashda, o'quvchi diqqatini tortmaydi. Lekin Tsvayg novellalarining syujet tarangligi voqealar dinamikasi bilan emas, balki qahramonlar qalbini nozik anglash bilan, ularning ruhiy holatlarining u yoki bu lahzadagi aniq tahlili bilan belgilanadi. Masalan, adibning "Vahima", "Bir ayol hayotidan yigirma to'rt soat", va boshqa novellalari asosan psixologik konfliktni ifodalash zamiriga qurilgan bo'lib, ularda tashqi hodisa asosiy voqealarning kuchayib borishi va rivojlanishi uchun bahona yoki turtki vazifasini o'taydi. Tsvayg novellalarida iztiroblar, qarama-qarshi va o'zgaruvchan tuyg'ular ifodasi sahnaviy aniqlikdagi rang-barang dialoglar bilan kuchaytiriladi.

Majmuuga muallifning "Murabbiya", "Noma'lum ayol maktubi", "Bir ayol hayotidan yigirma to'rt soat"(Sh.Tolibov tarjimasini), "Vahima", "Uchinchi kabutar haqida afsona", "Egizak qizlar rivoyati" Mahkam Mahmudov va O'tkir Hoshimov tarjimasidagi "Kuygan ko'ngil faryodi" asarlari jamlangan.

Tarjima amalioyotida bir muallif asarini turli uslubdagi tarjimonlarning o'girishi ijobiy natijaga olib kelmasligi tez-tez qayd etiladi. Bunday "sherikchilik" tarjimalaridan farqli o'laroq, Tsvayg novellalarining tarjimasini mazkur ishga ijodiy yondoshgan, yuksak saviya, keng bilim va mas'uliyat bilan qaragan tarjimonlarning muvaffaqiyati

mahsuli ekanligi ko'rinib turibdi. Tarjimaning samarali bo'lishini ta'minlaydigan omil – uning rus tilidagi eng muvaffaqiytli o'g'irilgan nusxasini tanlay bilishdir. Tarjimonlar tanlagan S.Tsvayg hikoyalarining 1956-yilgi ruscha nashri ana shunday manba hisoblanadi, chunki bu nashr vaqt va o'quvchilar sinovidan o'tgan, qayta-qayta o'zgarishlarsiz chop etilgan, noshirlar tez-tez murojaat etadigan nusxa hisoblanadi. Qolaversa, mazkur nusxa muallif hayotligida o'zi tartib bergan hikoyalarni qamrab olganligi bilan xarakterlidir. Asarning ijodiy biografiyasiga taalluqli bu faktor tarjimonlar uchun muhimdir.

S.Tsvayg asarlarining tarjimalarini kuzatib, hikoyalarda tasvir etilgan davr, muallifning ijodiy tarjimai holi, uning uslubidagi o'ziga xos individual, tiyran kuzatishlarni talab qiladigan xususiyatlar puxta o'rganilganligiga qanoat hosil qilamiz. To'plamdagi “Vahima” novella-sida Irena xonimning doimo ta'qib etadigan muttaham ayol tili ruscha nusxada boshqa personajlar tilidan aytarli farq qilmaydi. Tarjimaga ijodiy ehtiros bilan yondoshgan M.Mahmudov xarakter mohiyatidan kelib chiqib, tilimiz imkoniyatlaridan unumli foydalangan. Tarjimonning shevalarga xos bo'lgan tabiiy, jonli produktiv leksikaga murojaati o'quvchi ko'z o'ngida esda qolarli obraz yaratishni ta'minlagan.

S.Tsvayg o'z qahramonlarining nozik ruhiy kechinmalarini ifodalashda nemis tilining rang-barang uslubiy bo'yoqlaridan va har bir so'zning ma'nosidan, emotsionalligidan, stilistik imkoniyatlaridan to'la foydalanadi. To'plamga kirgan novellalarida ohori to'kilmagan istioralarni, betakror frazeologik iboralarni, maqol va matallarni uchratamiz. Personajlar nutqida, voqealar tasvirida qahramonlar holati va kayfiyatini ochib beruvchi “ichini it tatalaganday”, “oyog'i kuygan tovuqday”, “beposhna og'iz”, “tuxum bosib o'tirish”, “mum tishlamoq”, “ko'zlari kosasidan chiqmoq” kabi obrazli ifodalar mahorat bilan ishlatilgan. Tabiiyki, tildagi obrazlilik ma'noni ixchamlashtirishdan tashqari xarakterlarni individuallashtirish nuqtai-nazaridan ham ahamiyatlidir. Ba'zan tarjimachilik tajribasida o'g'irilayotgan asarni “o'z kitobxonlariga moslashtirish” tendentsiyalari uchrab turadi. Bu, shubhasiz, asarning milliy o'ziga xosligini yo'qotishga olib keladi. Tsvayg tarjimonlari bu yo'ldan bormaydilar, nemis turmush tarzi va ularga xos bo'lgan realiyalarni shundayligicha yetkazishga harakat qiladilar, qahramonlarni originalda tasvirlangan hayotdan ajratmaydilar. O'rni kelganda, kitobxonga mavhum tushunchalarga tarjimon izohlari berilganligi ayni muddao bo'lgan.

S.Tsvayg novellalari tarjimalarida ayrim qusurlar ham ko'zga tashlanadi. Tarjimonlar ba'zan obrazli fikrlashni me'yoridan oshirib, "qurbonlik", "majnunona ehtiros", "askiya", "oshig'i olchi", "hizir nazar qilgan" kabi xalqimiz hayoti bilan bevosita bog'liq so'z va iboralarni, "karnizdan tushgan guvala", "qo'lini yuziga tortib cho'qinqmoq", "his-tuyg'ular gammasi", "landshaftdagi nur va soyalar singari" kabi jummalarni o'rinsiz ravishda ishlatib yuborganlar. Shuningdek, ruscha nusxada tarjimaga hojat sezilmagan ayrim tushunchalarni o'zbekchada "kel'ner, krupe, lendlord, prater, smoking, iktador" kabi so'zlarga izoh berish lozim edi.

To'plamdagi novellalarda ayrim personajlar ismlarida "xen" affiksi tez-tez uchraydi. Bu affiks nemis tilida kichraytirish, erkalash ma'nolarini beradi. Tabiiyki, ruscha tarjimada bunga ishora bo'lmagani-dan o'zbekchada ham o'zgarishsiz berilgan. Natijada muallifning qahramon ismiga yuklagan ma'no ottenkasi mavhumligicha qolgan.

Bunday juz'iy kamchiliklarga qaramay, S.Tsvayg novellalarining o'zbek tilida paydo bo'lishi uning ixlosmand muxlislari doirasini kengaytirishga arziqli hissa bo'lib qo'shildi.

S.Tsvayg qahramonlari o'zlarining istaklariga, xohishlariga va ichki ruhiy kechinmalariga bandi kishilar. Ular ushbu mayllari va kechimalaridan ma'no, baxt topish uchun hamma narsadan: erkidan, elidan, hamiyatidan, ikkilanmay o'z hayotidan kechishga tayyor. Hatto buyuk kashfiyotlarga intilgan qahramonlari ham shaxsiy istaklari va kechinmalari doirasidan tashqariga chiqolmaydilar. To'g'ri, boy ruhiy-badiiy tasvir, qahramonlar chekkan anduhlar, drammatizmga to'la to'qnashuv va fojiali yechimlar yozuvchi ijodiga xos ushbu tang yondashuvni bosib ketadi, ammo shaxsiy kechinmalar ijtimoiy hayotdan ayricha kechadi.

"Bir qalbning so'nishi" novellasining qahramoni chol Solomonson xotini va qizining farovon, baxtli yashashini ta'minlashni o'zining hayotiy maqsadi deb biladi. Ma'lumki, zar, pul hukmron dunyoda farovon va baxtli yashashning o'zi bo'lmaydi, ayniqsa oddiy odamga. Qo'shimcha bir tanga topaman deb, u – Solomonson, zohiri bekami ko'st, ammo botini hiylaga, husumatga va hurofotga to'la zotlarning "ostonalarini kiprigi bilan supurib, tili bilan yalaydi". Biroz pul yig'adi, asta-sekin badavlat kishilar qatoriga qo'shiladi. Hayotda, xuddi tabiatdagi kabi, besabab va beoqibat narsa bo'lmaydi – chol jigar kasaliga yo'liqadi. Do'xtirlar shimolda davolanishni maslahat berishsa,

qizi va xotini: “Yo’q, janubda, dengiz bo’yida dam olamiz“, deb turib olishadi. “Yo’q deya olmaydi, chunki ular istagini ado etishdan ham faxrli narsa yo’q edi u uchun. Mana endi tong saharda bostirib kelgan qorin og’rig’idan uyg’onib ketadi. Xotinini uyg’otib yubormaslik uchun tashqariga chiqadi, uzun mehmonxona dahlizida u yoqdan-bu yoqqa yuradi. Og’riq bir oz tingandek bo’ladi. Shu payt dahliz to’ridan nimadir shitirlagani va kimningdir shivirlagani eshitiladi. Chol: “Menga shunday tuyuldi shekilli” degan andishaga boradi. Ko’p o’tmay bir sharpa hozirgina o’zi chiqqan xona tomonga “lip” etib o’tganini ko’radi. “Saharda-ya?! Xotinimmi? U uxlab yotibdi. Demak...” Cholning tili bormadi, lekin shubha ham tark etmadi. U xonasiga kirishi bilan yon xona eshigi tirqishidan tushib turgan chiroq nuri o’chganini ko’radi. Karavot asta g’ichirlaydi. Endi shubhaga o’rin yo’q edi. “Nahotki?! Kechagina qo’g’irchoq o’ynab, “dada-dada”lab, bo’ynidan tushmaydigan, eng sodda, endi o’n to’qqizga kirgan, eng farih qizi, uning qizginasi, Erna... Sahargacha begona erkak quchog’ida...” Og’riqni og’riq bosadi, deganlari rost ekan. Bostirib kelgan beshafqat o’y va beadad g’azab zo’ridan tang dil bo’lgan chol qorin og’rig’ini ham unutadi. “Men qizim, xotinim haqida nimani bilaman? Hech nimani. Ular baxtli yashasin deb kunu tun mehnat qildim, o’zimni unutdim. Bukri, savodsiz, kasalmand cholga aylandim. Ular endi mendan jirkanishadi, men qoloqmishman. Qizim bo’lsa... Buzuqidir!”

Tangdillik tan og’rig’idan xavfli. Jarroh stolida beshuur yotgan Solomonson bir daqiqaga o’ziga keladi. Ustida egilib turgan qiziga ko’zi tushadi. Bu cholga tahqir bo’lib tuyuldi. Uning umri bo’yi e’zozlab kelgan otalik mehrini aldangan umidlari va chekkan iztiroblari mag’lub etdi:

-Yo’qol! Yo’qol!

Bu cholning oxirgi, tavqi la’natga to’la so’zlari edi.

Yozuvchining ““Vahima” novellasida oilali ayol qalbida yana bir bor uyg’ongan ishqning iztirobi va lazzatini totish mayli, agar tajribali va ehtiyotkor eri bo’lmaganida, qanday fojialarga olib kelishi mumkinligi haqida hikoya qilinadi.

Odam to’qlikka tez ko’nikadi, ammo u to’qlikdan tez bezadi ham. Uning ko’ngli doimo yangi-yangi narsalarni, ba’zan esa qalbini to’lqinfantiruvchi sarguzashtlarni istab turadi. To’qlikka sho’xlik, deganlari shundan bo’lsa kerak.

Obro'li, badavlat oila bekasi Irena ko'ngil mayliga berilib, yosh yigitning o'ynashiga aylanadi. Nogahon paydo bo'lgan yoshgina juvondagi bu istakni do'q-po'pisa yoki taqiq bilan o'chirib bo'lmashligiga, aksincha, qattiqqo'llik maylini alangalatishga, vulqonga aylantirishga, oxir natijada esa hammani – xotini, ikki farzandi va o'zini ham nobud qilishi mumkinligiga erining tamizi yetadi.

S. Tsvaygning deyarli barcha asarlarida o'lim mavzusi bor: qahramonlari o'z istaklari, xohishlari yo'lida o'limga yo tik boradilar. yoki o'z istak va xohishlariga yetmay, o'zini-o'zi o'ldiradilar. O'lim mavzusi adib xayolini mudom band etgan. Uning 1942-yili o'zini-o'zi o'ldirishida nafaqat hayotiy idealining barbod bo'lgani, shu bilan birga uzoq yillar davomida o'lim haqidagi xayolli-badiiy izlanishlarining ham ta'siri bor. To'g'ri, hayot bilan o'lim o'rtasidagi kurashda odam ruhiyati, ichki kechinmalari va o'quvchini tanazzulga keltiradigan o'y-fikrlari keng namoyon bo'ladi. Hech bir ijodkor ushbu mavzuni chetlab o'tgan emas, lekin S. Tsvaygdek unga ko'p murojaat qilgan ham emas.

S.Tsvayg asarlari sirli va qahramonlar anduhlariga jo hayot falsafasidir. Unda sevish va nafratlanish, g'olib va mag'lub yashash, ulug'lanish va tahqirlanish boislari yashiringan. Sinchkov kitobxon undan o'ziga zarur hikmatlar topa oladi.

FRANS KAFKA va modernizm (*Franz Kafka*, 1883-1924)



XX asr adabiyoti taraqqiyotini yangi yo'nalishga solib yuborgan inson va uning umriga o'zgacha munosabatni qaror toptirgan Frans Kafkani dunyodagi eng g'aroyib va tushinarsiz taqdir egasi bo'lgan ijodkor – yozuvchi deyish mumkin.

U 1883-yilning 3-iyulida Praga shahrida savdogar oilasida tavallud topgan. Otasi shahardagi kichikroq fabrika egasi bo'lgan. U uch qizi va o'gli Fransning kelajagini ta'min etmoqchi bo'ldi, lekin o'gli bilan bir

umr kelisholmay, bir-birini tushunmay yashadi. Fransning onasi esa ruhoniylar oilasidan bo'ib, u dinga e'tiqodli, pokiza va loabar ayol edi. Ko'p vaqtini bolalari tarbiyasiga bag'ishlar edi. U qizlariga uy ishlari sir-asrorlarini va o'gliga hayot haqida ta'lim berardi. Frans Kafka va otasi o'rtasidagi kelishmovchiliklar uni doimo tashvishga solardi.

Frans Kafka Pragadagi nemis gimnaziyasini a'lo baholarga tugatadi. U 1901-1905(1906) yillarda otasining hohishiga binoan Pragada Nemis Davlat Universitetining Yuridik fakultetida tahsil oladi. Uning talabalik yillari juda mazmunli kechdi. Kafka huquqshunoslikdan tashqari, san'at tarixi va germanistika fanlaridan ma'ruzalar tingladi. Umuman olganda, Frans Kafka universitetning ilg'or talabalari safida edi. Mashhur yozuvchilarning asarlarini o'qish uning sevimli mashg'ulotlaridan bo'lgandi. U Universitetni tamomlab, 1906-1907 yillarda Praga shahar sudining advokatlar idorasida amaliyot o'tadi. 1907 yildan boshlab esa (oktyabrdan) xususiy sug'urta idorasiga xizmatga kiradi. 1908-yilda Pragada tijorat akademiyasida o'z malakasini oshirdi va shundan so'ng u turli kam haq to'lanadigan muassasalarda ishladi. 1917-yilda F.Kafka sil kasaliga muhtalo bo'ladi. 1922-yilda salomatligi tufayli nafaqaga chiqadi. 1923-yili Berlinga boradi, lekin sog'ligining yomonlashgani bois Pragaga qaytishga majbur bo'ladi. F.Kafka 1924- yilning 3-iyunida Vena shahri atrofidagi Kirling sanatoriyasida vafot etadi.

Frans Kafka o'zining 40 yillik qisqa umri davomida jahon adabiyotiga ulkan hissa qo'shishga ulgurdi, u „Niemand wird lesen, was ich hier schreibe“, ya'ni “Mening yozganlarimni hech kim o'qimasa kerak”, deb yozgan edi. Adib hayoti va ijodini o'rgangan adabiyotshunoslar “F.Kafka ko'proq o'zi uchun yozgan”, deyishadi. Nima sababdandir u o'z asarlaridan qoniqmas, ularni chop etishga shoshilmas, hatto o'limi oldidan Maks Brodga o'zining chop etilmagan barcha qo'lyozmalarini yoqib tashlashni astoydil vasiyat qilgan edi. “Menda adabiy qiziqishlar yo'q, men o'zim adabiyotdan iboratman”, - degandi Frans Kafka do'stalaridan biriga u o'z asarlari haqida: “Men ularni yaratgan onlarimnigina hurmat qilaman xolos”, – derdi. Kafkaning yozganlari tamomila kutilmagan va o'ziga xosdir. Uning asarlaridagi mavzu esa kundalik turmush va fantastik mavzular edi. Yozuvchi bu ikki tushunchani bir-biriga chambarchas bog'lagan holda asarlar yaratgan. Sevgi va muhabbat uning asarlarida boshqa yozuvchilar ijodiga o'xshab ustivor mavzu emas edi.

FRANZ KAFKA
DIE VERWANDLUNG



БИБЛИОТЕКА
СОВЕТСКОГО ЧЕЛОВЕКА

esa ota va og'il o'rtasidagi qondoshlik rishtalarining yemirilishiga olib kelardi. F.Kafkaga hayotda ko'p narsalar yoqmasdi va u bu narsalardan qutilishning birgina yo'li biror-bir hashoratga aylanib qolish deb o'ylardi. "Evrilish" ("Verwandlung") asarida xuddi shu muammo, hayot tashvishlarini yengishga qaratilgan edi. Asarda yozilishicha, bir kuni behalovat tushdan uygongan Georg Zamsa hashoratga aylanib qolganligini sezadi. Avval oila a'zolari, so'ngra ishidagi xodimlar bu voqeadan hayratga tushadilar va uni o'z holiga qaytarish choralari ko'ra boshlaydilar. Asar voqealari shunga o'xshash fantastik tarzda davom etadi. F.Kafka bu asarida ko'proq o'z hayotini tasvirlamoqchi bo'lgan. Hayot tashvishlaridan zerikkan, biroz loqayd bu shaxsning kayfiyati bevosita o'z asarlariga ko'chgan.

F. Kafka haqida yana bir ma'lumot: "Kafka" so'zi "Dohl", ya'ni, "zog'cha", zag'izg'on', hakka ma'nolarini anglatadi. Kafkaning otasi, savdogar, o'z firmasidagi mahsulotlariga shu nom bilan emblema qo'yib sotar edi. Bu esa Frangsa tabiiyki yoqmas edi.


Yozuvchi hayoti davomida juda ko'p asarlar yozadi. Ularning orasida eng mashhurlari quyidagilardir:

"Bir kurash tarixi" (ilk asari 1902-1903 yillar), "Qurilish" (oxirgi asari 1923), "Amerika" (birinchi romani 1911-1916), "Jarayon" (1915-1918, ikkinchi romani), "Qo'rg'on" (1921-1922 yillar oxirgi romani), "Evrilish", "Hukm", "Jazo koloniyasida", "Otamga xat", "Ochlik ustasi" va boshqalar Frans Kafkaning ijodiy merosidir.

F.Kafka asarlarini o'qib, inson qismati va fojeasini tasvirlash uchun adib bu rangning har xil turlarini o'ylab topganini payqaymiz. F.Kafkani XX asr adabiyotini yelkasida ko'tarib turgan "Uch nahang"dan biri deyishadi. Hozirda uning ismi butun dunyoga mashhur, roman va qissalari ko'p tillarga tarjima qilingan. Quvonarlisi, so'nggi yillarda uning bir nechta asari o'zbek tiliga ham o'girildi, kitobxonlarimiz zamonaviy jahon adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan ulug' yozuvchi ijodidan bahra olish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Jumladan 2006-yili Kafkaning "Jarayon" romani Vafo Fayzulloh tarjimasida nashr etildi.

Qizig'i shundaki, bugun asarlari qayta-qayta nashr etilib, adabiyotshunoslar tomonidan so'zma-so'z o'rganilayotgan bo'lsa-da, F.Kafka 40 yillik qisqa umri davomida mashhurlik nimaligini bilmagan. Pragadagi sug'urta kompaniyasida ishlab kun ko'rgan yozuvchi zamondoshlari xotirasida qahvaxonaning bir burchagida doim nimalarnidir yozib o'tiruvchi kamgap kishi sifatida qolgan. Asarlarini faqat yaqin do'stlarigagina ko'rsatgan yozuvchi bir kun kelib ularni butun dunyo kitobxonlari o'qishini bilganda qay ahvolga tushgan bo'lardi?... Xorij matbuot sahifalarida yozilishicha, F.Kafka tug'ilib o'sgan Praga shahrini bugun bemalol Kafka shahri, deb atash ham mumkin ekan. Chunki endilikda Kafkaning nomi shaharning eng mashhur reklama brendiga aylangan. Praga aeroportidayoq, mehmonlar poytaxtga taklif qilib qo'l cho'zib turgan yozuvchi portretini ko'radilar.

Yozuvchi asarlarini nemischadan chex tiliga tarjima qilgan Yozef Chermakning fikricha, ulug' adib ismini vosita qilib foyda ketidan



yugirib yurganlar Kafkaning aslida kim bo'lganini ham yaxshi bilmaydilar. Lekin asarlarini targ'ib etish, kitobxonlar e'tiborini uning ijodiga jalb etish uchun Pragada bir qator xayrli ishlar ham amalga oshirilayotgan ekan. Masalan, bir paytlar yozuvchi ko'p vaqtini o'tkazgan "Arko" qahvaxonasiga kirganlar bu yerda uning turli tillarga tarjima qilingan kitoblarini sotib olishlari mumkin. Kafka tug'ilib o'sgan uy qarshisida esa adibga haykal o'rnatilgan.

Hammadan ham ko'proq beparvolikdan tashvishlangan va "Jarayon", "Qal'a" kabi asarlaridagi bosh qahramonlar timsolida loqaydlikka, vijdotsizlikka qarshi kurashgan yozuvchining oxir-oqibat ayni shu qusurlardan jabr ko'rishi nohaqlik, albatta. F.Kafka nomi va porloq xotirasi odamlarni restoran yoki do'konga emas, loqayd bo'lmaslikka, vijdonli bo'lishga chorlab turishi lozim.

YOHANNES ROBERT BEXER (*Johannes Robert Becher*, 1891-1958)



Y.R.Bexer 1891-yilning 22-mayida xizmatchi oilasida Myunxen shahrida tavallud topgan. Bexerning onasi dori-shunos oilasidan bo'lib, otasi huquqshunos – sud xodimi keyinchalik mamlakat sudyalar kollegiyasining Raisi lavozimida ishlagan.

Y.R.Bexer 1897-yildan Myunxendagi xalq maktabida tahsil oladi. 1900-yilda Maksimilian gimnaziyasiga qabul qilinadi. Oilaviy sharoitiga ko'ra u ko'p marta maktabini o'zgartirishga majbur bo'ladi. 1911-1912-yillarda Y.R.Bexer Berlin universitetida filologiya, falsafa va tibbiyot yo'nalishlari (keyinchalik u o'qishini Myunxen va Yena universitetlarida davom ettirgan) bo'yicha saboq olgan. 1911-yilda nemis shoiri Klayst vafotining 100 yilligiga bag'ishlangan ilk she'ri Klayst madhiyasi e'lon qilinadi.

1912-yildan boshlab Frans Premfertning "Aktzion" jurnalida adabiy muharrir bo'lib ishlay boshlaydi. Xuddi shu yili Y.R.Bexerning "Zamin" (*Erde*) romani va Bahor saxovati (*Die Gnade eines Frühlings*) she'rlar to'plami bosilib chiqadi.

1913-yildan boshlab Y.R.Bexer ekspressionistik yo'nalishdagi Inqilob (*Revolution*) va Yangi san'at (*Die neue Kunst*) jurnallari faoliyatida qatnashadi.

Birinchi jahon urushi oldidan chop etilgan Inqiroz va Tantana (*Verfall und Triumph*) shoirni ekspressionizmning yetakchi nomoyandalari qatoriga ko'tardi. Yosh shoirlar bu yo'nalishdagi asarlarida o'zlarining urushga qarshi kayfiyatlarini ifodalar edilar.

1916-yilda e'lon qilingan "Yevropaga" (*An Europa*) lirik majmuasida Bexer insoniyatni yangilanishga chorlaydi.

1917-yilda u Germaniya mustaqil Sotsial demokratik partiyasi a'ziligiga qabul qilinadi. 1918-yildan Spartak uyushmasi a'zosi, 1919-yildan Germaniya Kommunistlar partiyasiga qabul qilingan Y.Bexer „Hammaga“ (*An alle*) she'rlar to'plamini e'lon qiladi. 1925-yilda u urushga qarshi romani „Levizite“ yoki birdan-bir adolat urushi“ romanini chop ettirdi. 1928-yilda Y.R.Bexer Lyudvig Renn, Aleksandr Abushlar bilan hamkorlikda proletar-inqilobiy yozuvchilar uyushmasini tashkil etadi va uyushmaning birinchi raisi va „*Die Linkskurve*“ jurnalining noshiri etib tayinlanadi. 1931-yilda Bexerning „Buyuk plan“ (*Der grosse Plan*) poemasi e'lon qilinadi. Bu poema G'afur G'ulom tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan va „Yer yuzi“ jurnalida chop etilgan. Gitler hokimiyat tepasiga kelgach, Bexerning muhojirlik hayoti boshlanadi. Avval Pragada, keyin Parijda yashaydi, 1935-yildan boshlab Moskvada yashaydi va u yerda muhojirlar – nemis adiblari va shoirlari bilan birgalikda „*Internationale Literatur, Deutsche Blätter*“ (xalqaro adabiyot, nemis varaqalari)ni chiqaradilar. Y.Bexer bu jurnalning bosh muharriri edi. Bu paytda u GKP markaziy qo'mitasi a'zosi sifatida faoliyat olib boradi. 1938-yilda chop etilgan „Baxt izlovchi va yetti mashaqqat (*Der Glücksucher und die sieben Lasten*) she'rlar to'plamida nemis fashizmini la'natlaydi. Bexerning faylasuf Georg Lukach bilan do'stligi nemis klassik me'rosini o'rganishga da'vat etdi va o'zi uchun sonet janrini kashf etdi. Tomas Mann singari Y.R.Bexer ham o'z tim-sollarida nemis xalqining eng yaxshi an'alarini mujassam-lashtirishni xohlar edi. 1940-yilda Bexerning avtobiografik romani „Vidolashuv“ (*Abschied*) chop etiladi. 1968-yilda bu asar ekran-lashtirilgan.

1945-yil iyunida ikkinchi jahon urushi tugagach, Y.R.Bexer Berlinga qaytadi va u yerda "Germaniyani demokratik yangilash bo'yicha madaniy uyushma"ni tashkil etish tashabbuskori va birinchi Prezidenti bo'ladi. U ko'plab yozuvchilarning muhojirlikdan Vatanelariga qaytishlari uchun sa'y-harakat ko'rsatadi. Shuningdek, shoir

tiklanish nashriyoti, “Tiklanish” (*Aufbau*) oylik jurnali va haftalik “Yakshanba” (*Sonntag*) gazetalariga asos soladi.

Muhojirlik kechinmalarini yangitdan boshlash imkoniyatlari bilan bog'lab u o'zining “Vatanga qaytish” (*Heimkehr*) lirik to'plamini chop ettiradi.

Y.R.Becher Germaniya birlashgan sotsialistik partiyasi boshqaruvi a'zosi, keyinchalik (markaziy qo'mita) a'zosi sifatida siyosiy va ijtimoiy ishlarda faol qatnashadi.

1949-yilda adabiy jurnal “Ma'no va shakl”ni ta'sis etishda tashabbuskorlik qildi.

U ishchi qo'shiqlari an'analari yo'lida “Yangi nemis xalq qo'shiqlari”ni yaratdi.

1951-yilda tavalludining 60 yilligi munosabati bilan Humboldt universitetining faxriy doktori sharafiga muvassar bo'ldi.

“Sheriyat himoyasi yo'lida” uning adabiyotdagi yangiliklar haqidagi kuzatishlari mahsuli bo'lib, u 1952-yilda dunyo yuzini ko'rdi.

1954-58-yillari Madaniyat ishlari vaziri lavozimida ishlagan Y.R.Becher G'arbiy German yozuvchilari bilan aloqalar o'rnatishga harakat qildi. “Asr o'rtasi odimlari” (*Schritte der Jahrhundertmitte*) she'rlar kitobi shoirning so'ngi kitobi bo'lib, u 1958-yilning 11-oktyabrida Berlinda og'ir kasallikdan so'ng vafot etgan. O'z vasiyatiga ko'ra u Berlindagi Darotee shahar qabristoniga dafn etilgan.

BERTOLD BREXT (*Bertoldt Brecht*, 1898-1956)



Bertold Brecht 1898-yil 10-fevralda Bovariyaning Augsburg shaharchasida o'ziga to'q savdogar oilasida dunyoga keldi. Aqlini tanigach, u ijodning halol va mashaqqatli so'qmoqlariga qadam qo'ydi. She'rlari 1914-yildan matbuot sahifalarida muntazam bosila boshladi. Yigirma yoshida yozgan “Askar o'limi haqida qissa” sh'eri uni mamlakatga tanitdi va keyinchalik gitlerchilar Brextni Germaniya fuqarosi huquqidan mahrum qilishlariga sabab bo'ldi. 1918-yilda uning dastlabki pyesalari ham sahna

yuzini ko'ra boshlagan. Kleyst mukofoti sohibi Brext o'z asarlari izidan avval Myunxenga, 1924-yili Berlinga ko'chib o'tadi.

1927-yilda shoirming "Xonaki muloqotlar" nomli birinchi kitobi bosilib chiqdi. Undagi she'rlar xuddi hayotning o'zidagiday rango-rang: ochlar va to'qlar, bezori va ruhoniylar, g'irromlar va mirshablar haqidagi dilida tug'yon urgan hislarni Brext goh kulib, goh kuyib, goh qochirim, goh zaharhanda bilan bayon etadi.

Shoir 1934-yilda "Qo'shiqlar, she'rlar, xorlar", 1939 yilda "Svendborg she'rlari" nomi bilan bosilgan yangi kitoblarini yangi jilo va g'oyalar bilan boyitdi. She'rlar havoyi va chuchmal bezaklardan xalos bo'ldi, halol va sodda haqiqat qo'shig'i sifatida qayta tug'ildi, yuksaldi. Uning 50-yillar boshida Berlin yaqinidagi Bukov qishlog'ida yashab yaratgan "Bukov baytlari" turkumini tashkil etuvchi nafis she'rlari qisqa va yorqinligi bilan, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Brext she'riyatining o'ziga xos xislatini eslatib o'tish lozim. U she'rlarining juda ko'pchiligida o'z timsoliy his va fikrlarini to'g'ridan-to'g'ri ifoda etib o'tirmay, hayotda uchratgan va ko'nglining bir chetida joy olib qolgan qahramonlari tilidan, ularning fe'l-atvoridan kelib chiqib so'zlaydi. Bunga misol qilib "Xanna Kash qissasi"dagi ruhoniy hikoyasi yoki "Qaroqchi va qirol"dagi bayonni ko'rsatish mumkin. Xuddi shunday holni "Mening botir uchuvchim"ni va "Gollivud" singari qator nazmlarda ham ko'ramiz. Buning boisi Bertold Brextning tabiatan dramaturg, ulkan sahna ustasi ekanidadir.

Uning dramaturglik faoliyati ham yoshligidan boshlangan. O'sha davr teatrshunoslaridan birining yozishicha, „Tunda yangragan nog'oralar“ pyesasi qo'yilgach, „yigirma to'rt yoshli Bertold Brext bir kunning ichida Germaniyaning badiiy qiyofasini o'zgartirib yubordi“. „Uch pullik opera“si (1927 yil) sahnalashtirilganidan keyin uning nomi vatanidan tashqarida ham yangray boshladi. Asarlariga esa jahonshumul mavzular kirib keldi. „Jasurmomo va uning bolalari“ (*Mutter Courage und ihre Kinder*, 1939) asarida urush orqasidan tirikchilik qilib yurgan va urush tufayli farzandlaridan judo bo'lgan Ona siymosini yaratadi.

Ijodkorning hayoti ham, xuddi qahramonlariniki kabi, chuqur dramatism bilan to'la. Uning nomini fashistlar o'zlarining ashaddiy dushmanlari ro'yxatiga kiritgan edilar. U 1933 yil 28 fevralida Germaniyadan qochib, faqat 1948-yil 28-oktabrida vataniga qaytdi. Germaniyaga qaytgach, Brext "Berlin ansambli" nomli teatr tuzadi. San'at akademiyasiga vitse-prezident etib saylanadi. Shveysariyalik

mashhur yozuvchi Maks Frish tirikligadayoq unga “Brext - klassik” deb baho bergan edi.

Brext o'zbek rejissor, teatr islohotchisi edi. 1956-yil boshida, “Galiley hayoti” pyesasini o'z teatrida sahnalashtirishga kirishar ekan, uning salomatligi yomonlasha boshlaydi. O'sha yil 14 avgustida, Bertold Brext hayoti bilan vidolashadi.

KRISTA VOLF⁸ (1929)



Germaniya adabiyotining Diter Nyoll, Robert Bexer, Bruno Apitz kabi namoyandalari, Anna Zegers, Bertold Brext kabi vakillari davlat mafkurasiga moyilliklarini ifodalagan asarlar yaratgan bir paytda, voqelikka tanqidiy nazar bilan boqqan va bu reallikni asarlariga singdirgan Rayner Kuntse, Yurek Bekker, Krista Volf va Ulrix Pflentsendorflar mansub bo'lgan guruhi ham bor edi. O'tgan asrning yetmishinchi yillarida ayrim mualliflarning asarlari tazyiqqa uchragan GDRda depressiv tadbirlar o'tkazila boshlagan paytlarda ko'plab mualliflar Germaniyaning g'arbiy hududlaridan boshpana topdilar.

Ular orasida Rayner Kuntse, qo'shiqchi va shoir Volf Biyermannlar bor edilar. Ammo nemis adabiyotining mashhur vakilasi Krista Volf Germaniyaga demokratik respublikasida qolishni maqbul ko'rdi. Krista 1929-yilda Sharqiy Germaniyaning Landebergdagi Varte degan kichik shaharchada tavallud topdi. Yenadagi Shiller universitetida germanistikadan saboq oldi. O'z asarlari bilan juda erta muxlislar orttirgan adiba asarlari nufuzli mukofotlarga loyiq ko'rilgan. Ular orasida Germaniyaning “San'at va adabiyot uchun” milliy mukofoti, Georg Byuxner mukofoti kabi e'tiroflar bor. Muallif Germaniyaning har ikkala qismida birdek suyib o'qilgan. Uning “Bo'lingan samo” (*Der geteilte Himmel*, 1963) qissasi 1973-yili chop etilgan. Mazkur asarda Krista Volf shakl va tabiiy mazmun mushtarakligiga – ravon til va tabiiy mazmunga erishgan bo'lib, unda nemis zamini va millatining bo'linishi

⁸ 15-16 bo'limlardagi Krista Volf, Martin Valser, Uve Timm, shuningdek, posmodernistik adabiyot yo'nalishi haqidagi materiallar Mayns universiteti professori K.Kayner qalamiga mansub (tarjima o'zimizniki. Sh.K.)

muammosini qayta jonlantirgan. Bo'lingan samo bo'lingan mamlakat ramzi sifatida ifodalangan: yosh oshiq-ma'shuqlar bu bo'linish qurbonlari. Bu juftlik Rita Zaydel va Manfred Xerrfurt g'arbu sharq bo'linishi oqibatida o'zaro ko'rishish imkonidan mahrumlar. Yosh olim Manfred martaba ilinjida g'arbiga (G'arbiy Germaniyaga) yo'l oladi, yosh o'qituvchi Rita Sharqda qoladi. Kutilmaganda bunyod etilgan Berlin devori bu ayriliqning uzil-kesilligiga sabab bo'ldi.

Ammo muhimi voqealar o'zgarishining motivlaridir. Rita Saharqiy Germaniyada qoladi, chunki u yer uning Vatani, u yerda uning do'stlari yashaydilar, ular iliq insoniy munosabatlar – axloq, birdamlik va boshqa fazilatlar bilan bog'langanlar.



“Bo'lingan samo” Germaniyadagi mavjud tuzumga befarq emas. Unga tanqidiy nigoh bilan qaraydi. Germaniyada odatiy sanalgan kollektiv ong haqidagi tushunchalar asar qahramonlari tomonidan salbiy qarshi olinadi. Millatni boshqaruvchilar va nazoratchilarning sobit qadam emasliklari, shuningdek, partiya-dagi mansabparastlarning o'z kelajaklariga ishonchsizligi qayd etilgan asarda o'z ifodasini topgan. Krista Volfning Germaniyadagi tartib-qoidalarga tanqidiy munosabati keyingi asarlarida ham, jumladan “Krista haqida o'ylar”da (*Nachdenken über Krista*, 1968)

gavdalantirilgan. Bunda u davlat tomonidan olib borilgan qatag'on jarayonlarini qalamga oladi. Bu bilan u o'zining professional mahorati, axloqiy, insoniy fazilatlarini namoyon qildi. Hozirgi kunda adiba Berlinda yashab ijod etmoqda. vaqti-vaqti bilan turli adabiy anjumanlarda va konferentsiyalarda jamoatchilik e'tiborida bo'lib turadi.

Ulrix Plentsdorfning (1933-yilda tug'ilgan) tarjimai holi o'zgacha kechgan. Keyingi navqiron avlod vakili sifatida adabiyotga kirib kelgan bu adib o'zining “Yosh Verterning yangi iztiroblari” (*Die neuen Leiden des Jungen Werthers*, 1972) asari bilan kitobxonlar e'tiboriga tushdi. Bu kitob keyinchalik sahna asari sifatida muvaffaqiyat qozondi. Ulrix Plentsdorf Edgar Vibeau obrazi orqali avval pioner, keyin ozod nemis yoshlari tashkilotining faoli qiyofasini mohirona chizadi.

Edgar odamovi bo'lib, o'zini jamiyatdan ayri tutadi, intihoda fojiali hodisa (halokat) tufayli hayotdan ko'z yumadi.

Edgar Vibeau shaxsiy erkinlikni, ozodlikni qidiradi.

Germaniyada o'sha paytdagi mavjud tuzumni tanqid qilish shunchalar yoyildiki, bu o'zlaridan oldingi avlod vakillari bilan ziddiyat (mojaro)ni keltirib chiqardi. Plentsdorf vatanida ana shu ajratuvchilik mayllarini boshdan o'tkazdi, rasmiy doiralarda uni "davlat dushmani"deyishgacha borildi. 1989 yildan keyin u o'z ijodini filmlarga senariy yozish va telejurnalistika bilan bog'ladi va ARD telekanali bilan hamkorlik qildi.

Rayner Kuntse yurtini tark etgan muhojir va bu mamlakatdagi tartiblarni tanqid qiluvchilar orasida alohida o'rin egallaydi. "Mo'jizali yillar" (*Die wunderbaren Jahre*, 1976) ko'psonli kichik hikoyalarida Germaniya davlatining hiyla-nayrang va ezuvchanlik mexanizmini oshkor etadi: bolalarda sinfiy dushmanlarga nisbatan nafrat uyg'otishga bo'lgan maylni shakllantirish, yosh musiqachini davlat dushmani sifatida ta'qib qilish kabilarni ishonchli manzaralar orqali tasvirlaydi.

70-yillar o'rtalarida vatanini tark etgan Kuntse keyinchalik Garbiy Germaniya hududida yashadi va muvaffaqiyatli ijod qildi.

Bu mualliflar Germaniyaning Sharq G'arbida yashab, davlat va uning siyosiy guruhlarini faoliyatiga tanqidiy nazar bilan qaraganlar, ularning badiiy asarlari bugungi kunda sevilib o'qilmoqda. O'z-o'zidan ularning mafkuraviy muxoliflari, sheriklari va izquvarlari unutilmoqda.

HAYNRIX BYOL (*Haynrix Böll*, 1917-1985)



Mashhur hikoyanavis, suxandon va dramaturg Haynrix Byol 1917-yil 21-avgustda Kyoln shahrida dunyoga kelgan. U oilada 8-farzand, o'g'illar ichida uchinchisi bo'lib, uning otasi Viktor Byol taniqli haykaltarosh va duradgor bo'lgan. H.Byolning bolalik va o'smirlik yillarida uning oilasi Kyolnning turli rayonlarida istiqomat qilganligi tufayli, ularning xonadoni tez-tez ko'chishga majbur bo'lgan. Shuning uchun ham yosh H.Byol Kyolndagi deyarli barcha rayonlar tarixini, an'analarini juda yaxshi bilgan.

Uning asarlari orqali Kyoln manzaralari ko'z oldimizda aniq-tiniq gavdalanadi.

Haynrix yoshlik yillarida, ya'ni 1930-yilda otasining ishlari yurishmay ularning oilasi moddiy tomondan ancha qiynalib qolishgan kezlarda, juda ko'p mutolaa qilishga vaqt va imkon topadi. Ayniqsa, u XIX asr jahon adabiyotidan O.Balzak, Ch.Dikkens va F.Dostoyevskiy-larning romanlarini, nemis adabiyotidan esa F.Kafka, Klayst Hyoldirlin kabi yozuvchilarning asarlarini berilib o'qiydi. Haynrix 1924-1928-yillarda xalq maktabida, keyin qirol Vilhelm davlat gimnaziyasida tahsil oladi. Bonnda kitob savdosini o'rgandi. 1938-yilda u davlat xizmatiga kiradi. 1939-yilning yoz oyida Kyolnda germanistika va mumtoz filologiya yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilinadi, lekin afsuski, u sentyabrda harbiy xizmatga chaqiriladi va urushda 1945-yilgacha qolib ketadi. Frontda u barcha qiyinchiliklarni, shuningdek, 1945-yil apreldan sentyabrgacha boshidan kechiradi va urushga nisbatan unda kuchli nafrat tuyg'usi paydo bo'ladi. H.Byol 1942-yilda, harbiy ta'tillari chog'ida u o'zi anchadan buyon bilgan va yoqtirgan Annemariya Chexga uylanadi. Byollarning birinchi o'gillari 1945-yili dunyoga kelgan va shu yiliyoq vafot etgan. Raymond, Rene va Vipsent Byollar 1947, 1948, 1950-yillarda dunyoga kelganlar. Urush yillari H.Byol, asosan, yaqinlariga xatlar yozib, urushdan keyingi yillarda ular asosida belletristik asarlar bitdi.

1945-yilning noyabr oyida Haynrix urushdan qaytadi. Urushdan keyin u yana universitetda o'qishni davom ettiradi. Haynrix Byol universitetda o'qish bilan bir paytda ko'pgina hikoyalarni jurnallar sahifalarida e'lon qiladi. Hikoyalarning markaziy mavzusi urush va urush keltirgan oqibatlarining real manzarasi jonli tarzda bayon etilgan. 1950-yilda e'lon qilingan sara hikoyalar majmuasi „Sayoq Spa....dan kelayotirsanmi?“ deb atalgan bo'lib, bu kitob muallifga katta shuhrat keltirdi.

Haynrix urushga bo'lgan nafratini o'zi yozgan asarlarida ifodalaydi. U urushdan qolgan vayronalarni, tabiatning va atrof-muhitning nochor holga tushirilganligi odamlarni ruhan va ma'nau e'zilishi, oziq-ovqat tanqisligi kabi holatlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va bular uning birinchi hikoyalar to'plami „Poezd o'z vaqtida keldi“ (*Der Zug war pünktlich*)ni yozishiga sabab bo'ladi. 1950-yildan keyingi yillar Haynrix Byol hayotida ijodiy ko'tarilish – parvoz yillari bo'ldi.

“Adam, sen qayerda eding” (*Wo warst du, Adam*, 1951), “Biror so'z demadi” (*Und sagte kein einziges Wort*, 1953), „To'qqiz yarimdagi

billiard“ (*Billiard um halbzehn*, 1959) kabi nemis adabiyotida voqea bo'lgan asarlar fikrimizning dalilidir. Yozuvchining asarlari xuddi Borxertning asarlari kabi qisqa, lekin mazmundor. Haynrix Byol qalami o'tkir yozuvchi bo'lganligi bois ham uni radioga ishga taklif qilishgan. Yozuvchining radio muxlislari juda ko'p edi.

Uning asarlarida urush tanqid qilinib, uning vayronalari realistlik tarzda tasvirlar berilgan. Bu asarlarda urush faqatgina vaxshiylik emas, balki maqsadsiz bir harakat ekanligi ifodalangan.

1953-yilda Haynrix Byol „Bir so'z demadi“ nomli romanida Bogner juda ham kambagallikdan to'ygan, lekin yaxshi yashash uchun kurashishga ham ishtiyoqi yo'q odam sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun ham u uyini, oilasini tashlab ketib qoladi. U ketgandan keyin uning xotini barcha qiyinchiliklarni o'z bo'yniga olib, ro'zgor tebratish va bolalar tarbiyasi bilan yolg'iz o'zi shug'ullanishga majbur bo'ladi.

Yozuvchi o'zining „Qo'riqchisiz uy“ (*Haus ohne Hüter*) romanida ham urush davri voqealarini qalamga olgan. Unda asar qahramoni bo'lgan quyi tabaqaga mansub odamlarning hayotiga bo'lgan loqayd qarashlari ifodalangan. Bundan tashqari yana ikkita otasiz bolaning taqdiri haqida ham hikoya qilingan.

Ularning otalari Rossiyada halok bo'lishgan. Roman 11 yoshli bola tilidan hikoya qilingan. U otasini umuman ko'rmagan va tanimagan.

Asarda bevalar va ularning iste'dodli, lekin to'g'ri yo'l ko'rsatuvchisi bo'lmagan bolalar, ishchilar va xizmatchilarning taqdiri hikoya qilinadi.

50-yillarning o'rtalariga kelib Haynrix Byolning asarlari butun dunyo bo'ylab yoyila boshlaydi. 1951-yil 1-mayda bir anjumanda u o'zining 1949-yilda yozilgan „Die schwarzen Scharfen“ nomli hikoyasini o'qib beradi va bu uni mashhur bo'lib ketishiga sabab bo'ladi.

U mazkur hikoyasi uchun „47-lar guruhi“ mukofotiga sazovor bo'ladi.

Biz Haynrix Byolning satirik asarlarini o'qir ekanmiz yozuvchining qanchalik so'z sehrigari ekanligini e'tirof etamiz.

U so'zlarni o'z o'rnida qo'llab, asl maqsadi: zulmsiz tinch va ozod yashashni xohlashini aniq bayon etgan.

Haynrix Byol o'zining „Katarina Blumning yo'qolgan obro'si, yoxud zulm qanday kelib chiqqan va u nimaga olib kelishi mumkin“ (*Die verlorene Ehre der Katharina Blum oder: Wie Gewalt entstehen und wohin sie führen kann*) nomli terrorizmning sabablari va uning oqibatlarini haqida so'z yuritadi. Bu asar nima haqida ekanligi uning

nomidan ham ma'lum. Kutilmagan bir tasodif tufayli Katarina Blum qidiruvdagi bir yosh terroristni sevib qoladi va unga o'z uyidan hoshpana beradi. Bu voqealar gazetalarda e'lon qilinadi. Bundan voqif bo'lgan Katarinaning onasi, bularga chidolmay olamdan o'tadi. Yozuvchi bu asari uchun 1972-yilda "Buxner" mukofotiga sazovor bo'lgan.


H.Byol 1970-yilda Germaniya yozuvchilari PEN klubi prezidenti sifatida faoliyat ko'rsatgan.

1972-yilda "Xonim bilan birgalikdagi surat" romani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

1974-yilda H.Byolning hozirgi kunda ham o'z mashhurligi va dolzarbligini yo'qotmagan Katarina Blum haqidagi asari 30 dan ortiq tillarga tarjima qilingan, mazkur asar asosida badiiy film ekranlashtirilgan, shuningdek, 2007-yilgacha faqat Germaniyaning o'zida 6 million kitobxon mazkur kitobni xarid qilgan. Yetmishinchi yillarda H.Byol o'z mamlakatining siyosiy muammolari bilan band bo'ldi. Sho'rolar hukumati uchun o'sha paytlarda nomaqbul shaxslar hisoblangan A.Soljenisin, L.Kopelovlar H.Byol xonadonida qo'nim topdilar.

Uning so'nggi asari "Ayollar daryo manzaralari oldida" (*Frauen vor Flusslandschaft*) romani, 1985-yilda chop etilgan. H.Byol 1985-yilning 16-iyulida og'ir hastalikdan so'ng vafot etgan.

GYUNTER GRAS (*Günter Grass*, 1927)



Gyunter Gras 1927-yilda Dantsigda tavallud topgan, ikkinchi jahon urushi ish-tirokchisi. U 1948-56-yillarda Dyusseldorf va Berlinda hay-kaltaroshlik va grafika bo'yicha tahsil olgan. U 1955-yildan boshlab "47-lar adabiy guruhi" a'zosi, 1961-yildan boshlab Villi Brant boshliq sotsial demokratlar partiyasi a'zosi. G.Gras 1983-1986-yilda Berlin San'at Akademiyasi Prezidenti

etib saylanadi. 1986-1987-yillarda yozuvchi Kalkutta safarida bo'ldi. G.Gras uzoq vaqt Berlinda (hozirgi paytda Lyubek yaqinida)gi Belendorfdagi istiqomat qiladi. Gyunter Gras Georg Byuxner (1965), Teodor Xoys (1969) mukofoti sovrindoridir. Bavariya badiiy akademiyasi mukofoti sohibi, ko'plab universitet va shaharlarning faxriy doktori va fuqarosidir. "Shamoldagi tovuqlar imtiyozi" (1956), "Tunuka nog'ora" (1959), "Sichqon va mushuk" (1961), "Itlik yillari" (1963), "Mahalliy kabutarlar" (1969), "Gaytg'dagi uchrashuv" (1779), "Qurillash ovozi" (1922), "Keng dala" (1995), "Mening asrim" (1999) kabi asarlari Gyunter Grasning nafaqat Germaniyada, balki butun Yevropa mintaqasida mashhurligini belgilagan asarlardir. Bir necha o'n yillarki, omad Gyunter Grasni chetlab o'tayotgan edi. U Stokgolmdan keladigan xabarlarining oddiy kutuvchisi bo'lib qolishdan boshqa iloji yo'q edi. 27 yillik tanaffusdan so'ng 71 yoshli nemis muallifi Gyunter Gras adabiyot sohasida beriladigan 93-Nobel mukofotining sohibi bo'ldi.

G.Gras nemis tilli mamlakatlardan ushbu oliy mukofotga sazovor bo'lgan 11-Nobel mukofoti sohibidir. Shved akademiyasidan kotiba qiz Gyunter Grasga qo'ng'iroq qilib uning yuksak mukofotga loyiq ko'rilganini xabar qilganida, u o'zining Belendorfdagi hovlisida rasmi chizib o'tirgan, ushbu kun Hamburgga borib tish davolatishni doktor bilan kelishib qo'ygan edi.

1 million dollar deb belgilangan Nobel mukofoti bilan G.Grasni taqdirlagan Shved akademiyasi nemis ijodkorlarining bir umrlik ijodini e'tirof etgan bo'lsa ham, mukofotning "sababchisi" muallifning "Tunuka nog'ora" (*Blechtrommel*, 1959) romani ekanligini qayd etib, "To'q qora bo'yoqlardagi hikoyalar (tasvirlar)da tarixning unutilgan qiyofasi" portretini ifodalaganligini alohida uqtiradi.

Bundan 40 yil muqaddam chop etilgan "Tunuka nog'ora" romanida G.Gras nemislarining o'zlari yaratgan eng yaqin tarixini urushdan keyingi yillardagi iqtisodiy mo'jiza nemis xarakteridagi nima bilandir band bo'lish hislatlarini ro'yi-rost ta'sirli til bilan ifodalagan. Uning keyingi kitoblari ham beststellarga aylanib, qo'lma-qo'l bo'lganining boisi birinchidan nemis jamiyati hayotining muayyan bo'lagi haqqoniy badiiy ifodasini topganligi bo'lsa, ikkinchidan muallifning o'zi asarlari qahramonlari singari so'l intellektual, noqulay suhbatdosh, o'z nuqtai nazariga sodiq bahs-munozaraga moyil ma'rifatparvar bo'lganligidir.

Nobel mukofotiga sazovor bo'lishi munosabati bilan G.Gras bir necha davriy nashrlarga musohaba berdi. Shulardan biri "Fokus" G.Gras bilan qilgan suhbatdan kichik parchani e'tiboringizga havola qilamiz.

Sovrindor bilan musohaba

Fokus: Janob Gras, 20 yildirki siz Nobel mukofoti laureatligiga doimiy nomzodsiz. Nihoyat, mukofot sizniki.

Gras: Men bu mukofotni kutganim va chamalaganim ham yo'q. Doimo o'z kitob-u qo'lyozmalarim bilan bandman. Mukofotni 40 yoshimda emas, 70dan o'tganimda loyiq ko'rishgani meni g'oyat shodlantiradi va quvonch bag'ishlaydi. Chunki 40 yoshli muallifni ushbu mukofot zalvori ezib qo'yishi hech gap emas edi.

Fokus: Xushxabarga ilk munosabatingiz qanday bo'ldi?

Gras: Birdaniga onam yodimga tushdi. Xursandligimga sherik bo'lsalar edi – deb o'yladim. Chunki ular mening ilk mashqlarimni bilar va kelajagim uchun doimo g'amxo'rlik qilar edilar. Mendagi bor fuzilatlar onamdan meros.

So'ngra Haynrix Byol haqida, undan 27 yil muqaddam shunday nufuzli mukofotga sazovor bo'lgan so'z sehrigari haqida o'yladim. Rahmatli maslakdoshimga, "Haynrix bunga nima deysan?" – degim keldi. Aminmanki, u bundan xursand bo'lgan bo'lar edi, – deb yozgan edi.

Jahonning eng yuksak adabiy mukofotiga loyiq ko'rilgan "Tunuka nog'ora" o'ta jonli va ta'sirchan tilda yozilgan bo'lib, keyinchalik f'olker Shlyondorf tomonidan ekranlashtirilgan. Bu asarda g'aroyib bola Oskar Motserat o'z bolalik istiqbolidan kattalar dunyosiga nazar tushlaydi va o'zining tunuka nog'orasi tufayli bevosita o'zi ishtirok etmagan hodisalarni ham bayon etadi.

"Tunuka nog'ora" orqali ilk bora G.Grasning tarixiy haqiqatni syurreal-grotesk tasvirlariga qarama-qarshi qo'ydi va o'z uslubini mazkur romanida belgilab oldi. Nemis tilli yozuvchilar orasida birinchilardan bo'lib ikkinchi jahon urushi taassurotlarini o'z asarlarida ifodaladi.

Danstigda kechgan ikkinchi jahon urushi hodisalari G.Grassning "Mushuk va Sichqon" nomli asarida o'smir Yoaxim Malke taqdiri bayon etilgan bo'lsa, Dantsig trilogiyasining uchinchi kitobi "Itlik yillari" urush mavzusini yakunlaydi.

1977-yilda G. Grassning "Qalqon baliq" (Der Butt) romani unga epik muallif sifatida xalqaro shuhrat keltirgan asardir.

1986-yilda adib “Qutqaruvchi” (*Die Retterin*) asarini e’lon qiladi, unda G.Gras insoniyatni o’ziga-o’zi su’iqasd qiluvchi jonzot deb, baho beradi. 1989-yilda G.Gras san’at akademiyasidan siyosiy e’tiqodiga ko’ra chiqishga ahd qiladi (Akademiya Salmon Rushdi bilan birdamligini ifodalovchi tadbir o’tkazgan) Gyunter Grasning 1995-yilda yozgan “Oq dala” romanidagi voqealar Berlin devori qurilishidan to Germaniyaning qayta birlashuvi kunlarigacha bo’lgan voqealarni, shuningdek, nemis tarixining 1848-yilgi nemis inqilobidan hozirgi kunlargacha bo’lgan hodisalarning bayoniga bag’ishlangan. Jamoatchilik tomonidan bu kitob shu qadar qizg’in muhokama qilindiki, kitob chiqarilganiga 8 hafta bo’lar-bo’lmas, uning beshinchi nashri dunyo yuzini ko’rdi.

Gyunter Gras 1989-yilda o’zi tark etgan Berlin san’at Akademiyasiga qayta saylandi. Shu yilning avgustidan boshlab SDP (Sotsial demokratlar partiyasi) uchun saylovoldi tadbirlarida ishtirok etadi.

Gyunter Gras 1999-yil iyulida “Mening asrim” (*Mein Jahrhundert*) asaridan parchalar e’lon qila boshlaydi. Bu asarda u asrning har yili uchun bir tarix keltirib, uning o’ziga xos hikoyanavis ekanligini ko’rsatadi.

MARTIN VALZER (*Martin Walzer*, 1927)



Xuddi Sharqiy Germaniyada bo’lganidek, G’arbda ham 60-yillarda avlodlar almashinuvi yuz berdi va bu adabiyotga mavzularning yangi yo’nalishlariga ta’sir ko’rsatdi. W.Borxert, H.Byoll va G.Grass kabi mualliflar uchun urushning oqibatlarini bosh mavzuligicha qolgan bo’lsa, bir muddat keyinroq G’arbiy Germaniyaning fuqarolik-kapitalistik rivojlanishi zamirida tanqidiy qarashlari ayniqsa, H.Byoll ijodida ustuvor bo’ldi (Masxarabozning dunyoqarashi – *Die Ansichten des Clowns*, 1963).

1968-yildan boshlab esa GFRda inqilobiy ruhda shakllangan yozuvchilarning adabiy qarashlari yuzaga chiqib, unda asosan talabalar faollik ko’rsatdilar. Ularning maqsadlari: davlat obro’sini, jumladan

Bavariya hukumati rahbari Frans Yozef Strausning ob'rosini ko'tarish bilan bog'liq tadbirlar, bundan tashqari keng ma'noda emantsipatsiya talablari edi. Shuningdek, ayollar emantsipatsiyasi, axloqiy sohada yangi ijtimoiy hayolparastlikdan iborat edi. Mazkur yangi to'lqinlarning bosh namoyandasi Villi Brant bo'lganligi tarixdan ma'lum.

Bu yangi ma'naviy o'zgarishlar madaniy va adabiy sohalarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmas edi. Natsistik o'tmishdan holi bo'lmagan yosh avlod juda sustlik bilan uzoq yo'l bosib, davlat tepasiga kelishga intilar edi. Masalan, keyinchalik G'arbiy Germaniya tashqi ishlar vaziri lavozimini egallagan Yoshka Fisher o'zining yuqori martabalariga yashillar partiyasini tuzish va uni jamiyatga ma'qul qilish orqali erishdi. Martin Urush davri avlodi va 68-yillar voqealari o'rtasida yozuvchi Valserning nomini payqash qiyin emas.

1927-yilda Vasserburgda (Bavariya keyinchalik Badenzee uning vatani bo'lgan) tug'ilgan. Adabiyot, tarix, falsafa sohalari bo'yicha tahsil olgan. Keyinchalik radio va televideniya, shuningdek sayohat xizmatida (AQSH) bo'lgani uni adib sifatida shakllanishida muhim omil bo'lgan. U ilk muvaffaqiyatiga "Qochgan ot" (*Ein fliehendes Pferd*, 1978) qissasi orqali erishdi. Jamiyat illatlarini fosh etuvchi romani "I'ink urushi" (*Finks Krieg*, 1996) va avtobiografik qissasi : "Favvora" (*Ein springender Brunnen*, 1998) asarlari bir qancha adabiy mukofotlar bilan taqdirlandi.

Ular orasida Georg Buxner, Grats adabiy mukofoti va nemis kitob savdosi tashkilotining tinchlik mukofoti adib muvaffaqiyatining e'tirofidir. M.Valserning "Qochgan ot" asari xuddi Krista Volfning "Bo'lingan samo" sig'a o'xshab ramziy nom hisoblanadi. G'arb odami (GFR nazarda tutilyapti) qochgan ot muhim shaxs yanglig' ovlanadi.

Asar Helmut Halm va talabalar kengashining hafsalasi pir bo'lgan vakili Klaas Bux obrazlari orqali talqin qilinadi. Ular o'ta faollik bilan keyinchalik jurnalist va muallif sifatida ishlaydilar. Har ikki shaxs birgalikda iste'molchi jamiyatdan qochadilar – birovi o'z kitoblari va falsafasi bilan, boshqasi sportga va yosh ma'shuqaga mayli bilan undarmon bo'ladilar. Har birlari kim g'olibligini aniqlamoqchi bo'ladilar. Kimning g'olibligi ma'lum bo'lmay ochiqligicha qoladi. Ammo har ikkisiga shu narsa ravshanki, bu loqayd, islohotlarga befarq jamiyatda yashash oson emas, har ikki shaxs intihoda singan qahramonlardir.



68-yillar avlodi bilan yangi adabiyotining maqsadli yo'nalishi yanada ravshanroqdir. 1970-yil boshlaridan Uve Timm o'sha davrlarning eng ko'p muvaffaqiyat qozongan romanlar muallifi hisoblanadi. Uve Timm ko'p qirrali iste'dod sohibi, voqealarni o'ta qiziq hikoya qiluvchi ijodkordir.

O'zining "Kolbasaning kashf etilishi" romanida urushning so'nggi kunlari voqealarini jonlantiradi.

Bu asarda voqealar Haynrix Byoldagidan boshqacharoq tasvirlangan. Muallif Uve Tim 1993-yil bilan urush oralig'idagi masofa – ya'ni urush dahshatlarining yuqori pog'onasi oralig'i haqida hikoya qiladi, unda insoniylik, ishonch va kinoyaga ham o'rin beradi.

Uning keyingi chop etgan "Akam misolida" (*Am Beispiel meines Bruders*, 2003) asari bilan urush mavzusiga yana bir bor murojaat etadi: O'z akasining qotilga aylanganini muallif g'ayritabiiy hol deb qaraydi.

Mahalliy kolorit – badiiy asarda tasvirlangan voqea qayerda sodir bo'lgan bo'lsa, o'sha joining o'ziga xos mahalliy turmush sharoiti, tabiat manzaralari, til va sheva xususiyatlari, urf-odat va qiliqlaridan iborat. Yozuvchi tasvirning tarixiy konkret va xaqqoniyligini ta'minlashga intilib, mahalliy koloritga xos barcha xususiyatlarni chuqur o'rganadi va uni rostgo'ylik bilan tasvirlaydi.

Memuarlar (fransuz *memoires* – xotiralar so'zidan) – xotiralar, esdaliklar, yodnomalar. Odatda, yozuvchining o'z ko'zi bilan ko'rgan yoki o'zi qatnashgan o'tmish voqealar to'g'risida yozganlari memuarlarning mazmunini tashkil etadi.

Metafora (yunon *metaphora* – kochim, istiora so'zidan) – asosiy poetic ko'chim (trop)lardan biri. Ko'chim ikki xil bo'ladi: o'xshashli ko'chim – metafora, o'xshashsiz ko'chim – metonomiya.

Metod (yunon *methodos* – tadqiq qilish, tekshirish soʻzidan) – turmush hodisalarini tanlash, oʻrganish va tasvirlashning asosiy vositasi va tamoyili. Sanʼat va adabiyotda metod (oqim) yozuvchining hayotiy faktlarni tanlash, umumlashtirish, baholash va badiiy obrazlarda aks ettirishda qoʻllangan asosiy tamoyillardan iboratdir. Oʻtmish adabiyoti va realizm, romantizm an shunday ijodiy metodlardandir.

Mif (yunon *mythos* – afsona, rivoya soʻzidan) – juda qadim zamonlardagi kishilarning koinot va hayotning paydo boʻlishi, tabiat hodisalari, xudolar va afsonaviy qabramonlar toʻgʻrisidagi aqida va xayollarini bayon qilgan rivoyat va afsonalar. Mif Sharq mamlakatlarida *asotir* nomi bilan ham yuritiladi.

Modernizm Dekadentlik (fransuz *decadent* – tushkunlik soʻzidan) yoki **Modernizm** (fransuzcha *moderne* – zamonaviy soʻzidan) – XIX asrning oxirida Fransiya adabiyotida paydo boʻlgan oqim.

Moralite (lotin *moralis* – axloqiy soʻzidan) – oʻrta asr Gʻarbiy Yevropasida axloq-odob oʻrgatadigan, qatnashuvchilari kinoyaviy xarakterda boʻlib, aql, adolat, haqiqat, tavba, ishonch, umid kabi mavhum fikr va tuygʻularni jonlantiradigan dramalar shu nom bilan ataladi.

Motiv (fransuzcha *motif* – ohang, kuy, maqom soʻzidan) – muzika asarining asosiy elementi. Adabiy asarda motiv asarning asosiy temasidan farqli ravishda uning qoʻshimcha, ikkinchi darajali temalari boʻlib, u asosiy tema bilan birgalikda badiiy jihatdan tugal tarkib topgan bir butun narsa sifatida yuzaga keladi.

Naturalizm (lotin *natura* – tabiiy soʻzidan) – adabiyot tarixidagi ijodiy metodlardan biri.

Keng maʼnoda, naturalizm turmushni sanʼat va adabiyotda ikkinchi darajadagi, uncha muhim va zarur boʻlmagan narsalarni, tasodifiy hodisalarni, roʻyxat qilish, nusxa koʻchirish orqali koʻrsatishdir; bunda qalamga olingan narsalar, tasvir etilgan voqealar, garchi tabiiy, tashqi koʻrinishlari jihatidan oʻsha narsa va hodisalarning asliga oʻxshab ketsada, ular umumlashtirilmagani uchun haqiqiy sanʼat asari darajasiga koʻtarila olmaydi.

Naturalizm ahamiyatsiz, tipik boʻlmagan xarakterlarni tasvirlashda, tasodifiy maishiy lavhalarni chizishda, personajlar nutqini chalkash, qoʻpol soʻz va iboralar bilan berishda ravshan koʻrinadi.

Neologizm (yunon *neos* – yangi, *logos* – soʻz soʻzlaridan) – hayot yangiliklarini ifodalovchi yangi soʻzlar. Bunday soʻzlar sanoat va qishloq xoʻjaligi, savdo va transport, texnika va fanning toʻxtovsiz oʻsib

turishi tufayli bunyodga keladi va turmushda ro'y bergan o'zgarishlarni aks ettiradi.

Obraz – san'at va adabiyotda turmushni o'ziga xos badiiy shaklda aks ettiruvchi yorqin manzara va xarakterlar.

Narsa, hodisa va insonning muayyan vaziyatdagi xarakterli holati, xatti-harakati, kayfiyati va o'ziga xos xususiyatini o'zida yaqqol gavalantiruvchi obrazlar xilma-xildir: kishi obrazlari, personajlar, tiplar, tabiat obrazlari (peyzaj) va so'z obrazlari kabilar.

Obrazlilik san'atning o'ziga xos xususiyati, turmushni aks ettirishning maxsus shaklidir. San'at, jumladan, adabiyot bu xususiyati bilan ilm-fandan katta farq qiladi. U kishilarning ongigagina emas, balki his-tuyg'usiga ham ta'sir etadi.

Oda (yunon *ode* – qo'shiq so'zidan) – lirik poeziya janrlaridan biri bo'lib, biror kishi sha'niga yoki muhim voqea munosabati bilan yaratilgan tantanali sh'er. Qadimgi yunon adabiyotida dastlab turli temalarda yaratilgan har qanday xor – qo'shiq oda deb yuritilgan.

Oq she'r – qofiyasiz she'r. Lekin oq she'rda vaznning mukammal va ohangdor bo'lishi shart. Vazn, misralardagi turoqlarning rang-barang ritmik qurilishi oq she'rning ohangdorligini – musiqiyiligini ta'min etadi.

Pamflet – (yunon *pan* yoki *pam* – hammasi, *phlego* – yondiraman, kulini ko'kka sovuraman so'zlaridan) – ma'lum ijtimoiy tartibni, ayrim shaxslarning nojo'ya xatti-harakatlarini keng kitobxonlar ommasiga tushunarli uslubda fosh etib tashlaydigan kichik satirik adabiy asar.

Parodiya (yunon *para* – qarshi, zid va *ode* – qo'shiq so'zlaridan) – satiril ijodning bir turi bo'lib, odatda, biror yozuvchi ijodiy yoki alohida asarning kulgili yoki yaramas tomonlarini ko'rsatuvchi she'riy yuxud nasriy asar. Parodiya biror yozuvchi ijodi yoki asarning yaramas tomonlaridan kulish, kesatish yoki masxaralash maqsadida o'sha asarga (aksar uning shakli va ohangini saqlagan holda) o'xshatib yozilgan asardir.

Perifraza yoki **perifraz** (yunon *peri* – atrof, *phraso* – so'zlayman so'zlaridan) – majoziy ifodalardan biri bo'lib, narsa va hodisaning nomini uning ma'nosini tasvirlovchi va ta'riflovchi boshqa so'z yoki ibora bilan almashtirish.

Proobraz yoki **prototip** – badiiy, umumlashtirilgan obraz, tip yaratishga asos, manba bo'lgan, hayoti va xarakteri yozuvchi tomonidan

asar qahramoni qiyofasida mujassamlashtirilgan real hayotdagi kishi, konkret shaxs.

Publitsistika (lotin *publicus* – ijtimoiy soʻzidan) – keng maʼnoda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlar. Tor maʼnoda esa publitsistika davlat va jamiyat hayoti masalalariga bogʻishlangan ijtimoiy-siyosiy va ilmiy adabiyotni oʻz ichiga oladi.

Remarka (fransuz *remarque*) – dramatik asarda muallif tomonidan beriladigan izohlar.

Bu izohlar pyesani sahnaga qoʻyadigan rejissyorga, rollarni bajaruvchi aktyorlar va kitobxonlarga qaratilgan boʻladi. Chunki remarkada asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakati, qiliqlari, intonatsiyasi, sahna manzarasi va hokazolar yoritiladi. Demak, muallif remarkasi pyesani tushunish, sahnaga qoʻyish va rollarni yaxshi tushunib oʻynash uchun zarurdir.

Roman (fransuz *roman*) – epik, naqliy adabiyotning bir turi boʻlib, u murakkab turmush protsessini, keng hayotiy hodisalar doirasini qamrab oladi va buni oʻsish-oʻzgarishda tasvirlaydi. Romanda insonning har tomonlama hayoti butun murakkabligida yorqin tasvirlanadi. Povest va hikoyadan farqli oʻlaroq, romanda qalamga olingan hodisalarda koʻp kishi qatnashadi, ularning hayoti va kurashi bir-birlari bilan bogʻlanadi, toʻqnashadi. Romanda kishining hayot yoʻli va xarakteri uning turli davrlari va xilma-xil koʻrinishlarida yoritiladi.

Romantizm – sanʼat va adabiyotning asosiy ijodiy metodlaridan biri boʻlib, u turmushning oʻzidan koʻra koʻproq turmush haqidagi orzu va umidlarni tasvirlash printsipiga asoslanadi.

Romantik yozuvchilar yaratgan obrazlar ularni qanoatlantirmagan zamona sharoitlariga qarama-qarshi qilib qoʻyilgan. Ularning xayolida yaratilgan bunday obrazlar, garchi sanʼatkor yashab ijod etgan hayot haqiqatidan uzoq boʻlmasa-da, lekin voqeiy hodisalarni emas, yozuvchining turmush toʻgʻrisidagi orzularini aks ettiradi. Ana shundan turmushdagiday emas, “romanda boʻlgan kabi, kitobdagidek”, “romantik” maʼnolarini anglatuvchi romantizm termini kelib chiqqan. Keyinchalik bu terminni tarixiy tartibda maʼlum ijodiy printsiplarni oʻz ichiga olgan bir adabiy oqim yoki ijodiy metod sifatida shakllangan.

Sarguzasht adabiyoti – tasodifiy va gʻaroyib voqealarni tasvirlovchi hikoya va qissalar. Bunday hikoya va qissalar baʼzan *oldi-qochdi hikoya*

va *qissalar* deb ham yuritiladi. Bunday sarguzasht adabiyoti qahramonlarining ish-harakati tasodifiy voqealar bilan rivojlanib boradi.

Tasodifiy va g'aroyib voqealar qoliplash va boshqa badiiy vositalar bilan ulanib, ertaklarda to'qilganday, dostonlarda o'qilganday, maroqli syujet chizig'ini tashkil etadi. Bu esa ba'zan hayotiy lavhalar va tipik karakterlar tasviri bilan almashib boradi.

O'rta asr feodal ritsarlarining yurishlari to'g'risida yozilgan avantyur romanlar, savdogarlarning har xil el va yurtlarga safari haqida yaratilgan sayohatnomalar ham sarguzasht adabiyoti namunalari.

Satira (yunon *satura* – turli, aralash so'zidan) – ijtimoiy hayotning ma'lum tomoni yo ayrim guruh va shaxslarning yaramas salbiy xislatlaridan achchiq kulib va uni tanqidiy tasvirlab yozilgan hajviy asar. Satirik asarlar turli janrlarda (roman, povest, hikoya, she'r va boshqa janrlarda) yozilishi mumkin. U holda bunday asarlar “satirik roman”, “satirik povest”, “satirik hikoya”, “satirik she'r” deb ataladi.

Sentimentalizm (fransuz *sentimental* – sezuvchan so'zidan) – XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropa adabiyotidagi bir oqim bo'lib, dastlab Angliyada vujudga kelgan va rivojlanayotgan burjuaziya bilan feodalizm kurashini aks ettirgan.

Sentimentalizmda dvoryan aristokratiyasining buzuq axloqiga qarshi norozilik kayfiyati ifodalandi. Bu oqim namoyandalarning asarlarida hunarmandlar, savdogarlar va dehqonlar hayoti dvoryan aristokratiyasi va uning xulq-atvoriga qarama-qarshi qilib qo'yildi hamda feodalizm xo'rlagan kishilarga nisbatan achinish hislari ifodalandi.

Sentimentalizm bir adabiy oqim sifatida klassitsizmga va shu yo'nalishdagi asarlarga xos bo'lgan mavhum qoidalarga qarshi kurash olib bordi.

Sentimentalizm uchun kishining psixologiyasini tasvirlash karakterlidir. Sentimentalizm asarlarida kishi tasviri hissiyotning ortiq darajada bo'rtirilishi bilan farq qiladi.

Simvol (yunon *symbolon* – qadimgi yunonlarda maxfiy bir tashkilot a'zolarining bir-birini tanib olishi uchun qo'llanilgan shartli belgisi – ramz) - majoz turlaridan biri bo'lib, hayotiy bir voqea yoki tushuncha hamda predmetlar ifodasi uchun shartli ravishda ko'chma ma'noda qo'llaniladigan so'z yoki so'z birikmasi olinadi. Masalan, kabutar – tinchlik ramzi; tong – quvnoqlik, yoshlik, baxt ramzi; tun – baxtsizlik yoki o'lim ramzi va hokazo.

Sifatlash – tushuncha, hodisa va kishining ma’lum bir xususiyati va sifatini aniqlab, izohlab, xarakterlab beruvchi so’z.

Sifatlash yolg’iz o’zi kelmasdan, ma’lum so’z birikmasi tarkibida o’z mohiyati, o’z belgilarini unga ko’chirgan holda keladi. Bunday birikma metaforik sifatlash deyiladi. Masalan: *oltin vodiy, zumrad bahor, kumush* qish kabilar.

Sonet (italyan *soneto*) – band qurilishi murakkab bo’lgan she’r shakllaridan biri; bu she’r, o’rta asrlarda Italiyada shakllangan qoidaga muvofiq, o’n to’rt misradan tashkil topishi kerak: sonetning birinchi qismi – ikki to’rtlik (katren); ikkinchi qismi – ikkita uchlik(tertset)dan tuziladi.

Takror – stilistik ko’rinishlardan biri bo’lib, bir so’zni yoki bir necha so’zni, ba’zan esa ma’lum satrni atayinqaytarish. Shu tariqa takror ma’lum fikr va hisni yaqqol ifodalash bilan birga, ta’sirni kuchaytirish va turli intonatsiyani bo’rttirib ko’rsatishga xizmat qiladi.

Tezis (yunon *thesis*) – ma’lum asarda muallif tomonidan isbotlanib, ilgari surilgan fikr va xulosalar. Antik she’r tuzilishida stopadagi ritmik urg’uli *hijo tezis deb* aytilgan.

Tekstologiya – adabiyotshunoslikning qo’shimcha bir sohasi bo’lib, badiiy asarlarning matni bilan shug’ullanadi. Badiiy asarlarning turli (qo’lyozma, bosma) nusxalarini bir-biriga chog’ishtirib, ularning aslini (yoki shunga yaqin nusxasini) tiklaydi, aniqlaydi, matnni ommabop yo akademik nashrga tayyorlaydi.

Tendentsiya (lotin *tendere* – yo’naltirish, intilish) – yozuvchi asarda hayot manzaralari va xarakterlarini tasvirlash bilan o’quvchiga yetkazmoqchi bo’lgan g’oya, xulosa.

Tertsina (italyan *terzina*) – yamb bilan yozilib, bandlari uch misradan iborat bo’lgan she’riy shakl Sharq she’riyatida musallas deyiladi.

Dantening “Ilohiy komediya” asarining bandlari tertsina usulida yozilgan. A.S.Pushkin ham bu she’riy shaklga murojaat etgan.

Tipik – turli xil hayotiy voqealar, jamiyat tuzumi, ma’lum kishilar guruhi va boshqalar uchun xarakterli bo’lgan xususiyatlarni yorqin ifodalovchi narsa, hodisa yo shaxs. Bunday tipik xarakter va xususiyatlar tipik hayot hodisalarida, ma’lum jamiyat va bir turdagi ijtimoiy sharoitda yashovchi ko’p kishilarda ko’zga tashlanib turadi.

Travesti (italyan *travestire* – boshqa kiyim kiydirmoq so’zidan) - adabiyotda yumoristik poeziya shakllaridan biri bo’lib, jiddiy mazmuni

unga loyiq bo'lmagan hazilomiz, komik shaklga solib tasvir etishdir. Travesti shu xususiyati bilan satirik yoki hazilomiz mazmuni jiddiy tusda tasvirlovchi parodiyadan ajralib turadi.

Tragediya (yunon *tragodia*) – drammatik asar turlaridan biri bo'lib, unda ilojisiz vaziyat, halok etuvchi o'g'ir va teng bo'lmagan kurash negizida qahramonning xarakteri ochib beriladi.

Tragediya dramaning eng qadimgi turlaridandir. U qadimgi Yunonistonda vujudga kelgan va o'z nomini xudo Dionis sharafiga o'tkazilgan bayramdagi xalq tomoshasidan olgan. Dionisga qurbonlik uchun echki olib kelishar ekan (echkini yunonlar *tragos* deb ataydilar). Bu marosim raqsga tushish, Dionis iztiroblari haqida rivoyat aytish va qurbonlikka chiqarilgan echki haqida qo'shiq aytish (qo'shiq yunonchada *ode* deb yuritiladi) bilan o'tkazilgan. Demak, tragediya ikki so'zdan: *tragos* – echki, *ode* – qo'shiqdan kelib chiqqan.

Yunon fojeanavislari Esxil, Sofokl, Evripid (eramizgacha V asr) tragediya-lari ayniqsa mashhurdir.

Tragikomediya – tragediya xususiyatlari va komediya elementlari birgalikda aks ettirilgan dramatik asar.

Traditsiya (lotin *traditio* – topshirish, uzatish, berish so'zidan) – eski va yangi adabiy hodisa o'rtasidagi biridan-biriga o'tib boruvchi aloqa – keyingi yozuvchilar tomonidan qabul qilingan va rivojlantirilgan oldingi yozuvchi yoki yozuvchilar guruhi ijodiga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlar. Traditsiya *an'ana* deb ham yuritiladi.

Trafaret (italyan *trafaretto* – teshilgan so'zidan) – shakldan nusxa ko'chirish uchun qog'oz yoki temirdan qilingan qolip. Biroq adabiyotda biror yozuvchining boshqa bir yozuvchi yaratgan yoki o'zining oldingi asarlarida yaratilgan obraz yoki tasvir usullarini mexanik tarzda takrorlashi salbiy ma'noda trafaret yoki *shablon* deyiladi.

Trilogiya (yunon *trilogia*) – muallifning bir butun rejasi bilan birlashtirilgan uchta dramatik yoki prozaik asar.

Trop (yunon *tropos* – aylanish so'zidan) – ko'chim – so'z yoki so'z birikmasining ko'chma mazmunda qo'llanilishi. Metafora (istiora) va metonimiya (majoz) trop turlaridir. Sinekdoxa, allegoriya, ironiya, mubolag'a, litota, perifraza ham ko'chimning xilma-xil ko'rinishlaridir.

Trop qo'llash badiiy nutqda yangi mazmundagi so'z birikmalarini bujudga keltiradi, nutqni boshqacha ifodalagan yangi fikr bilan boyitadi, notiqning ma'lum hodisaga munosabatini bildirishi yo baho berishi uchun qulay imkoniyat tug'diradi.

Trop (ko'chim) og'zaki nutqqa hosdir, lekin u badiiy adabiyotda ham keng qo'llanildi. Chunki u yozuvchiga hodisani individuallashtirish va uni yaqqolroq qilishga yordam beradi. Ma'lum bir hodisani aniqroq tushuntirish, bu haqda obrazli yorqin tasavvur tug'dirish uchun trop turlaridan foydalaniladi.

Trubadur – qadimgi Fransiyaning Provans degan janubiy viloyatidagi shoir – baxshilar nomi bo'lib, ular ritsarlarning jasorati va sarguzashtlarini kuylaganlar. Trubadurlar tomonidan yaratilgan ayrim she'riy shakllar G'arbiy Yevropa poeziyasi uchun asos bo'lgan.

Truverlar (fransuz *trouvers*) – o'rta asr Fransiya (XII-XV asrlarda) qahramonlik va fidokorlik haqida qo'shiq to'qib, uni kuylab yuruvchi sayyor shoir – qo'shiqchilar.

Utopiya (yunon *utopos* – o'zi yo'q o'rin so'zidan) – yozuvchining fantaziyasini, amalga oshirilmaydigan xayolni hayotda mavjud qilib tasvirlovchi asar yoki epizod.

Masalan, ulug' Ozarbayjon klassigi Nizomiy (XII asr)ning "Iskandarnoma"sidan Iskandarning Shimolga yurishi va ideal ijtimoiy hayot kechirayotgan jamoatni ko'rib hayron qolishi tasvirlangan: unda hamma ishlaydi, tenglik va halollik hukm suradi. Ko'ramizki, Nizomiy utopiyasida xalqning erkin mehnatga asoslangan teng va baxtiyor hayot to'g'risidagi eng yaxshi orzu-umidlari o'z ifodasini topgan.

Ingliz mutafakkiri Tomas Mor (XV asr) Utopiya oroli haqida "Utopiya" nomli fantastik povest yozib, undagi kishilarni amalga oshirilgan ideal ijtimoiy tuzum sharoitida yashovchilar sifatida tasvirladi.

Utopiya, umuman, "xayoliy", "amalga oshmaydigan ishlar" ,a'nosida ham keng qo'llaniladi.

Fabula (lotin *fabula* – masal so'zidan) – badiiy asarda tasvirlangan voqea va hodisalarning izchil bayoni.

Fabula voqeaning izchil bayoni sifatida syujetdan katta farq qilmaydi, shuning uchun badiiy asar tahlilida *syujet* termini bilan kifoyalaniş ma'quldir.

Fantaziya (yunon *phantasia* – faraz qilish, tasavvur, xayol so'zidan) – ijodiy tasavvur, xayol. Shu bilan birga, ijodiy xayol bilan yaratilgan obraz, turmushning in'ikosi sifatida ongda tug'ilgan, lekin hali hayotda mavjud bo'lmay, faqat kishining tasavvurida yashovchi orzular ham fantaziya deyiladi.

Figura yoki **stilistik figura** (lotincha **figura** – obraz, ko‘rinish so‘zidan) badiiy so‘zning ifodaliligini oshirish uchun yozuvchi tomonidan ishlatiladigan maxsus so‘z va iboralar, odatdan tashqari nutq tuzilishi.

Xarakter (yunon *cxarakter* – xossa, xususiyat so‘zidan) – kishilarda xilma-xil ijtimoiy muhit va tarbiya tufayli tug‘ilgan turlicha xulq-atvor va psixologik xususiyatlar.

Kishilarning xulq-atvori va xislatlari ularni o‘rab olgan ijtimoiy muhit, oila va maktab tarbiyasi ta‘sirida shakllanadi, o‘sadi, o‘zgaradi. Badiiy asarda individual xususiyatlari bilan yaqqol gavdalantirilgan, to‘la va aniq tasvirlangan kishi obrazi xarakter deyiladi. Masalan, Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanidagi Andrey Bolkonskiy obrazi shunday xarakterdir. Katta san‘atkorlik mahorati bilan yaratilgan xarakterlar hamm vaqt tip darajasiga ko‘tarila oladi.

Xarakteristika (yunon *cxarakter* – xossa xususiyat so‘zidan) ma‘lum bir hodisa, kishi yo predmetga xos xususiyat va sifatlarni belgilash, aniqlash. Yozuvchi asarda ishtirok etuvchilarning kelib chiqishi, faoliyati, xulq-atvori, idroki, qobiliyati, intilishi, tashqi qiyofasi va boshqalar haqida ma‘lumot bersa, ya‘ni qahramonlarining xulq-atvorini ularning xatti-harakati va ichki kechinmalari tasviri orqali ochib bersa, bu muallif xarakteristikasi deyiladi.

Sharj (fransuz *charge* – og‘irlik ma‘nosidagi so‘zdan) – hodisa va predmetni yoki biror kishining ayrim tashqi belgisi, yo xarakterini buzib, karikaturali – kulgili qilib tasvirlash.

Ekspressiya (lotin *expressio* – ifoda so‘zidan) – badiiy asarda nutqning ifodaliligi va voqealarning yaqqolligi. Shoirming his-tuyg‘usi yorqin ifodalangan she‘r, kishining xarakterli xislatlarini ravshan bera olgan portret, ma‘lum joyning tabiiy manzaralarini yorqin tasvirlab, rassomning kayfiyatlarini ravshan yorita olgan peyzaj kabilar katta ekspressiya bilan yaratilgan asarlar deb ataydilar.

Elegiya (yunon *elegos* – shikoyat so‘zidan) – qadimgi Yunonistonda lirik poeziya turlaridan biri: g‘amgin, alamli, mungli she‘r. Qadimgi Rim shoirlaridan Propertsiy, Tibull, Ovidilarning elegiyalari mashhurdir.

Epigon (yunon *epigonos* – keyin tug‘ilgan so‘zidan) – o‘z umrini tugatgan adabiy oqimga ergashuvchi, o‘z salaflarining g‘oyasi, metodi va badiiy tasvir vositalarini mexanik ravishda takrorlovchi yozuvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan salbiy ma‘nodagi so‘z.

Epigramma (yunon *epigramma* – yozuv soʻzidan) – satirik poeziya turlaridan biri, biror kishini hajv qilgan kichikroq sheʼr.

Qadimgi Yunonistonda qasrlarga, haykallarga va turli idishlarga yozilgan sheʼrni epigramma deb ataganlar. Keyinroq Rimda kichik satirik sheʼrni epigramma deb atay boshladilar.

Epigraf (yunon *epigraphe*) – qadimgi yunonlar haykallardagi yozuvlarni shu nom bilan ataganlar. Biroq keyinchalik bir yozuvchi tomonidan oʻz asarining asosiy mazmuni va temasini oldindan tushuntirish uchun ikkinchi bir yozuvchi asaridan yoki xalq ogʻzaki ijodidan asar boshiga, alohida qism (bob)larning boshlanishiga kiritgan jumla yoki sheʼriy parcha epigraf deb atalgan.

Epizod (yunon *epeisodion* – voqe boʻlgandan ziyod soʻzidan) – poema, povest, roman, dramalar syujetida oʻzaro bogʻlanib kelgan va maʼlum darajada mustaqil ahamiyatga ega boʻlgan voqea, asarda maʼlum bir moment.

Epilog (yunon *epi* – soʻng, *logos* – soʻz) – qadimgi yunon dramasida muallifning oʻz rejasi va pyesasining xarakterini tushuntirish uchun tomoshabinga qaratilgan drama xotimasini shunday deb atar edilar. Baʼzan tomoshabinga qilinadigan murojaat asarning boshida berilar edi. Bu holda uni prolog deb ataganlar.

Epistolyar adabiyot (yunon *epistole* – noma, maktub soʻzidan) – jamoat arboblari, olimlar va yozuvchilarning xatlari toʻplami. Birovga qaratilgan noma, bir qator xatlar yoki qahramonlarning oʻzaro yozishmalari – noma shaklida yozilgan badiiy asar – badiiy epistolyar asar deb atalgan.

Epitafiya (yunon *epitaphios* – qabr toshi yozuvi soʻzidan) – koʻpincha sheʼriy shaklda boʻlgan qabr yozuvi. Kinoyaviy epitafiya qadimdan beri satirik poeziyaning keng tarqalgan shakllaridan biri boʻlib kelmoqda: murdasiz qabrga yozilgan yozuv orqali hayot boʻlgan boshqa biror kishining bemaʼni va yaramas xislatlari hajv qilinadi.

Epopeya (yunon *eppiia*) – qadimgi Yunonistonda maʼlum bir tarixiy voqea munosabati bilan xalq hayotini, uning kurashi va qahramonlarini keng tasvirlovchi barcha xalq rivoyatlari, qoʻshiq-lari epopeya deb atalar edi. Gomerning “Iliada” va “Odissey” asarlari mana shu xildagi klassik epopeyalardir. Chunki, bu asarlarda yunon-troyan muhorabasi kabi tarixiy voqea fonida qadimgi yunon hayotining koʻp va muhim tomonlari yorqin ifodalangan.

Epos (yunon *epos* – rivoya, hikoya, qo'shiq so'zidan) – badiiy adabiyotning hikoyaviy bir turi, adabiy turlar(epos, drama, lirika)dan asosiysi.

Hayotni harakatda, hayot manzaralari va kishining ma'lum hayot sharoitidagi xatti-harakati hamda kechinmalari orqali sahnada gavdalantirishga asoslangan dramadan, hayotni kishining ichki kechinmalari – fikr-o'yi, his va tuyg'ulari obrazida jonlantiruvchi lirikadan farqli o'laroq, epos kishini, u ishtirok etgan voqealarni, uning turli sharoitdagi xulq-atvori va kechinmalarini, uning turli hodisa va kishilarga bo'lgan munosabati va boshidan kechirganlarini tasvir etadi, hikoya qiladi.

Estetika (yunon *aisthesis* – sezgi, his so'zidan) – hayotdagi go'zallik va san'atda go'zallikning in'ikos etish qonuniyati haqidagi falsafiy ta'limot, fan.

San'at bir tomondan, ijtimoiy ideallar asosida hayotni aks ettiradi, ikkinchi tomondan, u o'z badiiy vositalari orqali bu ideallarni hayot manzaralarida, obrazlarda mujassamlashtiradi, bu bilan u kitobxonga idealni butun ravshanligi bilan ko'rishga imkon tug'diradi, kishida go'zallik hissiyoti amalga oshgan idealning ulug'vorligi, go'zalligi va latofatiga nisbatan zavq uyg'otadi.

Yumor (lotin *humor* – namlik ma'nosidagi so'zdan) – birmuncha yengil tanqidga asoslangan kulgili asar. Yumoristik asarda yozuvchi turmushdagi va ayrim kishilardagi ba'zi bir kamchiliklardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan ob'yektning yo'q bo'lib ketishini istamaydi, unga hatto achinadi va undagi kamchiliklarning tuzatilishini istaydi. Bu bilan yumor satiradan farq qiladi. Biroq satirada yumor elementi bo'lganidek, yumorda ham satira elementi mavjuddir.

Yumoreska – ijtimoiy hayotdagi yoki ayrim shaxslardagi ba'zi kamchiliklarni, kishi xarakteridagi ayrim kulgili xususiyatlarni darg'azab bo'lmay kulish bilan tasvirlagan kichik hajmli hikoya yoki she'r.

O'xshatish – narsa, hodisa yoki tushunchani ma'lum umumiylikka, o'xshashlikka ega bo'lgan boshqa narsa, hodisa yoki tushuncha bilan chog'ishtirish. O'xshatish to'g'ridan-to'g'ri o'xshash tomonni ko'rsatish bilan yoki -dek (-day), o'xshash, xuddi, go'yo, misli, singari, yanglig', sumon kabi so'zlar yordami bilan tuziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Abdullayeva R.** “Makr va muhabbat”ga soʻz boshi. - T.: Gʻafur Gʻulom nashr., 1985.
- Abdurahmonova D., Joʻrayev R.** Oʻzbek latifalari nemis tilida // Jahon adabiyoti. – 2006. № 10.
- Alimuhamedov A.** Antik adabiyot tarixi. - T.: Oʻqituvchi, 1975.
- Bozor I.A.** Gyote sovgʻasi // Jahon adabiyoti”. – 1999. № 6.
- Egamova Y.** Gyote dahosi // Jahon adabiyoti. - 1999. № 9.
- Gyote Y.V.** Gʻarbu sharq devoni // Jahon adabiyoti. – 1998. № 7-8.
- Gyote Y.V.** Yosh Verterning iztiroblari. - T., 1975 (Yanglish Egamova tarjimasini).
- Gyote Y.V.** Tabiat, inson va ijod haqida // Jahon adabiyoti. – 1999. №9.
- Gyunter de B.** Tristan va Izolda. – T.: Oʻzbekiston, 1994 (Y.Parda tarjimasini).
- Hayne H.** Germaniya. Qish ertagi. - T.: Yosh gvardiya, 1984 (A.Sher tarjimasini).
- Hayne H.** Lirik. - T., 1973 (X.Saloh tarjimasini).
- Hayne H.** Yoshlik iztiroblari / SHeʻrlar. - T.: GʻGʻulom n., 1997 (A.Sher tarjimasini).
- Hesse H.** Choʻl boʻrisi // Jahon adabiyoti. – 2002. № 11-12.
- Hesse H.** Yozuvchi boʻlish sharaf // Jahon adabiyoti. – 2002. № 2.
- Karimov SH.** Eʻtirof va eʻtiqod // Jahon adabiyoti. – 1998. № 2.
- Keller G.** Qishloq. Romea va Julyetta. // Jahon adabiyoti. – 2005. № 5.
- Mann H.** Sodiq fuqaro. - T., 1970.
- Nurmatov Oʻ.** F.Shillerning “Makr va muhabbat” fojeasi. - T., 1990 / Shiller Oʻzbekistonda. Namangan: 2003. F.Shiller dramaturgiyasi. - T.: Fan, 2007.
- Qayumov O.** Chet el adabiyoti. 1-qism. – T., 1979.
- Remark E.M.** Uch ogʻayni // Jahon adabiyoti. - 1998. № 8-9.
- Sharafiddinova M.** XX asr adabiyotida absurd hayot ruhi. // Jahon adabiyoti. 1-son.
- Shimmel A.** Jonon mening jonimda // Jahon adabiyoti. – 1999. № 5.
- Vohidov E., Qurbon SH.** Oʻzimizning Faust. – 1999. № 9.
- Yan K.M.** Amir Temur va ayollar // Jahon adabiyoti. – 1999. № 3.
- Yilmaz B.** Gyote va Sharq // Jahon adabiyoti. – 1998. № 8.
- Алимасов А.** Андухларга жо ҳаёт фалсафаси (Стефан Цвейг) // Моҳият. – 2001. № 43.

- Асмус В.** Немецкая эстетика XVIII в. - М., 1962.
- Брагинский И.С.** Западно-восточный литературный синтез. - Душанбе, 1986.
- Гейне Г.** Избранные стихотворения. - М.: Детская литература, 1988.
- Гёте И.В.** Западно-восточный диван. - М., 1988.
- Гинзбург Л.** Слово скорби и утешения. - М., 1963.
- Гуляев Н.А.** и др. История немецкой литературы. - М., 1975.
- Жабборов С.** Гётенинг "Гарбу шарқ девони" Ф.ф.н. дисс. автореферати. - Т., 1995.
- Каримов Ш.** Диллардан дилларга. - Т.: 1980.
- Каримов Ш.К.** Чўл бўриси: зиддиятлар аро. (Херман Хессе) // Моҳият. - 2005. № 8.
- Каримов Ш.Қ.** Стефан Цвайг ўзбек тилида. // Ўзбекистон маданияти. - 1979. № 56.
- Кессель Л.М.** Гёте и его Западно-восточный диван. - М., 1973.
- Лессинг Г.Е.** Донишманд Натан (М.Мирзо тарж.). - Т., 2005.
- Неустроев В.П.** Немецкая литература эпохи. - М.: Просвещение, 1958.
- Пошали У.** Гёте ва таржима адабиёти. - Самарканд, 1978.
- Роттердамский Э.** Похвальное слово глупости.
- Саломов Г.** Таржима назарияси асослари. - Т., 1983.
- Саломов Г., Комилов К.** Дўстлик кўприклари. - Т., 1979.
- Саломов Г., Комилов Н.** Таржимон махорати. - Т., 1979.
- Саломов Г.** Таржима назариясига кириш. - Т., 1978.
- Стадников Г.В.** Генрих Гейне. - М.: Просвещение, 1984.
- Таржима санъати. 4-китоб.** - Т., 1978.
- Таржима санъати. 5-китоб.** - Т., 1980.
- Таржима санъати. 6-китоб.** - Т., 1985.
- Тронская М.Л.** Немецкая сатира эпохи. - Л.: Просвещение, 1962.
- Тураев С.М.** Гёте и формирование мировой литературы. - М., 1989.
- Хойслер А.** Германский героический эпос и сказания о Нибелунгах. - М., 1960.

Nemis tilidagi adabiyotlar

- Arnold, H.L.** (Hg.): Kritisches Lexikon zur deutschsprachigen Gegenwartsliteratur. München 1982 ff. (Loseblattsammlung)
- Best, O.:** Handbuch literarischer Fachbegriffe. Frankfurt / M., 1982
- Braak, I.:** Poetik in Stichworten. Stuttgart 1980
- Brauneck, M.** (Hg.): Autorenlexikon deutschsprachiger Literatur des 20. Jahrhunderts. Reinbek 1984
- Burdach K.,** Zur Entstehungsgeschichte des "West-östlichen Divans", Berlin, 1955
- Deutsches Literatur Lexikon. Begründet von W. Kosch. 3. neu bearb. Aufl. Bern / München 1968.
- dtv-Atlas zur deutschen Literatur. Zusammengestellt v. H.-D. Schlosser. München, 1987
- Eckermann J.P.,** Gespräche mit Goethe, Leipzig, 1968.
- Ei H.:** "West-östlicher Divan" in Kindlers Literaturlexikon.
- Frenzel, E.:** Motive der Weltliteratur. 5. erw. Aufl. Stuttgart, 1999
- Frenzel, E.:** Stoffe der Weltliteratur. 9. erw. Aufl. Stuttgart, 1998
- Freund Winfried** "Deutsche Literatur" Dumont Verlag Köln, 2007
- Fricke, H. / Zymner, R.:** Einübung in die Literaturwissenschaft. Paderborn, 1991
- Funk-Kolleg Literatur. Hrsg. von H. Brackert u. E. Lämmert. 2 Bde. u. 2 Bde. Reader. Frankfurt / M., 1976-78.
- Goethe J.W.,** "West-östlicher Divan", Frankfurt am Main, 1984.
- Grimm G./Max, F.R. (Hg.):** Deutsche Dichter. Bde. 1-8. Stuttgart 1989
- Grundzüge der Literatur- und Sprachwissenschaft. Bd.1: Literaturwissenschaft.** Hrsg. v. H. L. Arnold und V. Sinemus. München 1974
- Gutzen, D./Oellers, N./Petersen, J.H.:** Einführung in die neuere deutsche Literaturwissenschaft. Berlin, 1989
- Handlexikon zur Literaturwissenschaft. Hrsg. v. D. Krywalski. München 1976
- Kayser, W.:** Das sprachliche Kunstwerk. Bern, 1948.
- Keiner K.E.** „Deutsche Literatur“ Ernesti Literatur Verlag, 2005
- Killy, W. (Hg.):** Literatur Lexikon. 15 Bde. Gütersloh/München, 1988.
- Kindlers Literatur Lexikon. 7 Bde. u. Ergänzungsband. München. 1965-74.

- Kindlers Neues Literatur Lexikon. Hg. v. W. Jens. München 1988.
- Konradi O.K.**, Goethe; Leben und Werk, Frankfurt am Main, 1988.
- Literaturwissenschaft. Ein Grundkurs **Hrsg. H. Brakkert u. J. Stückrath**. Reinbek 1992
- Lurker, M. (Hg.):** Wörterbuch der Symbolik. erw. Aufl. Stuttgart 1991
- Metzler Autoren Lexikon. Stuttgart 1990
- Mommsen K.**, Goethe und die Moallakat, Berlin, 1960
- Pan. Gennadij., V.** «Deutsche Dichtung» Bochum, 1992
- Reallexikon der deutschen Literaturgeschichte. Hrsg. v. W. Kohlschmidt u.W. Mohr. Berlin, 1958-1988
- Reclams Romanlexikon. 5 Bde. Hrsg. v. F.R. Max u. Chr. Ruhrberg. Stuttgart 1998-2000
- Schulte-Sasse, J./Werner, R.:** Einführung in die Literaturwissenschaft. München, 1986
- Willpert, G. von:** Deutsches Dichterlexikon. 3. erw. Aufl. Stuttgart 1988
- Willpert, G. von:** Sachwörterbuch der Literatur 7. erw. Aufl. 1989

Adabiyot tarixi bo'yicha

- Abenteuer: Literatur. Eine Geschichte der deutschen Literatur. Von P. Groenewold u. a. Hannover, 1994
- Annalen der deutschen Literatur. Hrsg. v. H. O. Burger Stuttgart, 1971
- Daten deutscher Dichtung. Von H. u. E. Frenzel. 2 Bde. 1998
- Dichtung und Dichter der Zeit. Von A. Soergel. Leipzig, 1928
- Dichtung und Dichter der Zeit. Neue Folge. Im Banne des Expressionismus. Von A. Soergel. Leipzig, 1925
- Die deutsche Literatur des Barock. Von M. Szyrocki. Reinbek, 1968
- Die deutsche Literatur im 19. Jahrhundert. Von E. Alker. Stuttgart, 1962
- Deutsche Literatur. Eine Sozialgeschichte. Hrsg. v. H. A. Glaser, 10 Bde. Reinbek ,1982.
- Deutsche Literatur in Bildern. Von G. c. Wilpert. Stuttgart, 1965
- Deutsche Literatur im bürgerlichen Realismus. Von. F. Martini. Stuttgart, 1981
- Deutsche Literatur im Spannungsfeld zwischen Restauration und Revolution. Biedermeierzeit. Von F. F. Sengle. 3 Bde. Stuttgart, 1971/73
- Deutsche Literaturgeschichte in Bildern. 2 Bde. Bibliogr. Institut Leipzig, 1972

- Deutsche Literaturgeschichte. Von den Anfängen bis zur Gegenwart. Von W. Beutin u. a. Stuttgart, 1992
- Geschichte der deutschen Literatur. Von H. G. Rötzer. Bamberg, 1992
- Geschichte der deutschen Literatur von den Anfängen bis zur Gegenwart. Begründet von H. de Boor. u. R. Newald. 12 Bde. München 1949 ff.
- Geschichte der deutschen Literatur von den Anfängen bis zur Gegenwart. 5 Bde. Stuttgart, 1965.
- Geschichte der deutschen Literatur. Hrsg. v. E. Bahr. 3 Bde. Tübingen 1987/88
- Geschichte der deutschen Literatur vom 18. Jahrhundert bis zur Gegenwart. Hrsg v. V. Zmegac. 3 Bde. Königstein 2978/84
- Geschichte der deutschen Literatur. Von der Gründerzeit bis zur Gegenwart. Von K. G. Just. Bern/München, 1973
- Grundkurs Literaturgeschichte. 10 Bde. Opladen, 1981.
- Hansers Sozialgeschichte der deutschen Literatur vom 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart. Begründet von R. Grimminger. 12 Bde. München 1980ff.
- Kindlers Literaturgeschichte der Gegenwart. 4 Bde. München/Zürich 1973/75
- Literatur Chronik. Von V. Meid. Stuttgart, 1993
- Literatur unterm Hakenkreuz. Von E. Loewy. Frankfurt / M. 1969

Janrlar bo'yicha

- Das deutsche Kunstmärchen. Von P. -W Wührl. Heidelberg, 1984
- Der deutsche Roman vom Barock bis zur Gegenwart. Interpretationen 2 Bde. Hrsg. v. B. v. Wiese. Düsseldorf, 1963
- Deutsche Balladen. Geschichte und Interpretationen. Hrsg. v. G. Grimm. Stuttgart, 1988
- Deutsche Komödien. Hrsg. v. W. Freund. München, 1995
- Deutsche Lyrik. Interpretationen. Von W. Freund München, 1990
- Deutsche Märchen. Von W. Freund. München, 1996
- Deutsche Phantastik. Von W. Freund. München, 1999
- Die deutsche Kurzgeschichte. Von L. Marx. Stuttgart, 1985
- Die deutsche Tragödie von Lessing bis Hebbel. Von B. v. Wiese. Hamburg, 1948
- Dramen von Barock bis zur Aufklärung. Interpretationen. Stuttgart, 2000

Dramen des 19. Jahrhunderts. Interpretationen. Stuttgart, 1997
Dramen des 20. Jahrhunderts. Interpretationen. Stuttgart, 1996
Formen der Literatur. Hrsg. v. O. Knörrich. 2. erw. Aufl. Stuttgart, 1991
Gedichte und Interpretationen. 6 Bde. Stuttgart, 1982
Modernes deutsches Drama 2 Bde. Von F. N. Mennemeier. München, 1973
Novelle. Von W. Freund. Stuttgart, 1998
Romane des 19. Jahrhunderts. Interpretationen. Stuttgart, 1992
Romane des 20. Jahrhunderts. Interpretationen. Stuttgart, 1993
Schnellkurs Märchen. Von W. Freund, Köln, 2005

Bibliografiya

Bibliographie der deutschen Sprach- und Literaturwissenschaft. Begründet v. H. W. Eppelsheimer, fortgef. v. C. Köttelwesch. Frankfurt / M., 1957.

Bibliographie der Personalbibliographien. Von H. Wiesner u. a. München, 1970

Bibliographie der Gattungspoetik. Von W. Ruttowski. München, 1973

Bibliographisches Handbuch der deutschen Literaturwissenschaft, 1945-1969/1972. Hrsg. v. C. Köttelwesch. 3 Bde. Frankfurt / M. 1973-79

Bücherkunde für Germanisten. Von J. Hansel. Berlin, 1959

Einführung in die Bücherkunde der deutschen Literaturwissenschaft. Von P. Raabe. Stuttgart, 1984

Fundbuch der Gedichtinterpretationen. Hrsg. v. W. Segebrecht. Paderborn, 1997

Germanistik. Internationales Referatenorgan mit bibliographischen Hinweisen. Tübingen, 1960.

Internationale Bibliographie zur Geschichte der deutschen Literatur. 4 Tle. München-Pullach / Berlin, 1969-84

Deutsche Bibliographie, Diesterweg, Sauerl., 2. Auflage 1994

XOTIMA

Nemis adabiyoti jahonda haqli ravishda peshqadam o'rinlardan birini egallaydi. Bir asr mobaynida nemis tilli mamlakatlar adabiyoti vakillaridan o'n ikkitasi Nobel mukofotiga munosib ko'rilgani ham fikrimiz dalilidir. Xalqning ozodlik kurashi, uning ideallari bilan chambarchas bog'langan adabiyot jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shdi. Xerder, Lessing, Viland, Gyote, Shiller, Hayne, Hesse, Brext (bu ro'yhatni uzoq davom ettirish mumkin) kabi mo'tabar nomlar nemis millatining faxri va g'ururi bo'libgina qolmay, jahon madaniyat hazinasini boyitgan mutafakkirlardir. Ular ijodiga bunday yondashuv tushunarli va qonuniydir.

Peshqadam nemis yozuvchilari o'z ijodlari bilan insonlarning ma'naviy kamolotiga hissa qo'shganlar va qo'shmoqdalar, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga, yuksak axloqiy me'zonlar darajasida tarbiyalashga hissa qo'shmoqdalar.

Nemis peshqadam (progressiv) adabiyotida demokratik, gumanistik an'analar ketma-ketligini kuzatish mumkin.

Estetik planda yaratilgan nemis yozuvchilarining barcha yaxshi va ezgu asarlari hayotni realistik va romantik tamoyillarga ko'ra tasvirlash bilan bog'liqdir. Realizm va romantizm – jahon, shu jumladan nemis san'ati – tarixining ikkita eng yashovchan yo'nalishi hisoblanadi. Romantik tendensiyalar nemis ijodkorlarining aksariyatida o'z ifodasini topgan.

Hayot saboqlari shundan dalolat bermoqdaki, hozirgi kunda omad asosan nemis mumtoz adabiyotining gumanistik, realistik an'analari sodiq bo'lgan mualliflariga kulib boqmoqda. Chunki bunday ijodkorlar o'z iste'dodlarini insoniyatning porloq ideallariga xizmat qilishdek tabarruk ishga baxshiyda qilmoqdalar.

Katta adabiyot haqida muxtasar qilib yozish mushkul. Shunday ekan, qoralaganlarimiz nemis adabiyoti haqida tasavvur uyg'otolsa, muallif o'z vazifasini bajargan hisoblaydi.

MUNDARIJA

Кириш.....	3
Adabiyot fani, uning objekti va boshqa fanlar qatoridagi o'ri.....	5
Nemis tilida yaratilgan adabiyotlarning ilk manbalari.....	8
Ritsarlik adabiyoti.....	15
Uyg'onish davri adabiyoti.....	19
Ilk nemis gumanizmi.....	20
Ulrix fon Hutten.....	23
Rotterdamlik Erazm.....	26
Reformatsiya davri adabiyoti.....	30
Martin Lyuter.....	31
Tomas Myunser.....	33
Byurgerlik adabiyoti.....	35
Xans Saks.....	36
Xalq kitoblari.....	38
XVII asr nemis adabiyoti.....	41
Hans Grimmelshauzen.....	44
Andreas Gritius.....	45
XVIII asr birinchi yarmida ma'rifatparvarlik adabiyoti.....	46
"Bo'ron va hujum" davri adabiyoti.....	49
Yohan Gotfrid Herder.....	51
Yohann Gottshed.....	53
XVIII asr nemis adabiyoti.....	54
Gothold Efraim Lessing.....	56
Romantizm.....	64
Yena romantizmi. Frydrix Shlegel.....	66
Yohan Volfgang fon Gyote.....	68
Yohan Kristof Frydrix Shiller.....	88
Haynrix Hayne.....	102
Naturalizm.....	108
Gerhard Hauptman.....	108
XX asr adabiyoti.....	112
Haynrix Mann.....	112

Tomas Mann.....	118
Herman Hesse.....	122
Stefan Tsvayg – lirik novella ustasi.....	130
Frans Kafka va modernizm.....	136
Yohannes Robert Beher.....	140
Bertold Brext.....	142
Krista Volf.....	144
Haynrix Byol.....	146
Gyunter Gras.....	149
Martin Valser.....	152
Uve Timm.....	154
Herta Myuller.....	155
Yangi postmodern adabiyotning vujudga kelishi.....	160
Patrik Zyuskind.....	161
Mutolaa matnlari (Aufgaben).....	165
Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati.....	229
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.....	247
Xotima.....	254

Die Geschichte der deutschen Literatur in der usbekischen Sprache zum ersten Mal als Lehrwerk von den „Nibelungen Lied“ bis zu „Neue Leben“ vom Walter von der Vogelweide bis Günter Grass.

Über die verschiedenen literarischen Genres - von Liebesgedicht bis zur Ballade, von der Novelle bis zum Roman, von der Tragödie bis zum Lustspiel.

Über die literarischen Epochen und Strömungen, die Ziele und Hintergründe, Ästhetik und Intention der Literatur in den deutschsprachigen Ländern. Mit vielen Zitaten aus den besprochenen Werken, Aufgaben zur Selbstkontrolle, für selbständige Arbeit, einer weiterführenden Bibliographie in der usbekischen, deutschen und russischen Sprachen.

Eine Einführung in die Welt der deutschen Literatur.

Учебник по немецкой литературе охватывает все наиболее значительные моменты в истории немецкой литературы, начиная со средних веков и кончая современностью. При этом особое внимание уделяется прогрессивной развитию в каждом разделе книги дана характеристика исторической обстановки и литературного развития страны в рассматриваемый период. Книга написана с учетом достижений узбекского и немецкого литературоведения.

Предназначается для студентов факультетов и отделений иностранных языков, университетов и пединститутков.

O'quv-uslubiy nashr

Shavkat Karimov

NEMIS ADABIYOTI TARIXI

Muharrir: Mahkam Mahmudov
Texnik muharrir: Behzod Boltaboev
Musahhah: Davron Rajab

«MUMTOZ SO'Z»
mas'uliyati cheklangan jamiyati
nashriyoti
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 69
Tel.: 241-60-33

Bosishga ruhsat etildi 24.03.2010.
Qog'oz o'lchami 60x84 1/32
Shartli bosma tobog'i 16,75. Nashriyot-hisob tobog'i 16,0.
Adadi 500. Buyurtma 07.
Bahosi kelishilgan narxda

«MUMTOZ SO'Z»
mas'uliyati cheklangan jamiyati
matbaa bo'limida chop etildi
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 69
Tel.: 241-81-20



Shavkat Karimov

1940 yilda tug'ilgan. 1982 yilda «O'zbek adabiyotining nemis adabiyotshunosligidagi talqini» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Uning “Dillardan dillarga” (1980), “Tilshunoslikka kirish kursidan praktikum” (1985), nemis tiliga ixtisoslashtirilgan akademik litseylar uchun “Nemis tili” (2007-2009), “Nemischa-o'zbekcha lug'at” (2007), “O'zbekcha-nemischa lug'at” (2010) kabi monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalari, 100 dan ortiq ilmiy-metodik maqolalari o'zbek, nemis, rus tillarida chop etilgan.

Germaniya va Avstriyaning Berlin, Yena, Boxum, Vena universitetlarida malaka oshirgan, nemis va avstriyalik olimlar bilan hamkorlikda izlanishlar olib bormoqda.

Hozir O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti Nemis filologiyasi fakultetida Leksika va stilistika kafedrasi mudiri.

ISBN 978-9943-363-56-4



9 789943 363564